

ISSN 3030-3370

№ 2 (5) 2024



AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 2 (5) 2024

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAS'UL KOTIB

NAFOSAT O'ROQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

DARMONOY O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

GULCHEHRA IMOMOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BAXTIYOR FAYZULLOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

DILOROM YO'LDOSHEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc)i, professor (O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAFISA G'AYBULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

SADOQAT MAXMUDOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

NODIR RO'ZIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

RO'ZIGUL QODIROVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LQIN RASULOV,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari:

ERGASH QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,
filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)
NAFAS SHODMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HAYITOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
SHODMON SULAYMONOV,
filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,
texnika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)
BIBISH JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
LAYLO SHARIPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
NAZORA BEKOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
ATOULLO AXMEDOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
GULI TOIROVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
LOLA NE'MATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
BASHORAT JAMILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MUHARRIRLAR:
SHOHSANAM DAVRONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
RA'NO RAJABOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
IXTIYOR KAMOLOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
MEHRIGIYO SHIRINOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TEXNIK MUHARRIRLAR:
NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
NIGORA Sayfullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSAHHIHLAR:
RO'ZIGUL Qodirova
DILDORA Nazarova
SARVINOZ Raximova

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o'rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig'i butun borlig'icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli, va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR

*Қосимов Олимҷон Ҳабибович,
доктори илмҳои филологӣ,
профессори кафедраи забоншиносии
Донишгоҳи байналмилалӣ забонҳои хориҷии
Тоҷикистон ба номи С. Улуғзода
(Тоҷикистон)
E-mail: olimjonk@yandex.ru*

**ФАРҲАНГИ ТАФСИРИИ УСТОД АЙНӢ
ВА РУШДИ САРВАТИ ЗАБОНИ ТОҶИКӢ**

Тафсир. Мақолаи мазкур дар бораи саҳми Устод Айнӣ дар ташаккули рушди забони тоҷикӣ ва фарҳангшиносии муосири тоҷик, аз он ҷумла вожашиносии тиббӣ маълумот медиҳад. Аз он ҷумла сухан рочъ ба фарҳанги нимтафсилии Устод Айнӣ меравад, ки бештар аз 11 400 вожаву истилохро фаро гирифтааст ва 50 дарсади он дар забони зиндаи мардум роиҷ буд. Бо ин таълифи хеш устод Айнӣ ба такмили забони тоҷикӣ, ба рушди ҳамҷонибаи он тавассути корбурди вожаву соҳавии забони миллии мо мусоидат кардааст.

Маҳз Устод Айнӣ бо таълифи ин лугат ба ворид намудани дурдонаҳои мардумии сухан ба забони миллии адабӣ иқдом гузоштааст, ки имрӯз яке аз ҳадафҳои сиёсати забон дар кишвар ба ҳисоб меравад.

Калидвожаҳо: Айнӣ, фарҳангшиногорӣ, лексикаи тиббӣ, забони тоҷикӣ, фарҳангҳои соҳавӣ, таркиби лугавӣ, тафсир.

Аннотация. В статье речь идёт об особенностях создания «Толкового словаря таджикского языка» С.Айни и его вкладе в дело сохранения лексических единиц таджикского языка. В статье описывается вклад С. Айни в сохранении отраслевых лексических единиц с помощью Толкового словаря таджикского языка, в котором глоссированы единицы разных направлений, в том числе, из области медицины. С. Айни как ученый и организатор научной деятельности внёс ощутимый вклад в развитие таджикского языка, терминологии, в том числе медицинских терминов в Таджикистане. В аннотируемой статье об этом и других заслугах С.Айни организована полемика.

Ключевые слова: таджикский язык, Айни, лексикография, медицинская лексика, словарный фонд, толкование.

Abstract. The article discusses the features of the creation of the «Explanatory Dictionary of the Tajik Language» by S. Ayni and his contribution to the preservation of lexical units of the Tajik language. The article describes the contribution of S. Ayni to the preservation of industry lexical units with the help of the explanatory dictionary of the Tajik language. The units of different directions, including those from the field of medicine are glossed. S. Ayni, as a scientist and organizer of scientific activity, made a tangible contribution to the development of the Tajik language, terminology, including medical terms in Tajikistan. This and other merits of S. Ayni are discussed in the annotated article.

Key words: tajik language, Ayni, lexicography, medical vocabulary, vocabulary fund, interpretation.

Муқаддима. Асосгузори адабиёти муосири тоҷик, шоир, адабиётшинос ва забоншиноси барҷаста, симои нотақрори олами маънавии миллати тоҷик Устод Садриддин Айнӣ яке аз дурахшонтарин чехраҳои илму адабу фарҳанги асри XX ба ҳисоб меравад. Ба шарофати талошҳои беандоза ва омӯзиши амиқи таърихи адабиёти Шарқ нақши илму адаби миллии тоҷик дар таърихи беш аз ҳазорсолаи илму адаби ҷаҳон, пеш аза ҳама Осиеи Марказӣ муайян гардид.

Бо таълифи осори бузурги хеш, аз он ҷумла, “Намунаи адабиёти тоҷик”, “Лугати нимтафсилии забони тоҷикӣ” ва ғайра Устод Айнӣ дар ҳифзу пойдории сарвати маънавиву моддии миллати хеш саҳми нотақрор гузоштааст.

Муборизаи Устод Айни баҳри хифзи асолати забони миллӣ ва сарвати вожагонии он, риояи меъёрҳои забони адабӣ ва пойдор доштани услуби зебову шевои забони тоҷикӣ, сарчамъ овардани таркиби луғавии забони миллии мо чун заминаи тавоноӣ ва қудратмандии он аз он самту ҳадафҳои будаанд, ки Устод барои расидан ба он нерӯву андешаву вақти худро дарёф надостааст.

Суханофари бузург Садриддин Айни аз зумраи он фарзонагонест, ки дар тамоми ҷанбаҳои илми адаби тоҷик аз худ самарае ба мерос гузоштааст. Ӯ ба иловаи таълифи асарҳои бадеиву таърихӣ ба ҳайси як донишманди нотакрор дар бораи забони адабӣ ва шеваҳои он, забони осори классикӣ ва шеваи баёни адибон, роҷеъ ба алифбо, расмулхат, таҳқиқи таркиби луғавӣ ва вожашиносӣ, истилоҳсозӣ ва фарҳангшиносӣ даххо рисолаву мақолаҳо таълиф намуда, номи неку муътабар аз худ боқӣ гузоштааст.

Қисми асосӣ. Осори сершумору нотакрори Устод Садриддин Айни, саҳми бузурги ӯ дар устувор гаштани эътибору мақоми забони тоҷикӣ, таҳқиқоти асили ӯ дар адабу фарҳанги тоҷик, қаҳрамоноҳои фидокоронаи ӯ дар шинохти миллӣ ва хифзу истиқрори арзишҳои бунёдии он аз мартабаву манзалати ин маорифпарвари бузурги миллат ба мо гувоҳӣ медиҳад. Асосгузори сулҳу ваҳдати миллӣ, Пешвои миллат, Президенти Ҷумҳурии Тоҷикистон Э.Раҳмон саҳми “Қаҳрамони миллати тоҷик” С.Айниро дар таҳқиқи масъалаҳои забони тоҷикӣ ёдовар шуда, ӯро аз аввалин касоне донистааст, ки роҷеъ ба забони миллии мо ва этноними тоҷик мақолаи муфассали илмӣ навиштааст [6, 85]

Устод Айни ҳамчун як забоншиноси босалоҳияту барҷаста дар қори омӯзишу таҳқиқи интишоори калимаҳои забони тоҷикӣ, таҳияи луғату фарҳанг саҳми арзанда гузоштааст. Ӯ дар давраҳои гуногуни фаъолияти эҷодии хеш мурағибӣ ва муҳаррири аввалин “Луғати мукаммали русӣ-тоҷикӣ” (Сталинобод, дар 2 ҷилд, с. 1933-1934, 650с.), муаллифи аввалин фарҳанги тафсирии муосири “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик” (соли 1938 тадвин шуда, с. 1976 ба ҷоп расидааст), муҳаррири “Луғати терминҳои коргузори” (Сталинобод-Ленинград, 1934, муаллиф Мирбадалова В.В.) будааст.

Таваҷҷуҳи Устод Айни ба масоили вожашиносӣ ва фарҳангшиносии забони тоҷикӣ хеле густурда буда, андешаҳои бунёдии ӯ дар рисолаву мақолаҳои бахшида ба забони тоҷикӣ ва ному хостгоҳи он, муносибати забони тоҷикӣ бо форсӣ, сабуку забони осори классикӣ, пеш аз ҳама “Шоҳнома”-и Фирдавсӣ, забон ва услуби тарҷумаҳои адабиёти бадеӣ, сифати китобҳои дарсӣ ва ғ. дарҷ ёфтаанд.

Дар байни осори соҳаи забоншиносии Устод Айни “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик” мавқеи хосаеро соҳиб аст. Ин луғат, ки аз тадвини он то нашраш 38 сол сипарӣ шудааст ва дар бораи сарнавишти талхи он чандин мақолаҳо ба таъби расидаанд, яке аз фарҳангҳои ҷолиби тафсирии даврони навини фарҳангшиносии тоҷикӣ ба шумор меравад. Дар муқаддимаи луғат Устод Айни ҳадафи тадвини онро чунин тавзеҳ додааст: “Ман хостам ба оммаи меҳнаткашони босаводшудаи тоҷик ва ҷавонони советии таҳсили ибтидоӣ, миёна ва олидидаи ӯ китобе диҳам, ки барои мутолиаи онҳо адабиёти нафисаи тоҷикро ва ҳам барои истифода кардани онҳо аз адабиёти классикии тоҷик, кам ҳам бошад, ба онҳо ёрмандӣ расонад ва инчунин барои ҷавонони ҳаваскори нависандагӣ хидмати материали забониро адо кунад” [2, 19]. Дар мақтубе, ки ба директори “Наشريёти давлатии Тоҷикистон” Пулодов аз 02.07.1938с. навиштааст, Устод Айни таъкид мекунад, ки “Қори асосии луғат ҳамин сол тамом шуд, ҳамагӣ 629 саҳифа (бо саҳифаҳои иловагӣ), тақрибан 11400 луғат ҷамъ гардид...” [2, 21]. Нуктаи ҷолиби дигар ин аст, ки Устод Айни 50 фоизи вожаҳои ин луғатро аз китобу фарҳангҳои классикӣ аз қабилӣ “Ғиёс-ул-луғот”, “Бурҳони қотеъ” интихоб карда, 50 фоизи дигари онро “...аз забони зиндаи халқ аст, ки дар умри он қадар кӯтоҳнабудаи худам дар дафтари хотири худам ғун шудаанд” гуфтааст [2, 19]. Чунин ба назар мерасад, ки Устод Айни дар баробари таҳияи “Намунаҳои адабиёти тоҷик” ва таълифи осори адабиаш дар сар андешаи таҳияи чунин як фарҳанги тафсириеро парваридааст, ки ҳадафаш дар боло аз забони худӣ ӯ зикр гардид.

Нуктаи дигари ҷолиб ин аст, ки вожаҳои ин луғати нодири тафсири доираи васеи мавзӯҳои фаро мегирад ва як самти муҳими он калимаҳои марбути тиббу тандурустӣ мебошад.

Моддаҳои луғавии ин фарҳанги нодир тамоми самтҳои ҳаёти иҷтимоии моро фаро гирифтаанд, ки чунин тарзи интихоби тавзеҳи калимаҳо ба ин луғат то андозае тобиши донишнома ё энциклопедияро ворид кардааст. Самтҳои сершумори вожаҳо ва шарҳу тавзеҳи ҷолибу дақиқи онҳо аз донишҳои густурдаву амиқи Устод дар бисёр соҳаҳо гувоҳӣ медиҳад.

Аз он ҷумла, Устод Айни дар “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик”, тибқи мушоҳидаҳои мо, миқдори фаровони вожаву истилоҳоти ибораҳои марбути тибро тафсиру тавзеҳ дода, дониши мукаммалу мушоҳидагари хешро дар мавриди падидаҳои соҳаи тандурустӣ ошкор намудааст. Аз он ҷумла, дар ин фарҳанг истилоҳоти соматикӣ, номҳои бемориҳо, ҳолати ҷисмониву рӯҳӣ, номи гиёҳҳои табобатӣ, доруворӣ ва дигар вожаҳои ин мавзӯ тафсиру тавзеҳ ёфтаанд. Ҳамзамон, миқдори зиёди ин калимаҳоро Устод Айни аз забони мардум дар қору рӯзгори муқаррарии хеш пайдову сабт намудааст.

Натиҷа ва муҳокима. Тавзеҳоти муфассале дар мавриди вожаву истилоҳоти *ришта, саръ, зуком, қайсари нохуна, сиркангубин, сир, зардоб, барас, рещ, сомеа, сипурз, хафақон, сӯхта, сӯхтанӣ, нохуна, судда, судоъ, парда, пардаи инабӣ, сафедда, сафро* ва даҳҳо калимаҳои дигар аз таваҷҷӯҳи хоссаи Устод Айни ба истилоҳоти ифодаҳои тиббӣ дарак медиҳанд.

Масалан, Устод Айни вожаи *судда* – ро чун калимаи омонимӣ шинохта (дар ҳар ду маврид бо син), ба маънии аввал онро “остона” тавзеҳ додааст. Гунаи дувуми ин калима истилоҳи вижаи тиббӣ буда, ба маънии “ғадуде, ки дар даруни рӯдаҳо ё рағҳо пайдо шуда, роҳро банд мекунад” тафсир шудааст [2, 357].

Воже аст, ки ин истилоҳро Устод Айни дар сарчашмаҳои классикӣ дучор омадааст ва ӯ шарҳи мухтасари онҳоро интихоб кардааст. Ин шеваи тафсиру тавзеҳи калимаҳо як сабаби “Луғати нимтафсилии забони адабии тоҷик” ном гирифтани ин фарҳанги нодир Устод аст. Дар асл калимаи *судда* ба маънии аввал дар сарчашмаҳои лексикографӣ “*нешгоҳ; даргоҳ, остон, остона*” маънӣ шудааст, ки байти зерини Анварӣ далели равшани он мебошад:

Бод бар суддаи ту ҳам нарасад,

Боди фикрат, на боди хокпареш [5].

Судда ҳамчун истилоҳи тиббӣ ба якҷанд гуна беморӣ ишорат мекунад, ки дар меҳвари онҳо тафсири Устод Айни ба ифодаи “ғадуде, ки ... пайдо шуда, роҳро банд мекунад” қарор дорад. Ин беморӣ “*ғирифтагии бинӣ; бемориест, ки ба бинӣ устувор шавад ва соҳиби он нафас натавонад зад; монети нуфузи шайъ аз бинӣ ба ҳалқ ва аз ҳалқ ба бинӣ...*” тафсир шудааст. Аммо варианти тафсиркардаи Устод Айни низ муфассал таъкид мегардад: “*манъе, ки дар маҷрои гизо воқеъ шавад, то фузул убур натавонад кард*”. Ин тавзеҳот бо мисолҳо аз “Захираи Хоразмшоҳӣ” ва байти зерини Хоқонӣ устувор шудаанд:

Соилонро зи неъматӣ ҷудаш,

Дар ҷигар суддае гарон бастанд [5].

Истилоҳи ҷолиби дигар, ки Устод Айни овардааст, *сӯхтанӣ* мебошад. Дар мавриди ин калима низ муаллифи ин луғат таваҷҷӯҳи хосса зоҳир карда, маъниҳои онро ҷустуҷӯ ва сабт кардааст. Дар муқоиса бо вожаи омонимии *судда* Устод Айни ин калимаро чун калимаи сермаъно шинохта, онро аввал ба маънии тиббиаш ва сипас ба маънии маъмулиаш тафсир намудааст. Чун истилоҳи тиббӣ он тавзеҳи зеринро пайдо кардааст: “*бемориест, ки ба тарзи гармиҷа дар бадани одам пайдо мешавад, агар дар вақташ бо оҳани тафсон доғ карда нашавад, ё ягон чораи тиббӣ дигар дида нашавад, одамро ҳалок мекунад*”. Ба маънии маъмулӣ он “*чизест, ки барои сӯхту сӯз ба қор меравад (ҳезум, ангишт, карасин, бензин ва монанди инҳо)*” [2, 364].

Гумони ғолиб ин аст, ки *сӯхтанӣ* ба маънии беморӣ аз он гурӯҳи калимаҳоест, ки Устод Айни аз забони мардум шунида ё дар рӯзгори хеш дидаву сабт кардааст. Дар фарҳангҳои маъмулу маъруф ин калима ба ин маънӣ дучор намеояд, вале гунаи дигари он – *сӯхта* - бо тафсири “*онки ҷигараш аз ҳарорат фосид шуда бошад*” [7], касе ки дар ҷигари вай илтиҳоб бувад” ба мушоҳида мерасад.

Дар тафсири калимаи *гамбода* дар ин луғат Устод Айни пас аз сабти калима ба хатти форсӣ овардааст: “*бемориест, ки ба сабаби бисёрӣ гаму гусса пайдо мешавад*”. Ба ҳамин монанд, дар шарҳи калимаи *гамдида* чун вожаи ин соҳа Устод Айни ҳолати рӯҳии инсонро бо ифодаҳои “*алами дарунӣ кашида, мотамзада, андӯҳдида*” тасвир намуда, тафсири худро бо байти Ҳофизи

Шерозӣ устувор намудааст [2, 499]. Қобили зикр аст, ки дар фарҳангҳои классикӣ гунаи дигари ин калима – *гамбора* – ёдоварӣ шудааст, ки бо унсури *бор/бора* ба маънии “зиёд, фаровон, маҷмӯъ” сохта шудааст (ба монанд *ҷӯйбор, рӯдбор, хушкбор*) ва *вор/-ворӣ* низ гунаи он маҳсуб мегардад.

Сазовори таҳсин аст, ки Устод Айни ба инъикоси истилоҳоти тиббӣ дар ибораҳои рехта низ нигоҳи вижа раван сохта, бо ин роҳ чанде аз мафҳуми истилоҳоти байни мардум муравваҷро дар “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ” дарҷ кардаву тафсир намудааст. Масалан, маҳз тавассути ин луғати нодири Устод Айни решаи иборати рехтаи “аз қайсараки нохун гузаронидан” – ро ба маънии “саҳт тафтиш кардан, бо азият пурсучӯ кардан” пайдо намудан мумкин аст. Устод Айни дар моддаи луғати *нохуна* дар бораи мавҷуд будани “беморие дар аспу хар” бо ин ном маълумот медиҳад [2, 270]. Ва дар мавриди тафсири калимаи *қайсар* пас аз ишораи се маънии ин вожа иборати *қайсару нохуна* –ро сабт карда, онро низ “аз бемориҳои аспу хар” шарҳ медиҳад. Дар “Бурҳони қотеъ” калимаи *нохуна* тафсири муфассали худро пайдо кардааст: “*нохуна - маразест аз амрӯзи чашим ва он гӯште бошад, ки дар гӯшаи чашим ба ҳам мерасад ва ба тадриҷ тамоми чаширо мегирад..., ва он чи дар чашими одамӣ ба ҳам мерасад, агар илоҷ накунад, зиёда гардад, ва ончӣ дар чашими аспу астар ба ҳам расад, агар дарсоат набуранд, ҳалок созад*” [7]. Қисми аввали таркиби *қайсару нохуна* дар фарҳанги Устод Айни ба маънии истилоҳи тиббӣ шарҳ наёфтааст, вале равшан аст, ки маъҳази Устод сарчашмаҳои лексикографии классикии тоҷик буданд. Фарҳангҳои классикӣ аз он гувоҳӣ медиҳанд, ки шакли дурусти ин калима *қайсарӣ* قيسري буда, муродифи он *جعل* *ҷуъал* аст, ва аз маъниҳои сершумори ин калима зоҳиран ба ҷонвари (ҳашароти болдори) “саргинғалтон, саргингардон” мансуб будани ин мафҳум ошкор мешавад (7), ки сабабгори бемории маҳсули чорпо мегардад.

Устод Айни дар “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ” иттилооти ҷолибе ба шакли истилоҳоти тиббӣ пешниҳод кардааст. Масалан, дар шарҳи калимаи *парда* *ӯ* ибораҳои *пардаи чашим, пардаи гӯш* –ро оварда, ба ҳайси намуна бо ин калима таркиби “пардаи ангурӣ” – пешниҳод месозад ва, дар навбати худ, барои шарҳи он чун истилоҳи тиббӣ ба гунаи омехтаи тоҷикиву арабии он “пардаи инабӣ” рӯҷӯъ менамояд: “Пардаи ангурӣ - *нигоҳ кун. ба пардаи инабӣ. Пардаи инабӣ яке аз пардаҳои чашим*” [2, 286].

Ба ин тариқ, “Луғати нимтафсилии тоҷикӣ”-и Устод Айни яке фарҳангҳои ҷолиби даврани нави фарҳангшиноӣ аст, ки бо риояи беҳтарин суннатҳои луғатшиноии тоҷик тадвин гардида, дар бораи соҳаҳои гуногуни қору рӯзгор, ва аз он ҷумла, роҷеъ ба вожаву истилоҳоти соҳаи тиббу тандурустӣ ба мо маълумоти фаровони нодиру ҷолиб медиҳад.

Ин нигоштаи нодири фарҳангшиноии тоҷик аз беҳтарин фарҳангҳои тафсирии даврони шӯравӣ буда, наشري он ҳам барои соҳаи тандурустӣ, ва умуман, барои ҳаёти фарҳангии Тоҷикистон як рӯйдоди муҳим ба ҳисоб меравад.

Тадвину таҳияву интишори ин луғат як далели дигари қудрату тавоноии Устод Айни дар забон ва шеваи баён аст. Шарқшиноси маъруфи советӣ Е.Э.Бертелс ин луғатро, ки муҳаррираш будааст, “шоҳкори нав”-и Устод Айни дониста, меафзояд: “Ин китоб як ганҷинаест аз ҷавоҳироти гаронбаҳо молломол, як асарест, ки ҳазорон мардум метавонанд солҳои дароз аз он истифода баранд. Ман, ки чанд сол аст қор мекунам, то як луғатчаи тоҷикӣ ба русӣ тартиб кунам, хуб метавонам ташхис кунам, чӣ қадар маълумот ва чӣ ранҷ боист бурда шавад, то чунин асаре ба анҷом расад” [2, 10]. Назар ба мутолиоти профессори забоншинос Т.Ваҳобов, ҳамин шарқшиноси муътабари ҷаҳонӣ ба забондонии Устод Айни чунин баҳо додааст: “Дар тамоми ҷаҳон чун рафик Айни дарёфтани донандаи забони тоҷикӣ аз имкон берун аст” [4, 199].

Хулоса. Ин андешаҳо аз он гувоҳӣ медиҳанд, ки Устод Айни дар ташаккулу рушди фарҳангшиноии муосири тоҷикӣ, аз он ҷумла вожашиноии тиббии забони тоҷикӣ саҳми арзандаву сазоворе гузоштааст. Нигоштаи мазкур моро ба чунин андешае мерасонад, ки дар ин амр устод Айни бо осори мондагори хеш, бо роҳнамоӣ, маслиҳату дилсӯзӣ ва дарки нозуки хусусиятҳои забони миллии мо дар мазҳари маънавияти тоҷик нақши рангину нотакроре боқӣ мондааст.

ПАЙНАВИШТҲО:

1. Айнӣ С. Мунтахаби асарҳои илмӣ. Дар 2 ҷилд. Ҷ.1. Айнӣ ва забони адабӣ. – Душанбе: Дониш, 2008. – 256 саҳ.
2. Айнӣ С. Куллийёт. Иборат аз 15 ҷилд. Ҷ.12. – Душанбе: Ирфон, 976. – 564-206 саҳ.
3. Брагинский И.С. Исследования по таджикской культуре. – М.: Наука, 1977. – 288 с.
4. Ваҳҳобов Т. Ҳақиқат зодаи баҳс аст. Маҷмӯаи мақолаҳо. Хуросон, Хучанд, 2010. – 287 с.
5. Деххудо Алиакбар “Луғатномаи Деххудо”. – Техрон: Интишороти Донишгоҳи Техрон, 2006. – Ривояти электронии. – №4.
6. Раҳмон Эмомалӣ. Забони миллат – ҳастии миллат. Китоби 1. Ба сӯйи пояндагӣ. – Душанбе: Эр-граф, 2016. – 516 с.
7. Табрэзӣ Муҳаммадхусайн ибни Халаф. “Бурҳони қотеъ”. – Техрон. – 1338 ҳ. – 1278 с.
8. Расулов М.Я. Медицинский словарь. (Русско-таджикско-латинский). В 4-х т. Т. 1 (А-З). – Душанбе: ТСЭ, 1973. – 480 с.

Saidova Rayhon Bekmurodovna,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti,
(O'zbekiston)
 E-mail: malikau494@gmail.com

SADRIDDIN AYNIIY TUZGAN ANTOLOGIYADA FITRAT IJODIGA OID MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiyotshunos Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan “Namunai adabiyoti tojik” antologiyasidan o‘rin olgan ijodkor Abdurauf Fitratning ijodiga, shoirlik faoliyatiga bag‘ishlanadi. Adabiyotimizning nozik nuqtadoni Sadriddin Ayniy shoir Abdurauf Fitratni yangi davr adabiyotida burilish yasagan ijodkor deb hisoblaganligi, Fitratning “Sayha” to‘plamidagi she‘rlar, nasriy asarlari orqali adabiyotda keskin inqilob bo‘lganligi xususidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, she‘r, shoir, Fitrat, “Sayha”, “Namunai adabiyoti tojik”, antologiya, tojik she‘riyati

Аннотация. Данная статья посвящена творчеству и поэтической деятельности творца Абдурауфа Фитрата, вошедшего в альманах «Образцовая таджикская литература», составленного литературоведом Садриддином Айни. Садриддин Айни, прекрасный знаток нашей литературы, считал поэта Абдурауфа Фитрата творцом, совершившим поворот в литературе Новой эпохи, благодаря стихам и прозаическим произведениям сборника Фитрата произошел резкий переворот в литературе “Сайха”.

Ключевые слова: Садриддин Айни, поэма, поэт, Фитрат, “Сайха”, “Образец таджикской литературы”, антология, таджикская поэзия.

Abstract. This article is dedicated to the work and poetic activity of the creator Abdurauf Fitrat, who was included in the anthology «Exemplary Tajik Literature» compiled by literary critic Sadriddin Ayniy. Sadriddin Ayniy, a fine pundit of our literature, considered the poet Abdurauf Fitrat to be a creator who made a turning point in the literature of the new era, and there was a sharp revolution in literature through the poems and prose works of Fitrat's collection “Sayha”.

Key words: Sadriddin Ayniy, poem, poet, Fitrat, “Sayha”, «Sample Tajik literature», anthology, Tajik poetry

Kirish. Nozikta‘b adabiyotshunos Sadriddin Ayniy tomonidan tuzilgan “Namunai adabiyoti tojik” antologiyasining 1905-1917-yillar oralig‘ida qalam tebratgan ijodkorlarni o‘z ichiga olgan uchinchi qism Abdurauf Fitrat ijodi bilan boshlanadi. Ayniy domla bu kitobda shoirmi “Abdurraufi Fitratni Buxoriy” deya tanishtirib, uning ijodiga 9 sahifalik o‘rin ajratadi. Fitratning tarjimayi holi haqida qisqacha ma‘lumot berilgach, ijodkorning “Munozara”, “Sayha” she‘riy to‘plamidan g‘azal, tarkibband janridagi she‘rlar, “Bayonoti sayyohi hindi”, “Rahbari najot”, “Oila”, “Musulmononi dorurrohat” kabi asarlaridan parchalar keltiriladi. Asar namunasidan so‘ng kitobning chop etilishi haqida ma‘lumot ham berilgan.

Asosiy qism. Sadriddin Ayniy tomonidan Abdurauf Fitrat ijodining o‘rganilishi mavzusini tahlilga tortmoq uchun Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati haqida bir qadar ma‘lumotga ega bo‘lish maqsadga muvofiq sanaladi. Shoir Abdurauf Fitrat bor-yo‘g‘i o‘n yetti she‘rdan iborat go‘zal lirik jamlanmasi bilan yangi o‘zbek she‘riyatini boshlab bergan. Fitratning shoir bo‘lib yetishishida oila muhiti ham muhim ahamiyat kasb etgan. Onasi Mustafibibi, ba‘zi manbalarda ismi Bibijon deyilmish bu ayol she‘r zavqini tushunadigan, nozikta‘b shoira bo‘lgan. Onasidagi ana shu she‘rni anglash hissi bolalikdanoq yosh Abduraufga ta‘sirini o‘tkazgan, badiiyat dunyosiga yaqinlashishiga asosiy sababchi bo‘lgan. Ko‘p qirrali ijodkor hisoblanmish Fitrat ijod olamiga she‘riyat orqali qadam qo‘ygan. Uning asarlari “Sadoyi Turkiston” va “Buxoroyi sharif” gazetalari bosilgan. Kitobi o‘zbek tilida “Chorlov” ma‘nosini anglatuvchi “Sayha” nomi bilan chop etilgan. “Sayha” she‘riy to‘plamiga fors tilidagi o‘n to‘rtta she‘ri kiritilgan. Bu she‘rlar yangi davr tojik she‘riyatiga qo‘yildan ilk qadam edi. “Namunayi

adabiyoti tojik” nomli Sadridin Ayniy tomonidan tuzilgan antologiyaga Fitratning ham forscha she’rlari kiritilgan [7, 534-545]. Bu she’rlarning o’qirmanlar orasida tez tilga tushganligini Ayniy domla “Ta’rix inqilobi Buxoro” asarida aytib o’tadi va bu ta’sirni “elektr quvvati kabi kuchli ta’sir etdi” deya Turkistonningina emas, Turkiya, Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlarida tez yoyilganligini, “Sayha” to’plami nomiga xos tarzda turli mamlakatlardagi she’rxonlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir o’tkazganligini e’tirof etadi [6, 101].

“Sayha” to’plamiga kirgan she’rlar she’rxonlar orasida shu qadar katta ta’sir doirasiga ega bo’ldiki, natijada bu she’rlar shoirning tug’ilgan zaminida ham matbuot nashrlarida chop etildi. Shu bilan o’quvchilarning istagi bir qadar qondirildi. “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil iyul oyi sonlarida she’rlar turkumi sifatida bosilgan. Fayzulla Xo’jayev yozishicha, Fitrat she’rlari bosilgan aynan shu sonidan boshlab gazeta nashri to’xtatilgan. Bu to’plamga kirgan she’rlarning asosiy mazmunini vatanparvarlik, yurtni sevishga da’vat kabi ruh tashkil qiladi. Bu xususta Fayzulla Xo’jayev “Sayha” ni o’qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarda Buxoro mustaqilligi g’oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi” [5, 99]. Masalaning yana bir diqqattortar jihati shuki, forsiy tilda yozilgan she’rlari bilan yangi davr tojik she’riyatiga tamal toshini qo’yanligini ko’plab adabiyotshunoslar e’tirof etadilar. Tojik adabiyoti namunalarini yig’gan Sadridin Ayniy shoir Abdurauf Fitratni XX asr fors-tojik adabiyotining asoschisi sifatida ko’rsatadi. Bu mavzu alohida ilmiy maqola tahliliga munosibli bo’lsin biz keyingi ilmiy ishlarimizda masalaning ayni shu jihatiga yana qaytamiz. O’tgan asrning 20-yillarida tuzilgan “O’zbek yosh shoirlari” majmuasiga ham Fitratning o’zbek tilidagi she’riy ijod namunalari kiritiladi. Biz ushbu tadqiqimizda Fitrat she’riyatining dilbar va nafis jihatlarini ham tahlilga tortmoqni niyat qilganmiz. Kuzatgan ilmiy ishlarimiz orasida Abdurauf Fitratning shoirlik faoliyati yuzasidan qilingan eng katta xizmat Sadridin Ayniy domlaga tegishlidir. “Fitratning she’ri haqida ana shuni aytish kerak: shoir o’zbek adiblari ichida birinchilardan bo’lib folklor shakllarida she’rlar yozdi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she’riyatimiz sohasida novatorlik edi” [6, 101]. Ayniy domlaning fikrlarini Fitratning maqolasida urg’u qaratilgan ushbu fikrlar dalillaydi: “O’zbek, totor, qirg’iz, turkman orasida turk odi kabi unutilmas bir yo’sunda bu kungacha yashab kelgan cho’pchaklar, matallar ertaklar, o’lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz. Turkman, qirg’iz ellarindag’i navras kishilari kichkina bolalar o’quv, yozuv bilmag’an xalqning qizlarining so’z ustaliqlari borlig’ini bilib turamiz. Mana shunlarning har biri turk eski adabiyot madrasasidan tushib qolg’an baholi toshlardan boshqa narsa emasdir. Ulus ora og’izdan og’izga aylanib yurgan cho’bchaklardan yaxshig’ina onglashilurkim, turk eski adabiyot madrasasida sevgi va oshiqdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko’b narsalar bor ekan”. Olim Fitratning Sharq mumtoz she’riyatidagi barcha go’zalliklarni o’zida mujassamlashtirgani, an’anaviy she’riyatga vulqonday otilishi kabi yangicha to’lqin olib kira olganligini teran anglagan.

Shoir Fitrat nazokatli romantik edi, ijodkorning o’zi she’rlarini bekorga “rubobiy she’rlar” deya baholamagan edi. “Go’zalim, bevafo gulistonim...” she’rida mumtoz adabiyotga xos nozik tashbehtar, nafis o’xshatishlar qadim Sharq she’riyati go’zalligining davomi kabi ko’rinadi:

Kel, ayoqingg’a qon bo’lib to’kulay,
 Bir nafas dardi hajrdan qutulay.
 Kel, go’zal dilbarim, kel, sochingni
 Bir taray, bir o’pay-da so’ngra...
 Meni behuda tashlading-ketding,
 Nega o’ldirmading-da, tark etding [4, 45].

XX asr adabiyoti she’riyatining o’zgarish yo’nalishlarini, tashqi shakllari va hissiy ifoda usullari jadidlar davri bilan bog’liq bo’lib, adabiy nazariyalar ham Fitrat kabi buyuk adabiyotshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida har uchchala adabiy tur haqida va yangi kirib kelayotgan janrlarga to’xtalib o’tish barobarida asl shakl va mazmun qanday bo’lishi kerak? degan bahsli munozara savollarga javob berilgan edi. Birgina she’r haqida quyidagi fikrlarga e’tibor bering:

“Biz ham she’rmi “vazn” va “qofiya”dan iborat (deb) bilib turg’ancha chin she’rg’a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilg’an kabi “sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko’z, gul, bulbul” singari o’n-o’n

beshtuzi bilgili vazn tizib, “ol, hol, xol” kabi soʻzlarni “qofiya” qilarmiz-da, oʻzlarimizni sheʼr yozgʻan atab oʻtub ketarmiz. Holbukim, sheʼr boshqa, “qofiya” bilan “vazn” boshqadir” [4, 7].

Koʻrinib turibdiki, Fitrat sheʼr masalasida “qoidasevar”likni emas pafosni ustun qoʻyadi. Albatta, shoirdan inson qalbga soʻz orqali shakl emas, hissiyot koʻchib oʻtadi. Shu joyda hissiyot bilan aloqador nuqtalar haqida ham soʻz yuritishni lozim deb topdik. Abdurauf Fitrat sheʼrning nozik qatlariga qadar nuqtadonlik bilan tadqiqi qilarkan,” Sheʼr yurakdagi sezgi toʻlqunlarini soʻz orqali tashqariga toʻkmakdir”, fikriga ham oʻz munosabatini bildiradi. “Ayniqsa, biz kabi chin sheʼr va sanʼat “ochunidan uzoqlashgʻanlar esimizga kelgan har bir soʻzni “yuragimizdagi sezgi toʻlqunlari” gumon qilib tashqarigʻa ota bersak, Tangri koʻrsatmasun, oʻquvchilarimiz qochargʻa yoʻl topolmay qolarlar”.

Natijalar va muhokama. Sheʼr tuzilishida yangiliklarga urinsa-da, oʻzbek tilining imkoniyatlarini ochib berib, turkiy til latofatini koʻz-koʻz qilar darajada isbotladi. Arab, fors tillaridagi soʻzlarning soyasida nafosatini namoyon qila olmay qolib ketayotgan oʻzbekcha soʻzlarni sheʼrlariga olib kirdi. Sheʼrlarida chorlov, uygʻotish mazmunini ham xalqimizning asil soʻzlari orqali ifodaladi va ularning yuragiga shu sababli oson kira oldi:

Yel yoʻlini toʻsib turgan eski bulutlarni,
Yondirib qoʻy, yirtib tashla,
barchasin yoʻq et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xoʻrlikdir bu...
Yiqil, yoʻqol, ket! [4, 41]

Fitrat sheʼriyatining tili va uslubi haqida fitratshunos Hamidulla Boltaboyev “Fitrat va jadidchilik” kitobida Abdurahmon Saʼdiy asaridan keltirilgan parcha orqali yuqoridagi fikrni asoslaydi: “Yosh oʻzbek adabiyotida Fitratning roli uning tili va uslubida koʻrinadi. Fitrat adabiyotda arab va fors soʻzlariga yoʻlni berkitdi, til va uslubda koʻplab oʻzbek shoirlarini oʻziga qaratdi. Oʻzbekcha sheʼr tuzilishining rivojlanish yoʻllarini belgiladi” [2, 12].

XX asr oʻzbek zamonaviy shariyatining rivojlanishi, barmoq vazni taraqqiyoti yoʻlidagi Fitratning sezilarli hissasini qayd etmaslikning iloji yoʻq. Ensiklopedik shaxs hisoblanmish Abdurauf Fitrat dramaturg, olim, nosir, publisist boʻlish bilan bir qatorda isteʼdodli shoir ham edi. Undagi shoirlilik isteʼdodi oʻzbek hamda forsiy tilda yaratilgan sheʼriy jamlanmalaridan sezilib turadi. Fitratning “Shoir” deb nomlanuvchi sheʼri ham bor. Sheʼr bashariyat dunyosi koʻklari sari koʻtarilishi uchun ruhiga madad tilayotgan lirik qahramon tilidan aytilgan.

Shoir tabiatdan sirli, teran maʼnolarni...
Chin yoʻllar bilan izlar-topar,
oʻzi uchun saqlamas.
Ularni yoz gulining yaprogʻidan
toʻkulgan soʻzlar ilan bizga oʻrab topshirar [4, 39].

Misralarda shoirming birlamchi vazifasi “gul yaprogʻidan toʻkilgan inja soʻzlarni” oʻrab topshirish”, yaʼniki sheʼrxonga yetkazib berish hisoblanadi. Shoir yuragida tugʻilgan tuygular haqiqatini eshitguvchi koʻngliga koʻchiradigan mahorat sohibi, oʻrni bilan topib aytilgan timsollar esa uning “oʻrab topshirish” vositasidir.

Sheʼr davomida yoridan biror iltifot-u marhamat kutmagan shoir oʻqirman kitobxonlardan madad tilanadi. Ingrab turgan jonini qoʻllashlarini, ruhiyatiga mador boʻluvchi taskinni sheʼrxonlardan istaydi.

Emish...shoir sevgilisiga yozgan
bir yozuvga qaygʻularini toʻkmish,
Soʻzlarining eng oxirida ondin
Ruhi uchun oz koʻmak istamish [4, 39].

Shoir obrazi tasvirida dard kishisini koʻz oldimizda gavdalantiradi. Uning ruhi “maʼshuqidan bir marhamat koʻrmay” muruvvatga kashal, ozurda jismida” ingrab turgan jon”. Sheʼrxondan ruhi uchun biroz koʻmak bermaklarini istaganlik umidi, ruh yuksakligi ilinji bilan sheʼr yakunlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish kerakki, sheʼr nihoyatda murakkab hodisa boʻlishi bilan birga shoir ham bagʻoyat ziddiyatli shaxsiyat, fenomen hisoblanadi. Ayniqsa, buning yorqin isbotini Abdurauf

Fitratning she'r va shoirlikka bo'lgan jiddiy munosabati ham tasdiqlaydi. Bizga o'rgatilganidek, adabiyotshunoslik fani yangi davrlarida adabiyot – she'riyat san'atining biri sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nizomiy Aruzi Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 104 b.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. – 285 b.
3. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 304 b.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). –T.: Manaviyat, 2009. – 336 b.
5. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1976. – 138 b.
6. Ayniy S. Ta'rixi inqilobi Buxoro. – Dushanbe: Adib, 1987. – 210 b.
7. Ayniy S. Namunai adabiyoti to'chik. – M.: Markazii xalqi Ittihodi jamohiri sho'raviiso'siyolisti, 1926. – 144 b.
8. Boltaboyev H. She'r va shoirliq // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1995. –16-iyun.
9. Komatsu. H. 20. Yuzyil baslarinda Orta Asyada Turkchuluk ve Devrim Hareketleri. – Ankara:1993. – 200 b.

Narziyeva Dilnoza Inoyatovna,
Turon Zarmed universiteti o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: Narziyevad802@gmail.com

SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA MEHMON OBRAZI VA MEHMONNAVOZLIK TASVIRI

Annotatsiya. Sadridin Ayniy qissa va romanlarida mehmon va mezbon obrazi, o'zbekona mehmonnavozlik tasviri badiiy talqini bilan bog'liq lavhalar ko'p uchraydi. Ular orqali adib yashagan davrda o'zbek xonadonlarida mehmonxonalarining o'rni, jihozlanishi, mehmonga dasturxon tuzatish, uni kutish va kuzatish, taom tortish, muomala qilish odobi bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: Sadridin Ayniy, asar, qissa, roman, mehmon, mezbon, mehmondorchilik, obraz, motiv, badiiy talqin.

Annotatsiya. В рассказах и повестях Садриддина Айни немало сцен, связанных с образом гостя и хозяина, художественной интерпретацией образа узбекского гостеприимства. Читая эти произведения, можно познакомиться с расположением и оборудованием гостиниц в узбекских домах в период жизни писателя, манерами приготовления стола для гостя, встречи и проводов гостей, подачи еды, общения с ними.

Ключевые слова: Садриддин Айни, произведение, повесть, роман, гость, хозяин, гостеприимство, образ, мотив, художественная интерпретация.

Abstract. In the stories and novels of Sadridin Ayniy there are many scenes related to the image of the guest and the host, an artistic interpretation of the image of Uzbek hospitality. Through them you can get acquainted with the location and equipment of hotels in Uzbek houses during the writer's life, the manner of preparing a table for a guest, waiting and watching him, serving food, and treating him.

Key words: Sadridin Ayniy, work, story, novel, guest, host, hospitality, image, motive, artistic interpretation.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlardagi an'anaviy obraz va motivlar tizimini struktural, semantik hamda antroposentrik nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularning genezisi, syujetdagi o'rni, poetik vazifalari, evolyusiyasi, davr voqeliklariga bog'lab talqin qilinishi tamoyillarini ochishga qiziqish kuchayib bormoqda. Bunda insonning mehmonnavozlik odobi, mehmon obrazining denotativ va konnotativ, badiiy-milliy talqini alohida e'tiborni tortadi. Bunda o'zbeklar xonadonida mehmonxonalar qurilishi va jihozlanishi, dasturxon tuzatish, taom tortish, muomala yoki so'zlash odobi kabi turli holatlarning etik-estetik, poetik tasvir xususiyatlarini aniqlash adabiyotshunoslikning ijtimoiy rolini, inson bilan bog'liq muammolarni yoritish uning asosiy vazifalaridan biri ekanini asoslash imkonini beradi.

Asosiy qism. Sadridin Ayniy asarlarida mehmon obrazi va mehmonnavozlik tasviriga alohida o'rin ajratilganiga guvoh bo'lish mumkin. Barcha o'zbek shoir va yozuvchilari qatori Sadridin Ayniy ham o'z asarlarida mehmon obrazi va mehmonnavozlik tasviri hamda talqiniga alohida e'tibor qaratgani kuzatiladi. Bunda yozuvchining mehmon kutish yoki mehmonga borish, mezbon mas'uliyati va saxovati, qo'li ochiqligi, mehmondo'stlik tuyg'usi hammaga ham xos bo'lavermasligi, mehmonlarga taom pishirish, tortish, dasturxon bezash mahorati kabi jihatlarga ayricha diqqat qaratgani ko'rinadi.

Adibning "Sudxo'ring o'limi" asarida personaj tilidan keltirilgan "Men avvallar har kecha-kunduzda necha bor qazi-qo'zi, kabob, palov, chalov, manti va chuchvaralar kabi ovqatlar yerdim. Endi u "mehmondo'st" xonadonlardan baraka uchdi", degan fikrlar orqali haqiqiy mezbonning saxiyliigi, borini mehmonlardan ayamasligi anglashiladi. Shu jumlar orqali yozuvchi o'z davrida jamiyatda yuz bergan yo'qchilikning mezbonlarni ham noqulay ahvolga solib qo'yganini ham ta'kidlamogda.

Natijalar va muhokama. Ayniy asarlarida mehmonxonalarda mijozni kutish tasviri ham uchraydi. Jumladan, "Sudxo'ring o'limi" asarida [2] kirib kelganlar kelib o'tirishlari bilan oq noib o'z mahramini chaqirib, dasturxon bilan birga bir tovoq yaxna go'sht keltirishga va darrov ikki tovuqni qovurishga buyuradi. Darhaqiqat, kelgan mehmonga zudlik bilan dasturxon hozirlash o'zbekona go'zal an'analardan biridir.

Xalqimiz mehmonni “Atoyi xudo” deb qadrlasa-da, chaqirilmagan mehmon ko‘p hollarda xush qabul qilinmaydi. Mana shu sababdan “Sudxo‘rning o‘limi” asaridagi bosh qahramon Qori-Ishkamba hamisha qorin-qursoq yo‘lida to‘g‘ri kelgan joyda ko‘rinaverishini ko‘pchilik yoqtirmaydi. Asarda unga nisbatan “chaqirilmagan jirkanch mehmon” iborasi qo‘llangan. U nafaqat bezbet mehmon, balki odobsiz mezbon sifatida ham tasvirlangan. Jumladan, quyidagi misol uning mezbon sifatidagi odobsizligini ochishga qaratilgan: “Uy egasi ham yog‘lik parchalarni olib og‘ziga tiqishda o‘z mehmonidan qolishmasdi” [2].

Shu o‘rinda ovqatlanish odobiga xos jihatlarga ham urg‘u berilgan. Jumladan, ovqat vaqtida gapirishga odat qilmaslik, yolg‘iz yeyilgan ovqatning mazasi bo‘lmasligi, ishtaha yaxshi ochilmasligi, ishtahani ochish uchun hamtovoq kerakligi, lekin ovqatni juda oz yeydigan “chimxo‘r” kishidan yaxshi hamtovoq chiqmasligi, yonidagi odam “chilp-chilp” qilib ovoz chiqarib ovqatlanga, ishtahani bo‘g‘ib qo‘yishi bildirib o‘tiladi.

Shunday mehmonlar ham bo‘ladiki, ular ba‘zan “oling-oling” deydigan manziratga ham o‘rin qoldirmaydi. Bu holat “Sudxo‘rning o‘limi” asarida Qori Ishkamba misolida quyidagicha ko‘rsatilgan: “Tovoqdan katta parchalarni ko‘tarayotgan ham tovog‘ini *mehmondorlik nazokati uchun* ora-sira boshi va qo‘li bilan “oling” degan ma‘noda imlab qo‘ysa ham, biron og‘iz gapirmasdi. Tovuqlar ham yeyilib bo‘lib, dasturxon yig‘ishtirib olingandan keyin, choy ichish iaybati keldi” [2.]

Mehmonlarni uzatishda ham o‘ziga xos odat me‘yorlariga rioya qilinadi. Bu holat tasviri “Sudxo‘rning o‘limi” asarida quyidagicha berilgan: “Supadagi kattalar joylaridan turib, ko‘chaga chiqdilar va mehmonlarni uzatish uchun yo‘lning bir tomonida katorlandilar. Daraxt va devorlar ostida o‘tirganlar ham ko‘chaning boshqa bir tomonida saf tortdilar”.

“Sudxo‘rning o‘limi” asari qahramoni Qori Ishkamba boy bo‘lsa-da, o‘ta ziqnaligi tufayli mehmonnavozlikni yoqtirmaydi. Shuning uchun asarda uning tilidan: “Mening hovlimda ot bog‘larlik va mehmon tunarlik joy yo‘q”, degan jumalar keltiriladi.

Adibning “Qullar” romanida, aksincha, mehmonnavoz chol tasviri ehtirom bilan tasvirlangan. Unda shunday deyiladi: “Qora uy ichiga to‘shalgan qimmatbaho pandiy kigiz, uying o‘rta belida yonib turgan gulxan va uning ustida osilib qaynab turgan qora choyjo‘sh bu cholning *mehmonnavoz* bir kishi ekanligiga dalolat qilardi. Uy devoriga osilgan miltiq, qilich, qalqon, sovut, nayza, oltiemchak va kamon kabi yaroqlardan uy egasining eski sardorlardan biri bo‘lganligi bilinib turar edi [4; 9].

Shu asarda yana mehmon va mezbonlarning o‘zaro so‘rashish odobi tasviri keltirilgan o‘rni alohida diqqatni totadi.

– Ha, Abdurahmon sardor, kel, kiringlar! – dedi.

Sardor yo‘ldoshlarini uyga boshlab kirib, joynamoz ustida tikka turgan chol bilan salomlashib ko‘rishdi.

– So‘ra, sardor! – dedi chol.

– Sizdan, xalifa og‘a! – deb javob kaytardi sardor.

– Sendan, sen cho‘l kezib, Xizr-u Ilyoslarga uchrab kelmoqdasan!

– Yo‘q, sizdan: siz tangrining sevgan qulisiz, tun-kun namoz-niyoz bilan mashgulsiz, ham yoshi ulu (ulug‘)siz.

Bir necha marta shunday “sendan... sizdan...” deyilgandan keyin, boshlab chol:

– Omon-esonlikmi, mol-bosh, bola-chaqa, ovul-o‘ba, qavm-qarindosh, ulu-kichi sog‘mi? – deb so‘radi.

Sardor: “Xudoga shukur, xudoga shukur” degandan keyin, bu ham o‘z navbatida choldan yuqoridagi tarzda hol-ahvol so‘radi. Yigitlar ham chol bilan bir-bir shu tartibda ko‘rishib-so‘rashedilar.

– Xush kelding, do‘g‘onim, (tug‘ishgan inim) sardor! Xush keldingiz, o‘g‘lonlar, – deb chol mehmonlarga joy ko‘rsatdi va o‘zi joynamoz ustiga o‘tib o‘tirdi.

Mehmonlar: – Qulluq, qulluq! – degan holda tartib bilan gulxan tevaragiga o‘tirdilar. Chol qo‘l ko‘tarib fotiha o‘qidi, mehmonlar ham qo‘llarini ko‘tarib “omin!” deb turishedilar va uzun fotihadan keyin qo‘llarini betlariga tortdilar [4; 10].

Keltirilgan ushbu parcha orqali dastlab kelgan mehmon so‘rashishni boshlashi (shuning uchun xalq orasida “so‘rab kelmoq”, “so‘rab bormoq” degan iboralar uchraydi), undan keyin xonadon sohibi – mezbon so‘rashishi lozimligi anglashiladi. Ammo mezbon yoshi ulug‘ bo‘lsa, so‘rashishni u boshlashi

taomildir. Demak, aslida yoshi ulug' kishi yoshlardan hol-ahvol so'raydi. Keyin yosh kishi katta kishidan ahvol so'rashi lozim. Bunda ularning nutqida keling, kiring, so'rang, sizdan bo'lsin, omonmisiz, esonmisiz, mol-bosh, bola-chaqa, ovul-o'ba, qavm-qarindosh, katta-kichik yoki bolalar yaxshimi (sog'mi), xudoga shukur, hormang, bor bo'ling, xush keldingiz, xush ko'rdik, qulluq, omin, marhamat, olib o'tiringlar, bemalol o'tiringlar kabi so'z va birikmalar qo'llanishi an'anaga aylangan.

Agar mehmonlar ko'pchilik bo'lsa, bir-birlariga takalluflanib, mehmonxonaning yuqoriroq tomoniga o'tkazmoq uchun "siz o'ting, yo'q, siz o'ting" deya mulozamat ko'rsatishlari mumkin. Shundan so'ng duoga qo'l ochiladi. Duoni yuqorida o'tirgan kishi amalga oshiradi.

Shunisi borki, odatda, erkak mehmonlarga erkak mezbolar xizmat ko'rsatadi. Biroq istisno holatlar ham bo'lib turadi. Bu jihatdan nomi zikr qilingan romandagi quyidagi qayd e'tiborni tortadi: "Shu chog'da bo'yinlariga Buxoro tangalari, Eron tumanlari, Afg'oniston rupiyalari hamel qilinib osilgan ikki qiz chayqalgan choynak-piyolalarni, tuya yungidan to'qilgan shol dasturxonga o'ralgan nonlarni keltirib mehmonlar oldiga qo'ydilar va sardorga qarab ta'zim qilib chiqib ketdilar" [4]. So'ngra o'tirgan yigitlardan biri qaynab turgan choyjo'shdan choynaklarga qaynoq suv quyib, har bir mehmon oldiga bittadan choynak va bittadan piyola qo'yib chiqadi.

O'zbeklarda izzatli mehmonlar qaynoqqina choy bilan siylanadi. Agar har bir mehmon oldiga bittadan choynak va bittadan piyola qo'yilsa, bu ularga nisbatan cheksiz ehtirom ramzi hisoblanadi. Shu o'rinda o'zbek xalq eposi "Alpomish"dagi quyidagi parcha yodga keladi.

Kelgan mehmon uchun darhol choy damlashga unnash – o'zbekona aziz odatlardan biri. Ayniytasarlarida shu holat aks etgan parchalarga ham duch kelinadi:

– Ko'zani qo'y, uyga kirib dasturxon olib chiq, so'ngra samovar qo'yib, choy damla, – dedi va mehmonga qarab: – Gapga qiziqib choyni ham esdan chiqaribman, – dedi.

– Zarari yo'q, men sizning choyingizni endi ichyapmanmi?

Ayniy asarlarda mehmonlar ketar chog'ida ularni duo qilish motiviga ham alohida o'rin ajratilgan. Jumladan: "Xalifa mehmonlarga bittadan zog'ora berib o'rnidan turdi va qiblaga qaradi, boshqalar ham turib qiblaga qaradilar. Xalifa qul ko'tarib duoga boshladi, boshqalar ham qo'l ko'tarishib "omin!" deya boshladilar. – Oling, oldirmang, bosing, bostirmang! Xizr-u Ilyos yoringiz, choryor madadkoringiz bo'lg'aylar! – deb xalifa qo'lini betiga tortdi, boshqalar ham qo'llarini yuzlariga surtib, uydin chiqdilar..." [4].

Har bir o'zbek hovlisida alohida mehmonxona qurilgan. Xususan, boylar hovlisida qo'shmehmonxonalar mavjud bo'lgan. Bu haqda adib yozadi: "Shofirkom tumaniga qarashli M. qishlog'ida Abdurahimboy hovlisida ishlar qizigan edi. Boyning bir necha ayvon, bostirma va **qo'shmehmonxonalardan iborat hovlisining** bir ayvoni ostida keng zag'omalik katta kappon tarozi osilgan va u bilan navbat kutib turgan dehqonlarning g'o'zalari o'lchanmoqda edi" [4; 49].

Polvon arabning qo'shmehmonxonasidan eng kattasi o'n bir bolorlik ekani ta'kidlab o'tilgan. Uning to'rida sandal o'rnatilgan. Adib bunday dabdabali mehmonxonalarining bezatilishini ham tasvirlab ko'rsatgan. Uning tasvirlashicha, eshiklari boqqa qaragan qator mehmonxonalarining boshidagi eng kattasi gilam, atlas va duxoba ko'rpachalar bilan yasatilgan edi. Mehmonxonaning to'riga besh qavat adras, shoyi ko'rpachalar solingan va bir tomoniga ustma-ust uch par yostiq qo'yilgan shohona joyxobdan iborat edi.

Yoki yana: "M. qishlog'i boshdan-oyoq suv sepib supurilgan, Nabi polvon va boshqa o'ziga tinchroq kishilarning hovlilari mehmon qo'narlik bir holga keltirilgan... edi. Ayniqsa Abdurahimboyning ... boyning o'n uch bolorli katta mehmonxonasiga qizil taka qolini solinib, tevaragiga uzun duxoba ko'rpachalar to'shalgan, uying to'riga besh qavat duxoba ko'rpachalar solinib, uning to'rt joyiga uchtadan ustma-ust par yostiqlar qo'yilgan edi. ...Shomiyona ostidagi shohsupalarga ham qizil gilamlar, adras va shoyi ko'rpachalar solingan bo'lib, "aziz" mehmonlar o'tirarlik bir holga keltirilgan edi. Hovlining yonboshginasidagi tuyaxonada har birida botmon guruch damlanadigan katta mis qozonlar, qazi qaynatish, qo'zi qovurish, moy dog'lash uchun katta-katta cho'yan qozonlar, murabbo pishirish, nisholda yasash uchun potilalar¹ qurilgan edi" [4].

¹ Shomiyona – chodirshab. Potila – shiravor pishiriladigan og'zi keng mis qozon.

10. Opie Iona. The People in the Playgroun. –Oxford: Oxford University Press, 1993. –P. 50-102.

*Келдиёрова Гулчехра Сайдиевна,
филология фанлари номзоди,
ЎзМУ доценти,
(Ўзбекистон)
E-mail: gulchekhra.2024@mail.ru*

ШАРҚ АДАБИЁТИДА КОМИЛ ИНСОН МУАММОСИ

Аннотация. Мақолада комил инсон тарбияси ва унга таъсир этувчи омиллар илмий асосда кўрсатиб берилган. Шарқ адабиётида комил инсон образига мурожаат этган ижодкорлар асарларига мурожаат этилган. XI асрда яшаб, замонасининг барча асосий илмларини чуқур эгаллаган, араб ва форс тилларини мукаммал билган мутафаккир, давлат арбоби Юсуф Хос Ҳожибнинг “Кутадғу билиг”, яъни “Саодатга элтувчи билим” асари, Ватанимиз тарихида буюк из қолдирган Амир Темурнинг “Темур тузуклари”, улуғ мутафаккир Алишер Навоий асарлари, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари мисолида мазкур масала таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: комил инсон тарбияси, мутафаккир, шарқ тарбияси, инсонни тасвирлаш, инсонийлик, таълим ва тарбия

Аннотация. В статье научно обоснованы воспитание всесторонне развитой гармоничной личности и факторы влияющие на этот процесс. В восточной литературе обращаются к произведениям авторов, посвящённым всесторонне развитой гармоничной личности. На примере произведений Юсуфа Хос Хаджиба Баласагунского “Кутадгу билиг”, то есть “Саодатга элтувчи билим” (“Наука быть счастливым”), произведений Алишера Навои, “Уложение Тимура” произведение Эмира Темура, “Бобурнамэ” Заҳириддин Мухаммад Бобура было подробно проанализирован этот вопрос.

Ключевые слова: всесторонне развитая гармоничная личность, мыслитель, восточное образование, образ человека, человечность, образование и воспитание.

Abstract. The article displays the perfect human education and the factors influencing it on a scientific basis. Oriental literature refers to the works of artists who appeal to the image of a perfect man. Using the example of the works of Yusuf Khos Hadjib “Kutadgu bilig”, that is, «Knowledge that leads to happiness», the works of Alisher Navoi, “The Code of Temur” by Amir Temur, “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Bobura, this issue was analyzed.

Key words: perfect human education, thinker, oriental education, image of man, humanity, education and training

Кириш. Комил инсон тарбияси ҳамма замонларда ҳам адабиётнинг бош мавзуси бўлиб келган. “Адабиёт инсоншунослик фани” экан, демак, бутун адабиёт тарихини инсон ҳақидаги фикрий-ғоявий қараш, инсонни тасвирлаш, инсон моҳиятини кашф эта бориш тарихи деб атаса бўлади. Чунки, ҳар бир ёзувчи, ҳар бир шоир жамият ҳодисалари, ўзини қизиқтирган, тўлқинлантирган ғояларни қаламга олар экан, албатта, инсон сийрати ва сурати, ахлоқи, фаолияти, ният ва орзуларига тўхталиб ўтади. Кўп асрлик Шарқ адабиётида комил инсон муаммоси доимий равишда баҳс-мунозарага сабаб бўлиб, турли қарашларни вужудга келтирган.

XI асрда яшаб, замонасининг барча асосий илмларини чуқур эгаллаган, араб ва форс тилларини мукаммал билган мутафаккир, давлат арбоби Юсуф Хос Ҳожибнинг “Кутадғу билиг”, яъни “Саодатга элтувчи билим” асари таълим ва тарбия, маънавий ва маърифий камолотнинг усуллари ва чора-тадбирларини ўзида уйғунлаштирган, туркий адабиётни янги тараққиёт босқичига кўтарган, ўз даврининг илғор ижтимоий-сиёсий масалаларини туркий халқлар тарихи, маданияти, илм-фани, урф-одат ва анъаналари, турмуш тарзи ва кадриятлари хусусида батафсил маълумот беради.

Асосий қисм. Улуғ мутафаккирнинг таълим-тарбия хусусидаги фикрлари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Масалан: “Киши заковатли бўлиши керак, токи билимни яхши танлай билсин, у билимли бўлиши керак, токи ишларни яхши битира олсин...” ёки, “Ота болани назоратда тутса, у яхши, эзгу бўлади, отаси ва онасининг юзини ёруғ қилади” ёки, “Ота болани

кичиклигидан бебош қилиб қўйса, болада гуноҳ йўқ, барча жафо отанинг ўзида, кимнинг ўғил - кизи эрка бўлса, унга шу кишининг ўзи мунгли бўлиб йиғлайди, ўғил-қизга ҳунар ва билим ўргатиш керак, токи бу ҳунарлар билан феъл-атвори гўзал бўлсин” [1, 253], дейди буюк мутафаккиримиз Юсуф Хос Ҳожиб.

Маълумки, халқимиз қадим-қадимдан илмли ва ҳунарли кишиларнинг қадрига етган. Бундай инсон ўз билимлари ва ҳунарларини фарзандларига ўргатган. Уларни ҳалол меҳнат ва пешона тери билан кун кечириб ундаган. Шоир инсондаги икки қарама-қарши хусусият, яъни эзгулик ва ёмонликни алоҳида таъкидлайди. Кишиларни яхшиликка, эзгуликка, инсонни қадрлашга чорлайди. Инсон, дейди шоир, фақат яхшилик уруғини сочиш билан кифояланмасдан, бу уруғни парвариш қиладиган қўлларни, яъни фарзандларини тўғри тарбиялаши ҳам даркор. Бунинг бош йўли оқил ва оқила ўғил-қизларни, яъни комил инсонни тарбиялашдир:

Бу ҳақда донишмандлар жуда яхши сўзлабди,
Кўрар кўзинг нури ўғил-қизлардир, билгил [1, 157], –

дейди шоир.

Аммо комил инсонни тарбиялаш осон иш эмас. Бу белдан мадор, тандан қувват, дилдан ором, қисқаси, катта куч талаб қилади. Бунинг учун таълим-тарбия, ўқув ва билим даркор. Шоир, ота-она ибратидан бошлаб, яхши мураббий ва пухта билим, яхшилик либосини кийгиши кўрсатиб ўтади. Билимдон бўлиш эса, тарбия қилинса, унга ёшлигиданоқ билим сингдирилса, у шунчалик тез ўрганади. Тўғри йўлдан боради. Бу ҳақда Юсуф Хос Ҳожиб шундай дейди:

Яхши қилиқ оқ сут билан кирса,
Ўлим келиб тутмагунча, ўз тарзини ўзгартирмайди [1, 401].

Ватанимиз тарихида буюк из қолдирган Соҳибқирон Амир Темур ибн Амир Тарағай ўрта асрнинг йирик давлат арбоби, улўғ саркарда, марказлашган кучли давлат асосчиси, илм-фан ва маданиятнинг ҳомийси эди. У одоб-ахлоқ, иймон-этикод, таълим-тарбияда ўзи юксакликка, мукамалликка эришган етук сиймолардан бўлган. Бобомиз томонидан яратилган одоб-ахлоққа оид дастурлар, ўғитлар, панд-насихатларни ўзида жамлаган “Темур тузуклари” асари бугун ҳам бутун дунё аҳлини ҳайратга солмоқда. Маълумки, Соҳибқирон бобомиз жаҳондаги кўплаб халқлар тарихини яхши билган. У риёзиёт, адабиёт, тарих, тилшунослик илми намояндалари билан тез-тез суҳбатлар ўтказарди. Улуғ Амир Темур ўзининг “Тузуклари”да ёшларнинг илм-маърифат эгаллаши, таълим-тарбияси ҳақида фикр юритиб, шундай илғор маърифий ғояларни кўтариб чиқадики, улар бугунги замон билан, истиқлол йилларида амалга оширилаётган ислохотлар билан ҳамоҳангдир. Масалан, “Адлу эҳсон билан жаҳон гулшани обод бўлади,” ёки “Бир кунлик адолат юз кунлик тоат ибодатдан афзал”, ёки “Бир ишга киришмай туриб, ундан чиқиш йўлларини мўлжаллаб қўй” [2, 77], – дейди улўғ бобомиз.

Натижалар ва муҳокама. Жамиятда оила мавқеини сақлаш, жамият аъзолари билан бўладиган мулоқотларни тўғри олиб бориш, фарзандларни жамоада яшашга, маҳаллада яшаш қонун-қоидаларига ўргатиш оилавий ҳаётга эстетик муносабатда бўлига тайёрлаш, оилани ижтимоий муҳофаза қилиш чораларини кўра билиш малакасини шакллантириш бугунги куннинг энг долзарб муаммосидир. Бу муаммонинг ечими, алломаларимиз меросида, хусусан, Мир Алишер Навоий ҳазратларининг асарларида жуда мукамал ишлаб чиқилган бўлиб, бу ҳар бир ёш йигит-қизга, ҳаёт йўлининг бошида турган ўсмирга одобли бўлиш ва касб-ҳунар эгаллашда, ўзларида кучли иродани тарбиялашда жуда катта рол ўйнаши табиий. Ҳазрат бобомиз инсон тафаккури, ақли ва билимини, маънавиятини юксак қадрлаган. У “Билим ва донишмандлик инсоннинг бегадидир” [2, 65], – деган. Бола тарбиясига ва уни шахс сифатида шакллантиришга катта аҳамият бериб, фарзандни ҳаёт чироғи, деб таърифлайди. Адабни саодатмандлик, бахтиёрлик қалити, энг кўп қадрланадиган инсоний фазилат [2, 88], деб ҳисоблайди ва ҳаё билан хуштавозеълик адабнинг асосий шартини эканлигини қайта-қайта таъкидлайди. Комилликка интилаётган инсон олдида турган айни вазифаларидан яна бири – ота-она ҳаққини адо этиш, уларнинг ҳурматини қилиб, розилигини олишдир. Улуғ шоирнинг бу ҳақдаги шеърий мисраларининг насрий баёни шундай: “Бириси шуки, ота-онанинг ҳурматини жойига қўйиш керак, шуни билки, буни қилишни фарз, зарурий вазифа деб ҳисобла. Иккаласининг хизматини бирдай бажар, ҳар қанча азоби ошиб кетса ҳам, бош устига деб қабул эт. Ота қошида бошингни фидо қил, онанинг бошига жисму жонни фидо қил. Икки

дунёнг обод бўлишини хоҳласанг, бу икковини рози қил. Уларнинг бирини ой, иккинчисини куёш англаб, туну кунунгни ёрит”, – дейди улуғ мутафаккир бобомиз. Шу тариқа ота-онанинг насиҳати фарзанди учун қонун экани, фарзанд ота-онадан кейин, қариндош-уруғ, ака-ука, опа-сингилларга ҳам яхши муносабатда бўлиши кераклигини уқтиради. Чунки улар – инсоннинг оиласи. Оиласиз эса тўлиқ бахтга эришиб бўлмайди.

Ҳазрат Навоий комилликка интилишнинг асосий омилларидан бири сифатида билимдонликни кўрсатади. Бу ерда муҳими шуки, улуғ шоир яхшиликнинг, одамийликнинг мезони, бу халқ манфаати учун ишлаш, халқ ғам-ташвиши билан яшашдир дейди. Яъни шоирнинг таъбири билан айтганда:

Одамий эрсанг демагил одами,
Ониким йўқ халқ ғамидин ғами [3, 94].

Улуғ Навоийнинг наздида илм ва амал мансаб воситаси эмас, балки, халққа хизмат қилиш қуролидир. Комил инсон дунё молига меҳр қўймаслиги керак. Шоир ёшларга болалигиданок билим, маълумот ва тарбия беришни кўрсатиб, ўғил-қизларни 4,5-5 ёшдан муаллимга бериш кераклигини айтади. Бола илк ёшидаёқ фанларни ва хунарларни эгаллаб олиши муҳимлигини таъкидлайди. Ҳазрат бобомиз, энг аввало ҳар бир инсон ўз халқининг тарихини мукамал билиши шартлигига аҳамият бериб, уни чуқурроқ ўрганишга, олиму фузалолар билан ҳамсуҳбат бўлишга даъват этади. Буюк шоир ҳар бир халқнинг тарихи мамлакатни хароб аҳволга солган нимаю, унинг равнақ топишига имкон берган омилларни кўрсатиб бермоғи мумкин, дейди. У таълим-тарбия масалаларига жиддий эътибор беради, тарбия жараёнларини, воситаларини, талабларини кўрсатади, шоир таълимда илмийлик, асосланганлик ва тарихийлик каби талабларни муҳим омил деб билади. У ўз давридаги мактабларнинг ютуқ ва камчиликларини таҳлил этади. Шоир ўқитувчи ҳақида гапирар экан, ўз касбини севган муаллим шогирдларини ҳам, ўзи таълим бераётган фанни ҳам яхши кўриши ва қадрлаши шарт, дейди. Ҳазрат бобомиз ўқитувчини жамиятдаги обрўли ва ҳурматга лойиқ инсон деб билиб, шогирдлар муаллимни Ватандек севишлари ва эъзозлашларини уқтиради:

Ҳақ йўлида ким санга бир ҳарф ўқитмиш ранж ила,
Айламак бўлмас адо унинг ҳаққин минг ганж ила [3, 38] –

Ҳазрат Навоий чин маънода зиёли ва мутафаккир бўлганлиги учун ҳам унинг асарларининг бош ғоясини комиллик тарбияси ташкил этади. Улуғ шоир Темурийзодалар салтанати ва хонадониди ҳам катта обрў ва ишонч қозонган. У болалик дўсти, темурийзода подшоҳ Ҳусайн Бойқаро фарзандлари тарбиясида тўла иштирок этган. Ҳозир мен сизларга айтадиган маълумот кўпчилик учун янгилик бўлиши ҳам мумкин. Ҳазрат Навоий улуғ шоир ва мутафаккир, давлат арбоби бўлишлари билан бир қаторда темурийлар салтанатини таназзулдан сақлаб қолиш учун, яъни подшоҳ ота билан шаҳзодалар ўртасидаги низоларни бартараф қилиш учун жон куйдиради. Ҳусайн Бойқаронинг тўнғич фарзанди шаҳзода Бадиуззамон билан ўрталаридаги тушунмовчиликка барҳам бериш учун ўзининг бор истейдоди ва маҳоратини сафарбар этади. Шаҳзодани инсофга чақириб ёзган мактубларида улуғ шоир ўзини устоз, мураббий ва ҳатто падар каби тутди. Зотан, Султон Ҳусайн фарзандларининг тили ҳазрат Навоий каломи билан чиққан. Мактубнинг бошида: “Тангри таоло ризоси ота ризосига вобастадур”, – деб ёзади. Ва фарзанднинг ота олдидаги бурчини кўрсатиб, ота иродасига қарши бормасликни, ота куч-қувватдан кетган чоғида унга виждонан хизмат қилиш, унга мадад бериш, оғирини енгил этиш ва ҳар бир ишда ота ёнида мардона туришни ҳазрат Навоий фарзандликнинг энг биринчи вазифаси деб билади. Улуғ шоирнинг шоҳ ва шаҳзодалар ўртасидаги низоларга аралашиб, фарзандларнинг эътиборини доим ота билан бамаслаҳат иш кўришга ундаши, уларни бир-бирларини тўғри тушунишлари учун жон куйдиришлари аслида эл-улус учун, мамлакат учун қайғуриш эди. Шоир салтанатнинг тинчлиги, халқнинг равнақи йўлида барча воситаларни ишга солади.

Мутафаккир бобомизнинг “Муншаот” китобларидан шу каби мактублар ўрин олган. Аслида уларни фақат шаҳзодаларга эмас, балки, ўша даврнинг барча ёшларига, барча эл-юрт йўлида хизмат қилувчиларга қаратилган пандлар деб тушунмоқ керак. Ҳазрат Навоий ўз мактубларида замон ёшларининг эътиборини нималарга қаратади? У ёшларни атрофга тирик кўз, соғлом назар

билан қарашга, доимо илм воситасида комилликка интилишга, шунга яраша иш, йўриқ тутишга чақиради. Шунингдек, улуғ шоир сўзни гавҳар деб билади, гавҳарнинг шарафи баландлигига сабаб унинг бутун олам кудрати тарафидан тухфа этилганидир. Сўзнинг кучи бениҳоя улуғ. Шоир умуман бадий сўзнинг таъсир кучини, жумладан вақтлар келиб, ўз шеърларининг нақадар баланд қадрланиши, одамлар кўнглига ҳаяжон ва ҳайрат солишини фахр билан тасвирлаган. Ҳазрат Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” достонидаги тилга бағишланган бобларда, асосан, сўзнинг фалсафий ижтимоий моҳияти, функциялари ва бадий адабиёт сифатидаги жозибаси, сўз санъатининг буюк таъсири, тарбиявий маънавий аҳамияти кўрсатилган. Мутафаккир шоир сўзни фақат яхшиликка, яхши ишларга сарфлаш зарур дейди, сўз ёвуз ниятда ишлатилса, фалокат келтиради. Сўз кишини ўлдиради ва тирилтиради, сўз мулкни обод этади ва вайрон қилади. Сўз улуғ ишларни бунёд этади, ва хунук воқеаларнинг пайдо бўлишига асос яратади, дейди. Ҳазрат Навоийнинг тил ҳақидаги ушбу сатрлари аллақачон асрлар синовиға бардош берган мақоллар қаторида халқимизнинг маънавий мулкига айланиб кетган:

Тилга эътиборсиз,
Элга эътиборсиз!

Маънавиятимиз ва адабиётимиз тарихидаги энг ёрқин саҳифалардан яна бири Соҳибқирон Амир Темурнинг эвараси, улуғ шоир ва таржимон, йирик давлат арбоби, илм-фан ҳомийси, етук мутафаккир Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. Такдир тақозоси ила 12 ёшида Андижон тахтига ўтирган ёш шахзода Амир Темур яратган улуғ салтанатни тиклаш мақсадида Самарқандга интилиб яшаган, Афғонистон, Ҳиндистонда подшоҳлик қилганида ҳам илм-фан ва ободончиликка катта эътибор берган. Мирзо Бобур кудратли шоҳ сифатида маърифатни халқ орасига кенг ёйди, илм ва жамият равнақи учун қайғурди, бошқаларни ҳам шунга сафарбар қилди. У инсон сифатида ҳам юксак фазилатлар соҳиби бўлган, онаси Қутлуғ Нигор хоним ва опаси Хонзодабегимни бошига кўтарган, фарзандларини доимо бошқа темурийзода шахзодалар қилган хатоликлардан, яъни оға-иниларнинг ўртасидаги низолардан асрашга интилади, уларни тожу тахтнинг ўткинчи ҳаваслари деб бир-биридан воз кечмасликка, бир-бирига оқибатли ва шафқатли бўлишга чақиради. Одамлар орасида меҳру вафо уруғини сочишга, яхшилик ва эзгуликни қарор топтиришга бутун вужуди билан интилади:

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидур,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур,
Яхши киши кўрмагай ёмонлик ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқусидур [4, 103].

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли Ҳумоюншоҳга ёзган мактуби бутун дунё оталарининг фарзандига меҳри, талабчанлиги, фарзанднинг оиласи ва юрти олдидаги бурчини, отанинг фарзанди олдидаги масъулиятини англатадиган даъватдек янграйдик, бу номани бемалол “Келажакка мактуб” дея номлаш мумкин. Бу мактубида Бобуршоҳ “Улуғлар кўтаримлик керак”, дейди, яъни катта фарзанд кичикларга оқибатли бўлиши, унча-мунча камчиликлар ўтса, кечиришни уқтиради. Ҳумоюн Мирзога давлатни бошқариш бўйича маслаҳатлар берар экан, илми ва тафаккури кенг ота сифатида ҳатто фарзанди имлосидаги баъзи бир камчиликларни ҳам кўрсатади. Унинг нутқида: “Агар менинг ризомни тиларсен”, тарзидаги гап кўп такрорланади. Демак, ҳазрат Навоийнинг: “Ота рози – тенгри рози”, – деган фалсафий ҳикматларини Мирзо Бобур давом эттиряпти.

Хулоса. Мактубда оталик меҳри билан, бир қаторда салтанатни бошқариш дарси ҳам мавжудлиги, кудратли шоҳ ва нозиктаъб шоир отанинг ҳар бир мулоҳазаси ўринли эканлиги ҳар қандай инсонни орадан беш аср ўтган бўлса-да, ҳайратга солади. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ёшларнинг комиллик тарбиясига оид қарашларининг ёрқин намунасини унинг ижод аҳлига нисбатан билдирган адабий-эстетик тамойиллари орқали ҳам англаш мумкин. У ёшлар тарбияси ва хулқ-атворидаги асосий сифат мардлик, ватанпарварлик, илмга интилиш, муҳтожларга ёрдам қўлини чўзиш, каттага ҳурматда, кичикка иззатда бўлиш каби фазилатлар эканлигини таъкидлайди. Комил инсон барча илмларни эгаллаган, қалби нурли, ватанига садоқатли, миллий ғурури баланд, ҳар нарсадан огоҳ кенг тафаккурли одам.

Шаркнинг улуғ мутафаккирлари инсон камолоти, ёш авлоднинг комиллик тарбияси ҳақида асрлар давомида қайғуриб келганлар.

АДАБИЁТЛАР:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Ғафур Ғулом, 2018. – 556 б.
2. Амир Темур. Темур тузуклари. – Т.: Илм-зиё-заковат, 2020. – 144 б.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998. – 315 б.
4. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1990. – 199 б.
5. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005. – 208 б.
6. Қаюмов А. “Ҳайрат ул-аброр” талқини. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985. – 228 б.
7. Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. – 336 б.
8. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012. – 316 б.
9. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 457 б.
10. <https://www.slibrary.uz/ru/article/view?id=7950>
11. https://dissbor.uz/index.php?route=product/product&product_id=276

O'roqova Nafosat Yoriyevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti
(O'zbekiston)
E-mail: n.y.uroqova@buxdu.uz

XALQ LIRIK QO'SHIQLARIDA FLORISTIK OBRAZLARNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq lirik qo'shiqlari tadqiq qilingan. Olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalashning xalq lirikasidagi o'rni masalasi ochiqdangan. Ular orqali xalq ko'nglidagi dardlari-yu armonlarini, tuyg'u va kechinmalarini ta'sirchan ifoda etganligi dalillangan. O'simlik obrazlari: madaniylashgan o'simlik obrazlari, gul obrazlari kabi turlarga bo'lib o'rganilgan. Ibtidoiy dunyoqarashda butun tabiat kabi o'simliklar ham jonli va ongli deb tushunilganligi hamda ko'pgina xalqlar o'zlarining ilk ajdodlarini o'simliklar totemi bilan bog'laganligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: folklor, xalq lirik qo'shiqlari, obraz, floristik obraz, o'simliklar, gullar, daraxtlar, olamning badiiy manzarasi

Аннотация. В данной статье изучаются народные лирические песни. Уточнен вопрос о роли выражения в народной лирике художественной картины мира посредством флористических образов. Доказано, что флористические образы эффективно выражали боли и мечты, чувства и переживания народа. Изображения растений: культивированные изображения растений, изображения цветов делятся на типы. Научно обосновано, что в первобытном мировоззрении растения, как и вся природа, живы и сознательны, и многие народы ассоциируют своих предков с тотемами растений.

Ключевые слова: фольклор, народные лирические песни, образ, флористический образ, растения, цветы, деревья, художественная картина мира.

Abstract. This article studies folk lyric songs. The question of the role of expression of the artistic landscape of the world through floral images in folk lyrics is clarified. It is proven that through them they effectively expressed the pains and dreams, feelings and experiences of the people. Images of plants: culturalized images of plants, images of flowers are divided into types. It is scientifically substantiated that in the primitive worldview, plants, like all nature, are alive and conscious, and many peoples associate their ancestors with the totem of plants.

Key words: folklore, folk lyrical songs, image, floral image, plants, flowers, trees, artistic view of the world

Kirish. Har bir millatning qiyofasini ko'rsatuvchi o'ziga xos ma'naviy-madaniy xazinasini bo'ladi. Shular orasida xalq lirikasi alohida ajralib turuvchi milliy, tarixiy, etnik, badiiy-estetik hodisa sanaladi. U millat kundalik turmushining badiiy ifodasi, umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Xalq poeziyasi millatning uzoq asrlik poetik xotirasini jamlaydi. O'zbek xalq lirikasi o'zining strukturasi, obrazlar olami bilan jahon xalq poeziyasidan alohidalik kasb etadi.

Olamning badiiy manzarasini aks ettirishda, xususan, floristik va faunistik obrazlar muhim o'rin tutadi. Ular orqali xalq ko'nglidagi dardlarini, qalb kechinmalarini ta'sirchan ifoda eta olgan. Shu jihatdan, floristik obrazlarning o'zini ikki guruhga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. Turli o'simliklarning obrazlantirilishi
2. Turli daraxtlarning obrazlantirilishi

Xalq lirikasi genezisiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ilk ildizlari Odam Ato zamoniga borib taqaladi. Xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, dунёкараши, урф-одат ва анъаналари асосида мифология ётади. Bu esa, o'z navbatida, milliy poeziyaga ta'sirini o'tkazgan. Shu bois xalq lirikasining mazmun-mohiyatini anglab yetish va ahamiyatini bilish uchun maxsus folkloristik-etnografik tadqiqotlar zarur bo'ladi. Ushbu ishda shu jihatlariga ham yoki bu darajada daxl qilinadi.

Asosiy qism. Xalq lirikasida olamning badiiy manzarasi floristik va faunistik obrazlar vositasida ham aks ettirilgan. Floristik obrazlarning o‘zi mazmun-mohiyati va vazifasiga ko‘ra yana guruhlanadi:

1. Madaniylashgan o‘simliklar obrazi
2. Gullar obrazi

Mulohazalarimizni o‘zbek xalq lirikasi namunalarini misolida asoslashga harakat qilamiz: “Yo‘l bo‘lsin” qo‘shig‘ida guli sapsar obrazi yaratilgan:

Guli sapsarni ko‘ring,
Suvga qarab qayriladi.
Bevafo yorni ko‘ring,
O‘lmay turib ayriladi [1, 17].

Ilmiy nuqtai nazardan qarasa, guli sapsarning gulqo‘rg‘oni yirik to‘g‘ri, chiroyli, uzun bargsiz gulbandlarda bir nechtadan joylashadi. Ikki-uch guli bir vaqtda ochiladi, xushbo‘y hidli. Rangi oq, sariq, pushti, xira qizil, zangori, binafsha va boshqa tusda bo‘ladi. Guli sapsar adirlarda va tog‘larda, sernam yerlarda o‘sadi [2].

Bu gul suv bo‘ylarida barq uradi va bo‘yi uzunligi bois suvga egiladi. Gulsapsar bilan bevafo yor parallel qo‘yilgan va bu parallelizmni yuzaga keltirgan. Ya‘ni gulsapsar bilan bevafo yorning holati bir-biriga yaqin.

O‘zbek xalq lirikasini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan folklorshunos olim A.Musaqulov arxaiik dunyoqarashda butun tabiat kabi o‘simliklar ham jonli va ongli deb tushunilganligi va ko‘pgina xalqlar o‘zlarining ilk ajdodlarini o‘simliklar totemi bilan bog‘laganligini ta‘kidlaydi [3, 207]. Islom ta‘limotida ham insonlar, jonivorlar kabi o‘simliklar jonli hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ko‘plab xalq qo‘shiqdarida o‘simliklarning joni va ruhi mavjudligi tabiiy ravishda kuzatiladi.

Ko‘rmayin bosdim tikonni,
Tortadirman jabrini.
Ko‘rsam erdi, bosmas erdim
Tortmas erdim jabrini [1, 17].

She‘rning so‘nggi bandida tikon obrazi gavdalangan bo‘lib, bu orqali noto‘g‘ri bosilgan qadam nazarda tutilgan. Tikonning bunday ma‘no vazifasini bajarishida uning biologik tuzilishi inobatga olingan. Lolaqizg‘aldoq o‘zining nafis va bejirimligi, chiroyli tarovati, xalqona shukhi, xalq tabobatida o‘zining alohida o‘rni mavjudligiga ko‘ra boshqa gullar orasida farqlanib turadi.

Qizg‘aldoq lola emas,
Kapasi qal‘a emas [1, 24].

Ushbu gul obrazining she‘rda qo‘llanish genezisiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, uning loladan farqlanishi, unga nisbatan o‘ta nozikligi, qattiq tegib ketsangiz, navnihol barglari duv to‘kilishi hodisasi aks etgan misralarga ko‘zimiz tushadi. Shunga asosan, lolaqizg‘aldoq noziklik, nafis tuyg‘ularni anglatib keladi.

Natijalar va muhokama. Xalq qo‘shiqdarida qadimiy tasavvurlar, marosimlar, irimlar, kundalik turmush tarzi, inson kechinmalari qayta idrok qilinib, umumlashtirib bayon etiladi. “Osmondagi yulduzni” qo‘shig‘ida tanosub badiiy san‘atini vujudga keltiruvchi bog‘, rayhon obrazlari qo‘llangan bo‘lib, ularning o‘ziga xos ma‘no qirralari mavjud. Bog‘ obrazi umulashma xarakterga ega bo‘lib, xalqimiz orasida unga nisbatan iliq tasavvurlar bildiriladi. Qadimdan uylar, oilalar kabi bog‘larni ham yomon ko‘zlardan himoya qilish maqsadida uning chetki qismlariga qalampir va supurgilar ekishgan. Bog‘ darvozalariga ot taqasini ilib qo‘yishgan, ko‘z tegmasligi uchun isiriq tutatishgan. Bog‘ poetik obrazining keng tarqalgan uch jihatini alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bular:

1. Bog‘ – tabiatning uyg‘oqligi, hayotning davomiyligi ramzi.
2. Bog‘ – oila totuvligi, farovonlik ramzi.
3. Bog‘ – yor va uning balog‘ati ramzi. Bunda yorning oilaviy hayotga tayyorligi, unga visoliga erishgan oshiqning esa bog‘bon darajasiga ko‘tarilishi nazarda tutiladi.

Masalan:

La‘lixonning bog‘i bor, bog‘boni yo‘q,
La‘lixonning dardi bor, darmoni yo‘q,
La‘lixon, bog‘ingga bog‘boning bo‘lay,

La'lixon, dardingga darmoning bo'lay.

Bunda “bogʻ” – La'lixon (qiz) va uning balogʻatga yetganligi, bogʻbon esa qizning visoliga erishishni orzulagan oshiq (yigit) ramzi boʻlib kelgan.

...Uyim oldi katta bogʻ,
Rayhon ekoman, deymen.
Yoringa sovgʻa qilib,
Doʻppi tikoman, deymen [24]

Ushbu qoʻshiqda kelgan bogʻ obrazi oilaviy xotirjamlik, farovonlik poetik ramzlarini ifodalab kelganki, bundan bir oʻzbek oilasining birdamlik, mehr-oqibat tuygʻulari ustida bunyod boʻlganligini tuyish mumkin. Qoʻshiqda nomi eʼzozlanib tilga olingan rayhon – xushboʻy, muattar hidli oʻsimlik boʻlib, qadimiy gul turi hisoblanadi. Bugungi kunda ham har bir oʻzbek xonadonida bu gul oʻsadi. U milliylikimiz ramzi ham sanaladi. Shu bois xalqimiz uni “jannat oʻsimligi”, deb ataydi. Rayhonni onalarimiz chakkalariga taqib yurishgan va u oʻziga xos goʻzallikni ifoda etgan. Ajdodlarimiz esa chakka, sochlarga qistirilgan gullar orqali inson farovonligi va serfarzandligiga ishora qilishgan. Qoʻshiqdan ham shunga yaqin maʼnoni uqish mumkin. Yaʼni rayhon ham bogʻ obraziga yondosh holda mehr-muhabbat, toʻkinlik, muruvvat ramzlarini oʻzida aks ettirgan.

Qoshing qaromi, qaro?
Qorongʻi boʻldi havo.
Hamma dardga bor davo,
Oshiqlikka yoʻq davo.
Doʻppi tikdim toʻr gullik,
Gullari turlik-turlik.
Shu turganlar ichida,
Mening yorimdir koʻhlik [1, 35]

Mazkur “Doʻppi tikdim” qoʻshigʻida milliy kiyimimiz sanalmish doʻppi obrazi yuqoridagi lirik parchada ham tilga olingan. Uning epiteti vazifasini bajarib keluvchi toʻr gullik sifatlashi gulning jonli tarzda emas, balki shakl, naqsh koʻrinishidagi varianti ham qoʻllanganini koʻrsatadi.

“Qaylarga boray” qoʻshigʻida oʻsma milliy hayotimizni ifodalovchi oʻsimlik turlaridan biri. U, asosan, ayollarning qosh boʻyogʻi sifatida ishlatilgan:

Qoshingni qora qilgan, jonima,
Togʻdagi barra oʻsma.
Aqlimdan judo qilgan, jonima,
Uydagi beli tasma [34-b.].

Qoshiga oʻsma qoʻyilgan qiz juda chiroyli boʻladi va oshigʻini oʻziga osonlikcha rom etadi. “Yorginam” qoʻshigʻida kelgan qiz va oʻsma timsollari buni tasdiqlab kelgan:

Qoshing asli qarodir,
Oʻsma qoʻyganing yolgʻon.
Sening uchun men kuygan,
Menga kuyganing yolgʻon [1, 36]

Mazkur misralarning shakily jihatdan biroz oʻzgarishga uchraganini “Oʻyna, lola” da kuzatishimiz mumkin. Bu xalq poeziyasining variantlilikini taʼminlaydi:

Oʻyna, oʻyna, hay lola, oʻyna!
Oʻynamasang, yor qayda, oʻyna!
Qoshing asli qarodir, oʻyna
Oʻsma qoʻyganing yolgʻon, oʻyna.
Sening uchun men kuygan, dod-ey,
Sening kuyganing yolgʻon, oʻyna [1, 37]

Demak, barra oʻsma ayollarga goʻzallik baxsh etuvchi sifatida obrazlantirilgan. U yor qoshi goʻzalligini koʻrsatuvchi yana bir muhim vosita hisoblanadi.

“Oʻzganча” nomli xalq qoʻshigʻida bogʻ poetik obrazi tarkibiga kiruvchi, uning xususiyatlarini yorqin namoyon etuvchi qizil gul haqida soʻz boradi. Qizil gulning ochilishi qalbda muhabbatning paydo boʻlishini ifodalab kelgan. Argʻuvon – Hindistonda oʻsadigan qizil rangli gul. Uning yaproqlari qatma-qat

joylashgan. Bu o‘rinda apʻyboh qizil gul bilan sinonim sifatida ishlatilgan. Ko‘p hollarda oshiq ma‘shuqasiga qizil gul sovg‘a qiladi. Chunki u oshiqning ishq uchun chekkan dard-u izzitroblarini – yurak qonini ifodalab keladi. Demak, qizil gul muhabbat ramzi sifatida ham talqin qilinadi:

Qizil gul ochilib, qildi nishona,
Sening ishqing meni qildi devona.
Sening ishqing menga qaydan yopishdi?
Tanamdan o‘t chiqib, bag‘rim tutashdi.
Qizil gul qatma-qat gul arg‘uvoni,
Qizil gullar erur oshiqning qoni.
Qizil gul tagiga borsam – ko‘rarman,
Seni jonu dilim bilan sevarman [32-b.]

Bundan tashqari, yuqoridagi satrlardan qizil gul poetik obrazining ikkinchi ma‘no ifodasini anglash qiyin emas. O‘simliklarni jonli deb tasavvur qilish natijasida qadimdan xalq folklorida xotin-qizlarni gulga qiyoslash an‘anasi mavjud bo‘lgan. Qolaversa, gullarni rangiga qarab jinslarga ajratilgan o‘rinlarni ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Shunga muvofiq, qizil gul – qiz bolaga, oq gul esa o‘g‘il bolaga tenglashtiriladi. Bu o‘rinda, qizil gulning – qizga, ya‘ni ma‘shuqaga mengzalishi fikrimizni tasdiqlaydi. Ma‘lumki, mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o‘tish jarayonlari o‘ziga xos ravishda kechgan. O‘sha davr mahsuli bo‘lmish “Tohir va Zuhro” xalq ertagida oshiq va ma‘shuqa qabridan oq hamda qizil gullarning o‘sib chiqishi yigit va qizga ishora beradi, inson ruhi abadiylikiga ishontiradi [4].

“Gul o‘g‘lon” nomli qo‘shiqda gul so‘zi obraz darajasida shakllanmagan. Balki ot so‘z turkumi (o‘g‘lon)ning aniqlovchisi sifatida qo‘llanilgan:

Gul o‘g‘lona, gul o‘g‘lon,
Gul qadrini bil, o‘g‘lon.
Gul qadrini bilmasang (ay),
Chamanda bulbul, o‘g‘lon.

Bu o‘rinda gul so‘zi epitet vazifasida kelgan bo‘lib, o‘zining asl ma‘nosidan tashqari, ammo uncha uzoq bo‘lmagan mohiyat kasb etgan. Ya‘ni “gul o‘g‘lon” – yigitning guli tushunchasi xalq tili bilan aytganda, yigitlarning eng sarasi degan mazmunni beradi.

Xalq hayotining qadimiy an‘anaviy qarashlariga ko‘ra, hayot – abadiy. U davom etadi. Va har safar bahor kelishi bilan yangilanib boraveradi. Tabiatning jonlanishi ushbu fasl bilan uyg‘un. Navro‘z, ya‘ni yangi kunning ilk elchisi – boychechaklardir. Maysalar, o‘t-o‘lanlar, gullar esa boychechakning ramziy “singillari”, undan so‘ng butun borliqni tiriltirib, jon baxsh etuvchilardir:

Boychechak chiqibdi – bugun Navro‘z ekan!
Hamma bir-biriga jigarso‘z ekan.
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi – bugun Navro‘z ekan! [1, 47]

Ilgarilari Navro‘zga qadar yetib kelganlari uchun ota-bobolarimiz shukronalar qilishgan. Chunki qahraton qishning qiyinchiliklarini yengib chiqish, ocharchilik oylaridan eson-omon o‘tib olish hammaga ham nasib etavermagan. Bahor kelishi bilan butun olamning yangilanishi bu muammoga yechim bergan. Ya‘ni ular yangi unib chiqqan turli o‘simliklar va ularning ildizlari bilan oziqlanib, ochlikni bartaraf etganlar.

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayroni.
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayronidir.
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Bahoriy bayram Navro‘zda mazkur “Boychechak” qo‘shig‘i sevib kuylanadi. U an‘ana tarzida xalqimiz ong-onigiga singib ketgan. Ushbu xalq qo‘shig‘i matniga e‘tibor beradigan bo‘lsak, uning ma‘no-mazmunini bir qarashda anglay olmaymiz:

Boychechakni tutdilar,

Tut yog‘ochga osdilar,
 Qilich bilan chopdilar,
 Baxmal bilan yopdilar.
 Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak [48].

Savol tug‘iladi: nega boychechakni tut yog‘ochga osdilar? Nega qilich bilan chopib, baxmal bilan yopdilar? Uning negizida qanday mifologik yoki tarixiy asos yashirin? Bu kabi savollarga ilmiy nuqtai nazardan folkloristik-etnografik tadqiqotlar olib borgan olim A.Musaqulovga ko‘ra boychechakning “kechmishi” quyidagichadir: “Qo‘shiqlardan birida boychechak to‘ng‘ich go‘zal qizga o‘xshatiladi. Bizningcha, yuqoridagi qo‘shiq juda qadim davrlarda ko‘klamgi marosimlarda qizlarni qurbonlik qilish marosimining bizgacha yetib kelgan ko‘rinishidir. Tut yog‘ochga osish, baxmal bilan yopish tasavvurimizda tantanali marosim manzarasini chizadi” [3, 208]. Demak, “Boychechak” qo‘shig‘ida tilga olingan jarayonlar xalqimizning uzoq yillik qadimiy an‘analarga ega bo‘lganligini isbotlaydi. Shu bilan bir qatorda, ular qadimgilarning ilk tasavvurlari, turmush tarzi, yashash shamoyili xususida qimmatli ma‘lumot beradi.

Xulosa. Xalqning ko‘p asrlik turmush tarzi mifologik qarashlar zaminida shakllangan. Bu esa, o‘z navbatida, milliy poeziyaga ta‘sirini o‘tkazgan. Bunda butun tabiat singari o‘simliklar, gullar, darxlar ham jonli va ongli, oliy ruhga ega deya tushunilgan. Ko‘p millatlar qatori turkiy xalqlar o‘zlarining ilk ajdodlarini floristik turlarga xos inonchlar, e‘tiqodiy qarashlar bilan bog‘laganligini kuzatishimiz mumkin. Shunga ko‘ra, xalq qo‘shiqlarida nabotot olami vakillarining joni va ruhi mavjudligi aks etgan lavhalar diqqatni jalb qiladi. Ular o‘zida xalqning orzu-armonlari, his-kechinmalarini aks ettirganligi bilan katta ahamiyatga molikdir.

ADABIYOTLAR:

1. Шода-шода марварид: ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Шарқ, 2006. – 416 б.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gulsapsar>
3. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.
4. <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/tohir-va-zuhra/>
5. О‘роқова, N. Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 2024, 1(3). – Б.193-199.
6. О‘роқова N. О ‘zbek she‘riyatida kapalak obrazi talqini //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
7. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 18. – P. 20-23.
8. О‘роқова, N. (2019). So‘nggi yillar o‘zbek dostonchiligida ijodkor uslubi va individualligi (I. Otamurod va U. Qo‘chqor dostonlari asosida). Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi, Qarshi, 2019. – 147 б.
9. Yorievna, U. N., & Narzulloyevna, M. L. (2024). Interpretation of the Image of Animals in Abdulla Oripov’s Poetry. International Journal of Formal Education, 3(4), 40–45. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2478>
10. O‘roqova, N., Davronova, M. (2024). Cho‘lpon lirikasida hayvonlar ramzi. CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD, 1(4), 203–212. Retrieved from <https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/1404>
11. Yoriyevna O. N. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida floristik obrazlar talqini //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-28.

Chuliyeva Nilufar A'zam qizi,
O'zMU doktoranti, PhD, dotsent
(O'zbekiston)
Email: nilufarchuliyeva19@gmail.com

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA BADIY ZAMON VA MAKON POETIKASI

Annotatsiya. Badiiy asar har bir ijodkorning ideallari, ko'ra olgan haqiqatlari, ijtimoiy munosabatlar tartibi va shu olamning shakliy xususiyatlarini aks ettiruvchi ulkan, murakkab tizimdir. Bu olamning mavjudlik shakllari esa zamon va makondir. San'at, jumladan, adabiyot ham olamning davomiy o'zgaruvchan, yaxlit manzarasini badiiy-individual tasvirlaydi. Badiiy asar muallif tomonidan real olamni subyektiv, xayoliy-emotsional tasvirlash hisobiga xususiylik kasb etadi. Ammo bu tasvirlarni adabiyotshunoslik mohiyatan umumlashtiradi. Natijada, olamning vaqtinchalik badiiy modeli yaratiladi. Ushbu badiiy modelning yaratilishida zamon va makon unsurlari katta ahamiyatga ega. She'riyatdagi zamon va makon masalasini o'rganish ham mazkur turning boshqa adabiy turlardan farqlanish xususiyatlari, tasvirlash imkoniyatlari yoki chegaralari haqida muayyan xulosalar chiqarishga daxl etadi.

Kalit so'zlar: adabiy tur, she'riyat, janr, badiiy zamon, badiiy makon, ritm, metaforik makon, tarixiy makon, tarixiy vaqt, falsafiy vaqt, siklik vaqt.

Аннотация. Художественное произведение представляет собой огромную, сложную систему, которая отражает идеалы каждого автора, воспринятые истины, порядок социальных отношений и формальные особенности окружающего мира. Формами существования этого мира являются время и пространство. Искусство, в том числе и литература, художественно и индивидуально изображает непрерывно меняющуюся целостную картину мира. Художественное произведение приобретает особенность за счет субъективного, воображаемо-эмоционального изображения автором реального мира. Однако литературоведение по сути обобщает эти образы. В результате создается временная художественная модель мира. Элементы времени и пространства играют важную роль в создании этой художественной модели. Изучение вопроса времени и пространства в поэзии затрагивает выводы о чертах, отличающих этот жанр от других литературных видов, о его возможностях или ограничениях изображения.

Ключевые слова: литературный вид, поэзия, жанр, художественное время, художественное пространство, ритм, метафорическое пространство, историческое пространство, историческое время, философское время, циклическое время.

Abstract. A literary work is a vast and complex system that reflects each creator's ideals, perceived truths, the order of social relations, and the formal characteristics of this world. The forms of existence of this world are time and space. Art, including literature, artistically and individually depicts the continuous and holistic view of a changing world. A literary work acquires uniqueness due to the subjective, imaginative, and emotional depiction of the real world by the author. However, literary criticism generalizes these depictions in essence. As a result, a temporary artistic model of the world is created. The elements of time and space play an important role in the creation of this artistic model. The study of time and space in poetry involves conclusions about the distinguishing features of this genre from other literary types, its depiction possibilities, or its limitations.

Key words: literary type, poetry, genre, artistic time, artistic space, rhythm, metaphorical space, historical space, historical time, philosophical time, cyclical time.

Kirish. Badiiy adabiyot boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, zamon va makon tushunchalari bilan oson, erkin munosabatga kirishadi. Ya'ni badiiy adabiyotning quroli bo'lmish so'z bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni, bir vaqtda bir nechta joylarda sodir bo'layotgan voqeani birgina roviyning jumlasini bilan amalga oshira oladi. (Bu joyda ushbu voqea sodir bo'layotgan vaqtda mana bu yerda bunday voqea yuz berayotgan edi deb aytib qo'ya qoladi. Bu holatda na rangli bo'yoq, na navbatdagi kadr almashinuvi kerak bo'lmaydi.) Shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyot turlarida zamon va makonning tasvirlanish usullari hamda voqelanishi biroz farq qiladi. Badiiy adabiyot turlari – she'riyat, dramaturgiya va nasrda zamon va makon shakllari hamda ifoda xususiyatlari jihatidan o'ziga xosdir.

Asosiy qism. Dastavval, she'riyatdagi zamon va makonning o'ziga xosligi haqida. She'riy matn o'lchovlari to'g'risida Tomashevskiy quyidagicha yozadi: "agar nasr chiziqli bo'lsa, unda she'r ikki o'lchovli nutqdir". Baytda "nutq harakati ikki yo'nalishda sodir bo'ladi: so'zdan so'zga va misraning bir ritmik-sintaktik qismidan keyingi misraning o'xshash qismiga o'tadi". Ya'ni misralararo harakatni vertikal, so'zdan-so'zga harakatni esa gorizontal deb belgilagan [3, 267]. Shuningdek, so'zlarning tartibi va satrlarning uzun-qisqaligi vaqtning tezligi yoki sekinligini ifodalashga xizmat qiladi. Odatda, qisqa, kam bo'g'inli satrlarda harakat tezlashadi, vaqt esa qisqaradi:

Unga uqtirdilar,
Oqni qora, deb,
Chunki bir qorani,
Oqlash lozim edi.
Unga uqtirdilar
Toqni bu – juft, deb,
Chunki bitta juftni
Toqlash lozim edi.
Unga uqtirdilar
Qing'ir to'g'ri, deb,
Chunki bir qing'irni
Yoqlash lozim edi [10, 99].

Ushbu she'riy parchada harakat ifodalovchi so'zlarning ko'pligi, qisqa to'xtamlarning salmog'i o'quvchini vaqtni his etishiga, uning joriy matndagi qisqaligini anglashiga ta'sir etadi. Aksincha, uzun jumlar, katta to'xtam va uni ifodalovchi tinish belgilari qo'llangan she'rlarda vaqt oqimi sekin, davomiy bo'ladi:

Bu xato yo'lni sekin barmog'iga o'raydi,
Makrul o'smani siqar piyolaga, to'lmaydi,
Ishq-u gunoh qozonda, o't-olovsiz qaynaydi...
Ishq-u gunoh qozonda...
Ruh qanotin savaydi, savacho'pin juft qilib,
Urchug'iga o'raydi tun-u kunni ip qilib,
Qilichini qayraydi qasd lashkarin saf qilib,
Qilichini qayraydi... [17]

Mazkur satrlardagi takrorlar vaqt oqimining davomiyligini, siklini, she'rning o'ziga xos ritmini ta'minlagan. Ikki harakat yoki tugal fikrning bir misrada voqelanishi joriy vaqt kengligini aks ettirishga xizmat qiladi. Aksincha, bir harakat-holatni bir nechta satrlarga bo'lib, to'xtamlar bilan ifodalash makon tasvirida qo'l keladi:

Oydin kecha –
Sutdek oppoq
Har yer,
Har bir joy.
Doirayi kamondan
Boqar kumush oy.
Oy nurini
Deraza
Taqib, suv oqar
Jimirlab
Oy aksi yotar.
Oy nurini
Ko'zga solib,
Ko'rdim yalangdan
Bodom gullab qolibdi
Och pushti rangda... [8, 22]

Natijalar va muhokama. Ushbu she'rda so'zlar orasidagi bo'shliq makonning badiiy kartinasini yaratishda, asosiy urg'uni makonga berishda xizmat qilgan. Muayyan vaqt nuqtasida detallarning nozik tasvirlanishi, asosan, makonning xususiyatlari, holatiga e'tiborimizni qaratadi. Umuman olganda, semiotiklarning fikricha, matn uch o'lchov koordinatasiga ega. Birinchisi, matnning boshidan oxirigacha uzunligi bilan belgilanadi; ma'lum darajadagi konventsiya bilan bu koordinatani nutq deb atash mumkin. Ikkinchi o'lchov grammatik darajalar (morfemik, leksek, sintaktik va boshqalar) ierarxiyasi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, unga parallel ravishda sof fonetik ierarxiya ochiladi: differensial xususiyatlar – fonemalar – bo'g'inlar – taktlar – jumlar va boshqalar. Uchinchisi esa so'zlarning ma'noviy jihati: denotativ yoki konnotativ ma'nosi. She'riy matnlarga ham bunday o'lchovlar oid bo'lib, odatda, buni matnning lingvistik koordinatasi deyishadi [5, 47-48]. Shuni ta'kidlash joizki, she'riyatda zamon va makonning aks etishi ritm bilan ham bog'liqdir. Ritm, vaqt va makon aloqadorligi muammosi, albatta, alohida bir tadqiqot mavzusi. She'riy matndagi joriy vaqt va makonning xususiyatlarini tahlil etish esa she'rni to'la idrok etishni ta'minlovchi omillardan biridir.

She'riyatda makon aksariyat hollarda birlamchi bo'lmaydi, balki tuyg'u va vaqt qorishadi. Masalan:

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega buncha g'amgin nayning navosi?
Nega qalbim to'la o'kinch va malol? [9, 72]

She'rdagi "bahor kunlari", "oqshom" – badiiy vaqtni ifodalovchi bu so'zlar "g'amgin", "o'kinch", "malol" kabi tuyg'u ifodalovchi so'zlar bilan mutanosib tarzda lirik qahramon holatini tasvirlamoqda. Badiiy zamon xususiyatini ochib berish uchun shoir uni belgi jihatidan ikki qarama-qarshi vaqt bilan qo'llamoqda: "*Bahor kunlarida kuzning havosi*". Ba'zi she'riy matnlardagi badiiy zamon vaqtning aniq o'lchov birliklari: bir kun, ikki hafta, uch oy, bir yil tarzida ifodalanishi mumkin. Bu holda lirik qahramonning muayyan, aniq zamondagi harakat-holati belgilanadi. Ruhiiy chizgilardagi ta'sirchanlik ortadi:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada.
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat [11, 114].

Misralardagi "olti oykim" birikmasining takrori she'rga o'ziga xos ritm bag'ishlagan. Shuningdek, muayyan vaqtning aylanma harakatini, lirik qahramon ruhiy holatining davomiyligini ifodalagan.

Odatda, she'riyatda lirik kayfiyatni, lirik qahramon hayotining biror bir davrini ifodalashda badiiy vaqt tashbehlar orqali voqelanadi. Quyidagi parchada "bahorimning yillari", "tunlarning sirlari" lirik qahramonning yoshlik davrini, yoshlikdagi sevgi xotiralarini anglatmoqda:

Men sizga achinmayman, vafosiz sevgilarda
Behuda oqib o'tgan bahorimning yillari!
Men sizga achinmayman u otashin naylarda
Ehtiros-la kuylangan, ey tunlarning sirlari [12, 57].

She'riyatda nasrdan farqli ravishda aksariyat hollarda obyektning qismlari orqali muayyan, yaxlit makon haqida ham tasavvur anglashiladi:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak... [15]

Mazkur she'rdagi qoya umumiy makonning bir qismini ifodalab, butun tog' tizmalarini, yovvoyi tog' tabiatini ko'z oldimizda jonlantiradi. Kichik makon orqali katta, umumiy makon manzarasi assotsiativ tafakkur vositasida anglashiladi. Shuningdek, she'riyatda makonning aynan qayer ekani keltirilmay kichik detallar, predmetlar vositasida aniq makon haqida tushuncha paydo bo'ladi:

Yolg'iz o'tiraman, jimjit, sokin tun,

Chirsillab yonadi tugayozgan sha'm,
 Qo'yin daftaringa chizadi betin
 Bir dilbar suratini qadrdon qalam:
 O'tgan xotiralar asta jonlanar
 Qonli pardalarda soya singari,
 Barmoq-la ishora qilmoqqa shoshar
 Menga ezgu bo'lgan damlarning bari [16].

She'rning boshidan oxirigacha shoir o'zining qayerda ekanini so'zlamaydi. Ammo chirsillab yonayotgan sha'm, qo'yin daftar, yor portreti, parda detallaridan shoirning faqat o'zigagina tegishli, xilvat, xavfsiz, yopiq bir makonda ekani anglashiladi. Ba'zi she'rlarda makonga xos tafsilot-u tashbehnlarni qo'llab, shu badiiy makonni ifodalash ham mumkin. Jumladan, quyidagi parchada "Vatan" so'zini qo'llamasdan ham poetik mazmun ona yurt haqida ekani ayon bo'ladi:

Zamburug'ning zahira ganjidan shirin,
 arazkash suluvning ranjidan shirin,
 hur go'dak "inga"sin avjidan shirin
 hilqat bor –
 Bir aziz. Bii-ir aziz..." [18]

Shuningdek, detallar, predmetlar orqali nafaqat muayyan makonga, balki millatga, milliylikka ham ishora etiladi. Umuman olganda, makon va milliylik, milliy xarakter tushunchalari bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lib keladi. Masalan:

Qay qo'raga kirsang – eshigi ochiq,
 Bir nima tatiysan, qo'yimas, aslo och.
 Qoraqumg'on qaynar, yozilur chochiq,
 Zog'orami, so'kmi, yovg'on yo umoch
 Borini ayamasi, barini qo'yar.
 Yupqami yo go'ja, talqon, qo'g'irmoch,
 Qurutmi yo jiyda – o'rtaga uyar [7, 207].

Misralardagi ochiq eshik (uy makonining bir qismi; mehmondo'stlikka ishora), qora qumg'on, taom va oziq-ovqat nomlari o'zbek diyori, o'zbekka xos xarakter va milliy turmush tarzini ifodalashga xizmat qilmoqda.

She'riyat ruhiyatimizni idrok etishga qaratilgani uchun makon, ko'pincha, mavhumlik sifatiga egadir. Binobarin, murakkab ruhiy tabiatimizning tortishish kuchi noaniqlik makoni bilan oson uyg'unlashadi:

Siz, azizim, laziz ismim endi hech qachon
 Na kun, na tun, *hech qayerda* aytmayisiz, tamom.
 Va kaliso tinchin buzib endi bir zamon
 Boshimizda yangramagay ilohiy kalom [19].

Ushbu bandda *hech qayerda* birikmasi mavhum makonni ifodalamoqda. Odatda, hech yer, hech joy, hech qayer, qayerdir kabi so'zlar mavhumlik, noma'lum joy ma'nosini beradi. Bu so'zlar bilan bog'liq voqea-hodisa, jarayon va harakatlar ham bo'lishsizlikni xarakterlaydi.

Yo'l makoni esa o'z ma'nosidan tashqari metafora tarzida "hayot, umr, taqdir, mashaqqat, ilm, adolat, ezgulik, qaror" va hokazo ma'nolarni ifodalab keladi. Bu ma'nolardan qaysi biri qo'llanmasin mazkur makon turli chiziqli (vertikal yoki gorizontaal) shaklda tasavvurimizda akslanadi: "Haq yo'li, albatta, bir o'tilg'usi Jandalar tanimga tekkan kunlarda!.." Yoki:

Yurgan yo'lim to'fon bu g'amli fursat...
 Qat'iyat ko'z yoshday oqqan mahali,
 Yurak, rahming kelsin, to'g'ri yo'l ko'rsat,
 Men qanday Boysundan ketay ajralib? [20]

Yuqoridagi satrlarda yo'l – adolat, haqiqat; taqdir, to'g'ri qaror qilish yo'li mazmunini tashimoqda. Ammo bir jihat borki, yo'lining gorizontaal va vertikaliga ko'ra, ma'noviy anglami, tasvir usuli farqlanadi. Ya'ni: "oddiy odam gorizontaal yo'lni bosib o'tishi va uni maxsus harakatlar bilan yakunlashi mumkin, ammo vertikal yo'lni faqat majoziy ma'noda – uning ruhi bilan yakunlash mumkin"

[4, 261]. Yo‘l, odatda, har qanday mazmunda muayyan manzilga eltuvchi makon bo‘lib, davomiylik ma‘nosini beradi.

She‘riyatda zamon juda nozik his etiladi. Ya‘ni bu turdagi zamon ko‘proq lirik qahramonning ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lgani uchun o‘tmish, hozir va kelajak o‘zaro uyg‘unlashib, jiplashib ketadi:

Og‘ir yo‘lda,
Olis yo‘lda
Yiqildim dema,
O‘zi qisqa yo‘lning yarmida
qolding sen.

Hali, tamom, degan gap emas... [13, 213]

Yoki shu shoirning:

Ba‘zan nafis hislar uyg‘onar,
To‘lqinlar to‘lg‘onar qalbingda...
Mayli, qayg‘u qoshingda turar,
Lekin shodlik bordir oldinda [13, 157].

Birinchi parchadagi lirik qahramonning o‘tmish va hozirdagi holati “hali, tamom, degan gap emas” tarzidagi qarori harakatning davomiyligini, uning kelasi zamonga daxldorligini e‘tirof etmoqda. Ikkinchi parchada “lekin shodlik bordir oldinda” izohi hali oldinda turgan imkoniyatlar va vaziyatlarni qo‘lga olish kerakligi haqida xabar bermoqda. Natijada, qahramonni kelasi zamon bilan bog‘lamoqda. “Og‘ir yo‘l, olis yo‘l” ifodalari esa metaforik ma‘no tashigan. Badiiy makonni ham metaforik makon deyishimiz mumkin.

She‘riyatda zamonning tarixiyligini ta‘minlash uchun ko‘proq ma‘lum obyekt bilan qiyoslash yoki misollar orqali dalillash yo‘lidan boriladi. Bu orqali asarning emotsionalligi ta‘minlanadi. Shoirning tasavvur va tafakkur kengliklari necha ming asrlar oldinga, qadimiy makonlarga borib tutashadi:

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o‘zbekim,
Senga tengdosh *Pomir-u*
Oqsoch *Tiyonshon*, o‘zbekim.
So‘ylasin *Afrosiyob-u*,
So‘ylasin *Urxun xati*,
Ko‘hna tarix shodasida
Bitta marjon, o‘zbekim [14, 67].

Ko‘ringanidek, mazkur misralarda ming asrlik tarixga ega ulug‘ona diyor tasvirlanmoqda. Shoir bu tarixning qadimiyligini dalillash uchun Pomir, Tiyonshon tog‘lari, Afrosiyob (qadimiy qal‘aning nomi; afsonaviy qahramon), Urxun yozuvi kabi ifodalarni faol qo‘llaydi.

She‘riy asarlarda vaqt majoz vositasida ifodalangan ekan, uzoq vaqt oniy lahza sig‘imidek, tez, “yugurik” bo‘ladi. Bunday vaqtga mos harakat ham majoziy xarakterga ega bo‘ladi:

Men she‘r yozsam,
Endi uni qog‘ozga emas,
Anov yal-yal yonayotgan o‘tga yozaman... [6, 66]

Mazkur misralarda she‘r va o‘t-olov so‘zlari dard va yurak tushunchasini yetaklab keladi. Olovning yal-yal yonishi go‘yoki, she‘rda yurak urishini ifodalab, nutqqa ham o‘zgacha ohang bag‘ishlaydi. Shoir yuragida – ichki makonda kechayotgan tuyg‘ular vaqtning ham subyektivligini ifodalaydi.

Vaqt kategoriyasining o‘zi ham she‘rning asosiy mulohaza predmeti, falsafiy asosi bo‘lishi mumkin:

Vaqt o‘tmoqda,
Nonushtasi yo‘q, tushligi yo‘qdir uning,
U davomli harakat uyqusida.
Vaqt o‘tmoqda [13, 317]

Ushbu satrlarda vaqtning ustunligi seziladi. Ya‘ni, odatda, ba‘zi she‘rlarda badiiy vaqt markaziy o‘rinda turadi. Bu she‘rlar ko‘pincha vaqtning o‘tuvchanligi, inson umrining qisqaligi yoki abadiylik

haqidagi falsafiy mulohazalarni aks ettiradi. Bunday asarlarda makon ikkinchi darajaga tushib, asosan vaqtga bog'liq holda ma'no kasb etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'ringanidek, lirik she'rlarda ko'pincha vaqt shaxsiy tajriba va his-tuyg'ular orqali yetakchilik qiladi. Manzaraviy, tarixiy (ba'zan ijtimoiy) mavzulardagi she'rlarda esa makon markaziy o'rinni egallashi mumkin. Ko'pgina hollarda esa vaqt va makon bir-birini to'ldirib, she'riy asarning mazmunini chuqurlashtiradi. Ba'zan she'riyatda zamon va makon masalasi she'riy janrlar hamda ularning shakliga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, sonet janrining shakli vaqtning qisqarishi, aniq bir vaqt mobaynida kechadigan voqealarni tasvirlash uchun shakl va ritmning o'zi vaqtning o'tishini ifodalaydi. Yozish uslubi, satrlarning uzunligi, she'rning ritmi va tuzilishi o'quvchiga joriy vaqt qanday o'tayotganini his etishga yordam beradi. Demak, she'r shakllari orqali ham vaqtning o'tishini yoki davomiyligini anglash mumkin. Umuman olganda, she'riyatdagi ritm, zamon, makon masalalarini yaxlitlikda o'rganish mazkur tur va tushunchalarni nazariy hamda mazmunan teranroq anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Башляр Г. Избранное: Поэтика пространства /Пер. с франц. – М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. – 376 с.
2. РИТМ, пространство и время в литературе и искусстве. Ред.кол. – Л.: Наука, 1974. – 300 с.
3. Томашевский Б. О стихе. – Л: Прибой, 1929. – С. 254-318.
4. Топоров В.Н. Пространства и текст // Текст: семантика и структура. – М., 1983. – С. 227-284.
5. Шапир М.И. Язык-стих-смысл в русской поэзии XVIII-XX веков. – М.: Языки русской культуры, 2000. – 536 с.
6. Matjon O. Maqsudam. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 128 b.
7. Mirtemir // Turkiy adabiyot durdonalari. 20 - jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2022. – 296 b.
8. Nosir U. Ertani sevinib kut. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 120 b.
9. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – 128 b.
10. Oripov A. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2001. – 496 b.
11. Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2000. – 432 b.
12. Pushkin A.S. Bog'chasaroy fontani. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 440 b.
13. Rauf Parfi. Saylanma. 1- jild. – Toshkent, Muharrir, 2022. – 416 b.
14. Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 320 b.
15. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/oybek-1905-1968>
16. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/mixail-lermontov-1814-1841>
17. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/aziz-said-dili-qani-bedilning.html>
18. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hol-muhammad-hasan-sherlar.html>
19. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/marina-svetayeva-besh-tarjima.html>
20. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/usmon-azim-1950>

*Keldiyorova Naima Nabijonovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Renessans ta'lim universiteti (v.b.) dotsenti
(O'zbekiston)
E-mail: naima2020@bk.ru*

AZIM SUYUN SHE'RIYATIDA MAVZU VA OBRAZ MUNOSABATI

Annotatsiya. Badiiy asar mavzusi adabiyotshunoslikda ko'p o'rganilib kelinayotgan asoslardan biri hisoblanadi. Maqolada o'zbek she'riyatida mavzu va uning obrazlar bilan munosabati Azim Suyun ijodi misolida yoritilgan. Shoir she'riyatidagi murojaat etilgan mavzular guruhlashtirilgan va tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: mavzu, badiiy obraz, hayotiy material, peyzaj, ramz, tabiat tasvirlari

Аннотация. Тема художественного произведения является одной из основ, которая часто изучается в литературоведении. В статье рассматривается тема и ее связь с образами в узбекской поэзии на примере творчества поэта Азима Суюна. Темы, затронутые в поэзии поэта сгруппированы и подвергнуты художественному анализу.

Ключевые слова: сюжет, образ, жизненный материал, пейзаж, символ, образы природы.

Abstract. The theme of a work of art is one of the foundations that is often studied in literary criticism. In the article, the theme and its connection with images in Uzbek poetry are revealed using the example of the work of Azim Suyun. The topics touched upon in the poet's poetry are grouped and analyzed.

Key words: subject, image, life material, landscape, symbol, images of nature

Kirish. Ma'lumki, adabiyotshunoslikda mavzuga turli ta'riflar berilgan. Xususan, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da: "...badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va h.k. muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali", deyilgan [1,157]. Lekin ana shu "hayotiy material" asosida inson va uning obrazi yoki hayot tasviri turishi, shoirning uslubini yuzaga chiqaruvchi vositalar mavjudligi haqida fikr bildirilmagan. To'g'ri, qaysidir ma'noda bu ta'rif o'zini o'qiydi. Lekin bir qarashda tushunarlidek tuyulgan mavzu (tema) degan terminga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Chunki so'z va atama ma'nosiga chuqurroq kirib borilsa, uni bir qancha variantda qo'llanishi ayon bo'ladi. "Mavzu – 1. Qo'yilgan, tartibga solingan, qarorlashtirilgan; 2. Ega (mantiqda); 3. Uydirma; 4. "Tuzilgan tema" kabi ma'nolarda ishlatilishi mumkinligi izohlangan [2, 44]. Rus tilidagi manbalarda esa yunonchadan olingani va "asosida bo'lmoq" ma'nosidan olingan bo'lib [3, 61], "1) bayon qilish, tasvirlash, tadqiq etish, muhokama qilish predmeti; 2) muammolarning qo'yilishi, hayotiy materiallarni oldindan tanlash va badiiy asar rivoyasini xarakterlash..." kabi ma'nolarda qo'llanishi yozilgan [4,502]. Diqqat qilinsa, asardagi aytilayotgan voqea, muhokama qilinayotgan hodisa predmeti mavzu sanaladi. Muammolarning qo'yilishi, asar uchun tanlangan hayotiy materiallarning oldindan tanlangan qismi va ularni qay tarzda bayon qilish ham mavzu hisoblanmoqda.

Asosiy qism. Mavzu asardagi asosiy gap nima haqida borayotgani va uni qanday tanlanganidan tortib, qay tarzda ifodalashgacha bo'lgan chegarani qamrab oladi. Shu yerda obraz ham mavzu bilan o'zaro munosabatga kirishishi oydinlashadi. Chunki shoir tasvirlayotgan kechinma, o'y-fikr, voqea real mavjudlikning tasviri ham hisoblanadi. Bu esa mavzu va obrazning zich munosabati borligini ko'rsatadi. Ya'ni tema lirik asar (umuman olganda, har qanday badiiy asar)dagi voqealarni anglatadi, demak u obrazni ham, aniqrog'i, ma'lum davr, jamiyat, hodisa, vaziyat obrazini ham anglatishi mumkin. Masalan, shamol tabiat hodisasi, uni she'riy asarda aks ettirgan shoir shamolni obraz darajasiga olib chiqishi mumkin. Shu yerda u real voqealidagi shamoldan obraz darajasiga o'sib chiqadi va insoniy xarakter yoki xususiyat kasb etadi. Masalan, shunga o'xshashlikni Azim Suyun she'ri misolida isbotlashga harakat qilamiz:

Qoramtir, qontalash, qumlar tusida,
Quti o'chgan, malla, qizilbulutlar,
Qandaydir vahmkor xil-xil bulutlar,

Shoshqin to‘planmoqda cho‘qqi ustida [5,59].

Mazkur she‘rning bosh mavzusi tabiatda uchraydigan hodisa, aniqrog‘i, lirik subyekt yaxshi ko‘radigan cho‘qqi ustida qora bulutlarning to‘planishi, so‘ngra, chaqmoq va shamol natijasida ularning tarqalib, cho‘qqi yana bor bo‘yicha ko‘rinishi haqida bo‘lib, shoir bulut, cho‘qqi, shamol, momoqaldirroqlarni obraz darajasiga olib chiqqan hamda she‘r mavzusiga ijtimoiy-ma‘naviy muammolarni joylay bilgan. Xususan, bu yerda zulm, shaxs erki va oydinlarni qatag‘on qilishga qarshi isyon g‘oyalari bo‘lib, biror jamiyat, jila qursa, biror tashkilotda buzilayotgan ma‘naviy-ijtimoiy inqiroz tasvirlangan. Qoramtir bulutlar timsolida hayotda uchraydigan ichiqora, hasadchi, xudbin, o‘zidan ustun kishilarga qarshi yomonlik sog‘inuvchi kishilarni anglash mumkin. Bunda cho‘qqi ozod va erkin shaxs sifatida, kishilarni ziyoga undovchi, xalq oldida ma‘lum vazifalarni beg‘araz, chin ko‘ngildan bajaruvchi kishi sifatida tilga olinadi. Bulutlar o‘zlari cho‘qqi bo‘lmagach, cho‘qqi va uning xalqqa kelayotgan yaxshiliklarini to‘sisib qo‘yishmoqchi bo‘lishadi. Ular cho‘qqini yo‘q qilishga chog‘langan. Buni anglagan lirik subyekt shamol va momoqaldirroqni yordamga chaqirgan. Demak, she‘r tabiat hodisasi haqida bo‘lsa-da, shoir obrazlar yordamida real hayotda uchraydigan ma‘naviy zulm, hasad, ma‘naviy qashshoq kishilar tasvirini ham bergan. Bu esa shoir she‘rlarida obraz mavzu va uning zamiridagi badiiy g‘oyadan kelib chiqib, ramzga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, mavzu nisbatan anchayin keng tushuncha bo‘lib, u bir qancha poetik masalalarga ham bevosita ta‘sir etadi. V.M. Jirmunskiy: “Ashyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan har bir so‘z til haqidagi fanda, faqat umumiy tushunchalarni ifodalaganda, san‘atkor uchun poetik mavzu, badiiy ta‘sirning o‘ziga xos usullari hisoblanadi. Shuning uchun lirikada ko‘pincha butun boshli poetik yo‘nalishlar mavzular yordamida aniqlanadi. Masalan, sentimental-shoirlar uchun “g‘amgin”, “horg‘in”, “majolsiz”, “g‘ira-shira payt”, “ko‘zyosh”, “qayg‘u”, “jasad qutisi” kabi so‘zlarni qo‘llash odatga aylangan” [6,30], – deb qayd etgan. Ko‘rinadiki, mavzu she‘riy asardagi yo‘nalishni belgilaydi. O‘z navbatida esa olim sanagan so‘zlarni ma‘lum obrazning holati, kechinmalariga nisbatan qo‘llangan esa aniq obrazni nazarda tutgan bo‘ladi. Shu ma‘noda, mavzu to‘g‘ridan-to‘g‘ri obraz bilan munosabatga kirishadi, deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki har qanday mavzu ma‘lum kechinma, o‘y-fikr, mulohaza ko‘rinishida ifodalanar ekan, u qaysidir lirik subyektga mansub bo‘ladi. Yana ham aniqroq aytganda, lirik qahramonga (ba‘zan u shoirning o‘zi ham bo‘lishi mumkin – N.K.) tegishli bo‘ladi. Shuning uchun mavzu va obraz yoki obraz va mavzu muammosi dolzarblik kasb etadi.

Aslida, Azim Suyun she‘riyati mavzu ko‘lamining kengligini, rang-barangligi bilan ajralib turadi. She‘rning zaminida Vatanga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat, borliq – ona tabiat go‘zalligini ulug‘lash, insonni anglashga intilish, oddiy kishilarning olamni anglashi kabi mavzularning asosida Hazrati insonni tushunish, insonni kuylash, hayotsevarlik, ishq-muhabbat motivlari yotadi. Shoirning tabiat mavzusida bitilgan she‘rlarida borliq ham vatanning bir bo‘lagi sifatida kuylanib, butun go‘zalligi jonli va nafis manzaralarda tasvirlanadi. Shoir yaratgan poetik obrazlar zamon, davrning global muammolari bilan, tinchlik, ozodlik, vatanparvarlik motivlari bilan sug‘orilgan.

Shoir ijodining mavzu ko‘lami, yo‘nalishlari, voqelikni ko‘ra olishi, ifodadagi an‘anaviylik, tasvirdagi o‘ziga xoslik kabilar ijodiy olamni bezovchi vositalar sanaladi. Binobarin, shoir she‘riyatining mavzu ko‘lami ham ayricha e‘tibor qaratishni taqozo etadi. Shuning uchun shoir she‘rlarini jiddiy o‘rganib, mavzu jihatidan quyidagi guruhlariga bo‘lishni lozim topdik:

1. Vatan va vatanparvarlik mavzularida yozilgan she‘rlar.
2. Tabiat tasvirlari, ona zamin tabiati kuylangan mavzular.
3. Inson va insoniyatga xos bo‘lgan falsafiy ruhda yozilgan she‘rlar.

Ma‘lumki, Vatan madhi adabiyotning boqiy mavzularidan biridir. Ko‘p shoirlar o‘z ijodining bir yo‘nalishini vatan bilan, ona zamin bilan bog‘laydi. Ular ijodida vatan o‘ziga xos poetik obrazga aylanib, turli timsoliy va ramziy ma‘nolarni ifodalab keladi.

Azim Suyun she‘riyatida ham ko‘p va xo‘p kuylangan mavzulardan biri vatan va vatanparvarlikdir. Shoir she‘rlarida vatan tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega bo‘lib, kindik qoni to‘kilgan ona zaminni ham, insoniy burch va sadoqatni ham, eng qadrdon insonlarni ham, milliy qadriyatlarni ham o‘zida mujassam etadi. Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam bu haqida o‘rinli fikrlarni aytib o‘tgan edi: “Ijtimoiy adolat, vatanparvarlik, inson manfaatlari 70-yillar avlodining kredosiga aylandi. Shunday qilib, bir necha o‘n yillardan beri asosiy e‘tibori hukmron mafkuraga qaratilgan o‘zbek she‘riyati 60 va 70-

yillar avlodi siymosida yana abadiy o‘zanlarga qayta boshladi, insonni, uning manfaatlarini, Vatanni, uning dardlarini tarannum etmoqqa tutindi” [7,117]

Azim Suyunning “Vatan” nomli she’ri bilan “Nakurt qishlog‘i” she’rida o‘ziga xos hamohanglik bor. Garchi “Vatan” she’rida ikkita kichik sahna tasviri orqali “har kimga o‘z tug‘ilgan go‘shasi aziz”, degan hikmat mujassam bo‘lsa-da, uning mohiyatida vatanga, tug‘ilgan ona zaminga mehr-muhabbat yotadi. Dialog asosiga qurilgan ushbu she’rda bir umr tog‘li hududlarni o‘zlariga maskan tutib yashaydigan birodar-ovuldoshlari shoirga sahro-yu cho‘lni o‘zlariga makon tutgan odamlar u yerlarda qanday chidab yashab kelar ekan, deya savol berishadi. Keyingi safar esa sahroliklar uni savolga tutishadi:

– Ular qanday yashaydi, oshnam,
Qon qaqshagan tog‘ orasida? [5,41]

Ko‘rinib turibdiki, shoir she’rda kontrast tasvir orqali vatan tushunchasini ikkita hayotiy manzarada tog‘liklar nigohi orqali cho‘lda yashovchilarga bo‘lgan hayratni, cho‘ldagilarning esa tog‘ sharoitiga ko‘nikib yashayotganlar haqida tug‘ilayotgan savollari tasviri orqali mohiyatda har birining tug‘ilib o‘sgan zaminga bo‘lgan mehr-muhabbatni ifodalamoqda.

Shoirning “Nakurt qishlog‘i” she’rida esa shu mazmun bor ko‘lami bilan o‘zining yorqin ifodasini topgan. Aslida Nakurt shoir tug‘ilib o‘sgan qishloqning nomi bo‘lib, Nurota tog‘ tizmasi orasida joylashgan. Qishloq atrofi daralar bilan o‘ralgan, har bir darada esa ko‘plab buloqlardan suvlar shaldirab oqib, bu go‘sha o‘zgacha tus beradi. Aynan ana shu go‘zallik, lirik subyekt botiniy olamidagi ushbu go‘shaga bo‘lgan muhabbat, tiriklikka hissiy munosabatni kuchaytirib, o‘quvchiga badiiy-estetik ta’sir etadi. Shu tariqa, shoir bisotidagi bor go‘zal tuyg‘ularini kindik qoni to‘kilgan ona zaminga bag‘ishlaydi.

Shoir go‘zal tasvirlarni birin-ketin ifodalar ekan, ana shu tasvirlar ortida lirik obrazning tanlangan mavzu misolida ko‘ringan hayotsevarlik g‘oyasi anglanadi. Lirik qahramon tafakkurida esa lojuvard ufqlarga yoyilgandek kamalak o‘ylar g‘ujg‘on o‘ynayotganligini va mana shu kamalakdek tovlanayotgan o‘ylar fonida tug‘ilib o‘sgan ona maskani – uyi borligi haqidagi e’tirofi bilan boshlanadi. Aynan shu yerda mavzu va obraz yaxlitlashib she’rning kompozitsiyasini ham yuzaga chiqaradi. Demak, obraz va mavzu yaxlit tizimga aylanib lirik syujet va she’riy kompozitsiyani ham namoyon etgan.

Shoir keyingi misralarda Nakurt qishlog‘ining ta’rif-tavsifiga o‘tadi va tasvir ortida lirik kechinma tabiatidagi jo‘shqinlikni namoyon etadi. Lirik kechinmaning bunday ifodasi esa hayotga muhabbat bilan qarash, o‘zi yashaydigan yurtga mehr qo‘yish, shu yerda muqim yashash, kurashish, mehnat qilish, inson va unga tegishli bo‘lgan an’nalarni hurmat qilish, an’nalarni davom ettirish kabi umuminsoniy qadriyatlarni yuzaga chiqaradi:

Uning osmonida burgut qanotin
Shiddati havoni qalqitar tinmay.
Cheksiz kengliklarga bo‘z muhabbatin
Cho‘pon tili bilan izhor etar nay.
Olmos qoyalarda olmos nur o‘ynar,
Cho‘qqilar uzra, huv, jayron bolasi.
Buloqlar boshida kakliklar kuyalar,
Sozlarin bastalar tog‘ shalolasi [5,41].

Biroq shoir she’rda bu ona maskanning faqat tabiat bilan uyg‘un bo‘lgan go‘zalliklarinigina tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi, balki uning shonli o‘tmishini, ne-ne yovlarga bo‘yin egmay kurashgan botir xalqini ham tasvirlab, mana shular zamirida vatan degan muqaddas tushuncha namoyon bo‘lishini sharaflaydi. Shu tariqa tog‘lar orasidagi mo‘jaz bir qishloq tasviri orqali vatanning umumlashma obrazini yaratadi.

Natijalar va muhokama. Azim Suyun ijodining dastlabki davrlarida vatan obrazini yaratishda ko‘proq tug‘ilgan yurt bilan uzviy bog‘liqlikda ifodalashga intilish kuchli ekanligini ko‘ramiz. Uning “Ufq osti” she’rida ham yuqoridagi kabi mazmun ustuvordir. Bunda ham vatan manzarasi tabiat bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. She’rda tanish manzaralar, ufq ostida tik tushgan cho‘ng qoyalar, ko‘kka bo‘y cho‘zgan archazorlar, o‘ng‘irlardagi chopqir irmoqlar, daraxtlarga chirmashib o‘sayotgan kechpishar toklar, keng soyxonlikka qarab ishva bilan kuylab borayotgan buloqlar, boshi uzra feruza osmon,

shovullayotgan yong‘oqzor, xullas, tabiatning mangulikka muhrlangan ajib bir lahzasi. Va mana shu lahzada namoyon bo‘layotgan hayotiy bir lavha:

Yonbag‘irda pastqam kulba bor,
Oldi supa, supada sho‘x-shodon –
Cho‘ponlarning gurungi, sasi,
Tosh o‘choqda choydosh nafasi... [5, 45]

Mana shu jonli hayotiy lavha, shoirga vatanga, tug‘ilgan go‘shaga bo‘lgan mehr-muhabbatini quyidagicha ifoda etish asosini yaratadi.

Ey do‘st! Kezsam yiroqlar tomon,
Men bularni qo‘msayman doim.
Ko‘z o‘ngimdan o‘tar har qachon,
Bilsang, u joy – tug‘ilgan joyim! [5, 46.]

Ko‘rinib turibdiki, shoirning vatan haqidagi she‘rlarining markazida o‘z tug‘ilib o‘sgan yurti, ona qishlog‘i tasviri yetakchi o‘ringa ega. Shoir kichikdan kattaga, konkretlikdan umumlashma tomon borib, ona vatanning ulug‘vorligini shu tariqa ochishga erishadi. Bunda vatan ta‘rifini anglagan lirik subyekt tasviri katta hayotiy tajribaga ega, nisbatan qat‘iyatli shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, mavzu va obraz munosabatida uyg‘unlik yuzaga keladi. Bundan mutanosiblik esa shoir yaratgan badiiy asar konsepsiyasining to‘kisligiga xizmat qilgan.

Shu o‘rinda badiiy asar konsepsiyasi tushunchasiga ham qisqacha izoh berishga zarurat bor. Zero, konsepsiya umumlashma atama bo‘lib, badiiy asar g‘oyasini ham, ijodkorning badiiy niyati, davr bilan hamnafas nuqtalarini, keng ma‘noda esa asarning barcha komponentlarini o‘zida birlashtiruvchi mohiyatni o‘zida namoyon qiluvchi g‘oyaviy-estetik asos hisoblanadi. Bunday asosning yuza chiqishida badiiy obraz yetakchi o‘rinda turadi. Zero, badiiy obraz hayotning shaklini aks ettiradi va dunyoning umumiy manzarasini yaratadi, yo‘sinidagi ilmiy fikrlar mavjud. Ayni paytda, poetik obraz ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, faqat predmetni ifodalabgina qolmasdan o‘zida lirik “men”ning munosabatini ham aks ettiradi. Bejiz Yan Paradovskiy “obraz she‘riyatning qoni”, deya asosli metaforik fikrni bildirmagan. Poetik obrazda ijodkorning konsepsiyasi, dunyoqarashi, badiiy-estetik didi, his-tuyg‘ulari, ruhiyati, poetik nigohi – barcha-barchasi umumlashib badiiylikni ta‘minlovchi “qon”ga vosita bo‘ladi. Haqiqiy ijodkor tomonidan yaratilgan obraz ochiq va “tesha tegmagan” so‘zlar vositasida tasvirlanishi, u shu onga qadar o‘zga ko‘zlar ilg‘amagan narsani ifodalashi, o‘zida yorqin bo‘yoqlarni aks ettirishi, to‘kis va boy bo‘lishi bilan bir qatorda, so‘zni siqiy, qisqa va nafis shaklda ifodalashi zarur. Bu esa shoirga poetik obraz orqali teran mazmun ifodalashga xizmat qiladi.

Aslida, vatan ozodligi mavzusi shoir she‘riyatida yetakchilik qilishini yuqorida ta‘kidlaganmiz. Fikr isboti uchun boshqa bir she‘rini tahlil etamiz. Jumladan, “Tutqun” she‘ri ham hayotiy, jonli epizodlar orqali vatanparvarlik g‘oyasini yuksak pardalarda aks ettiradi. Tutqunlikka tushib qolgan yigitni g‘animlar ma‘nan mag‘lub etmoqchi bo‘lib, bir safar unga onangdan ayrilding, deb xabar berishadi va uning ko‘zlarida qatra yosh ko‘rmoqchi bo‘ladilar. Lekin g‘animlar lirik obrazning har qanday vaziyatda ham bosh egmasligini bilishmas edi: “mag‘rur qoldi, mag‘rur bosh”. Chunki ularga yurt ozodligi har narsadan ustun degan aqida begona edi. Shuning uchun onasidan keyin yorini o‘ldiga chiqarishadi. Ammo bu safar ham tutqunning mag‘rur boshi g‘animlarga egilmaydi. Chunki lirik qahramonning qaddini tik tutib turuvchi vatanga muhabbat tuyg‘usi, yurt ozodligi g‘oyasi bor edi. Shuning uchun vatan qo‘ldan ketganini eshitgan qahramon joni ko‘z yosh bo‘lib chiqib ketadi:

Qasoskor xabarlar bilmas had,
Vatandan ayrilding, dedilar
Va uning ko‘zida so‘nggi dard –
Qatra yosh ko‘rmoqchi edilar,
Qatra yosh...
Bir qalqdi... Jon edi o‘sha yosh![5.18.]

Xulosa. Ta‘kidlash joizki, bu o‘rinda shoir vatan tushunchasini g‘oyat ta‘sirli va hayotiy epizod orqali ifodalab bermoqda. Tutqun qismati fojiviy xarakterga ega, lekin uning shijoatli qalbi g‘animlarga egilishdan ko‘ra, mag‘rur turib jon berishni afzal ko‘radi. Bu o‘rinda shoirning poetik nigohi yigitning ornomusi bo‘lgan eng xarakterli, eng mo‘tabar obrazlarni tanlab olishi bilan ham belgilanadi. Zero, ona

ham, sevikli yor ham yigit uchun vatandek muqaddas. Bu uch tushuncha badiiyatda xuddi hayotning o'zi kabi bir-biriga mustahkam rishtalar orqali bog'lanib ketgan bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Shoirning mahorati shundaki, ona va sevikli yor obrazlarini undan keyin kelayotgan vatan timsoli bilan biriktirib yuboradi. Ona va yor haqidagi xabarlarda "mag'rur qolgan mag'rur bosh" ularning timsoli uyg'unlashgan vatan haqidagi xabardan so'ng jonga aylanadi. Zero, ona ham, suyukli yor ham faqat vatan degan tushuncha bilan birga ifodanadi. Mazkur she'r sho'ro saltanati hukmronlik qilgan yetmishinchi yillarda yozilgan bo'lishiga qaramasdan, vatan mavzusida jasorat bilan yozilgan go'zal va umrboqiy she'rlardan biri hisoblanadi. Demak, vatan ozodligi g'oyasini tutqun qahramon haqidagi voqea va tutqun yigit obrazi bilan yetuk darajada tasvirlagan. Ko'rinadiki, lirik obraz mavzu, g'oya, kechinma birligida yanada yuksak badiiy-estetik ko'rinishga chiqadi.

ADABIYOTLAR:

1. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 157 б.
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамшиев, С.Иброҳимов. – Т: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Ж. 4. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.
4. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1989. – 624 б.
5. Суюн, Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. к 2. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 461 б.
6. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – 300 б.
7. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. – Т., 2017. – 117 б.

Qodirova Nasima Saidburxonovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Buxoro davlat universiteti doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: nasimasaidzoda@gmail.com

JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MUNAQQID USLUBIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon adabiyotshunosligida tanqidchi uslubiga doir qarashlar muhokama qilinadi. Rus, fransuz va ingliz adabiyotshunoslari va munaqqidlari asarlarida mazkur muammoga munosabat masalasi o'rganiladi. Xususan, Byuffon, B.V.Tomashevskiy, V.G.Belinskiy, A.N. Sokolov, L.I.Timofeyev, Rolan Bart, Jenefer Robinson, Nelson Gudman, Harold Blum, Nortrop Fray kabi jahon adabiyotshunosligida o'z o'rniga ega adabiyotshunos va munaqqidlar asarlari o'rganilib, ularning mulohazalariga munosabat bildiriladi. Shuningdek, maqolada munaqqid uslubiga doir qarashlar umumlashtirilib, tadqiqotchining xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tanqid, munaqqid, matn, tahlil, talqin, uslub, o'ziga xoslik, ilmiy tafakkur, badiiy tafakkur, ilmiy-badiiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема стиля критики в мировой литературе. В трудах русских, французских и английских писателей и ученых изучается вопрос о реакции на данную проблему. К числу наиболее выдающихся писателей и ученых относятся мнения писателей и ученых, имеющих свое место в мировой литературе, таких как Бюффон, Б.В. Томашевский, В.Г. Белинский, А.Н. Соколов, Л.И. Тимофеев, Ролан Барт, Дженефер Робинсон, Нельсон Гудман, Гарольд Блум, Нортроп Фрай. Также в статье обобщаются взгляды на критический метод и описаны выводы исследователя.

Ключевые слова: критика, критик, текст, анализ, интерпретация, стиль, уникальность, научное мышление, художественное мышление, научное и художественное мышление.

Abstract. This article discusses the style of critics in world literature. In the writings of Russian, French, and English writers and scholars, the issue of reaction to the problem is studied. The opinions of writers and scholars who have their place in world literature, such as Byuffon, B.V.Tomashevsky, V.G.Belinsky, A.N. Sokolov, L.I.Timofeyev, Rolan Bart, Jenefer Robinson, Nelson Goodman, Harold Blum, Nortrop Fray, are among the most distinguished writers and scholars. Also, the article summarizes the views on the critical style and explains the researcher's conclusions.

Key words: criticism, critic, text, analysis, interpretation, style, uniqueness, scientific thinking, artistic thinking, scientific and artistic thinking.

Kirish. Bugungi kunda jahon ilm-fanning ko'plab sohalarida ahayamiyat qaratilayotgan nazariy muammolardan biri uslub masalasidir. Uslub fanning barcha sohalariga taalluqli bo'lganligi sababli turli nuqtayi nazardan tadqiq etilmoqda. Falsafa, san'at, sotsiologiya, tabiiy fanlar, filologiyaga doir tadqiqotlarda ilmiy bilish uslubi, ilmiy tafakkur uslubi kabi tushunchalarni uchratamiz. Demak, ilmiy bilish, ilmiy tafakkur, ilmiy bayon fanning qaysi sohasida bo'lmasin muallifdan o'ziga xoslik va yangilikni talab etadi. Va shu individuallik asosida uslub yuzaga keladi.

Adabiyotshunoslikda uslub nazariyasiga doir qarashlar nihoyatda ko'p. Ular, asosan, yozuvchi uslubiga qaratilgan bo'lib, ijodkor va badiiy asar uslubi turli mualliflar asarlari misolida tadqiq etilgan. Biroq adabiyotshunos, munaqqid uslubiga doir maxsus nazariy tadqiqotlar nisbatan kamroq ekanligi aytish o'rinli. Ammo tanqid ham san'at ham ilm sohasi bo'lganligi, munaqqid ham ma'lum ma'noda ijodkor ekanligi bois mazkur tadqiqotlar tanqidchi uslubining nazariy qirralani o'rganish uchun nihoyatda ahamiyatli.

Asosiy qism. Bugungi kunda olimlar uslubni "golografik" tushuncha sifatida izohlaydilar [1]. Zamonaviy ilm-fanda keng tarqalgan gologrammaning metaforasini shunday izohlash mumkin: Uch o'lchovli bo'lgan gologrammada narsaning har bir nuqtasidan qaytgan nurlar butun narsa haqida ma'lum bir tushunchani beradi. Lazer nurlari bir qismga qaratilsa ham faqat o'sha qism haqida emas, balki xira

ko‘rinishda bo‘lsa-da, obyektning to‘liq tasvirini ko‘ramiz. Parcha qanchalik katta bo‘lsa, tasvir tiniqlashib, kichik bo‘lsa, xiralashib boradi. Gologrammaning bu xususiyati uslub nazariyasida qo‘llanilganda matnning kichik bir bo‘lagi ham muallifning uslubiga doir bir qirrani o‘z ichiga olishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, uslub matnning minimal maydonlarida namoyon bo‘lishni boshlaydi. Bundan ko‘rinadiki, tanqidchi yoki adabiyotshunos olim uslubini belgilashda uning barcha asarlarini qamrab olish shart emas, balki bitta maqola yoki esse, yoki taqriz tahlili orqali ham uning uslubi borasida ma‘lum xulosalarni chiqarish mumkin.

Jahon adabiyotshunosligida munaqqid uslubi va individualligi masalasi B. Bursov, V.I. Baranov, A.G. Bocharov, Y.I. Surovsev, R. Bart, B.F. Yegorov, V.Eyidinova, P.A. Yegorev kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Uslub – san’atkorning boshqalardan ajratib turuvchi bir qator jihatlarining yig‘indisi sifatida yuzaga chiqib, uning shaxsiyatini aks ettiruvchi g‘oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasidir.

Taniqli fransuz olimi J.L. Leklerk de Byuffon iborasiga ko‘ra “Uslub – bu shaxs”[8]. Byuffon ushbu iborasi orqali uslubda insonning so‘zi, xulq-atvori, kiyimi, o‘zini tutishi aks etishini nazarda tutadi. Adabiyotshunoslikda esa uslubga nisbatan ushbu ta‘rif paradoks ravishda juda tor va juda kengdir. Tor ma‘noda munaqqid uslubida nafaqat muallif, balki millat va davr ruhi ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga u juda keng, chunki uslubda muallifning o‘zligiga, o‘z olamiga nisbatan ancha kam narsa namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, lirika tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi munaqqid ba‘zan epik asarlar haqida, publitsistikada ham yozishi mumkin. Va unda tanqidchining lirika tadqiqotchisi sifatidagi xususiyatlari namoyon bo‘lmasligi mumkin. Xoh tor bo‘lsin, xoh keng, uslubda doimo muallifga doir nimadir namoyon bo‘ladi. Shu sabab uslubni umumiy ko‘rinishda har qanday mazmunning namoyon bo‘lish usuli sifatida belgilash mumkin.

Uslub tahlilida asosan, ikki xil mezon ko‘zda tutiladi. Birinchisi, lingvistik, ikkinchisi esa umumiy estetikaga muvofiq. Birinchi holatda uslub – yozish manerasi[1], usullar sistemasining ko‘p yoki kam anglanishidir. Aslida, “uslub” so‘zining bugungi kundagi ma‘nosi tarixan metonimiya asosida yuzaga kelgan. Gretsiyada (grekcha –stilos, lotinchada “stilus”), keyinchalik Rimda yozish uchun mo‘ljallangan cho‘p – qalamni uslub deb ataganlar. Cho‘pning oxirgi qismida xato yozilganlarni o‘chirish uchun rezina qismi bo‘lgan. Shundan xatolar ustida ishlash, yomon yozilganlarni o‘chirish maqsadida qo‘llaniluvchi “uslubni aylantirish” degan ibora kelib chiqqan. Shu sabab, bugungi kunda “o‘z qalamiga ega munaqqid”, “qalami o‘tkir” kabi ifodalarni “o‘z uslubiga ega bo‘lish” ma‘nosida ishlatish mumkin. Shu tariqa uslub tushunchasi, yozishning o‘ziga xos xarakterli xususiyati, usullar tizimi sifatida shakllangan. Bu deskriptiv (ya‘ni tavsiflovchi) yondashuv bo‘lib, uslub tahlilida bir qator afzalliklarga ega bo‘lsa-da, uslubni belgilashda faqatgina shunga tayanish yetarli emas.

Ko‘pchilik nazariyotchi olimlar uslubga “shaklning mazmundorligi” deb qaraydilar[5]. Demak, uslub haqida so‘z borganda, biz nafaqat shakliy o‘ziga xoslikni, balki o‘sha o‘ziga xoslik ortida yashiringan mazmun-mundariyasi ham nazarda tutiladi.

Natijalar va muhokama. Uslubga umumiy estetikaga muvofiq yondashilganda, uslub ijtimoiy ongning san‘at sohasi bilan aloqadorligi, uni yaratish go‘zallik qonunlariga muvofiq ijodkorlik ekanligini ta‘kidlash joiz. Uslubni tushunish, avvalambor, matnda namoyon bo‘lgan go‘zallikni, badiiyat qonuniyatlarini yoki boshqacha qilib aytganda, uning badiiy malohatini his etishni anglatadi. “Uslubning qonuniyligi badiiyatning qonuniyligi, shu bilan birga estetikaning qonuniyligidir”[9,38] - deb yozadi uslubshunos N.Sokolov.

Rus adabiyotshunosi B.V.Tomashevskiy fikriga ko‘ra, uslub deganda qandaydir o‘ziga xoslik tushuniladi. “Bu o‘ziga xoslik badiiy til bo‘ladimi, til vositalarining o‘ziga xosligi bo‘ladimi yoki ko‘chma ma‘noda “insoniy xulq-atvor” xosligi bo‘ladimi, baribir o‘ziga xoslik – bu “uslub” so‘zi ma‘nosining birinchi belgisi”[10,12]. Albatta, bu kabi o‘ziga xoslikka ega bo‘lish ijodkordan bilim, iste‘dod va mahoratni talab etadi. Buni teran anglagan V.G.Belinskiy “uslub – bu talantning, fikrning o‘zi... uslubda butunicha odam: uslub – bu fikrning oydinligi, sezilarliligi. Uslub mudom shaxsiyat, xarakter kabi original. Shu sababli har qanday ulkan yozuvchi o‘z uslubiga ega”[11,79], – deya uslubni belgilovchi ko‘plab xususiyatlar yig‘indisi bo‘lgan shaxsiyatga ahamiyat qaratadi. A.N. Sokolov uslub haqida fikr yuritir ekan, uning bir butun tizim ekanligini, unga ta‘sir etuvchi barcha elementlar bir-biri bilan yaxlit bog‘langanligini ta‘kidlaydi [9,28].

Ilmiy-adabiy, estetik tafakkurga asoslangan adabiy tanqid o'ziga xos ijod turi bo'lib, fan va san'at kabi ikki sohaning birlashuvidan vujudga keladi. Tafakkurning bu shaklida ijodkor har bir ayatayotgan fikrining qaysidir asosga tayanishi, ilmiy dalillanishi, ilmiy xulosalar chiqarilishi jihatidan ilm-fanga tegishli bo'lsa, qabul qilingan matnning ijodkor ko'ngil mulkiga aylanib, dunyoqarashida aks etib, uning tafakkur imkoniyatlari doirasida qayta yaratilishi yangi san'at asarining dunyoga kelishidir. Haqiqiy san'at asarlarining hech biri bir-birini takrorlamaydi, har biri o'ziga xos va o'zgachadir. Shu sababdan ham bir matn ustida bir nechta adabiyotshunos tadqiqot olib borishi, uning yangi-yangi ma'no qirralarini kashf etishi va kitobxonga taqdim etishi mumkin. Biroq ular bir-biridan qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ularning uslubida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda uslub masalasi murakkab nazariy muammolardan bo'lgani uchun aksariyat hollarda ijodiy metod masalasi bilan yonma-yon tadqiq etiladi. Zero, bu ikki tushuncha bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, aynan bir hodisa emas. Rus adabiyotshunosi L.I.Timofeyev bu ikki masalani quyidagicha izohlaydi: "Metodda yozuvchini o'ziga yaqin boshqa yozuvchilar bilan bog'laydigan umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi, uslubda esa ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning shaxsiy tajribasi, iste'dodi, nutq ohangi va h.k. namoyon bo'ladi" [12, 411]. Adabiyotshunoslikda ham xuddi shunday holat ko'zga tashlanadi. Ammo tadqiqot obyekti va tahlil metodi bir bo'lgan holatda ham adabiyotshunoslar uslubi bir - biridan farq qiladi. Bu farqlarning ko'plab sabablari bo'lib, quyidagilar uning eng muhimlari hisoblanadi.

Eng avvalo, har bir ijodkor ilmiy tafakkuri, saviyasining bir xil emasligi. Zero, har bir olim o'z ilmiy darajasi, badiiy matnni tushunish, uqish va anglash doirasida tahlil etadi. Ikkinchidan, tafovut tahlil maqsadi bilan bog'liq bo'lib, qaysidir olimni badiiyat masalalari ko'proq qiziqtirsa, qaysinidir g'oyaviy masalalar ko'proq jalb etadi, yana kimdir ijodkor laboratoriyasiga diqqatini qaratadi. Nazariyotchi olim M.B.Xrapchenko "Uslub hayotni obrazli o'zlashtirishning ifoda usuli, kitobxonni ishonitirish va zavqlantirish usulidir" [13, 98] – deb ta'kidlaydi. Olimning yozuvchi uslubi haqidagi ushbu ta'rifidan adabiyotshunoslikda tanqidchi uslubini belgilovchi bir qancha xususiyatlarni oydinlashtirish mumkin. Bu adabiyotshunoslar ijodida badiiy asarni anglash va talqin etishning ifoda uslubi, o'quvchini ishonitirish, til vositalarining qo'llanilishi bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Rolan Bart tanqid va munaqqid haqida mulohaza yuritganda uning uslubiga ta'sir etuvchi bir qator xususiyatlarni tahlil etadi. Xususan, tanqidchining ishonitira olish qobiliyati, uning har bir masala va muallifga xolislik bilan baho berishi, estetik didining yuqoriligi, nutqining aniq va to'g'riligi, ramzlar mohiyatini teran ang'lay olishi, ijodkorligi, bayon tilining ko'pma'noligi va jozibasi, ma'lum asar haqida yangi asar yarata olishi [4, 319] kabilar shular jumlasidandir.

Ingliz nazariyotchi olimasi Jenefer Robinson o'z tadqiqotlarida uslubga doir bir qator nazariy fikrlarni ilgari suradi. Jumladan, "Adabiy asarda shaxsiyat va uslub" (Style and Personality in the Literary Work) tadqiqotida badiiy asarda uslubning namoyon bo'lishi, uning shaxsiyat bilan aloqasiga to'xtaladi, uslub tahlili shaxsiyat tahlili ekanligi va ijodkorning doimiy sifatleri hamda fazilatleri birlashib, uning uslubini shakllantirishi, ma'lum qahramonlar vositasida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Jenefer Robinson fikricha, uslub – ong fazilatleri to'plamining ifodasi. Ijodkor uslubi dastlab hayotni qay tarzda qabul qilishi, asariga mavzu va g'oya, qahramon tanlashida ko'rinadi. Bularni yuzaga chiqaruvchi nutq esa uslub elementlaridan birini tashkil etadi [14,240]. Bu fikrlar, albatta, yozuvchi uslubiga tegishlidir.

Shu qarashlardan kelib chiqib, munaqqid uslubini belgilovchi xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin: munaqqid uslubi hayot aks etgan asarni qay tarzda qabul qilishi, tahlilga olingan asar mavzusi va muallif niyati hamda uni amalga oshirish uchun qaysidir metodni tanlashida namoyon bo'ladi. Yozuvchi uslubi elementlaridan biri sifatida qaralayotgan nutq munaqqid uslubini ham yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Yana bir ingliz olimi Nelson Gudman uslubga oid tadqiqotlarida uslubni – imzo sifatida qaraydi va ijodkor uslubini belgilashda tashqi omillarni birlamchi deb hisoblaydi [17]. Bunda u asosan, so'z va iboralarning qo'llanilishiga ahamiyat qaratadiki, tanqidchi uslubini belgilashda ham so'z va iboralarning qo'llanilishi muhim hisoblanadi. Chunki olimning tanqidiy asari ommaga qaratilgan bo'ladi.

Amerikalik adabiyotshunos va munaqqid Harold Blum ham ijodkor va munaqqid uslubiga doir ayrim mulohazalarini bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, uslub bu barcha ijodkorlar intiladigan g'alatilik va o'ziga xoslik [15, 672]. Ijodkorlar mana shu o'ziga xoslik uchun kurashadilar va unga ega bo'lganlarga tarix sahnasidan joy egallaydilar. Va bu o'ziga xoslik adabiy ta'sir jarayonidan tashqarida

emas, shu sabab ijodkorlar, munaqqidlar bir-bilaridan o'rganadilar va bir-birlaridan o'zib ketishga harakat qiladilar. Buning natijasida uslub bir-biriga yaqin ijodkorlar yuzaga keladi. Blum uslubni ijodkor va munaqqidning adabiyot tarixida yashab qolishining asosiy omili sifatida talqin etadi. Uning fikricha tanqidchi ma'lum asarni ijodiy "no'to'g'ri" o'quvchi kishi. U mana shu noto'g'ri o'qish davomida asarning shoir ko'zda tutmagan yangi ma'nolarini kashf eta oladi. Uningcha munaqqidning eng qadrlanishi lozim bo'lgan jihati mana shu o'ziga xoslik, ya'ni uning uslub. Blum tanqidchidigining o'ziga xosligi uning muallifga asoslanganligida ko'rinadi. Blum asarlarni muallifga qaratilgan nuqtai nazardan baholashga intiladi. Unda muallifning ijodiy jarayoni va asarning ichki tuzilishiga e'tibor qaratilgan. Blumning genetik tanqid deb atagan yondashuvi muallifning asarni yaratish jarayonini tekshirishga qaratilgan. Bu asar genezisini, muallifning oldingi asarlari bilan aloqalarini va ijodkorning ijodiy jarayonini tushunishga qaratilgan. Blum tanqidda psixoanaliz imkoniyatlariga alohida ahamiyat qaratadi.

Kanadalik taniqli adabiyotshunos va nazariyotchi Nortrop Fray adabiyotshunoslik tarixida muhim hisoblangan "Tanqid anatomiyasi" kitobida uslub masalasiga ham to'xtaladi. Fray uslubga quyidagicha ta'rif beradi "Biz shaxs yoki nutqiy ovoz sifati deb atashimiz mumkin bo'lgan sifatni bilamiz. Qachon bu sifat muallifning o'zining ovozi ekanligi sezilsa, biz uni uslub deb ataymiz. "Uslub – odam" – umume'tirof etilgan aksioma. Uslub tushunchasi har bir yozuvchining o'z ritmiga ega ekanligiga asoslanadi" [16]. Uslub muallifning dastxati, o'ziga xos tasviri, qaysi unli va undosh tovushlarni afzal ko'rishdan tortib, qaysi mavzu va arxiterlardan foydalanishigacha barcha narsani qamrab olishini aytadi. Shuningdek, Fray uslub ijodkor yashagan davr va joyga nisbatan ham turlicha bo'lishiga ahamiyat qaratadi. Olim uslub muammosini janrlar kesimida ham tahlil etgan. Fray tanqidning ikki tomonlama harakat qilishini aytadi. Bular matn ichkarisida va matn tashqarisidagi harakat. Matn ichidagi harakat asosan tanqidchining matn tuzilishi, undagi elementlarning joylashuvi va badiiyat qonunlariga muvofiqligini tekshirishni nazarda tutadi. Matn tashqarisidagi harakat esa tanqidchining matn va jamiyat orasidagi munosabati, tashqi olamga ta'siri va uning muammolarini yoritish olish, unga ijodkorning munosabati va ishtirokini talqin va tahlil etishini ifodalaydi. Munaqqid uslub bevosita tanqidning qaysi tomonida harakat qilishiga ham bog'liq. Frayning tanqidiy uslubida matn tashqarisida harakat qilish – asarni jamiyat hayotiga bog'lab, uning muammolarini hal etishga yo'naltirishga intilish ko'zga tashlanadi.

Fray uslubda so'z qo'llash individualligi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ijodda iloji boricha ona tilidan olingan qisqa so'zlar insonning so'z boyligini aniq ko'rsatishini, ammo faqatgina oddiy so'zlashuvdagi so'zlarga asoslangan uslub jozibasiz ekanligini aytadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslikda ilmiy-adabiy tafakkur mahsuli bo'lgan tanqidning o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda munaqqid uslub o'rganilishi zarur bo'lgan muhim nazariy muammolardan biridir. Shu sabab jahon adabiyotshunosligida bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Munaqqid uslub asosan yozuvchi uslub bilan parallel holda tadqiq etilgan. Uslubga berilgan ta'rif va qarashlar turli xil bo'lsa-da, barchasi bir mulohaza ostida birlashadi. Ya'ni uslub – munaqqidning boshqalardan ajratib turuvchi individuallik va o'ziga xosligini ifodalaydi. Bu o'ziga xoslik xoh shaklda bo'lsin, xoh mazmunda, xoh tanqidchining dunyoqarashida va shaxsiyatida munaqqid asarlarining yashovchanligi va jamiyat estetik tafakkurini o'stirishga qaratilgan faoliyatidagi individuallik – uslubdir.

ADABIYOTLAR:

1. Николаев А. И. Основы литературоведения: учебное пособие для студентов филологических специальностей. Понятие художественного стиля – Иваново: ЛИСТОС, 2011. <https://www.listos.biz/филология/николаев-а-и-основы-литературоведения/понятие-художественного-стиля/>
2. Бурсов Б. Мастерство Чернышевского критика. – Ленинград, Советский писатель, 1956. – 338 с.
3. Баранов В. И., Бочаров А. Г., Суровцев Ю. И. Литературно-художественная критика / В. И. Баранов, А. Г. Бочаров и др. – Москва, Высшая школа, 1982. – 207 с.
4. Барт Р. Критика и истина // Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989. – 319 с.

5. Виноградов В. В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва, Художественная литература, 1961. – 614 с.
6. Егоров Б. Ф. О мастерстве литературной критики: Жанры, Композиция. Стиль. – Москва, 2019. – 231 с.
7. Эйдинова В. Стиль художника: Концепции стиля в литературной критике 20-х гг. – Москва, Художественная литература, 1991. – 284 с.
8. Жорж Луи Леклерк де Бюффон. Франция академиясига кириш нутки.
<http://www.infoliolib.info/philos/buffon/buffon.html>
9. Соколов А. Н. Теория стиля. – Москва, Искусство, 1968. – 224 с.
10. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. Курс лекций. Ленинград, Учпедгиз, 1959.
11. Белинский В.Г. Полн. соб. соч. Т.8. – Москва, Изд-во АН СССР, 1955. – С. 79.
<http://russian-literature.org/tom/416026>
12. Тимофеев Л. И. Основы теории литературы. – Москва: Просвещение, 1971. – 411 с.
13. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Художественная литература, 1977. – 408 с.
14. Jenefer M. Robinson. Style and Personality in the Literary Work. The Philosophical Review, Vol. 94, No. 2 (Apr., 1985), – P. 240.
15. Блум Г. Западный канон. Книги и школа всех времен / Пер. с англ. Д. Харитонова. – М.: Новое литературное обозрение, 2017. – 672 с.
16. Northrop Frye, Herman. Anatomy of Criticism. New Jersey: Princeton U. Press, 1957.
17. Nelson Goodman. The Status of Style. Critical Inquiry. Vol. 1, No. 4 (Jun., 1975), – P. 811.

Axmedova Hafiza Hakimovna,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)

E-mail: akhmedova.khafiza@mail.ru

MUHAMMAD YUSUFNING LIRIK MAKTUBLARIGA SERGEY YESENIN AN'ANALARI TA'SIRI

Annotatsiya. Zamonaviy o'zbek she'riyatida lirik maktublar muhim o'rin tutadi. Bular adresatiga ko'ra onaga, singilga, yorga, do'stga va hokazo yaqinlarga yo'llanadi. Maqolada Muhammad Yusufning shunday mazmundagi qator she'rlari tahlilga tortilgan va onaga, yorga, singilga yozilganlari mazmuni va badiiyati jihatidan ulug' rus shoiri Sergey Yeseninning xuddi shunday she'rlariga qiyoslangan. Bir-biridan uzoq davrda va masofada yashagan ikki shoirning ruhiy yaqinligi lirik obrazlar, badiiy manzaralar mutanosibligi nuqtayi nazaridan ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: lirik maktub, ruhiyat manzaralari, lirik qahramon, kechinma, falsafiylik, javob xatlari, ijtimoiy muhit tasviri

Аннотация. В современной узбекской поэзии лирические послания образуют важный пласт лирики. Объектом посланий является мать, сестра, возлюбленная, друг и т.д. В статье сделан сравнительный анализ содержания и поэтики стихотворений Мухаммада Юсуфа и великого русского поэта Сергея Есенина, адресованных матери, возлюбленной, сестре. Духовная близость двух поэтов, живших в далекую эпоху и на расстоянии друг от друга, научно обоснована с точки зрения соотношения лирических образов, художественных средств.

Ключевые слова: лирическое послание, душевное состояние, лирический герой, философия, письма-ответы, описание социальной среды.

Abstract. In modern Uzbek poetry, lyrical messages form an important layer of lyrics. The object of the messages is mother, sister, lover, friend, etc. The article makes a comparative analysis of the content and artistry of the poems of Muhammad Yusuf and the great Russian poet Sergei Yesenin, addressed to their mother, lover, and sister. The spiritual closeness of two poets who lived in a distant era and at a distance from each other is scientifically substantiated from the point of view of the relationship between lyrical images and artistic means.

Key words: lyrical message, state of mind, lyrical hero, philosophy, response letters, description of social status.

Kirish. Lirik maktub janriging asosiy qoidalari mavjud: 1. Xat kimdan va kimga yo'llangan holda manzil ko'rsatilishi. 2. O'zi to'g'risida xabar berish. 3. Xat yozish sabablarini tushuntirish. Bu maktub spetsifikasini belgilovchi jihatlardir. Shu belgilar asosida adabiyotda lirik maktublar yozish an'anasi vujudga keldi. U orqali lirik qahramonning xis-kechinmalarini, iztirob va kuvonchlarini ifodalashga erishiladi. Adabiyotshunos Artёмovanning fikricha: "Xat insonning ichki dunyosini, uning fikrlari, sezimlarini, atrofiga munosabatini ifoda etish vositasi sifatida biografik, etik va didaktik xususiyatdagi asarlarda o'rin tutadi"[1, 50].

Zamonamizning yoniq qalb shoiri Muhammad Yusuf ijodida maktub-she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Bular, asosan, sevikliga, onaga va singilga yo'llangan maktublardan iborat. Ushbu she'rlar mazmunan va ruhan ulug' rus shoiri S.Yeseninning shunday she'rlariga juda yaqin. Binobarin, S.Yeseninning "Ayolga maktub" she'ridagi ruhiyat manzaralari M.Yusufning "Maktub" she'rida yorqin ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism. S.Yeseninda:

O'sha kun albatta
Yodingizdadir.
Burchakka qisilib
Ojiz turganim.
G'azabnok edingiz
Va g'oyat og'ir

M.Yusufda:

Soʻz bilan urdingiz
Betimga manim [4, 77].

Sevgilim,
Sevgilim,
Ogʻriydi dilim.
Jonim ogʻriyverar sizni oʻylasam.
Gulday yuzingizni silar endi kim,
Meni eslarmisiz yoʻqmi oʻsha dam [3, 26-27].

Eʼtibor berilsa, har ikkala parchada ham muhabbatda ozorlangan, ayni paytda ozor yetkazgan oshiq holati aks etgan. Qolaversa, bu ozorda ishqning achchiq iztiroblari aks etgan.

Men sizni sevardim
Siz esa aslo
Parvo qilmasdingiz
Men edim behol
Shaddod bir suvoriy
Xaloyiq aro
Siz bilmas edingiz
Boʻronda, axir.
Meni oʻz bagʻriga
Tortganin girdob.
Qayon eltmoqdadir
Bizlarni taqdir.
Bilolmay chekardim
Achchiq iztirob. [4, 77]

Ushbu misralarda Yesenin yashagan muhit tasviri oʻz ifodasini topgan. Yaxshi bilamizki, shoir nihoyatda talotoʻp zamonda yashab ijod etdi. Sheʼrdagi “boʻron”, “girdob” kabi ramziy obrazlar buni tasdiqlab turadi. Lirik qahramon – oshiqning ruhiy holatiga taʼsir etgan qarama-qarshilik va ziddiyatlarga toʻla ijtimoiy muhit manzarasi shu obrazlarga singdirilgan. M.Yusuf sheʼrida ham shunga yaqin tasvir mavjud:

Bulutlar koʻk kezar kunda piyoda
Ufqqa oftob botar qizil gulxanday.
Armonim ekansiz yorugʻ dunyoda
Sizni oʻylamasdan yasharman qanday [3, 27].

Bu misralarda ham Yeseninga hamohanglik bor. Ikkala shoirni muhabbat hislari birlashtirib tursada, biroq oradagi vaqt va zamon masofasi ularni ajratib turadi. Yaʼni har ikki shoir ishqida ham iztirob alangalangan, armon tuygʻulari sezilib turadi. Tafovuti shundaki, Yesenin zamon nosozligi tufayli ozorlansa, M.Yusuf tinchlik davrida muhabbat dardlarini, armonli kechinmalarni ifoda etadi.

Sheʼrlar mazmunan deyarli bir xil yakunlanadi. Yaʼni har ikkala oshiq shoir ham sevgiliga faqat omonlik istaydi va uni yodidan chiqarmasligini taʼkidlaydi:

Mayli, yashang yangi
Yorning oldida,
Baxtli boʻling, shudir
Tilagim mening.
Sizga salom bilan
Sizni yodida
Doim saqlaguvchi
Sergey Yesenin. [4, 77]

M.Yusufda:

Dunyo omon boʻlsin,
Siz boʻling omon,
Omadli boʻling siz

Baxtli bo‘ling siz.
Lekin,
Bilib qo‘ying,
Bilib qo‘ying, hamon
Sizni unutulmas Muhammadningiz [3, 28].

Muhabbat iztiroblari, sog‘inchlari aks etgan har ikkala she‘riy maktub samimiy ruhi, kechinmalarga boyligi, qalb torlarini chertishi bilan mushtaraklik kasb etadi.

S.Yesenin va M.Yusuf ijodida singilga yozilgan maktublar ham alohida o‘rin egallaydi. Bu maktublarda singil bilan dildan suhbatlashish, dardlashish ruhi ustuvorlik qiladi. Yeseninning “Singlimga xat” she‘ridan o‘qiymiz:

Salom senga, singlim
Salom, assalom.
Qadrton dalalar salomat bormi?
Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom
Ryazandagi bizning oluchazorni? [4, 77]

M.Yusufning “Singlimga xat” she‘rida:

Qachon xat yozgandim senga, bilmayman.
Qofiya bilan band bugun tosh ko‘nglim.
Yolg‘iz akang bo‘lib,
Yoningda yurmayman...
Kechir meni. Singlim,
Kechir, meni singlim.
U yoqda shotutlar
To‘kilar suvga.
Qovunlar yorilar
Sen yo‘lga qaraysan.
Tuproq ko‘chalarda,
Mushtoq kechalarda
Yoz meni sog‘inib sarg‘aygan maysa [2, 12].

Ushbu satrlarni avvalo vatanga muhabbat tuyg‘usi bog‘lab turadi. S.Yesenin ham singlisidan dastavval o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurt – Ryazanni so‘raydi. So‘ng esa bolaligi kechgan qadrton dalalarni, bobosi parvarish qilayotgan oluchazor haqida bilgisi keladi. Bunda yurtga beqiyos muhabbat ruhi sezilib turadi. Shu ruh M.Yusuf maktubiga ham ko‘chgan. U ham dastavval qishlog‘inining shotutlari-yu, qovunlarini, bolaligi o‘tgan tuproq ko‘chalarni so‘raydi. Yoz ta‘rifida go‘zal badiiy topilma yaratadi: “yoz meni sog‘inib sarg‘aygan maysa”. Ma‘lumki, ko‘klamda maysa yam-yashil bo‘ladi. Biroq yoz quyoshi bu yashillikni biroz za‘faron tusga soladi. Shu ma‘noda bu topilmada Vatan sog‘inchi o‘z ifodasini topgan. Yana bir jihatni ta‘kidlash kerak: har ikkala maktubda ham milliy ruh ufurib turadi. Chunki S.Yesenin she‘rida rus xalqiga xos xususiyatlarni, M.Yusuf maktubida esa o‘zbek millati fazilatlarini his qilish mumkin.

S.Yeseninda:

Mastroq edim men
Oh, u oq qayinlar,
Oppoq qayinlar...
Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat.
Sevmasligi mumkin ularni faqat
Quvnoq navniholda ko‘rmagan samar. [4, 77]

M.Yusufda:

U yoqda shotutlar to‘kilar tag‘in
Behilar hidiga to‘ladi xonam
Ayvonda, xirmonda, Andijon tomonda,
Kuz meni sog‘inib sarg‘aygan onam
Yig‘laydi, bu yil ham kelmadi bolam. [2, 12].

Natijalar va muhokama. Har bir maktubda shoirlar mansub xalq mentalitetiga xos jihatlar o‘z ifodasini topgan. Jumladan, oq qayin rus tabiatini ifoda etib, u go‘zallik, hayot, muhabbat timsoli bo‘lib keladi. Shotut, behi esa o‘zbek diyorida o‘sadigan daraxtlar. Har ikkala parchada shu ruh ko‘zga tashlanadi.

Shoirlarning hayotga nisbatan qarashlarida mushtaraklik bor. Ularni falsafiylik, samimiyat, yashash ishtiyoqi, mahzunlik kayfiyati bog‘lab turadi. Zero, hayotda chin do‘st topish nihoyatda mushkul. S.Yesenin singlisiga bu haqda yozadi:

Singlim!
Naqadar kam hayotda chin do‘st,
Ko‘plardek mening ham
Yuragimda dog‘.
Agar nozik qalbing
Toliqqan bo‘lsa,
Buning soz davosi
Tinmoq, unutmog [4, 77].

Sergey Yesenin singlisi bilan xat orqali chin qalbdan dardlashadi va yorug‘ dunyoda haqiqiy do‘st topolmaganidan ozorlanadi. Bu insoniy dard uning uchun yurakdagi dog‘dir. Bu fikrlarga M.Yusuf qarashlari ham hamohang:

Goh to‘lib ketaman
Qanday gap axir.
Qo‘ygil meni deyman ey, shirin azob.
Quyoshga termulay,
Yerga bosay bag‘ir,
Qo‘shiqlar kuylashga boshqa odam top... [2, 13].

M.Yusufning ham shoir qalbi atrofdagilardan ozor chekkan. Shu bois she‘r yozishni shirin azobga mengzaydi.

Sergey Yesenin va Muhammad Yusuf ijodida dunyodagi eng ulug‘ zot onaga yozilgan maktublar alohida o‘rin tutadi. Dastlab onaning shoir o‘g‘ilga yozgan maktublarini muqoyasa qilamiz. S.Yeseninning “Onamdan maktub” she‘ri quyidagicha boshlanadi:

Ko‘zimiz to‘rt bo‘ldi,
Bolam, kelaqol.
Yaxshiydi, bayramga
Kelsang, har qalay.
Otangga ishtonlik
Menga jun ro‘mol
Ola kel bizlarda
Kamchilik talay [4, 77]

M.Yusufning “Onamdan xat” she‘rida:

O‘g‘lim, jigargo‘sham, aytgin-chi, nahot,
Achinmaydi joning, onang holiga.
Meni to‘shaklarga mixlab qo‘ydi bod,
Kelsang, bir ko‘rsam-u, o‘lsam mayliga.[3, 338]

E‘tibor berilsa, har ikkala she‘rda ham o‘g‘ilni sog‘ingan ona iztiroblari aks etgan. Yesenin bu sog‘inchni xalqona: “ko‘zimiz to‘rt bo‘ldi” iborasi orqali badiiy ifoda etsa, M.Yusuf “Kelsang, bir ko‘rsam u, o‘lsam, mayliga”, deydi.

Menga sira yoqmas
Shoirliging ham.
Janjalkashlik bilan
Topgan shuhrating.
Undan ko‘ra omoch
Haydasang, bolam.
Obro‘ keltiradi

Halol mehnating.

M.Yusufda:

Sog'misan ishqilib, qo'rqaman, qo'zim,
Podsholar haqida she'rlar yozasan.
O'ynashib bo'larmi, shohlar bilan ayt,
Qishloqi joningga she'rdan ne huzur?
Zeriksang bepoyon yaylovingga qayt,
Siqilsang dashtlarga ot choptirib yur [3, 339].

Onalarning dardlari bir-biriga o'xshaydi. Yesenin ham o'g'lining she'r yozishidan qo'rqib yashagan. Chunki u o'g'lining boshiga nogahoniy kaltaklar sinishini sezgan. Qolaversa, o'g'lining yoniga qaytishini, dehqonchilik bilan shug'ulanishini istaydi. M.Yusufning onasi ham o'g'lining "podsholar haqida she'r yozishi"dan xursand emas. U ham shoir o'g'lining o'z qishlog'iga, bepoyon kengliklarga qaytishini xohlaydi.

S.Yesenin javob maktubi va M.Yusufning javob xatlari ham bir biriga uyg'un. "Javob" she'ri quyidagicha boshlanadi:

Aziz onaginam,
Bo'lg'in salomat.
Mehru shafqatingni
Sezib turibman.
Sen zarra tasavvur
Qilmassan faqat,
Nima deb dunyoda
Yashab yuribman.

M.Yusufning "Onamga xat" she'ridagi dastlabki misralarni ko'zdan kechiramiz:

Men sizni o'ylayman shom-u saharda
Ona, sog'insam ham bora olmayman.
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman [3, 71].

E'tibor berilsa, shoir o'g'illarning onalariga farzandlik mehri beqiyos. Aziz insonlarning mehr-u shafqatini ular har lahzada his etishadi. Yesenin "nima deb dunyoda yashab yuribman", deya o'zining qalb izhorini, farzandlik ehtiromini ifoda etsa, M.Yusuf esa tunlari charog'on oydin shaharda onaday do'st topolmaganidan ozorlanadi. U faqat ko'ngil dardlarini onasiga aytishi mumkin. Zero, "Onamdayin do'st topmadim" deb yozgan zamonaviy o'zbek shoirining fikrlarida ana shunday buyuk hayot haqiqati yashiringan.

Xulosa. Demak, maktub uslubida yozilgan she'rlar qiyosi shuni ko'rsatadiki, S.Yesenin va Muhammad Yusuf ruhiyatidagi yaqinlik mana shunday bir-biriga uyg'un she'rlar yaratilishiga asos bo'lgan. Aytish mumkinki, bu uyg'unlik ikki xalq adabiyoti orasidagi ijodiy ko'prikn mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta'kidlash kerakki, S.Yesenin she'riyat hali ko'p yillar she'riyat ahli uchun ilhom chashmasi vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Артёмов С. Ю. Лирическое послание в литературе XX века: Поэтика жанра. – Тверь: 2004. – 175 б.
2. Мухаммад Юсуф. Булбулга бир гапим бор. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 54 б.
3. Мухаммад Юсуф. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2007. – 367 б.
4. Рахмонов Б. Вафо қисмати. – Т.: Мухаррир, 2011. – 236 б.
5. Rahimjonov N. Adabiyot – ma'naviyat dasturxonii//Xalq so'z, 2021. – 3-iyun.
6. Yusuf M. Ishq kemasi. – Т.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1996. – 220 б.
7. Yusuf. M. Erka kiyik. – Т., 1992. – 72 б.

*Qudratova Muborak Shuhratovna,
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
(O'zbekiston)
Email: muborqudratova@gmail.com*

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK SHE'RIYATI TARAQQIYOTINING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. Adabiyot har doim o'zini ich-ichdan yangilab boradi. Bu o'zgarish davr, ijtimoiy hayot, odamlar ruhiyatidagi evrilishlar bilan bog'liq. Suv o'z-o'zini tozalab, oldinga intilgani singari she'riyat ham ma'lum bir davrlarda ham shakl, ham mazmun jihatidan o'zini yangilaydi. XX asrda barmoq, sarbast, erkin she'r shakllari kirib kelgan bo'lsa, o'tgan asr oxirlarida modern she'riyat yuz ko'rsata boshladi. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatining asosiy tamoyillari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, jahon adabiyoti, xalqaro aloqalar, ruhoniyy yuksaklik, lirik men, globallashuv, mustamlaka davri, xalqlar turmasi.

Аннотация. Литература постоянно обновляется изнутри. Это изменение связано с исторической эпохой, общественной жизнью, изменениями в менталитете людей. Подобно тому, как вода очищается и движется вперед, так и поэзия в определенные периоды обновляется как по форме, так и по содержанию. В XX веке появились “бармок”, “сарбаст” и свободная формы стиха, а в конце прошлого века характеризуется появлением современной поэзии. В данной статье ведётся речь об основных принципах современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: узбекская поэзия, мировая литература, международные отношения, духовное величие, лирическое “Я”, глобализация, колониальный период, группа народов.

Abstract. Literature always renews itself from the inside. This change is related to the era, social life, and changes in people's mentality. Just as water cleans itself and moves forward, poetry renews itself in certain periods, both in terms of form and content. In the 20th century, finger, sarbast, and free verse forms appeared, and at the end of the last century, modern poetry began to appear. This article talks about the main principles of modern Uzbek poetry.

Key words: Uzbek poetry, world literature, international relations, spiritual highness, lyrical self, globalization, colonial period, group of peoples.

Kirish. Mustaqillikdan so'ng o'zbek she'riyati o'z yo'nalishini o'zgartirdi va albatta, buning o'ziga xos sabablari mavjud. Butun dunyoda kuchaya boshlagan iste'molchilik kayfiyati, moddiyatga kuch berish tamoyili tufayli adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga bo'lgan munosabat o'zgardi. Umumjahon adabiyotida bo'lgani singari bizda ham ma'lum bir toifaga, ma'lum bir tayyorgarlikka ega kitobxonlar qatlamiga xoslangan yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. She'riyatda estetik idael o'zgarib boshladi. Xorij adabiyoti bilan yaqindan tanishish, dunyo she'riyatidan qilinayotgan tarjimalar soni va sifatining ortishi, jahon adabiyotiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, “Jahon adabiyoti” jurnalining tashkil qilinishi natijasi o'laroq modern she'riyatiga qiziqish ortdi. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'zgarishi kishilarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, diniy-falsafiy qarashlarida muayyan burilishlar yasadi.

Asosiy qism: Xalqaro aloqalar va munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishi Sharq va G'arb she'riyatining sintezlashuviga olib keldi. She'riyatda sobiq totalitar mafkuraga moslashtirilgan kurashchan, bekam-u ko'st lirik qahramon o'z o'mini ko'ngilga yuz burgan lirik “men”ga bo'shatib berdi. So'z va e'tiqod erkinligiga ruxsat berilishi diniy-irfoniy yo'nalishning juda tezlik bilan rivojlanishiga olib keldi. Natijada hozirgi zamon o'zbek she'riyatida quyidagi yo'nalishlar [1.89] namoyon bo'ldi:

1. An'anaviy.
2. Mumtoz.
3. Ijtimoiy.
4. Modern yo'nalishi.
5. Pohiy-irfoniy.
6. Meditativ.

Albatta, bu tasnif shartli. Ayrim shoirlar ijodida sanab o'tilganlarning bir nechtasini yoki barchasini ko'rish ham mumkin.

XX asrning oxirgi o'n yilligiga kelib badiiy adabiyot, ayniqsa, she'riyatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, she'riyat ixlosmandlari sonining kamayishi o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu holat axborot oqimining kuchayganligi, globallashuv jarayonining tezlashganligi, gazeta, jurnal, kitob o'rnini internet egallayotganligi bilan izohlanadi. Navoiyxonlik, mashrabxonlik, bedilxonlik, qissaxonlik singari udumlar sir emaski, endi yaqin tarixning bir sahifasiga aylanib ulgurdi. Lekin bu hol kitobxonlikning pasayishini anglatmaydi, kitob o'qish uchun yanada qulayroq imkoniyatlar paydo bo'lgan ekan, o'quvchilarning o'zlariga oson va yengilroq yo'lni tanlashlari tabiiy.

Sobiq sho'ro davrida axborot oqimining cheklanganligi, adabiyotning mafkura quroliga aylantirilganligi, hukmron mafkurani kishilar ong-u ruhiyatiga singdirish, ishontirishda adabiyotdan maksimial darajada foydalanganligi, tan olish kerakki, badiiy adabiyotning jamiyatdagi mavqeini yuqoriga ko'tarishga xizmat qilgan edi. Ikkinchidan, sho'ro davrida asl she'riyat uyg'oq fikrli ziyolilarning ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondiradigan asosiy manba edi va bugun uning o'rnini diniy e'tiqodga erkinlik berilishi oqibatida paydo bo'lgan diniy-ma'rifiy adabiyotlar egallamoqda.

"Ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar, – deb yozadi munaqqid Hakimjon Karimov, – birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi she'riyatda to'rt tamoyil yetakchilik qiladi"[2.6]. Adabiyotshunos hozirgi zamon o'zbek she'riyati taraqqiyotining asosiy tamoyillari to'g'risida fikr yuritib, birinchi navbatda, O'zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilan milliy uyg'onish g'oyalari balqib turgan she'rlarga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi va bu hol barcha shoirlar ijodida kuzatilayotgan bo'lsa-da, masalaning mohiyatini anglatishda ustoz shoirlar yetakchilik qilayotganligiga e'tibor qaratadi. O'z fikrlarini Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Usmon Azim, Qutlibeka, Sirojiddin Sayyid she'rlari bilan asoslab bergan munaqqid istiqlol davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ijodkor masala mohiyatini, maqsadini, ilgari surmoqchi bo'lgan fikrini zohiran emas, botinan yoritishini ta'kidlaydi.

Adabiyotshunos olim va yozuvchi Ulug'bek Hamdam "Istiqlol davri o'zbek she'riyatining asosiy tamoyillari" maqolasida ijodkor bir vaqtning o'zida jamiyatdagi turli toifa, turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilarning kayfiyat va ruhiyatiga mushtarak tuyg'ularni ifodalay olmasligini yozadi. Shoir "men"i va xalq irodasi tenglashmagan, o'zaro uyg'unlashmagan, yaxlitlik kasb etmagan joyda asl adabiyot yaratilmaydi. Munaqqid ana shunday xulosaga keladi va o'z qarashlarini asoslab, quyidagi sabablarni ko'rsatib beradi: milliy istiqlol tufayli dunyo bilan bevosita aloqalarning yo'lga qo'yilishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi, siyosiy tuzum o'zgarishi, ya'ni o'tish davrida turli ijtimoiy, diniy qarashlarning paydo bo'lishi, so'z va diniy e'tiqodga erkinlik berilishi, ilohiyotga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, axborot oqimining tezlashishi, tibbiy, ekologik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarning bir vaqtda yuzaga kelishi kabi omillar.

Adabiyotshunos Suvon Meliyev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Adabiyot falsafasi va global ilmiy-badiiy talqin mohiyatan esh hodisalar. Ruhoniy yuksaklik va intellektual teranlik ular uchun birday maxsusdir"[3.16]. Bu fikr bevosita Asqar Mahkam ijodiga ham taalluqli.

Natijalar va muhokama. Badiiy so'zga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi yangicha ifoda, yangicha tasvir, yangicha shakl va ularning shakllanishiga turtki bergan yangicha mazmunning tug'ilishiga olib keldi. Bu davr she'riyati "o'z dominant xususiyatiga ko'ra ko'ngil lirikasi"[1.83] deb baholandi. Shuning barobarida, istiqlolning dastlabki yillaridanoq "bugungi davr voqealari mohiyatiga tasavvuf nigohi bilan qarash shoir uchun ifoda tarzining yangi imkoyatlarini vujudga keltir"[5.31] ganligi lirik "men"ning adabiy-estetik qarashlarini yanada boyishiga olib keldi. Nimani kuylashidan qat'i nazar, alaloqibat, so'z inson qalbiga – lirik qahramon "men"ning o'ziga borib taqaladigan she'rlar soni va sifati ortdi. M.Yusuf, A.Mahkam, A.Qutbiddin, F.Kamolova, E.Shukur, Z.Mirzayeva, H.Ahmedova, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor, R.Rahmat, X.Rustamova, Go'zal Begim kabilar insonni, o'z-o'zini taftish qilish, olamni sinkretik idrok etishga qaratilgan she'rlari bilan yangi ruh, yangi ovoz olib kirdilar. Ularning ijodi shakl va uslub jihatidan bir-biriga o'xshamaydi, ifoda yo'sini tubdan farq qiladi, so'z qo'llash, so'zga munosabat, adabiy-estetik tasavvurlari o'ziga xos.

Hozirgi kunda “shoir “men”i xalq irodasi o‘zaro bir joyda teng kelgan, bir-biriga payvandlanib, uyg‘unlashgan, natijada bitta kuchga aylangan she’riy hodisa kuzatilayotgan emas”ligi [1.86] tafakkurning yangilanayotganligi bilan izohlanadi. Lekin bu to‘siqni yengib o‘tishga intilayotgan, dunyo adabiyotini o‘qib-o‘rganish orqali she’riyatga yangi iqlim olib kirayotgan avlodning ijodi o‘z ijobiy samarasini bermoqda. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va ilohiy ta’limotning she’riyatga ta’siri kuchayishi natijasida badiiy tafakkur eski qoliplarni sindirib, ifoda va tasvirda shaklini o‘zgartira boshladi. Yangi asrda globallashuv jarayonining juda katta tezlik bilan rivojlanishi, axborot oqimining kuchayishi, internet tarmoqlaridan foydalanishning ommaviy tus olishi ijodkor va kitobxon o‘rtasiga ko‘rinmas devor paydo qildi. Mustamlaka davrida o‘ziga dardkash, sirdosh, tasalli izlab adabiyotga murojaat qilgan o‘quvchi istiqoldan keyin o‘z ma’naviy ehtiyojlarini qondiradigan yangi imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Diniy e’tiqod erkinligi, zamonaviy texnologiyalardagi tezkorlik kitobxonni adabiyotdan uzoqlashtirdi. Ijodkor ham o‘z dardi, anduhi, g‘ussasi, iztirobi bilan yolg‘iz qoldi, u endi hech kim, hech nima uchun emas, qalbi buyurgani uchun yoza boshladi. Mohiyatan ko‘p asrlik boy va nodir san’atning bir uzvi bo‘lgan she’riyat bugun insonni butunlikka, komillikka, o‘zini tanish va o‘ziga qaytishga da’vat qilish yo‘lidan bermoqda.

Asqar Mahkam she’rlari istiqol davri she’riyati tamoyillari doirasida kuzatilganda, poetik mahorat, individual uslub, voqelikka munosabat jihatdan xos hodisa ekani ayonlashadi. Boshqa shoirlardan tamomila farqli bir tasvir usuli, voqelikka kutilmagan nuqtai nazardan yondashuv, oddiy voqea-hodisalardan muhim ijtimoiy xulosalar uchun asos topa olish mahorati Asqar Mahkam ijodini boshqa shoirlardan keskin ajratib turadi.

Shoir “Yana tuman tushdi yo‘llarga” deb boshlanuvchi she’rida mavjud ijtimoiy tuzumning o‘zi guvoh bo‘lgan, zulm va erksizlikka asoslangan, “xalqlar turmasi” deb nomlangan tuzum kirdikorlarini fosh etib yozadi:

“Yana tuman tushdi yo‘llarga
termulaman qaqshab vujudim
Hech zot kimsan demas ularga
va dod-faryod aylamas hech kim...
Yer xalqasi arshda sharaqlar
kim o‘ynatar bu xalqalarni?!
“Ulug‘ xalqlar”, mustabid xalqlar
yeb tashladi mayda xalqlarni...”[7.92]

Birinchi misradagi “tuman” – mustabid tuzum zulmi ostida yashagan xalqlarning yo‘lsizligiga ishora, lirik qahramon vujudining qaqshashi – chorasizlik, alam, nadomat. “Hech zotning kimsan” demasligi – zolimlar, bosqinchilarning kibri, o‘zini Xudo sanashiga ishora. Hech kimning dod-faryod aylamasligi” – zulmning kuchliligi, ilojsizlik. Erksizlik, zulm shu darajada kuchayganki Arsh larzaga keladi, “xalqlar” – ong va qo‘ldagi ko‘rinmas zanjirlar. “Ulug‘ xalqlar, mustabid xalqlar” deb shoir oshkora shovinist millatlarni nazarda tutmoqda.

Ijodkor shaxsning yozganlarida ham davr, ham shu ijodkorning o‘z dunyosi uyg‘un holda aks etadi. Biror-bir ijodkor o‘zi yashagan davrni to‘la chetlab o‘tolmaydi. Davrning ruhi uning yozganlarida turfa shakllarda bo‘y ko‘rsatadi. Navoiy, Cho‘lponni boshqa asr farzandi sifatida tasavvur qilib bo‘lmagani kabi, Asqar Mahkamni ham boshqa bir tarixiy davr kishisi sifatida ko‘z oldimizga keltirish qiyin. Buni quyidagicha izohlash mumkin: san’atkor shaxs o‘z davrining muammolarini, o‘z g‘alar dardini o‘z dardidek qabul qiladi, shu tariqa lirik “men”ning miqyosi nihoyatda kengayadi, shoir xalqning timsoliga aylanadi. Fitrat yoki Cho‘lpon o‘zi tanlagan xavfli, muqarrar o‘limga boshlab boradigan yo‘ldan qaytishlari mumkin edi va ularning har ikkalasi ham bu kurash yo‘lining oxiri o‘lim ekanligini yaxshi bilganlar. Ammo ular uchun hayotning, tiriklikning mazmun-mohiyati istiqolga aylanib ulgurandi, ular erksizlik, yolg‘on, soxta qiyofa ichida yashay olmaganliklari uchun o‘limdan qo‘rqishmagan. Asqar Mahkam ham xalqning dardlarini o‘ziniki qila olgan shoir sifatida millat sha’ni uchun kurashgan ijodkor va uning har bir satrida vatan, xalq, erk, ozodlik, millat, yaxshilik nafasi ufurib turadi.

Buni O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov shunday izohlaydi: “Qaysidir shoir ijodiga baho berayotganda faqat uning, ya’ni aynan bir shoirning ruhiy qiyofasidan turib qarash kerak. Mahorati mukammal, fikri tiniq ijodkorning qaysi mavzuda bo‘lsin yozgan asari kitobxon qalbiga, albatta, yetib

boradi. Shu ma'noda, yuksak pafosning ham, quloq ilg'amas lirik entikishlarning ham o'z betakror qadru qimmatini, sehru jodusi mavjud" [8, 226].

Aziz qadamjolar, go'rlar buzilgan,
jasadlar uloqqan, toptalgan lahim.
Salla, kafanligi to'zgan, to'zg'igan
Yaktagi xunolud, tobut Vatanim!..[13.289]

"Mirza Boburning vatanga marsiyasi"da keltirilgan mazkur fikrlar Naqshbandiylarning chorig'in kiyib, yohu chekayotgan vayron Vatan bilan qo'shilib davr qalbi shoir she'rida aks etishini yana bir karra isbotlaydi.

She'riyatda iztirob, dard, g'ussa, o'z-o'ziga malomat, pushaymonlik, ertani achchiq sog'inish, baxt va baxtsizlik, olamning norasoligidan norozilik, har bir ijodkor o'zining ichki "men"idan kelib chiqib, voqelikka munosabat bildiradi. Dunyo she'riyatiga nazar tashlansa, baxt-saodatni tarannum etishdan ko'ra fojiviylilik ruhidagi she'rlar ko'proq yaratilgani va aynan mana shunday asarlar sevib o'qilganligini ko'rish mumkin.

Asqar Mahkam she'rlarida fojiviylilik, yo'qotish, o'lim, o'z-o'zidan norozilik, iztirob ruhi kuchli va bu tushunchalar lirik "men"ning mohiyatini ochib tashlashga xizmat qiladi. Shoir uchun hamma olqishlab turgan, mezonlarga solingan, rasmiy tashkilotlar e'tirof etgan e'tiqodsiz kishilar to'dasidan ko'ra mehnatkash oddiy inson afzal. Shunday odamlar jamiyatni ichdan tutib turadilar, o'z halol mehnatlari bilan yurtga xizmat qiladilar. El dasturxonining to'kisligiga sabab ham ularning zahmatkashligi. Qatrada quyosh aks etganidek, sodda, ba'zan to'pori, ba'zan halim va yumshoqtabiat kishilar qiyofasida millat ruhi namoyon bo'ladi. Ularning orzulari, intilishlari, bunyodkorliklari, tantana va quvonchlarini boshqalar qalbida hayotdan umidvorlik, hayotga muhabbat hislarini yuzaga keltiradi.

Har bir adabiy avlod o'zidan oldingi avlodning eng yaxshi jihatlarini o'zlashtiradi va uni o'z ijodiy "men"iga moslashtiradi. Har qanday yo'nalish yoki shakli yangilanish zamirida eskilik yashab qoladi. Tabiat qonuniga ko'ra, har qanday yangilik eskilikning davomi sifatida paydo bo'ladi. She'riyatda ham ifoda va tasvir yo'sini qanchalik o'zgarishga uchramasin, unda o'zidan oldingi adabiyotning eng yaxshi qirralari saqlanib qoladi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida badiiy ijodning yetakchi estetik tamoyillari, ijtimoiy taloto'plar, ziddiyatlar oqibatida tug'ilgan muammolarga munosabat, ularning kelib chiqish sabab va oqibatlari, hamda najot yo'li haqida millat vijdoni sanalgan shoirlar chuqur mushohada, mulohaza yuritib obrazli fikrlaydi. Ular ijtimoiy turmushdan shikoyat qilish bilan cheklanmaydi, jamiyat va millatni farovonlikka erishtirish uchun muammolarning sabab va oqibatini muqoyasa qilib umumfalsafiy xulosalar chiqaradi.

Yangi davr adabiyotida badiiylik, haqqoniylik va ta'sirchanlik asosiy tamoyil sifatida qabul qilindi, natijada ijodkor yaratgan badiiy olamni tadqiq qilish, lirik "men"ning ijtimoiylashuvi, olam va insoniyat haqidagi fikrlar ko'lamining kengayishi, ilohiy-irfoniy mavzularning badiiy sintezi kuchaydi.

Ijodkor uslubida uning ichki "men"i, fitratida mavjud bo'lgan asllik, faqat o'ziniki bo'lgan tafakkur tarzi, ruhiyatiga xos injalik, o'jarlik, voqelikni kuzatish, ko'rish, his etish, munosabat bildirish, hayotiy tajribasi, iste'dod darajasi kabi subyektiv xususiyatlar bilan birga jamiyatimizning, ya'ni ijodkor yashab, qalam tebratayotgan zamonning unga ta'siri ham seziladi. Ayni paytda, u adabiy an'analarni o'rganadi va o'zlashtiradi, rang-barang uslublarga xos estetik ideallarni o'zlashtiradi, hayotiy material to'playdi, mavzu va qahramonlar tanlaydi. Zero, o'ziga xos uslub tasvirlanajak badiiy olamni yaratish, unga kirib borish va uning betakror manzaralarini o'ziga xos tarzda tasvirlash mahoratidir.

Ijodkor o'z qahramonlarini hayot mantig'iga muvofiq tasvirlash bilan birga yuksak tipiklikka erishishi san'atning eng asosiy qonuniyatlaridan biridir. Bu boradagi nuqtai nazarlar bir xil emas. Chunonchi, "Ijodkor o'z asarlarini yolg'izlikda yaratsa-da, u qalban va ruhan doimo ko'pchilik – odamlar bilan bog'lanib turadi. Shoir aytmoqchi, uning ishi odamlarning o'zidan olib, odamlarning o'ziga bermokdir".[12.85] "Yo'q, odamlarning o'zidan olib, o'ziga qaytarib berishning o'zigina ijodkorlik emas. Olganlari boyitilib, mazmunan yanada yangilanib, sirlil, sehrlil, jozibali, g'oyatda ta'sirchan, haqqoniy badiiy olam darajasiga ko'tarilgan holda taqdim etilsa, ijodkorlik mahsuli bo'ladi. Bunday mahsulotni badiiy kashfiyotga aylangan mahsulotni shunchaki qalamkash, faqat bilimdon insongina yarata olmaydi. Yaratish uchun esa Olloh ato qilgan noyob iste'dod sohibi bo'lish talab qilinadi"[10, 5]. Yozuvchi

Xurshid Do'stmuhammad esa bu fikrlarga qo'shilganday: "Ijodkor jo'n odam emas, uning badiiy olami, badiiy nuqtai nazari butun jamiyat, qolaversa, insoniyat mentalitetini tarbiya qilishga, ularning sifat darajasini ko'tarishga xizmat qiladi"[11, 25] deb hisoblaydi.

Xulosa. XX asrning 60-yillarida adabiyotda iliqlik davri boshlandi va yangi bir to'lqin kirib keldi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva singari shoirlar goh oshkor, goh pinhon qizil vatanparvar kishini emas, bir inson sifatida hayoti topish va yo'qotishlarga to'la lirik qahramonning kechinma, tuyg'u, holatlarini kuylay boshladilar. Ularning davomchisi o'laroq adabiyotga kirib kelgan Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Abduvali Qutbiddin, Muhammad Yusuf, Asqar Mahkam kabi ijodkorlar milliy she'riyatimizni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardilar. Ijroviy lirika bilan yonma-yon ko'ngilga yuz tutgan she'riyat bo'y ko'rsata boshladi. Va nihoyat mustaqillik arafasida yana bir yangi avlod paydo bo'ldiki, ular o'z nigohlarini olamga emas, odamning botiniga qaratdilar. Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Sirojiddin Sayyid, Ulug'bek Hamdam, Halima Ahmedova, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamova va yana ko'plab ijodkorlar turli adabiy shakllar, turli yo'nalishlardagi ijodlari bilan milliy she'riyatimiz yangi davrga qadam qo'ydi.

ADABIYOTLAR:

1. Ҳамдам У. Янгилашиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007. – 290 б.
2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Yangi nashr, 2010. – 256 б.
3. Мели С. Сўзу сўз. – Т.: Sharq, 2020. – 270 б.
4. Ҳамдам У. Янгилашиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007. – 310 б.
5. Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2011. – 262 б.
6. Асқар Маҳкам. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon business, 2001. – 410 б.
7. Оripov А. Танланган асарлар. 7- жилд. Мафтункор шеърият. – Т.: Шарқ, 2013. – 350 б.
8. Маҳкам А.Ҳақ. Сайланма. – Душанбе: Адиб, 1998. – 320 б.
9. Худойберганов Н. Дилу тил сеҳри. – Т.: Ёзувчи, 2002. – 262 б.
10. Дўсмұхаммад Х. Уйғониш жозибаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, № 25.
11. Ислom Ҳамро. Ёзувчи шахси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, № 24.
12. Ян Парандовский. Сўз кимёси. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 270 б.
13. Рустамова А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 250 б.
14. Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе: Адиб, 1998. – 260 б.
15. Асқар Маҳкам. Аналҳақ. – Т.: Халқ мероси, 2003. – 280 б.

*Berdiyeva Dilnavoz Orif qizi,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
(O'zbekiston)
E-mail: dilnavoz.berdiyeva92@mail.com*

ZAMONAVIY O'ZBEK SHOIRALARI IJODIDA BAG'ISHLOV VA MAKTUB-SHE'RLAR

Annontatsiya. Ushbu maqolada jahon adabiyotida bag'ishlov, xotira, maktublar va ularning ilk avval yozilish sabab-maqsadlari, keyinchalik dunyo adabiyotida ularning mazmun-mohiyati o'zgarganligi, hozirgi o'zbek she'riyatidagi o'rni va ahamiyati, ijodkor badiiy maqsadi, ruhiyat olami, tuyg'u va kechinmalarini ifodalashdagi roli haqida H.Xudoyberdiyeva, Q.Rahimboyeva va N.Afoq she'riyati misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bag'ishlov, maktublar, medsenat, she'riy va nasriy bag'ishlovlar, ijodkor tuyg'ulari, ota-onaga, yaqin qarindoshlarga, do'stlarga bag'ishlov, maktublar.

Аннотация. В данной статье рассказывается о посвящении, памяти, письмах в мировой литературе и о причинах и целях их первоначального написания, об изменении их содержания в более поздней мировой литературе, о роли и значении в современной узбекской поэзии, о творческой художественной цели, мире психики, роли в выражении чувств и переживаний, всё это рассматривается на примере поэзии Н.Худойбердиева, Г.Рахимбаева и Н. Афак.

Ключевые слова: посвящение, письма, медосвидетельствование, поэтические и прозаические посвящения, чувства творца, посвящение родителям, близким родственникам, друзьям, письма.

Abstract. This article is about dedication, memory, letters in world literature and their first reason-goals for writing, their later meaning and significance in World Literature, their place and significance in current Uzbek poetry, creative artistic proverb, the world of psyche, their role in expressing feelings and experiences. H. Khudoyberdiyeva, Q. Rahimboeva and It is considered on the example of N. Afoq poetry.

Key words: dedication, letters, medsenat, poetic and prose devotions, creative feelings, dedication to parents, close relatives, friends, letters

Kirish. Dunyo adabiyotida bag'ishlov, xotira va maktub tarzida bitilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, bag'ishlovlar ilk avval Rimda urfga kirgan va keyinchalik butun Yevropa bo'ylab an'anaga aylangan. "Bag'ishlov she'riy yoki nasriy yo'lda bitilib, asarning boshlanish qismidan joy olgan. Bag'ishlovda homiylik qilgan metsenat madh etilgan, minnatdorlik izhori bilan birga uni ko'proq iydish, o'z ijod mahsuli uchun rag'bat olish maqsadi ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, bunday bag'ishlovlarning uslubi ham tantanavor, balandparvoz bo'lgan. "Qutadg'u bilig" dagi Bug'raxon madhi, Xorazmiy "Muhabbatnoma" sidagi Muhammad Xojabek madhi mohiyat e'tibori bilan bag'ishlovga yaqin turadi" [1, 68], deb yozadi adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov.

Asosiy qism. Ammo bugungi kunga kelib bu turdagi she'rlarning mazmun-mohiyati va maqsadi o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. XX asrga kelib o'zbek adabiyoti, ayniqsa, she'riyatida bag'ishlov she'rlar yozish tobora taraqqiy qildi. Bu davrdan boshlab bag'ishlovlar muallifning biror shaxsga nisbatan hurmati, e'tibori, mehr-muhabbati tariqasida, shuningdek, muayyan bir joy yoki muassasa, voqea-hodisaga nisbatan o'z tuyg'u va kechinmalarining izhori tarzida yozila boshlandi. Bag'ishlovlar, ba'zi o'rinlarda sarlavha tarzida berilsa (mas, onamga, otamga, yurtimga kabi...), ba'zi o'rinlarda sarlavhadan keyin alohida yoziladi. Har ikki usulni ham quyida ko'rib o'tamiz. Shuningdek, she'riyatda bag'ishlov bilan bir qatorda, xotira, maktub (xat) kabilar yozish ham urfga kira boshlagani e'tiborlidir.

Bugungi adabiyotda ayol shoiralarning ijod qilishida erkaklar qatori jonbozlik ko'rsatayotgani barchaga ma'lum. Shunday ekan, ayollar she'riyatida ham bu kabi she'rlarni ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, H. Xudoyberdiyeva, Q.Rahimboyeva ijodi misolida bu turdagi she'rlardan ko'plab namuna keltirish mumkin. Xususan, H.Xudoyberdiyeva ijodida "Onamga", "Otam xotirasiga", "Dugonamga", "Bir do'stinga", "Hamid Olimjonga" kabi...; Q.Rahimboyevaning "Onamga", "Nabiralaringa", "Singlimga", "O'g'limga", "Yosh shoirlarga", "Halima opaga" kabi...; N.Afoq she'riyatida esa

“Cho‘lponga”, “Shoir do‘stlarimga”, “Asadbekka”, “Xalq noiblariga”, “Baxtinisoga” kabi bir qator she‘rlarni misol keltirish mumkin. Bu shoirlar ijodidagi bag‘ishlov she‘rlarning asosiy qismi ularning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari va nabiralariga bag‘ishlanganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, do‘stlarga, dugonalarga, adabiyot vakillariga va boshqa o‘tkinchi shaxslarga hamda muayyan bir joyga bag‘ishlangani ham uchrab turadi. Bu borada har uchala shoirada ham mushtaraklikni kuzatish mumkin.

Natijalar va muhokama. Yuqorida obyekt sifatida tanlangan uch shoiralarning ijodida ham Onaga bag‘ishlab yozilgan she‘rlarga bir necha marta duch kelishimiz mumkin.

Nechun shu yoshgacha men etmadim his,
Onamning shu qadar xushro‘yigini?
Nafasin misoli bahorgi yalpiz –
Yoki atirgulday xushro‘yigini? [2, 40-41]

Halima Xudoyberdiyevaning 1968-yilda chop etilgan birinchi “Ilk muhabbat” to‘plamiga kiritilgan ushbu “Onamga” she‘ri bag‘ishlov tarzida yozilgan. Shoira yigirma yoshlar atrofida yozilgan bu she‘rida o‘z onasiga nisbatan qizlarga xos samimiy mehr-muhabbat aks etib turadi. Shoira hali yigirma yoshdayoq “Ona aslida kim?” -degan savolga javob topadi. Nechun shu yoshgacha onasining shu qadar xushro‘y ekanligini, nafasi yalpiz yoki atirgul misoli ekanligini, ma‘sum ko‘zlarida mudom bir olam tashvish yotganligini, nojo‘ya ish qilganda tanbehlarini jon qulog‘i bilan tinglamaganligini shuncha kech anglayotgani uchun o‘zidan xafa bo‘ladi. Aslida, endigina 20 yoshni qarshilayotgan shoira uchun kech emasdi. Yosh shoira bandma-band onasiga nisbatan qilgan har bir nojo‘ya xatti-harakati uchun afsuslanadi, chin ma‘noda pushaymonlikni his etadi. Lekin bolalikka xos bo‘lgan bu quvliklar ona uchun hech ayb sanalmaydi.

Onajon, azizim, meni kechiring,
Bergan sutingizni oqlayman halol [2, 40-41]

Shoira 1974-yilda chop etilgan “Chaman” kitobidagi “Bag‘ishlov” sarlavhali she‘ri ham onasiga bag‘ishlangan. She‘r shoira 26 yoshligida, 1973-yil 2-martda yozilgan. She‘r quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

Onajon!
Tezroq bo‘l, tillarang libosingni kiy,
Oppoq ro‘molingni o‘ragil boshga.
Quloq sol chalinar mastona bir kuy,
Nigoh sol, ufqda qizg‘ish quyoshga [2, 40-41].

Shoira bu kun onasini bayram bilan qutlamoqda va she‘rni ayni shu bahor ayyomi bilan onasiga bag‘ishlab yozadi. Onasini tezroq tillarang liboslarini kiyishga, oppoq ro‘mollarini o‘rashga undaydi. Ammo hamon ro‘zg‘or ishlari bilan ovora onasiga qarab, shunday kunda ham tashvish-la yurganiga achinadi:

Shu tongda ham sen tashvish bilan band,
Un elayapsanmi, sen turaqol, kiyin [2, 160-161].

Shoira onasiga ilk bahorni tasvirlar ekan, uni ham o‘z tuyg‘ulariga hamroh, sherik qilgisi, qalbiga quvonch va go‘zallik olib kirmoqchi bo‘ladi.

Huzurbaxsh, bu hayot uzzukun chalib nay
Bor bisot quvonchin baxsh etsin senga [2, 160-161].

Keyingi yillarda ham shoira o‘nga yaqin onasiga bag‘ishlovlar yozdi. Har birida onasidan uzr tiladi, o‘tmishini eslab afsus tortdi. Amma shoira eng go‘zal bag‘ishlovlari onasiga atalgandi. Chunki bu she‘rlarda eng nafis tuyg‘ular, kechinmalar, samimiy izhorlar qog‘ozga to‘kilgan. Bu bag‘ishlovlarda shoira ijodkor shaxs sifatida emas beg‘ubor, samimiy bir qiz, ba‘zan sho‘x, ba‘zan quvliklaridan o‘ksigan farzand hamda nozik qalbli, inja tuyg‘uli ayol qiyofasida gavdalanar, ko‘ngil olami va ruhiyat dunyosining go‘zal manzaralari yaqqol aks etib turadi.

Qutlibeka Rahimboyeva ijodida onaga bag‘ishlovlar uchramasa-da, ammo maktub shaklida yozilgan birinchi va ikkinchi sahifadan iborat she‘rlar mavjud.

Uying yo‘q, deb qayg‘urmang sira,
Yaxshilar ko‘p – yashash qiyinmas.

Uy ham bo‘lar, bo‘lar zar zirak,
Ruhim qashshoq yurmasam shu, bas [3, 87].

Mazkur “Onamga xatlar” sarlavhali she‘r 1984-yilda chop etilgan “Uzun kunduzlar” kitobiga kiritilgan. Shoiraning 30 yoshlar ustida yozgan she‘ridir. Badda ifodalangan mazmundan anglashimiz mumkinki, shoiraning hamon uysiz yurganidan onasi doim qayg‘uradi. Albatta, shoiraning onasi ham farzandini bosh suqadigan bir go‘shasi bo‘lishini istaydi. Ammo shoira uchun bu muhim emas, “Yaxshilar ko‘p – yashash qiyinmas” deya onasining ko‘ngliga taskin beradi. Ayni ahvolidan balki onasining ortiqcha qayg‘urmasligi uchunmi, boriga shukrona aytadi. Uy, zar ziraklari bo‘lmasa-da, “ruhim qashshoq yurmasam, bo‘ldi” deya yozadi. Bu jumlar shoira iztiroblarini, hasb-u holini mujassam etgan. Bu satrlar shoira qalbidan og‘riqlar, alam va iztiroblar bilan sizib chiqar ekan, shu onda ko‘zlari yoshlangan bo‘lsa, ajab emas. Shuning uchun ham shoira “rostin yozmoq biroz og‘irdir” deya o‘ksinadi.

Oz yozasan, deb tortmang tashvish,
Quvonchim ham yupanchim she‘rdir.
Satr bitmoq juda oson ish,
Rostin yozmoq biroz og‘irdir [3, 87].

Aslida ham bunday satrlar bitish, achchiq haqiqat bilan yuzma-yuz kelmoqlikdir. Shoira onasiga maktub yozar ekan, bu maktubning onasiga yetib borishini u qadar istamaydi. Chunki iztirob va alamlar bilan yozilgan satrlar bilan onasini ham o‘zi kabi huzursiz, halovatsiz qilmoqni istamaydi. Ammo g‘ussaga to‘lgan shoira garchi onasiga yubormasa-da, xayolan maktub orqali onayizori bilan sirlashadi, dardlashadi:

“Mish-mish” larga ishonmang, qo‘ying,
Ermak emas menga muhabbat.
Bir odamni jon qadar suydim,
O‘shani deb o‘tarman faqat [3, 87].

Navbatdagi badda shoira muhabbatidan so‘z ochib, onasiga “mish-mish” larga ishonmasligini, ermak uchun sevmaganini va o‘sha insonni jon qadar suyushini, faqat o‘shani deb yashashini, butun umrini muhabbatiga bag‘ishlashini yozadi. Ammo bu satrlarni yozmoq shoira uchun, albatta, oson emasdi. Hech bir farzand onasiga yolg‘on so‘ylay olmaganidek, shoira ham yolg‘on so‘ylamaydi, uning uchun qanchalik og‘ir bo‘lsa-da, haqiqatlar bilan yuzma-yuz bo‘ladi.

Nodira Afoq ijodida ham onaga bag‘ishlovlar uchramasa-da, maktub uchraydi. Shoiraning 1997-yilda nashr etilgan ilk she‘riy to‘plamidan joy olgan “Onamga xat” she‘ri ham mazmunan Qutlibekaning maktubiga o‘xshash. N.Afoq ham Qutlibeka singari maktub orqali onasi bilan dardlashadi, unga sog‘inchlar yo‘llaydi:

Ona, senga xat yozgim keldi,
G‘oyibona qilay deb guring.
Ona, senga dard yozgim keldi,
Garchand ko‘pdir o‘z tashvishlaring [4, 42].

O‘zbek she‘riyatida ayol shoiralarning onaga maktub yo‘llashi, g‘oyibona suhbat qurishi tabiiy holdir. Shoira onasiga maktub yozar ekan, maqsadini ilk avval anglatadi. Birinchi misrada “xat yozgim keldi” desa, ikkinchi misrada “dard yozgim keldi” deya oshkor yozadi. Ammo qiz onasining tashvishi ustiga tashvish bo‘layotganidan hijolat tortadi.

Senga aytam ranjima biroq,
Men ham sening zarrangman axir.
Kiftlarimda sharaf va gunoh,
Uni sensiz ko‘tarmoq og‘ir [4, 42].

Shoira onasiga dardlarini to‘kib solar ekan, undan ranjimasligini aytib, boshqa farzandlarning kabi “men ham sening zarrangman axir” deya onasining zurriyodi ekanligini yana bir bor eslatib qo‘yadi. Shoir onasidan boshqa dardini aytadigan, g‘amlariga sherik bo‘ladigan boshqa bir kimsa yo‘qligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Kiftlaridagi sharaf va gunohni ko‘tarib yurish bir o‘ziga og‘irlik qilishini yozadi.

Xulosa. Demak, yuqoridagi kabi bag‘ishlov va maktub she‘rlarda intim satrlar, ichki va shaxsiy sirlar, kechinmalar, ijodkor ichki dunyosi bor bo‘y-basti, haqiqatlari bilan aks etib turadi. Bu she‘rlar

orqali o'quvchi ijodkorni shaxs sifatida taniydi, inson sifatida butun dard va og'riqlari bilan anglaydi. Bunday she'rlar shoirga o'z ruhiyati dunyosi, qalbida yaqinlariga bo'lgan samimiy munosabatlarini, izhorlarini, sog'inch, mehr-u muhabbatlarini ochiq oshkor etmoq imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – 475 б.
2. Худойбердиева Ҳ. Сайланма. IV жилдик. Биринчи жилд. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – 424 б.
3. Раҳимбоева Қ. Чақмоқлар фасли. Саҳҳоф. – Т., 2022. – 321 б.
4. Афоқова Н. Баҳорнинг бошланиши. – Бухоро: Бухоро, 1997. – 105 б.

*Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi,
Bukhara State University 2nd year PhD. Student
(Uzbekistan)
E-mail: ugiloyfozilova21@gmail.com*

NAVRUZ HOLIDAY VIEWS IN BUKHARA REGION

Annotatsiya. Navro'z ming yillar davomida ko'plab Sharq xalqlari tomonidan milliy bayram sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. U haqida turli xalq ertaklari, qo'shiqlari, rivoyatlari bor. Navro'z tarixining an'analari asrlarga borib taqaladi, hozir ham e'zozlanib, ulug'lanib kelinmoqda. Tabiatning erta uyg'onishini tarannum etish, baraka tilash an'alarini o'zida mujassam etgan Navro'z ayyomining nishonlanishi ham fasllarning jazirama oqibatlarini anglatardi. Qadimgi ajdodlarimiz bahorgi tengkunlik kunida bir qancha marosimlarni o'tkazgan. Ular orasida Navro'z o'zining g'ayrati, kuch-g'ayrati bilan yosh-u qari uchun alohida o'rin tutgan. Buning uchun xalq uni avloddan-avlodga sevib, e'zozlab kelgan. Zero, bolalarning Navro'z bayramida qatnashishi yaxshi belgi hisoblangan. Boshqalar, Navro'zda tug'ilgan bolalar omadli va xarakterli, alohida hurmatga loyiq deb hisoblanadilar. Shuning uchun ham qadimgi xalqlar Navro'z bayramini ba'zi mifologik kultlar bilan bog'lab, ezgulikning yovuz kuchlar ustidan g'alaba qozonish kuni sifatida yaratilgan Yangi yil bayramlarini asosan ziyoratgohlarda nishonlaganlar.

Kalit so'zlar: Navro'z, Buxoro, Sharq xalqlari, tarixiy binolar, Navro'zga xos taomlar, Navro'z sayli.

Аннотация. Навруз широко отмечается как национальный праздник многими народами Востока на протяжении тысячелетий. О нем сложены различные народные сказки, песни, легенды и рассказы. Традиции истории Навруза уходят в глубь веков, до сих пор чтятся и прославляются. Празднование праздника Навруз, воплощающего в себе традиции прославления раннего пробуждения природы и пожелания благ, означало и последствия жаркого времени года. Наши древние предки проводили ряд церемоний в день весеннего равноденствия. Среди них Навруз занял особое место своим энтузиазмом и энергией для молодых и старых. За это народ любил и почитал его из поколения в поколение. Ведь участие детей в Наврузе считалось хорошим знаком. Другие, дети, рожденные в Навруз, считаются удачливыми, обладающими характером и заслуживающими особого уважения. Именно поэтому древние народы связывали празднование Навруза с некоторыми мифологическими культурами и отмечали новогодние торжества, которые создавались как день победы добра над злыми силами, преимущественно в святилищах или вблизи них.

Ключевые слова: Навруз, Бухара, народы Востока, исторические постройки, фирменные блюда Навруза Навруз Сайли.

Abstract. Navruz has been widely celebrated as a national holiday by many Eastern nations for thousands of years. There are various folk tales, songs, legends, and stories about him. The traditions of Navruz history goes back centuries, are still honored and glorified. The celebration of Navruz holiday, which embodies the traditions of glorifying the early awakening of nature and wishing blessings, also meant the consequences of hot seasons. Our ancient ancestors held a number of ceremonies on the spring equinox. Among them, Navruz has taken a special place with its enthusiasm and energy for young and old. For this, the people loved and honored him from generation to generation. For, children's participation in Navruz was considered a good sign. Others, children born in Navruz are considered lucky and have character and are considered worthy of special respect. That's why the ancient peoples connected Navruz celebrations with some mythological cults and celebrated New Year's celebrations, which were created as the day of victory of goodness over evil forces, mainly in or near shrines.

Key words: Navruz, Bukhara, Eastern nations, historical buildings, Navruz special dishes Navruz Sayli

Introduction. Navruz has been widely celebrated as a national holiday by many Eastern nations for thousands of years. There are various folk tales, songs, legends, and stories about him. The traditions

of Navruz, whose history goes back centuries, are still honored and glorified. With the independence years in the historical calls of our president, it gained even more value. Navruz is a very ancient holiday. It was celebrated even before Islam, and it is not a religious holiday. Navruz was misinterpreted, and its celebration was unfairly restricted during the celebrations. The first President of our country, I.A. Karimov: Navruz is the most ancient, original national holiday for us, free from different ideologies and policies, it meets our traditions and values to renounce all malice, grudges and conflicts, and to appreciate the value of a peaceful life. The glorification of harmony and solidarity, mutual respect, and solidarity among peoples is a priceless wealth, and the Navruz holiday with its invitations is in perfect harmony with the views of our people. Because it has such a deep meaning and meaning, he explained its meaning clearly and concisely, saying that we will spend our Eastern New Year as a national holiday.

Main part. The celebration of Navruz, which embodies the traditions of glorifying the early awakening of nature and wishing blessings, also marks the defeat of the winter forces to which Ajdahaka-Bivarasp belongs, as well as the part attributed to Ahura – the consequences of the hot seasons. Meant That’s why the ancient people connected Navruz celebrations with some mythological cults and celebrated New Year’s celebrations, which were created as the day of victory of goodness over evil forces, mainly in or near shrines. In Bukhara, this ceremony was organized mainly in the shrine of Bahauddin Balogardon.

Navruz, which means a new, happy day, is celebrated on the spring equinox, that is, around March 21-22. Again, through the Sassanids, it was turned into a state holiday and celebrated in the summer, the longest day, on June 21-22. Our ancestors hold a number of ceremonies on the spring equinox. Among them, Navruz was celebrated with enthusiasm and energy, whether big or small. Hence, the people loved and honored over. The participation of children in Navruz was considered a good sign. Children who were born in Navruz are considered lucky and have character and are considered worthy of special respect. Boys born on this day are named Navruz, and girls are named Navruzoy, Bahoroy, Gulbahor, and Lola. It is considered that the new development will have a successful outcome with their participation. As the ambassador of Navruz, when children saw a tree that sprouted in early spring, they made bouquets from it, wore garlands on their heads, fell in love with the prospect of the elderly, walked from yard to yard and received their blessings. They announced the arrival of spring by singing the song “Boychechak” and sharing flowers. When the song was finished, the children were applauded while the elders were praying. They rubbed the rosary on their eyes and wished for peace and stability and blessings for the country. After that, the housewives distributed gifts and sweets to the children. The children shared those with each other.

Boychechagim boylandi, Qozon tola ayroni....

Dunyo adabiyotida bir xil nom bilan atalgan ma'rifatchilik yoki ma'rifatparvarlik harakati va adabiyotining shakllanishida ham mana shunday uyg'unlik mavjudligini ingliz va o'zbek ma'rifatchiligi adabiyoti misolida ham dalillash mumkin.

Asosiy qism. Lug'atlarda "ma'rifat" so'zi arabcha bo'lib, "bilim", "ilm olish", "bilimdonlik" degan ma'nolarni bildiradi. "Maorif", "irfon" kabi so'zlar ham shu o'zakdan yasalgan [9.567].

G'arb adabiyotida ma'rifatchilik davri XVIII asrda shakllanganligi manbalarda ta'kidlanadi. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining shakllanish davri XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Biroq ma'rifatparvarlik adabiyotining shakllanish davrini XIX-XX asr boshlariga bog'lash nisbiydir. Boisi, Sharq, jumladan, turkiy adabiyot – pand-nasihat adabiyotidir. Uning asosiy mavzusi insonni komil ko'rishdir. Komillikning asosiy belgisi esa ilm-ma'rifatda ko'rinadi. Shuning uchun "ma'rifat" atamasi va uning ma'nolariga doir fikrlarni islom dinining asosiy manbasi hisoblangan Qur'oni karim suralarida yoki payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida ham uchratish mumkin. Diniy manbalarda bilim, ilm-fan, tafakkur va ma'rifat masalalariga alohida urg'u berilgan. Qu'oni karimda "ma'rifat" so'zi yigirma to'qqiz o'rinda qo'llanilgan va uning sinonimi sifatidagi "ilm" so'zi 782 marta qayd qilinishi ham bu so'zning atama sifatidagi gnezisni aniqlashtirishga yordam beradi. Qur'oni karimda insonlar ilm-ma'rifatli bo'lishga targ'ib qilinishi bilan birga, bunday sifat ularning yuksak maqomga erishishlarida bir vosita ekanligini dalillovchi ko'plab oyatlar keltirilgan. Jumladan, "Zumar" surasining 9-oyatida "Balidiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?" yoki "Mujodala" surasining 11-oyati karimasida "... Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur" deb marhamat qilinadi. Ko'rinib turibdiki, ilm-ma'rifat tushunchasi inson kamolotning asosi, inson ruhning ozig'i sifatida targ'ib qilinishi diniy manbalarda qat'iy ta'kidlab o'tilgan.

Hadislarda ilm olish shaxs kamolotining asosiy omili sifatida qayta-qayta takrorlanadi. Jumladan, “*Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar. Chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir*” [5, 32]. “*Sadaqaning afzali mo‘min kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘min birodarlariga ham o‘rgatishidir*”, “*Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi*” [5, 36]. Ko‘rinib turibdiki, diniy manbalarda ilmga keng e‘tibor berilishi va uni o‘zlashtirish bilan bog‘liq talablarning qo‘yilishi islom mintaqasida ta‘lim-tarbiyaning o‘ziga xos tarzda rivojlanishiga imkoniyat yaratdi.

O‘rta Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi bo‘lgan “Avesto”da ham ma‘rifat tushunchasi o‘ziga xos talqin qilingan. Jumladan, “*Haqiqat nurlari ostida, Ezgu Niyatdan yaralgan ma‘rifatingdan bizlarga hadya qil, toki tirikligimizning har lahza, har soat, har bir kunida shodmonlikdan bahramand bo‘laylik*” [2, 20]. Demak, muazzam manbada ma‘rifat kalimasi ezgulikning namoyon bo‘lishi, ezgu fikr hamda ezgu so‘zning amalga oshishi tarzida talqin qilingan. Bundan tashqari, “Aveston”ning “Din yasht”da Chista ilohasi tilga olingan. Chista so‘z “bilim, ogohlik, farzonalik” ma‘nosidagi so‘z. Chista – ilmu donish Ilohasi. “Din yasht”da Iloha Chista sha‘niga maqto‘vlar, olqishlar o‘qiladi” [2, 20]. Demak, “Din yasht”ida ilm-fan, bilim va donishmandlik ilohasi Chistaning madh etilishi zardushtiylikda ilm-fan va dinning uyg‘unligi bir butunlik sifatida talqin qilinganligidan darak beradi.

O‘rta osiyolik qomusiy olim, ilm va fanning turli sohalarida asarlar yozib qoldirgan Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlari negizida ham “ma‘rifat” tushunchasiga o‘ziga xos ta‘rif berilgan. U “Hindiston” asarida shunday yozadi: “*Ilm olish dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta‘lim va tarbiya bir butunlikni ko‘rsatadi, faqat shu borliqqa amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi*” [1, 36].

Sharq xalqlarining ta‘lim va tarbiya tarixida yoshlarga, farzandlarga nasihat yo‘li bilan ta‘sir ko‘rsatish eng oson va qulay hisoblangan. Ayrim olimlar, davlat arboblari pandnoma yoki nasihatnoma nomi ostida maxsus asarlar yaratganlar. Shu ruhdagi asarlardan biri “Qobusnoma” dir. Mazkur asarda ham shaxs kamoloti, bola tarbiyasi haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Asar muallifi Kaykovus o‘g‘liga qilgan nasihatlarida, avvalo, uni ilm olishga da‘vat etadi. “*O‘z tanangni ilm va yaxshilik nuri bilan qoplab ol. Bilmagan narsangni o‘rgan*” deydi.

Kaykovus bolalarga bilim berish, ularni o‘qitish, tarbiyalash ota-onaning eng muhim va muqaddas burchi ekanligini uqtiradi va shunday yozadi: “*Hatto farzand aqliy jihatdan zaif bo‘lsa ham unga ta‘lim-tarbiya berish kerak. Agar sen o‘g‘lingni tarbiyalamasang, uni zamon, sharoit tarbiyalaydi*”. Kaykovusning ta‘kidicha, har bir ota-ona o‘z farzandiga bilim va tarbiya berishi, hunarni meros qilib qoldirishi kerak, chunki tarbiya va hunardan ko‘ra yaxshiroq meros yo‘q.

Ilk ma‘rifiy doston bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan boshlangan ma‘rifatni targ‘ib qilish g‘oyasi ijtimoiy-siyosiy davr voqeligi asosda o‘ziga xos talqin qilina borgan. “Qutadg‘u bilig” asarida ma‘rifat yetakchi mavzulardan biri. Asarda shaxsning bilim va fazilatga ega bo‘lishi muhimligi ta‘kidlanadi. Inson o‘zini va Yaratganni anglashi, gunohlaridan poklanishi, ilm olishi, ezgu xulq-atvorga ega bo‘lishi va shu orqali ma‘naviy kamolotga, baxtga yetishi mumkinligini muallif ramziy obrazlar misolida uqtirib o‘tadi. Asarda ma‘rifat so‘zining sinonimi sifatida “bilim” (bilik) so‘zi ko‘p o‘rinlarda qo‘llangan. Jumladan,

Ishni bilsa, bilimli, zakovatli biladi,

Ish qilsa, bilimli, zakovatli qiladi [8, 108].

Demak, muallif hayotiy muammolarning yechimi faqat bilim orqali ekanligini ta‘kidlaydi va bunday sifatga ega kishilarni “ishni biluv”, “ish qiluvchi” shaxslar sifatida ta‘riflaydi.

Quyidagi to‘rtlikda esa bilim barcha mushkulotlarning kaliti sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ilm olish va unga rag‘bat ko‘rsatishga e‘tibor qaratiladi.

Hamma qattiq tugun bilim tufayli yechiladi,

Bilim bil, zakovat o‘rgan. Oqilona yashagin.

Bilimni ishga solgin, tag‘in har kun o‘rgan,

Tag‘in o‘rgana ber, bugun g‘ofil bo‘lma [8, 111].

Islom dini bag‘rida shakllangan tasavvuf ta‘limoti va tasavvuf adabiyotida “ma‘rifat” tushunchasi irfoniy ma‘noda qo‘llangani kuzatiladi. Ma‘rifat – Allohni anglash va tanish. Ma‘rifat –

tasavvuf ta'limotida alohida bir bosqich. U shariat va tariqatdan keyingi uchinchi bosqichidir. Bu shunday bosqichki, unga yetishish oson emas. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ahmad Yassaviy bir o'rinda shunday yozadi:

Ma'rifatning minbariga minmaguncha,
Shariatning ishlarini bilsa bo'lmas.

Ma'rifat minbar (bosqichi) hammaga ham nasib qilavermaydi. Buni Bahouddin Naqshband hazratlarining "Tavhid sirriga yetsa bo'lur. Ammo ma'rifat sirriga yetish dushvordir", – degan fikrlaridan ham anglash mumkin. Bunday misollarni tasavvuf allomalarining asarlaridan ko'plab keltirish mumkin. Demak, tasavvuf ta'limoti va adabiyotida "ma'rifat" so'zining ma'no doirasi kengayganligi kuzatiladi: *"Inson ma'rifatli bo'lish, o'zini anglash, o'rganish uchun avvalo o'z-o'zini boshqara olishi, barcha quvvatlarini ilohiy yo'lga sarflashi, butun vujudini idora etib, uni ruhiy kamolot uchun safarbar etishi kerak"* [6, 74].

Natijalar va muhokama. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining xoh badiiy, xoh ilmiy asarlari bo'lsin, ularda ham ilm-ma'rifatni egallash g'oyasi targ'ib qilingan. Ayniqsa, ulug' shoir Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ta'lim va tarbiya, muallim va mudarris haqidagi ilg'or fikrlar asrlar o'tsa-da o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

Alisher Navoiy mazkur asarida mudarrislar alohida bob ajratadi. Muallif asarda mudarrislar va ta'lim masalalariga oid bir qator muhim qarashlarni o'rtaga tashlaydi. U yaxshi muallimlar va tarbiyachilarning shaxs kamolotidagi o'rnini, ularning bilim va axloqli bo'lishini hamda har xil amal va martabalariga intilmaydigan shaxs bo'lishini alohida ta'kidlab shunday yozadi: *"Mudarrisning kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni ayturg'a murtakib bo'lmasa" va xudnamolig' uchun dars havzasini tuzmasa va xudsitonlig' uchun takallum va g'avg'o ko'rguzmasa. Jahldin dastori uluv va aloqasi uzun bo'lmasa va mubohot uchun madrasa ayvoni boshi anga o'run bo'lmasa"* [3, 19].

Alisher Navoiy ta'limni jamiyat rivojlantirishida muhim vosita sifatida ko'radi. U ta'limning har bir shaxs uchun kerakligini, adolatli jamiyat va komil insonni tarbiyalash uchun zarurligini lirik asarlardan tortib, yirik hajmli "Xamsa" asarida ham badiiy talqin etadi. Ulug' shoir o'zining ideal orzularini Farhodida aks ettirar ekan, uni birinchi navbatda ilm-ma'rifatga intiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. "Saddi Iskandariy" dostoni qahramoni Iskandarning olim-u fuzalolar muhiti va tarbiyasida kamolga yetganini tasvirlash bilan, birinchi navbatda, shaxs kamolotida ilm-ma'rifatning, ikkinchidan esa, ma'rifatli shaxslar – olimu ulamolar, mudarrislarining roli nihoyatda katta ekanligini uqtirib o'tadi. Mazkur dostonida "bilikdin har biri bir jahon" bo'lgan *Balinos, Arastu, Filotun, Suqrot, Buqrot, Hormus, Arashmidus* singari olimlar tarbiyasi vositasida Iskandar ma'rifatli shaxs bo'lib kamolga yetishi tasvirlangan. Uning bilim olishga doir harakatlarini shoir quyidagi misralarda berib o'tadi:

Bilik kasbini qildi, to joni bor,
Hunar bildi ongaki, imkoni bor [4.99].

Umuman olganda, Alisher Navoiy ilm va ma'rifatni inson kamolotidagi muhim fazilat sifatida baholaydi. U o'z asarlarida ilmni va ma'rifatni jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'laydi.

Demak, *ma'rifat kalimasi tor ma'noda ilmi, bilimli insonga nisbatan, keng ma'noda kishilarning bilimi, madaniyatini oshirishga qaratilgan maorif va ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deyilgan* [11]. Ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyoda yuzaga kelgan ma'rifatchilik adabiyoti bo'sh joyda paydo bo'lgan emas. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining shakllanishida dastlab islomiy manbalar, ikkinchidan, Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyot namoyandalari va ular qoldirgan boy ma'naviy meros zaminida shakllandi va ulardan oziqlandi.

Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti mumtoz adabiyotdan oziqlangan bo'lsa-da, ular o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, mumtoz adabiyot asrlar davomida shakllangan, o'zining klassik an'analari bilan tanilgan adabiyotdir. Ma'rifatparvarlik adabiyoti esa XIX-XX asrlar vujudga kelgan va yangi g'oyalar targ'ibi uchun maydonga kelgan adabiyot;

– mumtoz adabiyotda yetakchilik qilgan ishqiy Ilohiy, ishqiy majoziy, muhabbat, barkamol inson, axloq, go'zallik kabi qator mavzular ma'rifatparvarlik adabiyotida yangi mazmun bilan boyitildi. Shu bilan birga, ma'rifatparvarlik adabiyotida bilim, aql-idrok, ijtimoiy adolat va inson huquqlari kabi zamonaviy mavzularga e'tibor qaratildi, ayniqsa, adabiyotda sof maishiy mavzularga murojaat qilindi;

– mumtoz adabiyotda axloqiy va estetik qadriyatlar, ma'naviy tarbiyaga alohida urg'u berilgan bo'lsa, ma'rifatparvarlik adabiyotida esa ta'limning ahamiyatini, jamiyatni rivojlantirishda bilimning roliga urg'u berildi;

– mumtoz adabiyot – ramzlarga boy adabiyot. Mumtoz adabiyotdagi ramz-u timsollarga ma'rifatparvarlik adabiyotida yangicha ma'nolar yuklanishi natijasida ularning qo'llanish doirasi kengaydi;

– mumtoz adabiyotda insoniy his-tuyg'ular, qalb kechinmalari ifodasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, ma'rifatparvarlik adabiyotida hajv, satiraga murojaat qilinishi adabiyotning real hayot bilan yanada bog'liqligini mustahkamladi;

– mumtoz adabiyot an'analari ma'rifatparvarlik adabiyotida yangicha estetik qarashlarni shakllantirishga yordam berdi. Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida romantizm yetakchilik qilgan bo'lsa, ma'rifatparvarlik adabiyotida realizmning paydo bo'lishi bevosita ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda kechdi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ma'rifatparvarlik g'oyalari ayrim ijodkorlarning asarlarida ma'lum bir mavzular tarkibida yoki asarlarining ma'lum bir fasllaridagina to'xtalangan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Biroq mumtoz adabiyot tarkibida ma'rifatparvarlik yetakchi oqim darajasiga ko'tarilmagan. Ma'rifatparvarlik ruhi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari adabiyotini to'la qamrab oldi. Albatta, buning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy omillari bor.

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar jamiyat a'zolarining dunyoqarashiga ta'sir qildi. Natijada mustaqillikka intilgan jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar adabiyotda yangi mavzularni, janrlarni va uslublarni paydo qilinishiga olib keldi. Bu davrda milliy o'zlik, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyatdagi ijtimoiy adolat g'oyalari keng targ'ib qilinishiga e'tibor qaratildi.

Ikkinchidan, O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy islohotlar. Bu islohotlar yangi ijtimoiy sinflarning shakllanishiga, ma'rifiy g'oyalarning rivojlanishiga va yangi adabiy mavzular va janrlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Uchinchidan, "ma'rifatchilik adabiyoti iqtisodiy qoloqlik, ijtimoiy tanazzul, siyosiy boshboshdoqlik, huquqiy tengsizlikdan qutulishning birdan bir yo'li sifatida ommaga ma'rifat tarqatish" deb bildi [7, 9]. Buning uchun ma'rifatparvarlar ta'limda yangi usuldagi maktablar, pedagogik g'oyalar va metodlarni joriy qilishga harakat qildilar.

To'rtinchidan, G'arb mamlakatlarida yuz bergan ma'rifatchilik harakatlari va ularning ta'siri. Bu ta'sir orqali yangi g'oyalar, janrlar va adabiy uslublarni o'zbek adabiyotiga kirib keldi.

Ta'kidlash kerakki, ma'rifatparvarlarning amaliy harakati ham tahsinga loyiq. Birgina Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz faoliyatiga e'tibor qaratsak, u ma'rifatni targ'ibotchisigagina aylanib qolmadi, balki amaliy harakatlarni ham birinchilardan bo'lib boshlab berdi. U Turkistonda ilk bosmaxonani tashkil qildi. Bundan tashqari, Xivada birinchi qiz bolalar maktabining asoschilaridan biri bo'ldi. Umuman olganda, "Agar mumtoz adabiyotning qahramoni qilib komil inson olingan bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni ma'rifatchi shaxs edi" [7, 9].

Ma'rifatparvarlik g'oyalari va uning adabiyotdagi targ'ibini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ma'rifatparvarlik davri (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari).
2. Jadid ma'rifatparvarligi davri (XX asr birinchi choragi).

O'zbek adabiyotida ma'rifatchilik yo'nalishini dastlab Komil, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi qalam ahillari boshlab berdi. Mazkur ijodkorlarning asarlarini ko'zdan kechirsak, ularda mumtoz adabiyot an'analarga, badiiy tasvir vositalari, ifoda yo'sinlari, mavzu va obrazlariga "sodiqlik" yaqqol sezilib turadi. Chunki, ma'rifatparvarlik adabiyoti "yangi o'zbek adabiyotining birinchi bosqichi edi. U ko'p asrlik milliy an'analarni asosida rivojlanib kelgan mumtoz adabiyot bilan tashqi ta'sirlarga berilgan, to'liq icha ijtimoiy yo'nalish kasb etgan jadid adabiyoti o'rtasida estetik ko'pri bo'ldi" [7, 9].

Ta'kidlash kerakki, har ikkala bosqichda ham "ma'rifat" mavzusi yetakchilik qilgan bo'lsa-da, biroq ularning faoliyatlari va maqsadlarida o'ziga xoslik kuzatiladi. Har ikkala davr adabiyoti va uning vakillari ijodidagi mushtaraklik xalqning ma'rifatini oshirishga, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Biroq ma'rifatparvarlar an'anaviy ta'lim va ma'rifatga e'tibor bergan bo'lsa, jadidlar yangi, ilg'or va zamonaviy usullarni joriy qilishga harakat

qilganlar. Jadidlar ko'proq islomiy va milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda, zamonaviylikni qabul qilgan, o'zbek ma'rifatparvarlari esa ko'proq an'anaviy qadriyatlarga asoslangan. Bundan tashqari, jadidlar yangi usulda maktablar va jamoatchilik harakatlari orqali faoliyat yuritishni ma'qul ko'rganlar.

O'zbek ma'rifatchilik oqimi va adabiyotning "hayotdagi harakat"i "evolyusion", ya'ni "*uzluksiz tadrijiy rivojlanish*" ko'rinishda namoyon bo'lgan bo'lsa, jadid ma'rifatparvarlarining faolligi "revolyusion", ya'ni "*tub, jiddiy o'zgarishlarga olib keluvchi*" harakat ko'rinishini oldi. Chunki ma'rifatparvarlarning maqsadi siyosiy tuzumni o'zgartirish bo'lmay, balki jamiyatda ma'rifatli shaxslarni tarbiyalash orqali muammolarga yechim topish edi.

Jadid ma'rifatparvarligi davrining yana bir muhim xususiyati vaqtli matbuotning kirib kelishidir. Jadidlarning sa'yi-harakati bilan "Traqqiy", "Samarqand", "Sadoi Farg'ona", "Sho'ro", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Kengash", "Turon" va "Oyna" kabi gazeta va jurnallar nashri yo'lga qo'yildi. Vaqtli matbuot jadid ma'rifatparvarlarining asosiy quroli va minbariga aylandi. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarning mohiyatini oddiy xalq orasida targ'ib qilishning yagona vositasi vaqtli matbuot edi. Vaqtli matbuotning shakllanishi, o'z navbatida, adabiyotda yangi janrlarning kirib kelishi va rivojiga ijobiy ta'sir qildi. "*Ilg'or Yevropa, jumladan, rus, ozarbayjon, tatar, turk adabiyoti va madaniyatining ta'sirida ma'rifatparvarlik adabiyotida yo'l taassurotlari, ocherk, feleton, hikoya, qissa, roman kabi nasrning ilk namunalarini paydo bo'ldi, o'zbek dramaturgiyasiga asos solindi*"[10].

Xulosa. Jadid ma'rifatchiligi harakatining eng yirik namoyandalari sifatida Ismoil Gasprinskiy, Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitratlarni sanash mumkin. Jadidlarning faoliyatini faqat ma'rifatparvarlik bilan bog'lab qo'yish adolatdan emas. Agar biz jadid ma'rifatparvarlarining faoliyatiga e'tibor qaratsak, ularning harakati ikki yo'nalishda namoyon bo'lganligini sezish qiyin emas. Birinchi yo'nalish ma'rifatparvarlik harakati shaklida bo'lsa, ikkinchi yo'nalish siyosiy harakatlar ko'rinishida. Jadid ma'rifatparvarlari ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish, siyosiy mustaqillikka erishish, millat mustaqilligi, erkinligi, farovonligi kabi qator muammolarni ham olib chiqdilar.

Umuman olganda, "ma'rifat" mavzusi o'zbek adabiyotining asrlar davomida keng targ'ib qilingan mavzusi bo'lsa-da, uning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti davrida yanada kengroq e'tibor berildi. Har ikkala davr adabiyotining taraqqiyoti uchun o'zbek mumtoz adabiyot tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. 2 -jild. – T.: Fan, 1965. – 378 b.
2. Avesto. – T.: Sharq. 2001. –350 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. XIV jild. – T.: Fan, 1998. –315 b.
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. XI jild. – T.: Fan, 1993. –727 b.
5. Axloq-odobga oid hadis namunalarini. – T.: Fan, 1990. – 250 b.
6. Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. – T.: Fan, 2007. – 87 b.
7. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yo'ldoshev Q. O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti. Kitobda: 11-sinf adabiyot. –T.: O'qituvchi, 2004. –380 b.
8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim), transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. – T.: Fan, 1971. – 308 b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. –680 b.
10. Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири ва XX аср бошлари): Фил. фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 1994. –240 б.
11. <http://forum.oyina.uz/kiril/teahause/1941>

Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi,

NDPI tayanch doktoranti

(O'zbekiston)

E-mail: egamberdiyevagulchiroy330@gmail.com

AN'ANA VA VORISIYLIKNING OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDAGI IFODASI

Annotatsiya. Ushbu maqola Oydin Hojiyeva she'riyatida an'ana va vorisiylik masalalariga bag'ishlangan. Xususan, unda shoiraning aksariyat she'rlari mumtoz adabiyot namunalaridan oziqlangan holda adabiy an'analar asosida yozilganligi, vorisiylik qonunini aks ettirganligi misollar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy an'ana, vorisiylik, she'r, qasida, g'azal, mustazod, barmoq, milliy qiyofa, xalq qo'shiqlari, alla.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам традиции и наследственности в поэзии Айдын Гаджиевой. В частности, на примерах показано, что большинство стихотворений поэтессы были написаны на основе литературных традиций и отражали закон преемственности.

Ключевые слова: литературная традиция, преемственность, поэма, ода, газель, «мустагод», жанр «бармок», национальный образ, народные песни, алла.

Abstract. This article is devoted to the issues of tradition and succession in the poetry of Aydin Hajiyeva. In particular, it is shown on the basis of examples that most of the poems of the poetess were written on the basis of literary traditions and reflected the law of inheritance.

Key words: literary tradition, succession, poem, ode, gazal, mustazad, barmoq genre, national image, folk songs, lullaby songs.

Kirish. O'zbek adabiyoti o'z taraqqiyot yo'lida turli davrlarni boshdan kechirdi. Albatta, bunda XX asr adabiyotimiz tarixida keskin burilish va rivojlanish bosqichi bo'ldi. Nasr va nazm "ikki uloqchi ot" misol bir-biri bilan raqobatlashdi, ayni paytda, bir-birini boyitib bordi. Tabiiyki, rivojlanishning jadal sur'atlarda kechishiga jahon hamda milliy adabiy an'analar muhim poydevor bo'ldi. Ko'hna tariximiz, boy adabiy-ilmiy merosimizdan oziqlangan, shuning barobarida, unga yangicha badiiy joziba va ifoda qo'shgan bu davr she'riyatida shoira Oydin Hojiyeva ijodining o'rni ham salmoqlikdir. Shoira XX asr poeziyasining katta avlodi sifatida talaygina she'r va dostonlar bitdi. Bu ijod namunalarining aksariyat qismi an'anaviy uslubda yozildiki, bu shoiraning adabiy an'alarga chuqur hurmat ko'rsatganligi va vorisiylik qonunining o'z asarlarida ifoda eta olganidan dalolatdir.

Asosiy qism. Bugungi adabiyot o'tmish adabiy merosi zaminida rivojlanadi, undan oziqlanadi. "Adabiy meros deganda o'tmishda yaratilgan, umummilliy va umumbashariy qimmatga ega bo'lganidan vaqt hukmini yengib kelayotgan adabiy-badiiy qadriyatlarning jami tushuniladi. Bugungi adabiyot – o'tmish adabiyotidan qolgan merosning vorisi. Adabiy meros asosida adabiy an'analar shakllanadi. Adabiyot taraqqiyotining uzluksiz jarayonida har bir davr o'zidan oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi" [1]. Adabiyotshunos D. Quronov ta'kidlaganidek: "Adabiyotdagi vorisiylik, an'alarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qotilmasligini kafolatlaydi". Boy an'anaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarnikidan yuqori bo'lishini inobatga olsak, chuqur ma'no va falsafaga ega adabiyotimizning ilg'or an'alari bugungi o'ziga xos milliy va zamonaviy o'zbek adabiyoti shakllanishida naqadar muhim rol o'ynaganini sezish qiyin emas. Bugun ushbu fikrni dalillovchi tahlillar, tadqiqotlar ham talaygina. Jumladan, Ulug'bek Hamdamning "XX asr o'zbek she'riyati" monografiyasi hamda N.Soatovanning "An'anaviylik va vorisiylik" ishlari yirik tadqiqotlardan sanaladi. Shuningdek, N.Dilmurodovanning "Vorisiylik va ijodiy an'analar ildizi", I.Boltayevaning "Adabiy vorislikning xorij adabiyotida o'rganilishi", F.Nizomovning "O'tchopar yoxud o'n uchinchi uy" qissasida an'ana va vorisiylik", D.Toshboyevaning "XX asr boshida o'zbek she'riyatida an'ana va novatorlik", S.Umarovanning "Shahzoda shoirlar ijodida an'anaviylik" kabi maqolalarida an'ana va vorisiylikning ma'lum bir asarlardagi ifodasi, ayrim qirralari ochib berilgan.

Xalqimizning boy adabiy-madaniy an'analari XX asr boshlarida adabiyotning rivojlanish jarayoni tez kechishiga turtki bo'ldi. Nafaqat XX asr, balki bugungi zamonaviy o'zbek adabiyoti ham jahon adabiy durdonalari bilan bir qatorda o'zbek milliy folklori va mumtoz adabiyot xazinalaridan suv ichgani, hamon ichib kelayotganini har nafasda sezish mumkin. XX asrning 2-yarmi – XXI asrning 1-choragida ijod qilgan Oydin Hojiyeva ham ustozlariga ergashib, an'anaviy va xalqona uslubda she'rlar yozdi. Uning she'rlari sodda va tushunarli yo'lda bitilgan. Shunday bo'lsa-da, uni xalqqa sevdigan narsa har bir satr qatida kuchli mehr-muhabbatning mujassam bo'lganidir. Biz quyida ana shu o'tli mehr bilan qorishib dunyoga kelgan misralarda vorisilik va adabiy an'analar qay yo'sinda ifoda etilganini misollar asosida kuzatamiz.

Natijalar va muhokama. Oydin Hojiyevaning xalq og'zaki ijodiga mansub qo'shiq va laparlarni sevgani, chuqur bilgani uning aksariyat she'rlarida aks etgan. Masalan, bir she'rida xalq qo'shiqlaridan bo'lmish "chalma chalonging bo'lay, challab olgoning bo'lay" satrlarini qaytariq tarzida ishlatadi:

Bo'z bola oshiq bo'lsa,
Qirq tuyalik boy bo'lur.
Qiz bola ma'shuq bo'lsa,
O'n to'rt kunlik oy bo'lur.
Chalma chalonging bo'lay,
Challab olgoning bo'lay [9,180].

Yana bir she'rini xalq qo'shiqlari ohangida $4+3=7$ turoqli qilib yozadi:

Ho layli-yu, ho layli,
Bog'da rayhoning bo'lay,
Bir yaxshiga bir yomon,
Mayli yomonning bo'lay! [9,118]

Azaldan onalar yangi tug'ilgan chaqaloqlarga alla aytishgan. Xalning bu odati adabiyotga ham ko'chgan. Xalq og'zaki ijodiga mansub alla qo'shig'i, tabiiyki, bir necha farzandlarning onasi bo'lgan shoira ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. U ham xalq ohanglari yo'lida "Alla" yozadi:

Ikki ko'zim aymog'i-yo, alla,
Yuragimning qaymog'i-yo, alla,
Qo'sh farishta beshigingni qo'rg'asin,
Xudo bergan chirog'im-o, alla,
Kaklikchaday sayrog'im-o, alla [9,177].

Shoiraning "Ibrat" she'rini o'qir ekanmiz, xalq ertaklari yodga tushadi. Xalq ertaklari "bir bor ekan, bir yo'q ekan..." deb boshlansa, she'r shu ma'nodagi "emish" so'zi bilan boshlanadi. Ertakda bir voqea hikoya qilinadi-da, so'ng undan tarbiyaviy xulosa chiqariladi. Bu she'rda ham shunday: bir shoh shahzodaning ko'zlarini o'yib, o'zini quduqqa tashlaydi. Shahzodaning vafodor kuchugi va mushugi ko'zlarini asrab qo'yadi. Mushuk o'z yunglaridan arqon yigiradi, bu arqondan kuchuk narvon yasaydi va shahzodani qutqarishadi. Shoira she'r yakunida odamzotning it-mushuk bo'lib, bir-birining ko'zini o'yishi, oramizda uchraydigan og'a-inilarning noahilligi haqida so'z yuritib, shunday deydi:

Inisin ko'zini og'asi o'yib,
Og'aning rizqidan inisi qiyib,
Do'zaxdan qochganlar, dordan qochganlar,
Tovuqday o'z sirin ochganlar,
Sizning ertagingiz, ayting, qanaqa,
Itga, mushuklarga bo'lmang kalaka... [9,116]

Yana bir she'rida "Boychechak" xalq qo'shig'idan ta'sirlangani, ijodiy foydalanganini kuzatish mumkin:

"Boychechagim boylandi" deb
Aytib o'tsa bolalar.
Ko'zlariga sursin seni
Hamalga o'ch dalalar [9,75].

Boychechak ezgulik va uyg'onish fasli ko'klam – bahorning elchisi sanaladi. Boychechaklar qor va muz (yovuzlik)ni yorib, unib o'sgani, bahor xabarini olib kelgani uchun azaldan momolar uni

ko‘zlariga surtib, “omonlik, somonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik” deb niyat qilishgan. Shoira ham farzandi kabi ardoqlab, dil qatidan chiqargan she‘rlarini mana shu boychechak misoli aziz va qadrlil, barcha uchun sevimli bo‘lishiga umid qiladi.

Shoira mumtoz adabiyotda eng ko‘p yozilgan g‘azal janriga murojaat qiladi. O‘zi tug‘ilgan yurt Buxoroga atab g‘azal yozadi:

Qayon borsam jahon ichra borur ul yon Buxoro ham,
So‘rab baxtim somon bo‘lsam, bo‘lur somon Buxoro ham.
Niholim, munisim dardkash, tanamda qatrayi jonsan,
G‘animga o‘q otar bo‘lsam, bo‘lur kamon Buxoro ham [9,146].

Ustozlarga ergashgan shoira ushbu g‘azali 5 baytdan iborat qilib, hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Afoiyli: mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun, taqtesi: V – – –. Sodda, ravon, tushunarli tilda, mafoiylun ruknida 5 baytdan iborat g‘azal yozish an‘anasi ko‘proq Z.M.Bobur ijodiga xos. Shoiraning ushbu g‘azali Boburga vorisiylik tuyg‘usining ifodasi sifatida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, “Agarchi she‘r yozar shoir...”, “Bul kun bahor adashmay...” deb boshlanuvchi g‘azallari ham mafoiylun vaznida yozilgan.

G‘azaldan tashqari shoira mumtoz adabiyotda mavjud masnaviy, musallas, muxammas, musaddas she‘riy shakllarida ham ijod qilgan. Bu XX asrda ham mumtoz adabiyot an‘analarining davom etganligini ko‘rsatadi. Jumladan, “O‘ylar” she‘ri masnaviy shaklida a-a, b-a, d-a... tarzida qofiyalangan:

Bu dunyodan azizlar ketdi,
Fikratida yulduzlar ketdi.
O‘tdi necha avliyo zotlar,
Duosida qaqnuslar ketdi [9, 312].

Musallas (uchlik) shakliga “Umr bu” hamda “Savol” she‘rlarini keltirish mumkin:

Umr bu – Allohndan bizga omonat,
Allohning farzi bor aziz jonlarda
Omonatga qilma hargiz xiyonat [9, 270].

Salaflarning g‘azallariga muxammas bog‘lash adabiy an‘ana hisoblanadi. Shoira ham ushbu an‘anani davom ettirib, Saida Zunnunova hamda Nasimiy g‘azallariga muxammaslar yozadi. Shuningdek, shoiraning Saida Zunnunova xotirasiga bag‘ishlab yozgan “Soz” hamda “Navro‘znoma” she‘rlari ham muxammas shaklida yozilgan. “Soz” she‘ri b-b-b-b-a, d-d-d-d-a, ... tarzida, “Navro‘znoma” she‘ri b-b-b-a-a, d-d-d-a-a, ... tarzida qofiyalangan. Muxammasning bu ikki xildagi qofiyalanishi mumtoz adabiyot vakillari ijodida ham uchraydi. Ammo shoira bu she‘rlarini barmoq vaznida bitgan:

Ma‘shuqalar sayr etganda, bir guluzor ko‘rinsa,
Sadoqatdan saboq aytib, bulbuli zor ko‘rinsa,
Ko‘ngli nozik, mehri issiq gulshanda yor ko‘rinsa,
Ham g‘amzali, ham iboli, ham ustuvor ko‘rinsa,
Shu – hayotning Saidasi, alvon so‘zli sozi shu! [9,76]

Ustozlar ijodi va ijodiy an‘analarga bo‘lgan sadoqat shoirani Navoiyning:

Kim emas bir-birdan ayru nuru zulmat, ey rafiq,
Shu‘layi ishrat qani bedudi mehnat, ey rafiq,

g‘azaliga musaddas (oltilik) bog‘lashga undagan. Musaddas b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-a shaklida qofiyalangan:

Menga kim ham habib o‘lg‘ay, habibim, siz qadar do‘stim,
Menga kim ham zarur bo‘lg‘ay, rafiqim, ko‘z qadar do‘stim,
Kim ul subhi sabolarday keturgay mujdalar do‘stim,
Bu sirli e‘timodim ham degaylar shunchalar do‘stim,
Bu yanglig‘ shamga parvona yonib ixlos qo‘yar do‘stim,
Kelur ko‘klam ko‘zin tutsa taqir sahro agar, do‘stim! [8,90]

Adabiyotimizda qasida yozish ham o‘ziga xos an‘ana tusiga kirgan. Turkiy tildagi dastlabki qasidalarni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchratish mumkin. Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Amiriylar ijodida ham qasidalarining sara namunalari mavjud. Alisher Navoiyning “Hiloliya”, “Tuhfat-ul afkor” qasidalari mashhur. XX asrda G‘.G‘ulom, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripovlar ham

qasida janrida bir necha asarlar yaratishdi. Dastlabki qasidalarda ko‘proq biror-bir hukmdor(shoh) madh etilgan bo‘lsa, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy qasidalar ham yaratildi. Jumladan, Erkin Vohidov o‘zbek xalqi va yurtiga ehtirom ko‘rsatib “O‘zbekim” qasidasini yozgan bo‘lsa, Oydin Hojiyeva Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlab “Buxoro taronasi” qasidasini yozadi:

Iymon bilan yodlagaymiz Buxoroni:
 “Qubbat-ul islom” kabi ko‘ngil oroni.
 Bu tarix qatlarinda o‘chmagan ruhim,
 Ul ikki ming yarim yoshlik baxt-anduhim.
 Yetmish ming avliyoning xoki poki ul,
 Bahouddin balogardon panohi ul [9,392]

Mumtoz adabiyot namoyandalarining qasidaları g‘azal kabi qofiyalangan bo‘lsa, O.Hojiyeva o‘z qasidasini masnaviy shaklida yozadi.

Navoiy ijodini sevib o‘qigan, chuqur bilgan shoira unga bag‘ishlab yozgan “Najot” dostonini yetti fasonadan iborat qilib yozadi. U bunda “Lison ut-tayr”da mavjud yetti vodiidan ta’sirlangani seziladi. Shuningdek, shoira mumtoz adabiyotimizda mavjud mustazod janriga o‘xshatma tarzida ham she’rlar yozadi. “Mustazod – mumtoz adabiyotdagi lirik janr, har bir misradan keyin uning ikkita rukniga teng yarim misra orttiriluvchi she’r. Mustazodning asosiy misralari g‘azal tipidagi mustaqil qofiyalanishni hosil qilsa, yarim misralari ham mustaqil holda shunday qofiyalanishga ega bo‘ladi. Masalan,

Rahm ayla manga emdi, ayo ruhi ravonim,
 Jon chiqqali yetti,
 Turdi bu zamon ishq o‘tida kuygani jonim,
 Boqsang manga netti? (Mashrab)” [1]

D.Quronovning yozishicha, ayrim hollarda mustazodning asosiy misrasidan so‘ng bitta emas, ikkita yarim misra orttirilishi mumkin. Oydin Hojiyevaning quyidagi she’ri ayni shu qoidaga muvofiq yozilgandek:

Nogoh qulog‘ingga chalinsa qo‘shiq,
 Chalinsa qo‘shiq –
 Tug‘yonli dilbar,
 Yo‘llaringga xazon barglarni to‘shab,
 Barglarni to‘shab –
 O‘ynasa yellar... [8, 11]

Faqatgina shoira birinchi yarim misrani asosiy misraga qofiyadosh qilmay, balki takror qo‘llaydi. She’r shakl jihatdan ham, ohang jihatdan ham mustazodga juda yaqin, ammo u barmoq vaznida yozilgan. Albatta, yangi bir ijod mahsuli yaratilar ekan, adabiy an‘analarni davom ettirish jarayonida ijodkor tomonidan qandaydir o‘zgarish va yangilik kiritilishi tabiiy.

Ba‘zan inson nafsning qurboni bo‘lib, insoniy fazilatlarini unutib qo‘yadi. Tabiatning ayrim hodisalari esa unga ko‘zgu tutib, xatolarini ko‘rsatadi. Buni eng avval teran va nozik nigoh egalari bo‘lmish shoirlar ilg‘aydi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1964-yilda daraxt obrazini ba’zi insonlarga namuna qilib, shunday yozgan edi:

Kexsa qayrag‘ochning
 Ildizin ochib,
 Tortdilar qo‘sh arqon solib belidan.
 Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
 Sira qo‘zg‘almasdi
 Ungan yeridan...
 Nihoyat, gurs etib yerga quladi,
 Butab, so‘ng ko‘tarib ketdilar, biroq -
 U o‘z panjasida olib jo‘nadi
 Yashagan yeridan
 Bir siqim tuproq [10, 240]

O.Hojiyeva ham 1979-yilda daraxt obraziga murojaat qilib, “Daraxt qalbi” deb nomlangan she’r yozdi:

Gul tashladi. Hosil tugmadi daraxt,
Bolalar orziqib kutishgan edi.
Odamday boshi xam, ko’ngli xijolat:
“O’tgan yil... chodirlar tutishgan edi!”
Sog’lom ildizida jo’shardi mehr,
Hosil tugar omon o’tsa qorlardan.
Undan rizq kutmoqda odamzod, axir,
Muruvvat kutmaslar fe’li torlardan! [8,164]

E. Vohidov daraxt misolida unib-o’sgan yeriga muhabbat va sadoqat tuyg’ularini tarannum etsa, O. Hojiyeva daraxtning insoniyatga bo’lgan mehri, muruvvatining beqiyos ekanligini ko’rsatib beradi. Har ikkala she’rda daraxt obrazi vositasida inson qalbiga, ongu-shuuriga ta’sir ko’rsatuvchi ibratli tasvir beriladi. Ba’zan insonning insonga ko’rsatmagan hurmat-u ehtiromini daraxtlar ko’rsatganligi kishini o’ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Bu tasvirlardan chiqariladigan saboq esa insonning o’ziga havola etiladi. Ikkala she’r ham XX asrda yozilib, shoira O. Hojiyevaning E. Vohidovni o’ziga ustoz deb bilgani, unga ergashib insoniy tuyg’ular tasviriga daraxt obrazini tanlagani adabiy an’ana sifatida namoyon bo’lganini ko’rishimiz mumkin. Bu an’ana “O’n sakkiz yoshda” she’rida ham davom etadi. E.Vohidov o’n sakkiz yosh haqida shunday misralarni bitgan edi:

O’n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog’ngdan gul termagan kim bor?
Sen haqingda yozib to’rt satr,
Sirdoshiga asta ko’rsatib,
Qo’shni qizga bermagan kim bor? [10, 9]

O.Hojiyeva ham o’n sakkiz yoshida insonning boshidan xuddi shunday holatlar o’tishi haqida quyidagi satrlarni yozadi:

Shoir bo’lging kelar o’n sakkiz yoshda,
Unda hamma narsa qofiyadoshdir.
Tilingga kelmaydi sevgidan boshqa
Qalbingda quyoshdir, ko’kda quyoshdir [8, 233]

Har ikkala she’rda insonning umr bahorida sevgi kurtaklari gul ochishi, shunday damlarda inson beixtiyor qo’liga qalam olib she’rlar yozishi, ko’ziga butun olam go’zal ko’rinishi haqidagi tasvirlar o’rin olgan.

Xulosa. Yuqoridagi kuzatishlarimiz asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, shoira adabiyotimizning go’zal va boy tarixini chuqur biladi, adabiy merosimizga muhabbati baland. Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida kamol topgan shoira, tabiiyki, adabiy an’analarni chetlab o’tib bir narsa yozolmaydi. Darhaqiqat, u yozgan she’rlarning har misrasida o’zbekona kamtarlik, soddalik, mehr va fidoyilik mujassam. Shundan bo’lsa kerak, shoira Oydin Hojiyeva insoniyat, xususan, o’z millati taqdiri, kelajagiga daxldorlikni chuqur his etdi – o’z she’rlarida o’tmish ajdodlardan o’tib kelayotgan milliy, adabiy an’analarni aks ettirib, ularni kelajak avlodga yetkazishga o’z hissasini qo’shdi. Bir so’z bilan aytganda, tarix va kelajakni bog’lovchi ko’prik bo’ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010. – 406 б.
2. Nizomov F. “Otchopar yoxud o’n uchinchi uy” qissasida an’ana va vorisiylik. O’zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari, 2020. – B. 328-332.
3. Boltayeva I. Adabiy vorislikning xorij adabiyotida o’rganilishi. FarDU ilmiy xabarlari, 2023. –B 359-361.
4. Soatova N. An’anaviylik va vorisiylik. –Т.: Mumtoz so’z, 2019. – 165 b.
5. Umarova S. Shahzoda shoirlar ijodida an’anaviylik. – O’zbekiston: til va madaniyat, 2024. –B 50-65.
6. Toshboyeva D. XX asr boshida o’zbek she’riyatida an’ana va novatorlik. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. <https://in-academy.uz>.
7. Dilmurodova N. Vorisiylik va ijodiy an’analarni ildizi. //Sharq yulduzi, 2014. 4-son. – B. 75-78.
8. Ойдин Ҳожиева. Мушфиқ онажон. – Т.: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 304 б.
9. Ойдин Ҳожиева. Шом шуълалари. – Т.: Шарқ, 2010. – 446 б.
10. Эркин Воҳидов. Инсон. –Т.: Ўқитувчи, 2018. – 288 б.

*Mukhtorova Maftuna Ikhom kizi,
Doctoral Student of Bukhara State University
(O'zbekiston)
E-mail: m.i.muxtorova@buxdu.uz*

ISLAMIC PERSPECTIVES ON JOSEPH CONRAD'S HEART OF DARKNESS AND RUDYARD KIPLING'S "THE WHITE MAN'S BURDEN"

Abstract. The article analyses Islamic Perspectives on Joseph Conrad's "Heart of Darkness" and Rudyard Kipling's "The White Man's Burden. An Islamic perspective on "Heart of Darkness" and "The White Man's Burden" reveals critical insights into the ethical implications of colonialism, the importance of cultural respect, and the complexity of human nature. These critiques align with broader themes in Islamic thought that advocate for justice, compassion, and a deeper understanding of diverse cultures.

Keywords: "Heart of Darkness", "The White Man's Burden", prominent English novels, the Islamic perspective, English texts, a Muslim background, colonialism, the Islamic worldview.

Аннотация. В статье анализируются исламские взгляды на произведение Джозефа Конрада "Сердце тьмы" и "Бремя белого человека" Редьярда Киплинга. Исламский взгляд в произведениях "Сердце тьмы" и "Бремя белого человека" раскрывает критические взгляды на этические последствия колониализма, важность культурного уважения и сложность человеческой природы. Эти критические замечания соответствуют более широким темам исламской мысли, которые выступают за справедливость, сострадание и более глубокое понимание различных культур.

Ключевые слова: "Сердце тьмы", "Бремя белого человека", известные английские романы, исламская точка зрения, английские тексты, мусульманское происхождение, колониализм, исламское мировоззрение.

Annotatsiya. Maqolada Jozef Konradning "Heart of Darkness" va Rudyard Kiplingning "The White Man's Burden" asarlarida islom nuqtai nazarlari tahlilga tortilgan, "Heart of Darkness" va "The White Man's Burden" haqidagi islomiy nuqtai nazar mustamlakachilikning axloqiy oqibatlarini, madaniy hurmatning ahamiyatini va inson tabiatining murakkabligi haqida tanqidiy fikrlarni ochib beradi. Bu tanqidlar islom tafakkuridagi adolat, rahm-shafqat va turli madaniyatlarni chuqurroq tushunishga da'vat etuvchi kengroq mavzularga mos keladi.

Kalit so'zlar: "Heart of Darkness", "The White Man's Burden", taniqli ingliz romanlari, islom nuqtai nazari, inglizcha matnlar, musulmon kelib chiqishi, mustamlakachilik, islom dunyoqarashi.

Introduction. Islamic perspectives on Joseph Conrad's "Heart of Darkness" and Rudyard Kipling's "The White Man's Burden" can provide insightful critiques of colonialism, imperialism, and the moral implications of these works.

Conrad's "Heart of Darkness" critiques European colonialism and its dehumanizing effects. From an Islamic perspective, the exploitation of colonized nations can be seen as contrary to the principles of justice and compassion emphasized in Islam. The portrayal of Africa as a «dark» continent reflects a Eurocentric view that undermines the rich cultures and civilizations present there.

Kipling's "The White Man's Burden" promotes the idea of Western superiority and the obligation to civilize non-Western peoples. An Islamic critique might highlight the arrogance in this perspective, emphasizing that every culture has intrinsic value and that true leadership comes from understanding and respect rather than domination.

An Islamic perspective on "Heart of Darkness" and "The White Man's Burden" reveals critical insights into the ethical implications of colonialism, the importance of cultural respect, and the complexity of human nature. These critiques align with broader themes in Islamic thought that advocate for justice, compassion, and a deeper understanding of diverse cultures.

Methodology. JOSEPH Conrad's Heart of Darkness (1899) and Rudyard Kipling's "The White Man's Burden" (1899) are heavily dominated by the theme of colonialism. Joseph Conrad's Heart of

Darkness (1902) is one of the most prominent English novels of the early modernist period. The novel “functions as a lead into the twentieth century” as it is tied to the period’s sensibility of “cultural relativism, an awareness of the irrational and of the unconscious mind” [1, 1999]. Based on the novelist’s colonial career experiences in Congo during Belgian colonisation of the country, it provides a vivid description of the racist treatment of the natives by European colonisers. Conversely, it describes African landscapes like the River Congo as ‘dark’ and ‘tenebrous’. More remarkably, the negative stereotypical depiction of African people as savages and cannibals in the novel resonates with the colonialist tropes of ethnocentrism, biological racism, and Africa’s primitiveness. Such discourse is intended to facilitate colonial exploitation of local resources.

Colonialism is an outgrowth of the concept of genetic or biological superiority of a particular group of people over others. It is a result of “an obsessive political belief that Europeans were superior in their intellect, ethnicity, race, colour and human configuration than the other people of the globe” [3, 2012]. As Islam rejects any racist notion of superiority and inferiority among human beings on the basis of birth, descent or national and linguistic affiliations, it is absolutely opposed to the exploitative colonial measures.

Equally, Rudyard Kipling’s “The White Man’s Burden” (1899) strikes an early twentieth-century note in provoking the debate of imperialism and anti-imperialism, as it invited both positive and negative reflections and responses upon its first publication. The poet uses the euphemism of the “white man’s burden” to characterise imperialism. The poet promotes colonial adventure by way of stereotyping Filipinos (and, for that matter, supposedly all non-Western peoples) as ‘half-devil, half-child’. He constructs an artificial need for, and celebrates, “the martial camaraderie and heroism of” [2, 65] imperialism and thus favours war and militarism – a stance he later regretted owing to the death of his only son Lt. John Kipling in 1915 in his first combat battle during WWI. Thus, the poem is saturated with the sentiments of imperialism and war, two of the most common issues in twentieth-century English literature.

The most important issue in Heart of Darkness and “The White Man’s Burden” is colonial oppression by a dominant force of a subaltern community. The most pertinent question here is: what motivates a colonial power to go to distant lands and subjugate peoples whose skin colour or ethnic heritage is different? Or, what worldview drove them to undertake colonial adventure? They are propelled by a philosophy that is premised upon the desire to accumulate as much material power and wealth as possible without any moral considerations. They believe in a philosophy that promotes ‘might is right’ and the ‘survival of the fittest’ dictums. Islam does not put any cap on the maximum amount of material resources. However, it provides ethical foundations that determine the ways human beings fulfil their needs. It does not allow human beings to lower themselves to the level of animals. When people are steeped in greed, materialism, and corruption, they gradually lose standards of behaviour and character based on the God-given conscience and spread fasad (mischief) on land by constructing artificial racial divisions among people, bestowing benefits on some and oppressing others. As the Qur’an states:

Indeed, Firaun (Pharaoh) exalted himself in the land and divided its people into castes. He deemed one group of them as utterly low; he would slaughter their sons and spare their women. In fact, he was one of those who spread corruption. [Qur’an, 28:4]

Result. The colonial corruption perpetrated by the Europeans somewhat finds its manifestation in the character of Firaun (Pharaoh) that the Qur’an describes extensively. He swerved away from ethical foundations and conscientious dispositions, which eventually led him to damnation. Equally, Kurtz in Heart of Darkness puts himself in the position of godhead in terms of his relationship with the people of Congo and persecutes them without any restrictions or moral qualms. He is driven by a worldview that gives free licence to establish unjust domination over others and embraces self-righteousness, greed, and ruthless colonisation that does not acknowledge the other as equal human being and does not have any serious commitment to egalitarianism. It is characterised by a deep sense of injustice against peoples of non-Western countries and by a criminal tendency to obliterate their political and economic freedom and destroy their cultural identities and distinctiveness. As a result, it creates a profound sense of powerlessness among the colonised and collaborates with the local comprador class or with bureaucratic elements of the dominated classes to exploit their complicitous role to subjugate the majority. Conversely,

Islam promotes a worldview that is based on tawhid, or the Oneness of God, which has wider implications. This Oneness also suggests that all human beings share one origin; hence, there cannot be artificial differences between them.

Thus, the Islamic worldview is diametrically opposed to the colonialist worldview of binaries. It is derived from the revelation that God gave to the last Prophet Muhammad as He did to all other prophets before him. The primordial message of revelation is justice in all its forms and manifestations. Islam demands that all human activities – private or public – be conducted according to the requirements of justice. Accordingly, as understood through anecdotes involving Pharaoh in the Qur'an, Islam does not approve of colonialist exploitation of dehumanising and subjugating peoples of other lands and countries. English literary texts that advance colonialist reasoning and champion colonialist propagandas are predicated upon the philosophy of material aggrandizement and ruthless accumulation of wealth without any considerations of justice or ethical validity. They disregard the divine standard that was supposed to formulate the worldview of human beings and guide human life. Such authors have literary mastery or creative flair to represent their obnoxious ideas artistically and use a sugar-coating of the real motive with aesthetic décor, but in the sight of God, they are ignorant and devoid of any sense of accountability to God. As the Qur'an states: "... most people do not know. They know the outward of this world's life, but of the hereafter they are absolutely heedless" [Qur'an, 30: 6-7]. Being heedful of the hereafter means having a sense of accountability to God. A writer with a sense of accountability to God would seek His pleasure in all creative vocations and use their literary talents to serve humanity with humility and justice. Writers of colonialist mentality may have literary flair and eloquence which they employ to spread wrong ideas, but according to the Qur'an, they are losers. It says: "Say: Shall We inform you of the greatest losers in (their) deeds? (These are) they whose labour is misdirected and lost in worldly life, even though they think that they are doing well in work" [Qur'an, 18: 103-04].

Analysis. The religion declares time and again that all human beings have been originated from a single entity. In one place, the Qur'an says: O humankind! Be conscious of your Sustainer, Who has created you out of one living entity, and out of it created its mate, and out of the two spread abroad a multitude of men and women. And remain conscious of God, in Whose name you demand [your rights] from one another, and of these ties of kinship. Verily, God is ever watchful over you! [Qur'an, 4:1]

However, the only difference that Islam recognizes between human beings is dependent on the content of their character and their action. In other words, those who are God-consciousness and possess commendable character are superior to those who are not. The Qur'an states: O people! Indeed, We have created you all out of a male and a female, and have made you into nations and tribes, so that you might come to know one another. Verily, the noblest of you in the sight of God is the one who is most deeply conscious of Him. Certainly, God is all-knowing, all-aware. [Qur'an, 49: 13]

And among his wonders is the creation of the heavens and the earth, and the diversity of your tongues and colours: for in this, indeed, there are messages indeed for all who are in possession of knowledge! [Qur'an, 30: 22]

While the Qur'an recognizes the variations of different tribes and nations and various tribal or national identities, it considers them as markers or means of identification and understanding the diversity among human beings and not as implements of or excuses for discrimination and exploitations.

Discussion. Both works grapple with the theme of moral responsibility. In Islam, there is a strong emphasis on ethical conduct and the treatment of others with dignity. The brutal realities depicted in «Heart of Darkness» challenge the notion of a noble mission in colonial endeavors, aligning with Islamic teachings that advocate for justice and the protection of human rights.

– Kipling's call to bear the "burden" of empire can be interpreted as a misrepresentation of moral duty. An Islamic viewpoint might argue that genuine responsibility lies in uplifting communities through mutual respect and cooperation rather than imposing foreign values.

– Conrad's depiction of African societies can be seen as reductive and stereotypical, which contrasts with the Islamic principle of recognizing and valuing diverse cultures. An Islamic perspective would advocate for a more nuanced understanding of different societies, rejecting the simplistic portrayals often found in colonial literature.

- Kipling’s work similarly perpetuates stereotypes about colonized peoples. An Islamic critique would emphasize the importance of authentic representation and the dangers of cultural imperialism.
- “Heart of Darkness” explores themes of human depravity and moral ambiguity. An Islamic perspective might argue that while human beings are capable of darkness, they are also endowed with the potential for goodness and righteousness, reflecting the duality present in Islamic teachings.
- The struggle between light and darkness can be interpreted through an Islamic lens as a metaphor for the moral choices individuals face, highlighting the importance of ethical decision-making.
- The colonial narratives in both texts can lead to identity crises among colonized peoples. An Islamic viewpoint emphasizes the importance of cultural identity and self-determination, advocating for a reclaiming of narratives that honor indigenous histories and experiences.

Conclusion. While handling English literary texts that promote racist and colonialist ideas, Muslim lecturers are morally and religiously obligated to introduce students to the alternative worldview of Islam that is based on justice, egalitarianism, altruism, equity, love, compassion, and mercy. In order to remove any notion of racial superiority or inferiority on the basis of descent or skin colour, lecturers at universities – especially those in Muslim settings – can logically inform students about the true state of the primordial equality of all human beings by referring to the various Qur’anic verses and Prophetic traditions. Islam summarily rejects any assumed differentiation among human beings on the basis of race or skin colour, as such racial hierarchies are constructed to breed and perpetuate social, political, and cultural inequalities among them. The Qur’an does not recognise any biological or genetic definition, difference or attributes of racial groups. So, any race theory that is used as a political or cultural tool to justify exclusion, discrimination and atrocities against fellow human beings has no place in Islam.

REFERENCES:

1. Alexander, Lynn M. (1999). “Joseph Conrad, Heart of Darkness (1902).” Retrieved on 2 July 2015 from <<http://www.utm.edu/staff/lalexand/brnovel/heart.htm>>.
2. Campbell, Matthew. (2008). “Poetry and War.” In Neil Roberts (Ed.), *A Companion to Twentieth-Century Poetry*. Oxford: Blackwell.
3. Khawaja, Mahboob A. (2012). “Western Imperialism and the Unspoken Tyranny of Colonisation,” *Global Research*, Jan. 11, 2012, retrieved on Jan. 13, 2016 from <http://www.globalresearch.ca/western-imperialism-and-the-unspokentyrannyof-colonisation/28604>.
4. Vogel, Daniel. (2012). *Joseph Conrad in the Light of Postcolonialism*. *Yearbook of Conrad Studies (Poland)*, 7: 97–112.
5. White, Andrea. (1996). “Conrad and Imperialism.” In J. H. Stape (Ed.), *The Cambridge Companion to Joseph Conrad* (pp. 179-202). Cambridge: Cambridge University Press.
6. Zins, H S. (1998). “Joseph Conrad and British critics of colonialism.” *Pula: Botswana Journal of African Studies*, 12(1&2): 58-68.
7. MUXTOROVA, M. (2022). OZBEK SHE’RIYATINING INGLIZCHA OGIRMALARIDA VATANPARVARLIK GOYASI IFODASIDA SOZ TANLASH MUAMMOSI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4076
8. kizi, M. M. I. (2021). Numbers and similarities in their use in English and Uzbek Folklore. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 175-177. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/536>
9. Ilkhom kizi, M. M. (2024). Aisha Bewley’s Literary Endeavors: an in-Depth Review and Scholarly Analysis. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(6), 715–720. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2578>
10. Ilkhom kizi, M. M. (2024). The Influence of Islam on English and American Literature of the 20th Century. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(6), 369–373. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/5330>

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Abuzalova Mehriniso Kadirovna,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori
(O'zbekiston)
E-mail: mexriniso-6590@mail.ru
Xalikova Mohigul Xalimdjanovna,
Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasi erkin izlanuvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: m.x.xalikova@buxdu.uz

O'ZBEK-TURK TILLARI NUMEROLOGIK KOMPONENTLI BIRLIKLARIDA MADANIY KODNING VOQELANISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek-turk tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi tahlil etilgan. O'zbek-turk tillaridagi sonlar ishtirokida shakllangan qator iboralar, turg'un birikmalar, maqol, matal va aforizmlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida raqamlar madaniy kod sifatida turli ko'chma ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilishi asoslangan.

Tayanch so'zlar: ibora va idiomalar, maqol, sonli madaniy kodlar, majoziy ma'no, til va madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar.

Аннотация. В статье анализируется возникновение культурного кода в нумерологически совместимых единицах узбекско-турецких языков. Оно основано на том, что числа служат культурным кодом в ряде словосочетаний, устойчивых сочетаний, пословиц и афоризмов, образованных с участием чисел в узбекско-турецких языках, а также в образцах народного творчества.

Ключевые слова: выражения и идиомы, пословицы, числовые культурные коды, переносное значение, связь языка и культуры, язык и мысль.

Abstract. The article analyzes the emergence of a cultural code in numerologically compatible units of the Uzbek-Turkish languages. It is based on the fact that numbers serve as a cultural code in a number of phrases, set combinations, proverbs and aphorisms formed with the participation of numbers in the Uzbek-Turkish languages, as well as in examples of folk art.

Key words: expressions and idioms, proverbs, numerical cultural codes, figurative meaning, connection between language and culture, language and thought.

Kirish. So'nggi yillarda tilshunoslik bilan qator fanlar integratsiyasi mahsuli sifatida bir necha yangi tarmoqlar shakllandi. Tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro birikuvli lingvokulturologiyaning taraqqiy etishi uchun asos bo'ldi desak, yanglishmaymiz. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi [1, 78-97]. V.N.Teliyaning fikricha, madaniyat kodlari muayyan madaniy mazmuni kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir [2,12]. "Madaniyat kodlari turli moddiy qobiqda — turmush realiyalari, flora hamda fauna vakillari va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Inson ongida ular umuman bilimlar, tasavvurlar, assotsiatsiyalar ko'rinishida aks etadi" [3,174].

Madaniy kodlar haqidagi umumlashma, obrazli ta'rif V.V. Krasnixga tegishli. Olim madaniy kodlarni borliqqa tashlangan to'r sifatida tasavvur etadi. "Tafakkurimizga xos bu "to'r" bizni o'rab turgan olamni qismlarga ajratadi, tartiblashtiradi, shaklga soladi hamda baholaydi" [4,6]. D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta'riflaydi [5,15].

Demak, yuqoridagi madaniy kod haqidagi xulosalarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, madaniy kod o'zida milliy-madaniy, ma'rifiy, qadriyat va me'yorlar, urf-odatlar hamda milliy-mental

xususiyatlarni o'zida shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va shartli ifodalar tarzida ifodalovchi moddiy belgilar tizimidir.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod, antroporf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan [6,334-339]. Lingvomadaniyatshunoslik obyekti sanalgan madaniy kodlar ma'naviy, madaniy, milliy-mental til xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning eng keng tarqalgan kod turlaridan biri bu: somatik koddir. Somatik kod – bevosita inson tanasi a'zolari bilan bog'liq bo'lib, tananing, umuman, uning qismlari ularga xos bo'lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy-hissiy belgilar, imo-ishoralar – barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a'zolari ko'chma ma'noda qo'llaniladi: *qo'li uzun, qo'li shirin, tog'ning boshi, yo'lning boshi, oyoq osti bo'lmoq, yuzi chidamadi, yuziga oyoq qo'ymoq, tilga olmoq, tili kalimaga kelmadi* kabi birikmalarda inson tana a'zolari turli semalarda qo'llanmoqda. Somatik kodlar bevosita inson ta'na a'zolari yordamida milliy xususiyatlarni o'zida jamlagan holda denotativ ma'noda qo'llanuvchi frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchi I. Bo'riyev madaniy kodlarni tahlil etar ekan, ularning yana bir qancha turlariga misollar bilan izoh berib o'tadi. Jumladan, predmetli kod atrofda predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog'liq kodlar bo'lib, ular birinchi navbatda millat turmushida keng o'rinishgan, hayotning ajralmas qismiga aylangan predmetlar bilan ifodalanadi. Bunda predmetlarning hajmi (katta-kichikligi), miqdori (kam yoki ko'pligi), nima maqsadda ishlatilishi kabi ma'nolar ramziy ma'noda qo'llanilib kodlashtiriladi. Masalan: *to'nini teskari kiyimoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, xamirdan qil sug'urganday, tomдан tarasha tushganday, ketmoni uchmoq, ignadek sanchilmoq, boshi xumday, no'xatdek kichkina* kabi birliklar o'zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi. Madaniyat kodlaridan biri bo'lgan ma'naviy kod yaxshi-yomon, chiroyli xunuk, baland-past kabi madaniy oppozitsiyalarni, xalqning axloqiy yoki diniy qadriyatlarini aks ettiruvchi kod hisoblanadi. Ko'pincha predmetli kodlar ma'naviy kodlar bilan uyg'unlashadi. Masalan: *Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin; Qalovini topsang, qor yog'ar; O'ylamay qilingan ish, Boshga keltirar tashvish.*

Hayvonlar yoki o'simliklar bilan bog'liq kodlar ham mavjud bo'lib ular biomorf kod deb nomlanadi. D. Tosheva o'z izlanishlarida o'zbek tilidagi frazemalarda eng faol qo'llanilgan zoonimlar sirasiga it, ilon, ot, eshak, qush, quyon, tuya kabilar kiritish mumkinligini aytib o'tgan [7] hamda ularning turli harakatlari, xususiyatlari bilan inson tabiatiga xos bo'lgan jihatlar o'rtasida o'xshashlik kuzatilishi, biomorf kod orqali insoniy fazilatlar, nuqsonlarni aks ettirish mumkinligi aytilib misollarda izohlangan. Masalan: *baquvvatlilik — arslondek yigit, ayiqday kuchli; ayyorlik – tulkiday ayyor, ilondek ichiga kirib olmoq, o'rgimchakdek to'riga ilintirmoq; mehnatkashlik – eshakdek ishlamoq, chumoliday mehnatkash, itday ishlamoq* va shu kabilar.

Raqamlar kundalik hayotda tez-tez ishlatiladigan va turli fanlarni o'rganishda ham qo'llaniladigan so'zlar maydonidir. Matematika, falsafa, jamiyatshunoslik, astronomiya, tilshunoslik kabi fanlar ko'p yillar davomida raqamlar bilan ish ko'radi, unga oid tegishli tadqiqotlar olib boradi. Raqamlar odamlarning mavjudligi kabi qadimgi hodisa bo'lib, sonlar ko'plab sohalar obyekti ekanligi orqali o'zining ko'p qirraliligini isbotladi. Shunga ko'ra, raqamlar tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik umumlashmasi bo'lgan lingvokulturologiyaning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida raqamlar orqali shakllangan iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlardagi sonlar lingvomadaniy kodlar sifatida xalqning uzoq yillik milliy-etnik jihatlarini o'zida ifodalab keladi.

O'rganishlarimiz natijasi o'laroq, yuqorida sanalgan madaniy kodlarning bir turi sifatida raqamli kodlarni ham qayd etish mumkin, ya'ni lingvomadaniyatshunoslikka raqamli kod tushunchasini kiritish foydadan xoli bo'lmaydi va madaniy kodlar sirasi boyiydi. O'zbek tilidagi sonlar ishtirokida shakllangan qator iboralar, turg'un birikmalar, maqol, matal va aforizmlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari, ertaklarda raqamlar madaniy kod sifatida turli ko'chma ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan. Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida sonlar orqali turli urf-odatlar, an'analar, xalqimizning yashash tarzi, milliy-mental xususiyatlariga ishora qilinadi. Raqamlarning ko'chma ma'noda turli semalarni ifodalab kelishi lingvokulturologiyaning obyekti sifatida madaniy kod tarzida voqelanadi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek xalq ertaklarida uch soni bilan bo‘g‘liq ertak davomida jarayonning “uch” marotaba takrorlanishi uning mazmunini kengaytirish, o‘quvchiga tushunilishi yanada aniqroq bo‘lishida ko‘maklashadi. “Uch” bilan bo‘g‘liq quyidagi holatlar uchraydi:

1. Ertaklarda qahramon oldidan uch yo‘l chiqishi. Masalan, kampir bolaga yo‘lni tushuntirishni boshladi. *“Sening yo‘lingdan uch yo‘l chiqadi. Ikki yo‘l xatarli, faqat bir yo‘ldan sen mashaqqatsiz manzilingga yetishing mumkin”*, – dedi.

2. Ertaklarda, asosan, uch o‘g‘il yoki uch qiz farzandning bo‘lishi. Masalan, *“Bor ekan-u yo‘q ekan, bir zamonda bir kishi boy ham emas, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday yomon joyda yurmagan, yomon bilan yurmagan ekanlar”* (“Uch og‘a-ini” ertagidan).

3. Ertaklarda uch og‘a-ini safarga chiqishlari. Masalan, *“Shu odam 3 og‘liga nasihat qilib safar anjomlari shaylab, ularni safarga jo‘natibdi”* (“Uch og‘a-ini” ertagidan).

4. Ertaklarda uchraydigan uch boshli ajdaholar. Masalan, savol-javob so‘ngida uch boshli ajdaho kenja shahzodaga shart qo‘yadi: *“...Falon mamlakatda bir podshohning qizi bor. Shu qizni qirq kun ichida menga keltirib berasan, shu vaqt ichida keltirmasang, o‘zingni yeyman”* (“Qirq kuyov” ertagidan).

5. Ertaklarda ota o‘g‘illariga uch narsani uqtiradi: Masalan, *“1. To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. 2. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. 3. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz”* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidan).

Bundan tashqari, o‘zbek xalq ertaklarida quyidagi raqamlar ham o‘ziga xos madaniy kod sifatida gavdalanadi:

Ertaklardagi to‘rt raqami dunyo tomonlarining ramzi bo‘lib tasvirlanadi. Masalan, *“erta bilan qarasarlar, saroyning to‘rt tomonini to‘rt ajdarho to‘tib yotibdi”*, *“kaniz qizlar bog‘ni tomosha qilgani to‘rt tomonga tarqab ketgan edi”*, *“Podsho ertasiga Ermana merganni qidirib, to‘rt tomonga odam yuboribdi”*.

O‘zbek xalq ertaklarida tasvirlangan epik makon to‘rt burchakli yoki to‘rt tomonli strukturaga ega. Bu avvalo malikalar taxti, otxonalar va uylar tasvirida yaqqol ko‘rinadi. “Bulbuligo‘yo” ertagida kenja teshikdan boshini chiqarib qarasa, otxonaning to‘rt burchagida to‘rtta oltin qoziqqa bog‘loqliq ot turibdi. Parilar mamlakatining tuzilishi ham to‘rtga asoslangan: *“Shahzoda qarasa, bir ajoyib bo‘ston, bulbullar sayragan, anjir, shaftolilar pishib, yerga to‘kilgan. Bo‘stonning to‘rt burchagida to‘rt oltin daraxt, zar ko‘rpachalar solig‘liq, to‘rt tarafda qator hujralar”*[8,18].

Ertaklarimizda ko‘p qo‘llaniladigan “sehrli” raqamlardan biri qirqdir. Ertak qahramonlari qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib, qirq boshli ajdarhoni o‘ldirib, uning qirq hujrali makonini qo‘lga kiritadilar; Shoh ustaga qirq xonali muhtasham saroyini qurib bitkazishi uchun qirq kun muhlat beradi; Jang ham qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadi; Bahodirning qilichi qirq gaz cho‘zilsa, parining tilla kokili qirq quloch bo‘ladi va hokazolar. Dostonlarda qirq kecha-kunduz to‘y qilish, qirq kecha-kunduz yo‘l yurish, qirq kun muhlat kabi motivlar ham mavjud.

O‘zbek xalq ertaklarida bo‘lgani singari turk xalq ertaklari va rivoyatlarida ham raqamlar muayyan madaniy kodga ishora qilishini ko‘rish mumkin. Og‘zaki rivoyat an‘analari va xalq adabiyotining bir turi bo‘lgan ertaklarda rivoyatchi ertakning turli qismlarining soni va rangini bildiruvchi vaqt va joy bilan bog‘liq shakllarni qo‘shish orqali ifodani kuchaytirishga harakat qiladi. Saim Sakaoğlu “Gümüşhane ve Bayburt masalları” motiv sharhlari kitobida formulali raqamlarga e‘tibor qaratdi va qirq raqami ishtirok etgan joylarni, ular nima bilan bog‘liqligini aniqladi. Vaqt bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 kun, 40 kecha, 40 yil (40 gün, 40 gece, 40 yıl); odamlar bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 haromi, 40 vazir, 40 shahzoda, 40 qiz, 40 kanizak (40 harami, 40 vezir, 40 şehzade, 40 kız, 40 cariye); pul bilan bog‘liq: 40 oltin, 40 lira, 40 beshlik (40 altın, 40 lira, 40 beşlik); joyga tegishli bo‘lganlar: 40 xona, 40 ko‘z, 40 qadamlar (40 oda, 40 göze, 40 basamak); tovarlar bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 kofe, 40 kalit (40 cezve, 40 anahtar) [9,263].

O‘zbek va turk tili qardosh til hisoblanadi. Geneologik jihatdan bir bobo tilga borib taqalishi bilan bir qatorda aksariyat an‘analar, urf-odatlar jihatdan ham umumiylikka ega. O‘zbek xalq ertaklarida raqamlar bilan ifodalangan madaniy kodlar turk xalq ertaklarida ham mavjud. Ikki qardosh xalq ertaklarida uchraydigan madaniy kodlar odamlarning kundalik turmushida qiladigan ko‘plab amaliyotlari orqali hayotga kiradi. Ikki xalq madaniyat, urf-odat, an‘analar jihatdan ko‘plab umumiylikka ega bo‘lgani

sababli xalq ogʻzaki ijodi namunalarida uchraydigan motivlar, qolaversa, madaniy kodlar ham bir-biriga juda yaqin. Jumladan, oʻzbek tilida turli birliklarda uchraydigan 3, 7, 9, 20, 40, 41, 99 sonlari sehrli raqamlar deya eʼtirof etiladi. Buning asosiy sababi esa bu raqamlarda xalqning milliy, diniy, afsonaviy qarashlari oʻz ifodasini topadi. Xuddi shunday turk xalqlari tomonidan ham bu raqamlar sehrli, mistik kuchga ega sonlar deya, talqin qilinadi: “Xalq eʼtiqodidagi raqamlarning yana bir muhim oʻrni ularning turli shakllarda qoʻllanilishidir. Sehrgarlikda raqamlar katta rol oʻynaydi. Sehrli amaliyotda maʼlum miqdordagi raqamlarga eʼtibor bermaslik muvaffaqiyatsizlikka sabab boʻladi. Turli xil qiymatdagi raqamlarning deyarli har biri turli irim va sehrli amaliyotga xosdir. Masalan, “uch marta tupurish”, “chorrahaga koʻmish”, “yetti uydan ip yigʻish”, “qirq kun yuvinish” (“üç kere ükürmek”, “dört yol ağzına gömmek”, “yedi evden iplik toplamak”, “kırk gün yıkamak”)... Umuman olganda, 3, 7, 9, 40, 41, 99 sehrli va mistik kuchga egaligiga ishonishadi”[10,147-148] (1- rasmga qarang):



“3-rasm.”

Oʻzbek va turk tillarida “sehrli raqamlar”ning ifodalanishi

Madaniyat avlodlar orasidagi ijtimoiy qiymatni yetkazadigan xotiraga oʻxshaydi. Bir xil ildizdan boʻlgan jamiyatlar turli sabablarga koʻra turli joylarda yashaganidek, oʻz madaniyatidagi umumiy izlarni saqlaydi. Madaniyatdagi turli xil elementlar asrlar davomida ozgina oʻzgarishlarga duch kelgan boʻlsa ham, ular jamiyat xotirasida yashashda davom etmoqdalar. Maqollar bu nuqtayi nazardan oʻzbek va turk dunyosi uchun muhimdir.

Raqamlar va maqollar insoniyat tarixi singari qadimgi tushunchalardandir. Raqamlar va maqollar tasodifiy emas, balki maʼlum bir maqsadga, nutqqa xizmat qilish uchun yaratilgan. Maqollardagi raqamlar ham tasodifiy emas va ular asosida aniq maqsadga ega. Maqollar tildagi amaliy foydadan tashqari, madaniyatni saqlash va uzatish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Hikmatlar, maqol, matallarda bir nechta madaniyat elementlari uygʻunlashadi. Ushbu elementlardan biri raqamlardir.

Oʻzbek va turk maqollaridagi raqamlar oddiy matematik elementlar emas. Har bir raqam semantik maydonga ega va bu madaniyatda boʻlgan odamlar tomonidan maʼlum boʻlgan qiymat. Maqollardagi raqamlarning maʼnolari asrlar davomida toʻplanganligini koʻrsatadigan muhim dalildir.

Turk tilida maqollar yaratishda qaysi raqamlar birgalikda ishlatilishi qator olimlar tomonidan tadqiqot mavzusi sifatida oʻrganilgan. Maʼlumotlarga koʻra, maqollarda mavjud boʻlgan koʻp sonli raqamlar (bir, ikki, uch, qirq, yetmish, yuz, ming) boshqa raqamlar bilan sinxronlikni tashkil qiladi. Maqollarda raqamlar birikmasi quyidagi xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtiradi:

- uygʻunlikni yaratish, jozibadorlikni taʼminlash;
- samarali ifoda yaratish (analogiya, metafora, mubolagʻa va b.);
- raqamlar ketma-ketligidan foydalanish;
- madaniy kodlarga murojaat qilish;
- falsafiy/soʻfiy maqsadlarga moslashtirish va hokazo.

Turk madaniyati tarixida raqamlarning kuchi va taʼsiri maqollarda ham oʻz ifodasini topgan*.

O‘zbek va turk tilidagi maqollarda raqamli madaniy kodlar bir-biriga juda yaqin ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Ikki qo‘chqor kallasi bir qozonda qaynamas – Bir ocakta iki kazan kaynamaz; Bitta tirraqi buzoq bir to‘p podani buzadi – Bir korkak bir orduyu bozar.

O‘zbek va turk tilida “bir” umumiy ma‘noni ifodalovchi sonlar ishtirokida hosil qilingan maqollarning turli variantlarini uchratish mumkin. Masalan, “*Bir gul bilan bahor bo‘lmas*”, “*Bir qarg‘a bilan qish kelmas*”, “*Bir qaldirg‘och bilan yoz bo‘lmas, bir bulut bilan kuz bo‘lmas*” maqollari turkiy xalqlar orasida ham qo‘llanishi ikki xalqning bir umumiy etnogenezga borib taqalishidan dalolatdir:

Bir çeçekmen caz bolmas.

Bir karga birle kış gelmes.

Bir gülden bahar olmaz [11,88].

O‘zbek tilidagi “*Bir qo‘ydan ikki teri shilinmas*” maqoli turklarda quyidagi shakllarda qo‘llanadi:

Bir koydan eki teri çıkmas.

Bir tilkü terisin ikile soymas.

Bir koyundan iki deri soyulmaz.

Bir koy eki soyulmaz.

Bir koyundan iki deri çıkmaz.

Shuningdek, xalqimiz orasida “mehmonning izzati uch kun” iborasi ko‘p qo‘llanadi. Bu iboraga mos ravishda dono ajdodlarimizdan bizgacha “*Yaxshi mehmon – uch kunlik*”, “*Qo‘noqning kuni – uch, uchdan keyin ko‘ch*”[12,214] maqollari yetib kelgan. Xuddi shu mazmundagi maqollar qardosh turk xalqida ham mavjud bo‘lib, ularda ham uch raqami madaniy kod sifatida parema tarkibida xalqning uzoq yillik madaniyati, an‘analarini o‘zida mujassamlashtirish uchun xizmat qilgan:

Kunak üç kön kunak, andan ari muynak.

Mehman üç künğiçe hesel, üç künden ölse sesir[13,223-241].

Ajdodlarimiz tomonidan “*Beshikdagi bola besh turlanar*” yoki “*Bola yettiga kirguncha yetmish turlanadi*” maqollari turklarda quyidagi shakllarda uchraydi:

Çocuk beşikte beş kez değışir.

Bala besikte beş tülleidi.

Beşikteki bala beş türlerir.

Bala besikte bes tülleidi.

Besiktegi bes türleir.

Jamiyatning son tendensiyalari va ularning afzalliklari, ayniqsa, son haqida yaratilgan tadqiqotlar mavjudligida, qolaversa, maqollar, iboralar, hikmatli so‘zlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir jamiyat ko‘pincha kundalik hayotda o‘zi uchun muhim bo‘lgan raqamlarga joy beradi. Raqamlardan foydalanish chastotasi madaniyatlarga qarab farq qilishi mumkin, chunki raqamlar yuqorida aytganimizdek, faqat matematika sohasida qo‘llanilmaydi. Turk tilshunosligida raqamlar orqali shakllangan madaniy kodlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar talaygina. Turkologlar tomonidan turk tilida har bir raqam bilan bog‘liq maqollar, shuningdek, maqollar tarkibida qo‘llangan sonlarning sinxronligi ham alohida o‘rganilgan.

Hadra Kubra Erkinoy Tamtamis tomonidan turk xalq maqollaridagi raqamlar sinxroniyasi “Turk maqollarida raqamlarning joylashishi”[14,842-858] nomli maqolada batafsil yoritilgan. Maqolada muallif turk tilida maqollarda ishtirok etgan raqamlar uyg‘unligini har bir son misolida alohida maqollar bilan tasniflab beradi. Bu bilan olim turk xalq maqollarining shaklanishida numerologik qiymatning ahamiyati, shu bilan bir qatorda, raqamlar ham madaniy kod sifatida namoyon bo‘la olishini turk paremalari misolida isbotlagan desak, yanglishmaymiz. O‘zbek va turk tillari bir umumiy til oilasiga mansubligi, ikki xalqning diniy, milliy dunyoqarashlari juda yaqinligi xalq maqollarida ham o‘z ifodasini topgan.

Xulosa. Umuman olganda, raqamli madaniy kodlar nafaqat maqollarda, balki kishilarning kundalik turmush tarzida qo‘llanadigan iboralardan tortib xalqimizning uzoq yillik hayot tajribasi mahsuli bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi namunalari ham aks etganligi sonlarni lingvokulturologiya obyekt sifatida alohida tadqiq etish zarurligini yana bir karra isbotlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // *Метафизика*. – М., 2016. – №4. (22). – С. 78-97.
2. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2006. – 764 с.
3. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – 456 с.
4. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // *Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей*. – М.: МАКС Пресс, 2001. – 164 с.
5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // *O‘zbek tili va adabiyoti*. – T., 2019. – №3. – B. 15-22.
6. Bo‘riyev I. Lingvomadaniy kodlar va ularning turlari haqida // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2021. – № 1 (8). – B. 334-339.
7. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: *Filol, fan, bo‘yicha falsafa dok. diss.* – T., 2017. – 152 b.
8. Tuychiyeva R. *Adabiyotda sehrli raqamlarning ifodalanishi. Bitiruv malakaviy ishi.* – Farg‘ona, 2013. – 67 b.
9. Saim Sakaoglu. *Gümüshane ve Bayburt masallari*. – Ankara: Akçağ Yayınları. 2002. – 263 s.
10. Sedat Veyis Örnek. *100 Soruda İlkelerde Din Büyü Sanat Efsane*. – İstanbul: Gerçek Yayınevi, 2000. – 196 s.
11. Ömer Asım Aksoy. *Atasözleri Ve Deyimler Sözlüğü 2*, 1993. Cilt:2. – 88 s.
12. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. *Маънолар махзани*. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 214. – 448 б.
13. Erkan Hirik. *Türk dünyasi atasözlerinde sayilar ve anlam alanlari* // *International Journal of Languages' Education and Teaching*. – Volume 5, Issue 1. – 2017. – P. 223-241.
14. Hadra Kübra Erkinay Tamtamiş. *Türkiye türkçesi atasözlerinde sayi eşdizimliliği*. *Folklor Akademi Dergisi*, 2022. Cilt:5, Sayı:3. – S. 842 – 858.

*Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)
(O'zbekiston)*

E-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com

*Asadova Shahlo Akmal qizi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)*

E-mail: asadova90shakhlo@gmail.com

GRADUONIMIYA HODISASI VA UNING TADQIQI XUSUSIDA

Annotatsiya. O'zbek an'anaviy tilshunosligida ko'p yillar so'zlararo va nutqda ular bilan teng barobarda ishlatiladigan frazemalarda ma'noviy munosabatlar ma'nodoshlik, shakldoshlik va zid ma'nolilikni o'rganish bilan cheklanib qoldi. Substansial tilshunoslik bu xil munosabatlar doirasini giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlarni ajratish bilan kengaytirildi va graduonimik kabi ma'no munosabat turlari ham lisoniy-lug'aviy tizimda mavjudligi aniqlandi. Ushbu maqolada graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: graduonimiya, frazemalarda ma'noviy munosabatlar, frazeologik graduonimiya

Аннотация. На протяжении многих лет в традиционном узбекском языкознании изучение семантических отношений между словами и словосочетаниями, употребляемыми наравне с ними в речи, ограничивалось изучением значения, формы и противоположного значения. Субстанциальная лингвистика расширила сферу таких отношений, выделив гипонимические, партонимические, градуонимические отношения, и было установлено, что в лингволексической системе существуют и такие виды смысловых отношений, как градуонимические. В данной статье ведётся о явлении градуонимии и его исследовании.

Ключевые слова: градуонимия, смысловые отношения во фразеологии, фразеологическая градуонимия

Abstract. For many years, in traditional Uzbek linguistics, the study of semantic relationships between words and phrases used along with them in speech was limited to the study of meaning, form and opposite meaning. Substantial linguistics has expanded the scope of such relations, highlighting hyponymic, paronymic, graduonymic relations, and it has been established that in the linguistic lexical system there are also such types of semantic relations as gradeunymic ones. This article talks about the phenomenon of graduonimia and its research.

Key words: graduonimia, spiritual relations in phraseology, phraseological graduonimia

Kirish. Tilning asosiy birliklaridan biri bo'lmish leksemalar orasida ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ma'no asosida bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan mutaxassislar leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajratishadi:

1. Leksik-semantik munosabatlar;
2. Leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarlarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

Asosiy qism. Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigmatic qatorlarga mansub bo'ladi. *Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik, agnonimik* munosabatlar ana shunday lisoniy munosabat turlari hisoblanadi. Substansial tilshunoslik leksik-shakliy munosabatlar sirasiga omonimiya (shakldoshlik) va paronimiya (talaffuzdoshlik) hodisalarini kiritmaydi, sababki, substansialchilar ularni bevosita til strukturasiiga daxldor emas, ular faqat nutqiy bosqich hodisalaridir, deb hisoblashadi.

Graduonimiya (gr. *gradatio* – “ko‘tarilish”, “o‘shish”, *onymo* – “nom”). Lug‘aviy birliklar o‘zaro ma‘noviy munosabatiga ko‘ra ma‘lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma‘lum va uning eng yorqin namunasi – *o‘rta* so‘zini o‘z ichiga olgan so‘zlar qatori hisoblanadi. Masalan,

katta – o‘rta – kichik

yosh – o‘rta – qari

uzoq – o‘rta – yaqin

baland – o‘rta – past

uzun – o‘rta – qisqa.

Ma‘lumki, *o‘rta* so‘zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma‘noda o‘rtalik, oraliq, ya‘ni ikki bir-biriga zid belgi oralig‘idagi holatni ko‘rsatadi. *O‘rta* leksemasi antonimlar oralig‘idan o‘rin olsa, *katta – o‘rta – kichik* darajalanishi kam seziladi. Lekin *o‘rta* leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma‘lum bir belgining kamayishi yoki o‘shishi asosida idrok etilsa, ma‘noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori a‘zolari kamida uchta bo‘ladi. Darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatorini:

a) nolisoniy asos;

b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

Nolisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson *go‘daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik* holatini, o‘simlik *navnihollik, ko‘chatlik, yetilganlik, so‘liganlik, quriganlik* davrini boshidan kechiradi – o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo‘yoqchilar birgina qora rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifat farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo‘lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *ayyor – mug‘ombir – hiylagar – quv – ustamon – makkor – dog‘ush – mo‘ltoni – hilviri; jo‘yak – ariq – kanal – soy – daryo – dengiz – ummon; jilmaymoq – kulimsiramoq – iljaymoq – irjaymoq – tirjaymoq – ishshaymoq – irshaymoq – kulmoq – xoxolamoq – qah-qah urmoq; zarar – ziyon – talofat* kabi.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

ma‘noviy omil;

so‘zlararo paradigmatic munosabat.

Natijalar va muhokama. Graduonimik qatorni ajratishdagi ma‘noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, *darcha – eshik – darvoza* leksemasining “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha – ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tavaqali, eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha [4].

2. Eshik – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama [5].

3. Darvoza – hovli, qo‘rg‘on, qal‘a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan *katta* eshik, qopqa.

Ajratilgan so‘zlar miqdoriy ko‘rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu *darcha* leksemasi izohidagi *kichkina* va *eshikcha* so‘zlari, *darvoza* leksemasi izohidagi *katta* so‘zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: *gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – ol – qirmizi*.

Bu leksemalar qayd etilgan lug‘atda quyidagicha izohlangan:

1. Gulobi – gulob rangli, gulobi.

2. Pushti – shaftoli guli rangidagi, och qizil.

3. Qizg‘ish – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg‘imtir

4. Qizil – qon rangidagi, qirmizi, olvali.

5. Ol – qizil, qirmizi.

6. Qirmizi – qizil rangli, qizil, ol.

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o'zining graduonimik sistemasidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a'zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo'lishar edi:

Gulobi – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo'yoqli rang.

Pushti – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to'qroq.

Qizg'ish – pushtidan to'qroq, qizildan ochroq, qizg'imtir rang.

Qizil – qon rang.

Ol – qizildan to'qroq rang.

Qirmizi – to'q qizil rang.

Bu leksemalar denotativ ma'nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi:

<i>qizillik</i>					
-3	-2	-1	0	1	2
<i>gulobi</i>	<i>pushti</i>	<i>qizg'ish</i>	<i>qiril</i>	<i>ol</i>	<i>qirmizi</i>

Demak, lug'aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma'noviy omil o'zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma'lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo'ladi. Shu asosda ma'noviy omilning o'zi ikki turga bo'linadi:

bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchani ifodalashi;

ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug'aviy paradigмага qo'yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

lug'aviy paradigmaning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;

lug'aviy paradigmaning ochiqligi;

lug'aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;

lug'aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab, lug'aviy ma'noviy qatorda, sistemada namoyon bo'lishi bo'lib, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi [1].

Lug'aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjud:

1) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni tajallilanadi;

2) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

3) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatorni – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Borliqdagi barcha voqeliklar bir-biri bilan uzviy bog'liqligi bizga fizikaning "Butun olam tortishish qonuniyati"dan ham ayon. Xususan, til fani birliklari ham o'zaro chambarchas bog'liq, ularning o'xshash va farqli tomonlari mavjud. Ularning ayrim xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, ba'zilar hamon o'z tadqiqini kutmoqda. Bu fikrni graduonimiya va sinonimiya hodisalari haqida ham qo'rqmasdan aytishimiz mumkin. Agar sinonim va uning xususiy tomonlari anchagina tadqiq etilgan bo'lsa, graduonimiya hodisasi talab darajasida tadqiq etilmagan.

Sinonomik munosabatlar tilshunoslik tarixida fanimiz kabi uzoq tarixga ega bo'lsa ham, lug'aviy ma'nodoshlik muammolariga ming minglab sahifalar, asarlar bag'ishlangan bo'lsa ham hatto, bir emas bir nechta sinonimlar lug'ati tuzilgan bo'lishiga qaramay, sinonimlar muammosi hali qilinishi zarur bo'lgan, yechimini kutayotgan jumboqlar talayginadir. Shunday masalalar qatorida, jumladan, quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

–ma'nodoshlik va variantlilik muammosi (*boadab/baodob/odobli*)

–ma'nodoshlik va lug'aviy darajalanish (masalan, *so'ramoq –iltimos qilmoq – yalinmoq – yolvormoq – o'tinmoq*) kabi.

Lug‘aviy graduonimiya (ma’noviy darajalanish)ni so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir turi sifatida o‘rganish o‘zbek tilshunosligida 80-yillarning oxirlaridan boshlandi.

Tilshunoslikda graduonimiya so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir ko‘rinishi sifatida ajratilguniga qadar, belgini darajalab ifodalovchi so‘zlar sirasi sinonimlar doirasida o‘rganilar edi.

O‘zbek tilining sinonimlar lug‘atida ma’nosi darajalanuvchi so‘zlar ko‘p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma’nosi darajalab ko‘rsatuvchi so‘zlar ko‘p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Takidlash lozimki, til sistema ekan lug‘at tizimi ham sistem tabiatga ega va tilda biror leksema (so‘z) yo‘qki, ma’lum bir lug‘aviy paradigmadan o‘rin olmasa. Ma’noviy darajalanish hodisasi maxsus ajratilmay, ma’noni darajalab beruvchi so‘zlar ko‘p holatlardasinonimlar tarkibiga singdirib yuborilganligi sababli, (*kuchsiz – kamquvvat – zaif – nimjon – ojiz – notavon* kabi) birliklar sinonimlar lug‘atidan o‘rin ololmas edi.

Sinonimlarni ajratishning, so‘zlarni sinonimik paradigmalarga birlashtirishning asosiy omili sinonim so‘zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan narsa, voqea, hodisa, belgi, xususiyat...ning aynanligidir. Mana shu keskin farq graduonimiyani sinonimiyadan ajratib turadi. Sinonimik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonimik paradigma so‘zlarining bitta umumiy denotat(atalmish)ga ega bo‘lib, o‘z paradigmasi ichida asosan uslubiy bo‘yoqlar, qo‘llanilish doirasi bilan farqlansa, graduonimik paradigmadagi so‘zlar turli denotatlarni atab keladi, lekin bu denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlaridadir [2].

Shuning uchun sinonimiya bilan graduonimiya orasidagi asosiy farqni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: sinonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasining a‘zolari ayni bir denotant ayni bir voelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasi a‘zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o‘xshaydi – denotatlar bir xil bo‘lsa – sinonimiya, denotatlar har xil bo‘lsa-yu, bu denotatlar o‘zaro sifat belgilarining so‘zlarning ma’nosi bilan bir qatorda shu so‘zlarning miqdori har xil bo‘lsa – graduonimiya.

Darajalanish leksemalararo, frazemalararo, va leksema hamda frazemalarning oralig‘ida (bog‘lanishlarida) voqea bo‘lishi mumkin. Shularga asoslanib, leksik, frazeologik graduonimiyalar haqida gapirish o‘rinlidir. Lug‘aviy darajalanish maxsus *graduonimik qatorlarda* aks etadi. Shuning uchun darajalanish qatori buning birliklari hamda ushbu birliklar orasidagi munosabatlar orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritish lozim bo‘ladi. Darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda bir umumiy belgi miqdorining ortib yo kamayib borishidir. Demak, bu qatordagi leksema va frazemalar bir umumiy belgining ozlik – ko‘plik darajalanish bo‘yicha o‘zaro semantik bog‘lanishlar(tutashishlar) hosil qiladilar. Bir turdagi sema belgisining oshgan yo kamaygan holda turli leksema va frazemalarning turg‘un tarkibiy qismlariga, komponentlarga aylanib qolgaliklari gradunomik qator tuzilishining bosh omilidir. Lug‘aviy darajalanish qatori ikki va undan ortiq birliklardan iborat bo‘lishi mumkin. Graduonimiya aslida uch a‘zoli qatorda yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay qator (hodisa)ning lisoniy ko‘rinish jihatdan ikki a‘zoli ham bo‘la olishini hisobga olishimiz lozim. Misol uchun *qo‘zichoq – qo‘zi – qo‘y* munosabatini olib ko‘raylik. Bu yerda ontologik darajalanishlarga duch kelamiz.

Demak, graduonimik qatorga nisbatan sinonimiyada voqea bo‘ladigan dominant a‘zo haqida gapirish mumkin emas. Zero sinonimik qator aynanlik graduonimik qator esa farqlilik asosidatashkil topadi. Sinonimik dominantada qo‘shimcha ma’nolarning kamligi (boshqa sinonimlar bilan asosiy ma’noda aynanlikning saqlanganligi) asosiy belgi bo‘lsa, graduonimlarning asosiy ma’no zamirida semantik gradatsiya orqali keskin farqlanib turganing o‘zi ma’lum darajalanish qatoriga xos bo‘lgan turg‘un dominant graduonimlar doirasida uchrovchi ma’nolarning keng- torligi va biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanib qolishi sinonimik dominantalar va ularning qo‘llanish xususiyatlaridan sifat jihatidan farq qiladi [3].

Ko‘p darajalanish qatorlarida belgining me’yordan ozlik yoki ko‘plik darajasi graduonimlarning bevosita munosabatlaridan (yondosh bog‘lanishlaridan) yaqqol ko‘rinib turadi. Masalan, *pichirlamoq-shivirlamoq- gapirmoq* kabi. Ayrim hollarda esa belgi darajalaishi graduonimlarning umumiy tizimidagi

tartibi zaminida bilvosita anglashiladi: *janub- g'arb, shimol- sharq, dushanba-seshanba- chorshanba- payshanba- juma- shanba* kabi. Graduonimik qatorda ko'pincha muayyan bir belgining emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan belgilarning ham izchil oshib yoxud kamayib borishi anglashilishi mumkin. Graduonomiya va sinonimiya hodisalari o'zlarining asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadilar. Zero, sinonimiya ikki yoki udan ortiq leksema va frazemalarning aynanlashuviga asoslansa, graduonomiya sememalar asosiy semalaridagi gradasiyali farqlanuviga tayanadi. Bundan sinonimlardagi asosiy ma'nolarning tengligi, graduonomiyada esa teng emasligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham sinonimlar biri o'rnida ikkinchisini qo'llash, umuman, mumkin bo'lsa, asosiy denotativ graduonimik qatorlarda bunday bo'lishi mumkin emas. To'g'ri, ko'p hollarda graduonimlar orasida darajalanuv farqlari kichik yoki kuchsiz bo'lsa, sememalardagi o'xshashlik ortadi va bu holat ulardagi ma'noviy yaqinlikni (omonimlardagi kabi ma'noviy birlikni, aynanlikni emas) keltirib chiqaradiki, natijada ular ayrim kontekstual omillar hisobiga biri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib qoladi. Demak, sinonimiya va graduonomiya doiralaridagi o'zaro almashinuvchanlik hodisalarining farqlarini to'g'ri anglash, ikkinchi tomondan, shunday hollarda graduonimva sinonim juftliklar orasida o'xshashlikning kuchayishi hatto bu ikki hodisaning tutashib ketish hodisalarini hisobga olish kerak.

Sinonomiya, asosan, so'zning ma'no tarkibidagi ifoda va vazifa semalari orasidagi farqlarga tayansa, graduonimik lug'aviy paradigmalarni ajratish, so'zlarning atash, nomlash semalari tarkibidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan aloqador bo'lgan sifat farqlari semalariga tayanib ajratadi. Shuning uchun graduonimik qatordagi yondosh so'zlar sinonimik munosabatlarga kirisha oladi.

Graduonimik qatordagi yondosh so'zlar o'zaro sinonimik munosabatlarda tursa, graduonomiya qatorlarining chekka nuqtalarida turgan so'zlar o'zaro antonimik munosabatlarda turadi. Masalan,

milligramm – *gramm* – *kilogramm* – *sentner* – *tonna*;

oila – *mahalla* – *ovul* – *qishloq* – *shahar* – *tuman* – *viloyat* – *respublika*.

Sinonomiya va antonomiya chegarasi graduonimik qatorning yetakchi so'zi bilan belgilanadi; bu chegaraning bir tomonida turgan so'zlar o'zaro uzoq-yaqin sinonimik munosabatlar bilan, chegaraning ikki tomonida turgan so'zlar o'zaro antonimik munosabatlar bilan bog'langan bo'ladi. Yana graduonomiya va antonomiya hodisasi haqida shuni aytish joizki, bular aslida bir asosga tayanuvchi semantik hodisalar bo'lib chiqadi. Ma'lumki graduonomiya va antonomiya tushunchasida farqlarning kuchli yoki yorqin ko'rinishlari bo'lgan ziddiyatlar qarama-qarshiliklar bilan ish ko'rilgan, xolos. Boshqacha qilib aytganda antonomiyaning an'anaviy va hozir keng tarqalgan belgilanishida bir graduonimik qatorning ikki qutbi olinib, ushbu qatorning oraliq yoki yondosh farqlanuv munosabatlari baholashdan chetda qolgan. Aslida graduonomiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiy yo'nalishli qator (zanjir) bo'lsa, antonomiya shu zanjirning (qatorning) turli qismlari (a'zolari) orasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlar hisoblanadi.

Xulosa. O'zbek tilida darajalanish hodisasining tadqiqi graduonimik munosabatlarning so'zlar doirasi bilan cheklanmasligi, balki ular butun lisoniy tizimni, shu jumladan, frazeologizmlarni ham qamrab olishi, bu esa nutqiy ravonlik hamda ta'sirchanlikni ta'minlashga, uning rang-barangligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalardan amaliy foydalanishda ahamiyatli sanaladi. Demak, graduonimik qatorlarning bir lug'aviy ma'no guruhi ichida frazemalarning bitta yetakchi birlik atrofida birlashishini belgilash; ma'lum bir belgining turli darajalanishi asosida zidlanuvchi so'zlar sirasida ularning mavjudligini ko'rsatish ham tilshunosligimiz uchun muhim.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021. – 555 b.
2. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: филол. Фанлари д-ри ... дисс. Автореф. – Т., 2016. – 54 б.
3. Grifjonova Sh. O'zbek tilde lug'aviy graduonomiya: f.f.n.diss.avtoreferat. –Т., 1997. – 21 b.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдди. 1-жилд. А-Д. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – 680 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдди. 5-жилд. Ш-Х. – Т.: ЎзМЭ, 2008. – 592 б.
6. Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. O'zbek tilida frazeologik graduonomiya. Monografiya. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group. – 2021. – 85 p.

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna,
BuxDU Maktabgacha ta'lim
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
(O'zbekiston)
E-mail: n.n.hamroeva@buxdu.uz

NUTQIY ETIKETNING LINGVISTIK TABIATI

Annotatsiya. Muloqotning asosiy vositasi hisoblangan til isonlarni birlashtiradi, ularning shaxslararo munosabatlarini va ijtimoiy aloqalarini tartibga tashlash, dunyoqarashlar tizimi va dunyoni milliy obrazlarda anglashni shakllantirishda ishtirok etadi, xalqning tarixiy, individning esa shaxsiy tajribasiga oid ma'lumotlarini yig'ishni va ularni saqlashni ta'minlaydi. Nutqiy etiket – til rivojlanishining muayyan tarixiy bosqichida barqaror bo'lgan nutq formulalarida mustahkamlangan jamiyatdagi nutq xatti-harakatlarining milliy o'ziga xos, majburiy qoidalaridir. Nutqiy etiketning xususiyatlari va o'ziga xos ijtimoiy-lingvistik vazifalarini o'rganish bugungi tilshunoslik oldida turgan masalalardan biridir. Ushbu maqolada nutqiy etiket va uning lingvokulturologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zar: til, nutq, muloqot, nutqiy etiket, diskurs, etiket birliklari, iltifot, minnatdorlik.

Аннотация. Как основное средство общения язык объединяет людей, регулирует их межличностные отношения и общественные отношения, участвует в формировании людей и личного опыта человека, системы мировоззрений и понимания мира в национальных образах, обеспечивает сбор и сохранение информации, в том числе исторической. Речевой этикет – это национальные специфические, обязательные правила речевого поведения в обществе, закрепляющиеся в речевых формулах, устойчивых на определенном историческом этапе развития языка. В данной статье ведётся речь о речевом этикете и его лингвокультурных особенностях.

Ключевые слова: язык, речь, общение, речевой этикет, дискурс, этикетные единицы, комплимент, благодарность.

Abstract. As the main means of communication, language unites people, regulates their interpersonal relations and social relations, participates in the formation of the system of worldviews and the understanding of the world in national images, ensures the collection and preservation of information, including the historical information of the people and the personal experience of the individual. Speech etiquette is the national specific, mandatory rules of speech behavior in society, which are fixed in speech formulas that are stable at a certain historical stage of language development. This article talks about speech etiquette and its linguistic and cultural features.

Key words: language, speech, communication, speech etiquette, discourse, etiquette units, compliment, gratitude.

Kirish. Muloqotni kishilar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson rivojlanishining ko'pqirrali jarayoni sifatida baholash mumkin. Uning asosiy vazifasi axborot ayriboshlash ekan, bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Insonlar nutqiy muloqotga kirishishda dastavval tildan foydalanadilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham axborot ayriboshlashdan iborat. Masalan, nutqiy munosabatga kirishar ekanmiz, u nutqiy muloqot jarayoni bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan ham cheklanamiz. Nutqiy munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari bilan bog'liq. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval unga nisbatan ijobiy (hurmat qilib) yoki salbiy (mensimasdan) munosabatda bo'lishimiz mumkin. Demak, muloqot – insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Zero, nutqiy muloqot – birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Ammo muloqot insonlar orasida eng takomillashgan darajaga ega bo'ladi va, albatta, bu jarayon nutq vositasida anglanadi.

Asosiy qism. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutqiy odob-axloq – murakkab hodisa. U tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Insonning tug‘ilgan va tarbiya olgan joyi, muhiti bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa nutq odobidir. E.Sepir ta’kidlaganidek, odamlar o‘zlarining ehtiyojlarini atrof-muhit bilan bevosita moslashtiradi: “Ular nima qilishmoqchi bo‘lsa, shuni qilishadi, chunki ular o‘zlariga estetik nuqtayi nazardan ahamiyatli darajada hammasidan osonroq narsani kashf etishgan, ya’ni ular jamiyatlarida u yoki bu tarzda mustahkam o‘rnashgan axloqiy qoida va me’yorlarga qarab o‘zlarini moslashtirishadi, bular uchun hech kim aniq javob bermaydi, ularning kelib chiqish tabiati ham deyarli hech kimga ma’lum emas. Ba’zida, o‘zgargan shart-sharoitlarga yaxshiroq moslashish uchun ham ijtimoiy axloq shakllarining zarurligini anglab yetish kerak” [4, 28]. Biz salomlashish, xayrlashish va hokazo taomillarda nutqiy etiket qoidalarida bajariladigan o‘ziga xos nutqiy aktlardan foydalanamiz. Nutqiy etiket – aloqa o‘rnatiladigan normalar va qoidalar to‘plami bo‘lib, ushbu qoidalarni amalga oshirish uchun tegishli vositalar, ya’ni ma’lum bir tilning ona tilida so‘zlashuvchilari uchun til rivojlanishining ushbu bosqichida tushunarli bo‘lgan barqaror taomillashtirilgan birliklar to‘plami, me’yorlarga muvofiq kommunikatorlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlash, etiket me’yorlari asosida belgilangan qoidalardir.

Mavzuni o‘rganar ekanmiz, nutqiy etiket belgilarining lingvistik tabiati masalasi bir qadar ochiq qolayotganini kuzatamiz. Biz nutqiy etiket formulalari mezonlari sifatida nisbiy barqarorlik va takrorlanuvchanlikni ilgari surdik. Rivojlanayotgan nutqiy etiket tizimiga ma’lum bir vositani kiritishning asosiy mezoni uning tartibga solinadigan nutqiy xatti-harakati, standartlashtirilgan nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi bo‘ladi. Nutqiy etiket formulasi kommunikativ nutqiy akti amalga oshirishda nutqda amalga oshiriladi, uning ishtirokchilari so‘zlovchi va tinglovchi bo‘lib, so‘zlovchi o‘z nutqida foydalanadigan nutqiy etiket formulasini diskursdagi sherigiga qaratadi. Shuning uchun nutqiy etiket vositalarini ajratishda tinglovchiga yo‘nalganlik mezoni ham hisobga olinadi.

Nutqiy etiket birliklarining asosiy vazifasi sifatida kommunikativ funksiyani ta’kidlab o‘tish, shuningdek, tartibga solish va emotsional-modal vazifalar ham nutqiy etiket uchun xosligini aytish lozim. Shubhasiz, ma’lum nutqiy etiket formulalari aloqa funksiyasining muayyan jihatlarga mos kelishi haqida gapirish mumkin. Ular orasida aloqa o‘rnatish roli salomlashish formulalariga tegishli. Aloqa o‘rnatish kommunikativ akti muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur. Xayrlashuv formulalari, birinchi navbatda, nutqiy etiket formulalari orasidagi aloqa funksiyasini to‘xtatuvchi yoki yakunlovchi jihati bilan ahamiyatlidir. Nutqiy etiket vositalari orasida kontakti qo‘llab-quvvatlovchi funksiyalarni bajaradigan akt sifatida minnatdorchilik formulalari ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu yerda kommunikantlarning nutqiy munosabatlari (tanishlik darajasi, bo‘ysunish/tenglik munosabatlari, yosh va jins farqlari), vaziyatning tabiati (rasmiy/norasmiy), shuningdek, talaffuz ohangi yoki so‘zlovchining yuz ifodasi kabi omillar hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Kognitiv funksiya nutqiy etiket formulasida cheklangan tarzda ifodalanadi. Ammo ularning bu funksiyani to‘liq inkor etishi nutqiy etiket formulasi ma’nosini bir tomonlama tushunishga, ularning nominativ birliklar rolini inkor etishga olib keladi. Ular beradigan mazmun etiket vaziyatida so‘zlovchining adresatga nisbatan ma’lum bir niyatini ifodalaydi: masalan, agar biz salomlashish haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u holda bu shaxsiy tayyorlikning ifodasi va adresatning ma’lum bir vaziyatda va ma’lum bir ohangda aloqa o‘rnatishga tayyorligi haqidagi so‘rovdur. Fikrimizcha, ularning performativligi (ijrochanligini), ijtimoiy harakatlar va xatti-harakatlarga ekvivalentligini nutqiy etiket belgilari semantikasining o‘ziga xos xususiyati deb hisoblash o‘rinli.

Bitta etiket vaziyatiga xizmat qiladigan va bitta mavzu bilan birlashtirilgan nutqiy etiket formulasi to‘plamini tematik guruhlar deb ataymiz va bunda salomlashish, xayrlashish va minnatdorchilik tematik guruhlarini ajratish mumkin. Tematik guruhlariga ajratishning shartlilikini ta’kidlash joiz. Ularning orasidagi chegaralar o‘zgarishsiz qolmaydi va tematik guruhlari tarkibining harakatchan tabiati sinxronlikda kuzatiladi. Buning sababini o‘zgarishi mumkin bo‘lgan tilaklar misolida ko‘rish mumkin, bu borada tilaklar salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilikka yaqindir. Imo-ishoralar etiket muloqotida muhim rol o‘ynaydi: o‘rnidan turish, o‘tirishni taklif qilish, tiz cho‘kish, ta’zim qilish, quchoqlash va o‘pib qo‘yish kabi noverbal vositalarni qayd etishimiz mumkin, bu esa, ham alohida, ham turli kombinatsiyalarda paydo bo‘lishi mumkin.

Nutqiy etiketga bag'ishlangan tadqiqotlarda turli xil tematik guruhlar ajratiladi. Masalan, salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik, kechirish, iltimos, tilak, hamdardlik bildirish, taklif va boshqalar. Salomlashish vaziyati kommunikativ aktning ochadi va kommunikantlar o'rtasida aloqa o'rnatishga xizmat qiladi, u kommunikantlar uchrashganda va bir-biriga murojaat qilganda paydo bo'ladi. Salomlashish vaziyati kommunikativ aktning dastlabki momenti bilan bog'liq. Salomlashish vaziyatida *replika-salomlashish* va *replika-javob salomlashish* kabi birliklarga ajratishimiz mumkin. Ushbu butun guruhni birlashtirgan aloqa strategiyasi, qoidaga ko'ra, suhbatdoshga do'stona munosabatning ifodasidir. Vaziyat va ishtirokchilarning munosabatlari salomlashishga salbiy ma'no qo'yadigan holatlar bundan mustasno. Salomlashishning ijobiy yoki salbiy ohangidan qat'i nazar, asosiy taktika – butun guruh uchun bir xil bo'lgan kontaktning o'rnatish taktikasi. Nutqimizda salomlashish, salomlashish uchun minnatdorchilik, salomlashishga javoban yaxshi tilak, suhbatdoshni iltifot orqali maqtash, uyga kirishga taklif qilish va boshqa kommunikativ harakatlar uchraydi. Ko'psonli misollar suhbatdoshga iltifot kommunikativ harakatini ko'rsatadi. Deyarli istalgan etiket qoidalarida so'zlovchi suhbatdoshni u bilan aloqa o'rnatishi va uni mustahkamlashi uchun unda yaxshi taassurot qoldirishdan manfaatdor. Ushbu maqsadga erishish usullaridan biri iltifot nutqiy aktidir.

Har bir millat vakillarining nutqida o'z mentaliteti aks etishi ayni haqiqatdir. A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida ham nutqiy odobning eng go'zal namunalariga duch kelamiz. Asar tengsiz axloq, o'zbekona odob va madaniyatni o'zida mujassamlashtiradi. Dastlab Yusufbek hoji va Otabek obrazini tahlil etsak. Yusufbek hojidagi salobat va tafakkur qudrati, Otabekdagi vijdon va yigitlik haqidagi mustahkam tasavvur Qodiriy qahramonlarining aqlu zakosi, mulohazakorligini ko'rsatadi. O'zbek oyim o'z xohishi bilan Otabekka Zaynabni unashtirib qaytadi. Otabek bundan bexabar bo'lsa-da, bir dilxiralikni sezib turgandek go'yo. Romanning bu haqdagi voqeasi bayonida shunday deyiladi: “...Anchagina so'zsiz o'lturgandan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi:

– O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq. Otabek, ma'lumki, ularning “qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini”, albatta, bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas, – dedi” [3, 71]. Farzand javobidagi mantiqiy qudrat va ota-onaga nisbatan tavoze shu qadar kuchli ediki, ota bundan qattiq ta'sirlanadi. Hoji O'zbek oyimdagi biroz kaltabinlik nuqsini bilsa-da, aybni boricha unga to'nkab qo'ymaydi, “biz” deb ko'rsatadi. Endi bu og'ir masalani uzil-kesil hal qiladigan qat'iy tamoyil bor. Bu ham bo'lsa, ushbu oila a'zolariga xos bo'lgan lafzga sadoqat tuyg'usidir. Ayni shu parchaning o'zida noyob o'zbekona qadriyatlar – farzandning ota-ona ixtiyoriga keskin qarshi chiqmasligi, otaning hurmati, farzandning e'zoz, oilaboshining ayoli izzatini oshkora to'kmasligi, ayniqsa, lafzga vafodorlik fazilati mahorat bilan ochib beriladi. Otabekka otameros bo'lgan bosiqlik, suhbat odobi, oz va ma'nili so'zlash, faqat muhim gap uchun og'iz ochish xislatlari ham o'g'il-qizlar tarbiyasi uchun har qachon ibrat olishga arziydi. O'zbek oyim Toshkentga kelgan marg'ilonlik keliniga “senlab” murojaat qiladi, ozg'inligini esa injiqlik yoki fe'li torlikka emas fikrchanlikka yo'yadi. Bu o'zbek onasining o'z farzandiga qilgan samimiy muomalasi kabidir. Yuqoridagi misollar romanda haqiqiy o'zbek xonadoni, hayoti va turmushidagi o'ziga xos an'analar, oilaviy munosabatlar va qarashlarning aslida namoyon qilinganini ko'rsatadi.

Iltifot samimiy yoki nosamimiy bo'lishi mumkin. Nosamimiy iltifotda xushomad bo'ladi, o'zbek xalq ertak va masallarining ko'pchiligida hiyla aralashgan iltifotlarga “laqqa tushgan” obrazlarni ko'rishimiz mumkin.

Shaxslararo munosabatlarning asosiy bosqichi hisoblangan salomlashish ham o'ziga xos nutqiy odob formulalariga ega. Muvaffaqiyatli salomlashish suhbat natijalarining ijobiylikini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sharq mamlakatlarida shunday maqol bor: “Avval salom, ba'd az kalom”, ya'ni avval salom, keyin suhbat. Assalomu alaykum (arabcha – sizga tinchlik, salomatlik tilayman) – musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatadigan salomlashuv iborasidir. Salom qabul qiluvchi „Vaalaykum assalom” (“Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman”), deb javob qaytaradi. “Assalomu alaykum” tanigan va tanimagan musulmonlarga beriladi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek til madaniyatida ham suhbat salomlashish bilan boshlanadi. Nutqiy muloqotni boshlash to'g'ridan-to'g'ri o'z lisoniy birligi – assalomu alaykum bilan boshlanishi mumkin. Yoki biror boshqa kirish so'z ushbu

birlikdan oldin kelishi ham kuzatiladi. Masalan, “Voy, men kimni ko‘ryapman, assalomu alaykum”, “Hormang, charchamayapsizmi, assalomu alaykum” kabi. Salomlashish vaziyatidagi kommunikativ strategiya tartibga soluvchi bo‘lib, suhbatdoshlarni yaqinlashtirishga qaratilgan bo‘ladi va faqat istisno hollarda ularni bir-biridan ajratishga xizmat qiladi.

Salomlashishning ijobiy yoki salbiy ma‘nosidan qat’i nazar, asosiy taktika – butun guruh uchun yagona bo‘lgan aloqa o‘rnatish taktikasi. Salomlashish vaziyatida qo‘llaniladigan kommunikativ harakatlar xilma-xildir: suhbatdoshning yoki uning yaqinlarining hayoti haqida ma‘lumot, uyga kirishni, o‘tirishni taklif qilish va hokazo, tashrif sababi haqida savol, salomlashish uchun minnatdorchilik, salomlashishga javoban yaxshi tilak bildirish, suhbatdoshga iltifot (mulozamat) ko‘rsatish, o‘zining sadoqatiga ishonch bildirish, mehmonni yuborgan kishiga yaxshi munosabat bildirish va boshqalar.

Suhbatdoshga kommunikativ akt paytida ma‘lum bir harakat uchun minnatdorchilik bildirish vaziyati paydo bo‘ladi. Minnatdorchilik – muloqotchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni saqlashda muhim rol o‘ynaydigan nutq akti. Minnatdorchilik bildirishning verbal vositalari jamiyatda hukmronlik qiladigan madaniy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi. “Rahmat” so‘zlari og‘zimizdan tushgach, koinot qalbiga yo‘l ochadi, uning cheksiz xayrixohligini uyg‘otadi”, degan edi sevimli yozuvchimiz Antuan de Sent-Ekzyuperi. Minnatdorchilik tematik guruhi “salomlashish” tematik guruhidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Uni quyidagi kichik guruhlarni ajratish mumkin: qo‘shimcha konnotativ ma‘nolarni o‘z ichiga olmaydigan minnatdorchilikni ifodalovchi formulalar; tilak va maqsadga yo‘naltirilgan semalarini o‘z ichiga olgan formulalar. Minnatdorchilik nutqiy va nutqiy bo‘lmagan harakatlarga javob reaksiyasi bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, ikki suhbatdoshning nutqiy xatti-harakati, odatda, quyidagicha amalga oshiriladi: 1) dastlabki replika (yoki xizmat, marhamat shaklidagi harakat), 2) javob replikasi (minnatdorchilik ifodasi), 3) yakuniy replika (minnatdorchilikka reaksiya bildirish).

“Minnatdorchilik” tematik guruhini birlashtirgan kommunikativ strategiya kommunikantlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni saqlashdir. Asosiy kommunikativ taktika – kontakti qo‘llab-quvvatlash. Asosiy kommunikativ harakat kommunikantga minnatdorchilik sababini ko‘rsatishdan iborat. Muloqotchilar o‘rtasidagi munosabatlar (yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga, teng shartlarda), xuddi salomlashish vaziyatidagi singari minnatdorchilik vaziyatida ham nutqiy etiket doirasidagi murojaat shaklidan foydalanish/foydalanmaslikda belgilanadi. Minnatdorchilik odob formulalari orasida tarkibiy-semantik modellar quyidagilardir:

“Rahmat” markaziy so‘zli minnatdorchilik odob formuasi;

“Umringizdan baraka toping” markaziy so‘zli minnatdorchilik formulasi (“Olloh bu yaxshiligingizning ajrini bersin”, “bu yaxshiligingizni abatta qaytaraman” ma‘nosidagi tilaklar);

“Rahmat, behudaga ovora bo‘libsiz” markaziy semali minnatdorchilik formulasi (qilingan yaxshilikka muhtoj emaslik vaziyatida etiket nuqtayi nazaridan minnatdorlik bildirish).

Xulosa. Nutqiy muloqot – insonning jamiyatdagi faoliyatida, o‘sishi, turli munosabatlarni o‘rnatishida eng muhim vositadir. Har xil vaziyatlarda suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish, uni istalgan maqsadda davom ettirish va yakunlash borasidagi turli qoidalar jamlanmasi esa nutqiy etiket (nutqiy odob) hisoblanadi. Nutqiy etiket qoidalari madaniy aloqa, ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maydonga keladi. Nutqiy etiket birliklari nutqiy muloqot jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u suhbatdoshning diqqatini jalb qilibgina qolmay, nutq egasining individual munosabatini ko‘rsatish xususiyatiga ham ega. Zero, “Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi” [2, 87]. Bugungi kunda nutq birliklaridan amaliy foydalanishni ilmiy o‘rganish, jumladan, nutq odobiga oid birliklarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish masalasi dolzarblik kasb etadi va bu boradagi tadqiqotlar tilshunosligimizda ko‘payib boraveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Toirova G.I. Responsibility-one Appearance of a Speech Act//Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – Published: 2024, 2(5). – P.164-168.
2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutqi odatining muloqot shakllari: Filol. Fan. Nomz... diss. Avtoref. – Samarqand, 1993. – 54 b.
3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – T.: Sharq, 2004. – 346 b.

4. Hamroyeva N. Fatik nutqiy janrlar va iltifot. Monografiya. – Germaniya: GlobeEdit, 2023. – 134 b.
5. Hamroyeva N. The Role Communicative Strategies in the Process of Interpersonal Communication. – Buxara: buxdu.uz, 2024. – P.45.
6. Hamroyeva N. The Need for Interactive and Perceptive Sides of Communication in Speech Activity//Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – Published: 2024, 2(5). – P.1199-1202.
7. Hamroyeva N., Shodiyevna, N.S., Alimovna, K.G., Shonazarovna, E.D., & Turakulovich, J. U. Pragmalinguistic features of the types of fatik communication and about compliments// 9. 9. International Journal of Early Childhood Special Education. – Published: 2022, 14 (3).
8. Hamroyeva N. Shaxslararo muloqot jarayonida tab a a diskursning oʻrni va kommunikativ strategiyalar. – Buxoro: buxdu. Uz, 2023. – №. 42. – 88 b.

*Козиева Икбол Комилжоновна,
преподаватель кафедры русского языка и литературы
Бухарского государственного университета
(Узбекистан)
E-mail: ikbolkoziyeva0105@gmail.com*

РОЛЬ И МЕСТО ОНОМАСТИКИ В РЯДУ ДРУГИХ НАУЧНЫХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о тесной связи между ономастикой и лингвистикой, а также об экстралингвистических компонентах, которые являются неотъемлемыми для ономастики. Говорится, что важную роль также играет текстологический анализ письменных источников, который включает в себя атрибуцию их к определённым эпохам и диалектам. Имя, выполняя ряд социальных функций, существует и развивается согласно языковым закономерностям, хотя факторы, способствующие изменению именных систем, имеют социальную природу и выходят за пределы лингвистической области. Онимы, в большей степени, чем аппеллятивы, реагируют на разнообразные социальные изменения. Имя всегда является отражением культуры и общественной жизни, вне зависимости от намерений тех, кто его выбирает.

Ключевые слова: ономастика, экстралингвистика, текстологический анализ, имя собственное, антропонимика, лингвистика, терминолог, ономатолог.

Annotatsiya. Ushbu maqolada onomastika va tilshunoslik o'rtasidagi yaqin bog'liqlik, shuningdek, onomastikaga xos bo'lgan ekstralingvistik komponentlar masalasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada yozma manbalarning matn tahlili ham muhim rol o'ynashi, bu ularni ma'lum davrlar va lahjalarga atribut qilishni o'z ichiga olishi aytilgan. Bir qator ijtimoiy funktsiyalarni bajaradigan ism til qonunlariga muvofiq mavjud va rivojlanadi, garchi ism tizimlarining o'zgarishiga hissa qo'shadigan omillar ijtimoiy xususiyatga ega va lingvistik sohadan tashqariga chiqadi. Onimlar, appellativlarga qaraganda, turli xil ijtimoiy o'zgarishlarga ko'proq javob berishadi. Ism har doim uni tanlaganlarning niyatidan qat'li nazar, madaniyat va ijtimoiy hayotning aksidir.

Kalit so'zlar: onomastika, ekstralingvistika, matn tahlili, to'g'ri ism, antroponimika, tilshunoslik, terminolog, onomatolog.

Abstract. This article discusses the close relationship between onomastics and linguistics, as well as the extralinguistic components that are integral to onomastics. It is said that textual analysis of written sources also plays an important role, which includes attributing them to certain epochs and dialects. The name, performing a number of social functions, exists and develops according to linguistic patterns, although the factors contributing to the change of name systems are of a social nature and go beyond the linguistic domain. Onyms, to a greater extent than appellatives, respond to a variety of social changes. A name is always a reflection of culture and social life, regardless of the intentions of those who choose it.

Keywords: onomastics, extralinguistics, textual analysis, proper name, anthroponymy, linguistics, terminology, onomatologist.

Введение. Ономастика и лингвистика имеют крепкие взаимосвязи, которые можно сравнить с отношением части к целому. Хотя ономастика является одной из областей лингвистики, она не полностью укладывается в её строгие рамки. Это обусловлено присутствием экстралингвистических факторов, которые играют важную роль в ономастике. Основным методом изучения ономастических данных являются лингвистические подходы, включая определение языковой принадлежности имён, изучение фонетических и фонематических закономерностей, анализ морфологических изменений и типов структур, и другие. Также значительный вклад вносят текстологические исследования письменных источников, которые охватывают атрибуцию к историческим периодам и диалектам, анализ различных написаний, классификацию на верные и ошибочные формы, а также выяснение языковых влияний на авторов.

Основная часть. В рамках экстралингвистического анализа ономастического материала изучается история возникновения объектов, изменения их названий, перенос имен известных объектов на другие, а также хронология географических открытий и миграции народов. Эти исследования, имеющие важное значение для историков и географов, играют вспомогательную роль в ономастике: они помогают понять причины возникновения и трансформации имен, а также выявляют тенденции и традиции, связанные с их присвоением. В лингвистике собственные имена могут быть рассмотрены наряду с нарицательными, где различия между ними не всегда являются значительными, и схожие явления (фонетические, грамматические) могут проявляться как у тех, так и у других. Кроме того, возможно и отдельное исследование собственных и нарицательных имен с акцентом на их различия (фонетические, фонологические, грамматические и пр.).

А.В. Суперанская утверждает, что ономастика тесно связана с терминологией. Обе области, являясь частями лингвистики, выходят за рамки строгих языковых категорий. Онимы и термины используются преимущественно узким кругом специалистов, и определить их лингвистический статус невозможно без участия экспертов из соответствующих сфер. Каждый термин является частью определенной терминологии, обладая однозначным значением, в то время как имя собственное принадлежит конкретному сообществу, в котором понятны его номинативные связи и сопутствующие данные. Для корректной интерпретации содержания термина важно знать всю теорию, а для понимания роли имени в обществе необходимо изучить исторический контекст и связи именуемого объекта с другими. Таким образом, работа терминоведа и ономастолога во многом схожа: первый исследует терминологические элементы, второй – лексемы, которые формируют именованные модели. Оба специалиста анализируют словообразовательные механизмы, но терминолог связывает терминологические элементы с понятиями, тогда как ономастолог – топо- и антропоэлементы с объектами.

Способы создания имен и образы, на которых они основаны, имеют свою уникальность в каждой культуре. Несмотря на наличие общих черт и антропологических закономерностей в именах, их применение обусловлено особыми характеристиками развития конкретной нации. Культура менее передовых народов сохраняет больше нестандартных этнографических элементов и более тесно связана с их образом жизни и традициями. Имена, особенно прозвища, в повседневной жизни напрямую связаны с реальными условиями, обычаями, верованиями и мировоззрением, присущими данному народу. Это представляет собой значительный интерес для этнографии как одной из исторических дисциплин.

Исследование значимых вопросов истории и этнографии, касающихся народов, исчезнувших с исторической арены или переселившихся в удаленные регионы, связано с ономастикой. Данные в этой области помогают этнографам определить границы прежнего расселения этнических групп и устанавливать хронологию памятников материальной и духовной культуры. Особенно примечательны археологические находки, содержащие фрагменты письменностей с частыми упоминаниями собственных имен. Остатки древних систем именования сохраняют элементы исчезнувших языков, что позволяет осуществить хотя бы частичную их реконструкцию. Благодаря собственным именам удалось расшифровать египетские иероглифы, вавилонскую клинопись, а также памятники хеттского языка и языка майя.

Решение значимого историко-этнографического вопроса, касающегося народов, исчезнувших из страниц истории, требует от археологов сбора данных о материальной культуре, что также предоставляет сведения, полезные для языкового анализа и расшифровки. В этом контексте ономастика становится важным инструментом, который помогает в датировке, идентификации культур и интерпретации неполных текстов. Анализ фамилий особенно ценен при изучении древней истории, так как он может пролить свет на происхождение отдельных племен и их связи с другими группами. В более поздние исторические периоды ключевую роль играют географические названия, отражающие расселение народов и взаимодействие между этническими сообществами. Летописи, папские буллы, разрядные и писцовые книги, а также другие документы, имеющие значение как для древней, так и для новой истории, служат бесконечными источниками для ономастических исследований.

Генеалогия (наука, изучающая родственные связи между людьми и историю конкретных семей), сфрагистика (вспомогательная историческая дисциплина, занимающаяся анализом печатей) и нумизматика (наука о древних монетах) имеют тесную связь с ономастикой, так как в документах и надписях, применяемых в этих областях исследования, важную роль играют собственные имена (антропонимы и топонимы). Записи о родословной, генеалогические таблицы и справочники, а также материалы переписей и различные списки (например, сотрудников, выпускников учреждений, дипломатов и награжденных) из разных исторических эпох составляют ценный ресурс для историков и ономастологов.

Результаты и обсуждение. Ономастика и социология. Развитие языка определяется общими психологическими, физиологическими и анатомическими факторами, но единственным переменчивым элементом, который может объяснить его изменения, являются трансформации в социальной структуре. Таким образом, возможность и необходимость языковых изменений исходят из его социальной сущности, что, в свою очередь, влияет на его традиционность и устойчивость.

Онимы, в большей степени, чем апеллятивы, реагируют на разнообразные социальные изменения. Имя всегда является отражением культуры и общественной жизни, вне зависимости от намерений тех, кто его выбирает. В этой связи изучение ономастики содействует выявлению социальных процессов, и она должна занять важное место в социологических исследованиях. Набор имен, применяемых в обществе в определённый период, отражает его «облик».

«Имя, выполняя ряд социальных функций, существует и развивается согласно языковым закономерностям, хотя факторы, способствующие изменению именных систем, имеют социальную природу и выходят за пределы лингвистической области». Даже форма имени, как структурный элемент ономастики, часто подвержена влиянию социальных факторов. Это особенно ярко проявляется на примере названий учреждений, которые уникальны для каждого времени. Антропонимия и топонимия, в свою очередь, обладают большей стабильностью, хотя социальные аспекты также оказывают на них определенное влияние.

Ономастика и география находятся в тесной взаимосвязи, несмотря на различные аспекты их изучения. Исследования географической номенклатуры в области филологии значительно поддерживают географическую науку, поскольку способствуют пониманию этимологии названий, выработке оптимальных стандартов написания собственных имен и предоставляют ценные данные для анализа истории географических знаний. В XX веке в нескольких странах были созданы специальные бюро для транскрипции географических наименований. Вопросам транскрипции было посвящено Международное собрание ономастиков, проведенное в Софии в 1972 году. Взаимосвязь между литературными и диалектными, а также современными и историческими формами географических названий представляет интерес как для филологов, так и для географов. Для филологов сопоставительный анализ различных форм одного и того же названия позволяет выявить языковые закономерности, в то время как географы могут определить «правильный» вариант названия.

Изучение элементов, формирующих топонимы, вызывает значительные ономастические вопросы, представляющие интерес как для географов, так и для филологов. Особое внимание уделяется выявлению наиболее распространённых компонентов – топонимических терминов и морфем. Лингвистическая география занимается исследованием пространственного распределения языковых явлений, относящихся к различным историческим эпохам, а также их перемещения. Она, как и ономастические исследования, направленные на определение ареалов специфических ономастических явлений, способствует более глубокому пониманию исторических процессов, освещая места расселения различных племён. Тем не менее, ономастика углубляет своё исследование благодаря уникальным особенностям имён, их индивидуальности и значительному историческому потенциалу, который они содержат.

Литературные исследователи активно изучают использование собственных имен в произведениях разных авторов. Ономастические исследования имен в художественной литературе могут оказаться полезными не только для специалистов в области литературы, но и для лингвистов. Эволюция антропонимии в литературе представляет собой насыщенный процесс,

который напрямую связан с изменениями в социальных условиях и политических тенденциях. В этом процессе у каждого автора можно заметить изменения в восприятии событий, трансформацию образов и, соответственно, имен персонажей. В некоторых случаях имена в литературных произведениях служат для создания «эзопова языка». Примечательной является проблема совпадения имен в произведениях разных авторов и повторения имен в творчестве одного и того же автора. Например, персонаж по имени Лиза в нескольких произведениях Достоевского подчеркивает идейную связь с «Пиковой дамой» Пушкина.

Перенос сюжетной линии, взятой у другого автора, в новую обстановку и социальный контекст оказывается настолько значительным, что без уточняющей роли собственных имен, как отмечает А.А. Реформатский, это было бы сложно выявить. В результате ономастика, как специализированная область лингвистики, оказывается тесно связана с различными гуманитарными и географическими науками, а также космическими дисциплинами. Эти науки способствуют выявлению особенностей именованных объектов, что подчеркивает важность имен и делает их значимыми для лингвистики, где исследовательские методы помогают в изучении ономастики. В то же время, лингвистика служит вспомогательной практической дисциплиной для историков, географов, литературоведов, археологов и других специалистов, позволяя извлекать из имен информацию, которая не относится к языковым аспектам, например, историческую или географическую.

Исследователи давно подчеркивают важность собственных имен в языке и их отличие от нарицательных. Хотя теоретические попытки объяснить эту разницу имеют давнюю традицию, вопрос остаётся актуальным и в настоящее время. Проблемы возникают уже с термином «имя собственное», который является русским переводом латинского термина *nomen proprium* (сравните с немецким *Eigennamen*, французским *nom propre* и английским *proper name*). Латинский термин, в свою очередь, происходит от греческого *ὀνομα κύριον*. В греческом языке слово *ὀνομα* могло обозначать как собственные, так и нарицательные имена (это отмечают Платон и Аристотель). Греки противопоставляли термин *ὀνομα κύριον* категории *πρῶτον ὄνομα*, относящейся к общим именам. Однако Аристотель и Плутарх применяли этот термин в значении «прозвище», аналогичном латинскому *cognomen*. Стоик Хрисипп, подчеркивая различие между собственными и нарицательными именами, использовал лишь слово *ὀνομα* для первых, в то время как более поздние грамматиканы начали применять термин *ὀνομα κύριον*, подразумевая, что категория *πρῶτον ὄνομα* также относится к классу *ὀνομα*, но с меньшей степенью истинности.

Неопределенность в греческой терминологии и связанных с ней концепциях оказала влияние на последующие европейские грамматиканы, затмевая суть анализируемых явлений. Одной из самых трудных задач стало определение уникальности значения собственных имен. В XIX веке эту проблему рассматривали в большей степени как логическую, чем лингвистическую, что привело к тому, что её изучали преимущественно логики и философы. Заметный вклад в её решение внес знаменитый английский логик Джон Стюарт Милль (1806-1873). Он пришел к заключению, что собственные имена не обладают значением; они представляют собой своего рода ярлыки или метки (аналогичные крестикам), которые помогают идентифицировать и различать объекты. С именем-меткой не связано описание предмета, они не «коннотируют» его, а лишь «денотируют» – указывают на него. Милль высказывал предположение, что «коннотирующие имена появились позже, чем собственные».

Другой английский логик, Х. Джозеф, придерживался иного мнения по сравнению с Миллем, который отвергал семантическое значение собственных имен. Джозеф, напротив, признавал, что у собственных имен есть значение, и даже утверждал, что они обладают большей значимостью, чем нарицательные. Например, в предложении «Паликур за бортом» (спутник Энея) имя предоставляет больше информации, чем фраза «Человек за бортом!». В XX веке концепция собственных имен была продолжена известным английским логиком и философом Бертраном Расселом (1872-1970). Он полагал, что все, что обозначается собственными именами в пространственно-временной реальности, может быть описано с помощью координатной системы, что обеспечивает большую точность и научность. Однако для обычного, в известной степени «примитивного» общения собственные имена более удобны, что и объясняет их распространение

в языке. Рассел также отметил определенное сходство между собственными именами и указательными местоимениями, такими как «то», «это», «этот» и так далее.

Датский лингвист Пауль Кристоферсен высказывал мнение, что ключевое отличие между именами собственными и нарицательными заключается в уровне их абстрактности и конкретности. Собственное имя обозначает конкретного человека напрямую, в то время как нарицательное имя делает это опосредованно. Сначала нарицательное имя указывает на категорию, к которой относится данное лицо, а затем – на саму личность. Важным этапом в изучении имен собственных стал труд английского лингвиста Алана Гардинера под названием «Теория имен собственных», опубликованный в 1954 году.

Согласившись с основным доводом Милля о том, что собственные имена лишены значения, А. Гардинер уточняет и развивает его мысль. Он указывает, что «собственное имя — это слово или сочетание слов, которые предназначены для идентификации, и они выполняют эту функцию или стремятся это сделать исключительно через уникальное звучание (звуковую форму слова), независимо от значения, которое изначально с этим звуком связано или которое приобретает значение посредством ассоциаций с объектом или объектами, которые обозначаются с помощью этого звука».

Анализ Гардинера о «воплощенных» и «развоплощенных» собственных именах представляет собой увлекательную концепцию. Воплощенные, или «телесные», имена ассоциируются с конкретными личностями или географическими объектами (например, Вильям Шекспир или река Темза). Развоплощенные, или «бестелесные», имена рассматриваются вне привязки к конкретным людям или объектам (так, имя Вильям может понимать как общее в категории антропонимов). Дж. Милль утверждал, что «собственное имя не имеет смысла», и это мнение поддерживали такие лингвисты, как В. Брёндаль, Э. Бойссенс, Л. Ельмслев и другие. В свою очередь, современный датский лингвист Кнут Тогебю пришел к выводу, что собственные имена и местоимения не имеют семантической нагрузки, обладая «нулевым корнем», и могут быть рассматриваемы как синонимы. Он считает, что это объясняет, почему один человек может иметь несколько имен, а несколько людей – одно и то же имя (например, тезки и однофамильцы).

Иной взгляд на собственные имена, рассматривающий их как слова с более глубоким смыслом по сравнению с нарицательными, был предложен философами-стоиками в Древней Греции. Эта идея получила поддержку в XIX веке от Х. Джозефа, современника Дж. Ст. Милля. В XX веке её защищали такие ученые, как О. Есперсен и М. Бреаль. Есперсен подчеркивал, что «Милль и его последователи слишком сосредоточились на словарном значении имен и уделяли гораздо меньше внимания их значению в контексте конкретной ситуации, в которой они используются».

Вывод

Подводя основные выводы из этого неполного перечня подходов к именам собственным, стоит отметить, что большинство предложенных теорий были разработаны логиками. Тем не менее, они не располагали достаточным языковым материалом для полноценного анализа, и примеры, на которые они опирались, часто были случайными. С другой стороны, лингвисты, работающие с конкретными языковыми данными, часто не могли абстрагироваться от уникальных характеристик изучаемого языка и его форм, что снижало ценность их теоретических выводов. Например, такие определения имени собственного, как категория, не имеющая артикля в единственном числе (Бертельсен), или рассматриваемое как некий «икс» с формулой, включающей артикль (Сёренсен), показывают, что авторы данных теорий игнорировали языки, в которых артикль отсутствует. Увеличение объема специализированных исследований в области ономастики в XX веке и привлечение нового научного материала подчеркивают необходимость пересмотра общих теорий в этой области.

Заключение. Таким образом, основная задача нарицательного имени заключается в передаче понятия о определённом классе объектов и в наименовании одного или нескольких конкретных представителей этого класса. Напротив, функция собственного имени состоит в идентификации конкретного объекта, ассоциируя его с классом аналогичных или схожих объектов. Для нарицательного слова главную роль играет выражение понятия, а обозначение

предмета является второстепенным. У собственных имен приоритетом является выделение конкретного предмета, а связь с другими схожими объектами идёт на втором плане. Наричательное имя всегда должно передавать понятие и может, но не обязано, указывать на конкретный объект. В отличие от него, собственное имя всегда указывает на конкретный объект, но связь этого объекта с понятием может быть не обязательной.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Begmatov E. A. O'zbekiston nomlari ma'lumotiislari ma'nosi (izoxli lug'at). 14 600 ismlar izoxi.2-nashri. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (lug'at), 2007. – 608 b.
2. Nafasov T. Markayev O'tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv O'zbek etnoantroponimlari //Onomastika O'zbekiston onomastikasi. Sat. Tez. II rep. Ilmiy-amaliy.conf. – Qarshi, 1989. – P.136-140.
3. Никонов В. А. Имя и общество. –М.: Наука. 1974. – 278 с.
4. Суперенская А.В. Фонологическая и морфологическая структура собственных имен. – М.: Наука, 1969. – 360 с.
5. Петровский Н.А. Словарь русских личных имен. –М.: Издательство Советская энциклопедия, 1966. – 206 с.
6. Ермолыч Д.И. Имена собственные между языками и культурами. –М.: Р.Валент, 2001. 146 с.
7. Komiljonovna K. I. Changes in the system of anthroponyms in the Uzbek language at the end of the 20th century-the beginning of the 21st century //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 10. – С. 65-67.
8. 8. Koziyeva I. K. THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF RUSSIAN ANTHROPONYMY //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА. – 2022. – Т. 3. – № 3. – С. 52-62.
9. Kozieva I. ANTHROPONYMY STUDIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 63-65.
10. Koziyeva I. ISSUES OF ANTHROPONYMY IN UZBEK AND RUSSIAN LINGUISTICS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B1. – С. 121-123.
11. Komiljonovna K. I. THE ORIGIN OF PERSONAL NAMES IN RUSSIAN ANTHROPONYMY //Open Access Repository. – 2023. – Т. 9. – №. 3. – С. 277-281.

Babayarov Maxmud Xamitovich,

SamDU mustaqil tadqiqotchisi

(O'zbekiston)

E-mail: maxmudboboyorov60@gmail.com

O'ZBEK SPORT SHARHLOVCHISI AXBOR IMOMXO'JAYEV NUTQINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada futbol sportida o'zining mashhur sharhlari bilan barchaga ma'lum bo'lgan Axbor Imomxo'jayev nutqining lingvistik tahlili xususida so'z yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, Axbor Imomxo'jayev sport sharhlari jarayonida o'zining nutq uslubiyati bilan sharhlovchilik sohasida o'ziga xos maktab yaratdi. Uning nutqidagi sharhlovchilikka xos ifodalar, nutqiy birliklar, gapning sintaktik qurilishiga tilshunoslik nuqtayi nazaridan batafsil yondashildi.

Kalit so'zlar: sport sharhi, Axbor Imomxo'jayev, lingvistik tahlil, nutqiy uslub, sintaktik qolip, ifoda jihati.

Abstract. This article discusses the linguistic analysis of the speech of Akhbor Imomkhozayev, who is known to everyone for his famous comments in football. It should be noted that Akhbor Imomkhozayev created a unique school in the field of commentary with his style of speech in the process of sports commentary. Expressions characteristic of interpretation in his speech, speech units, syntactic structure of the sentence were approached in detail from the point of view of linguistics.


Key words: sports commentary, Akhbor Imomkhozayev, linguistic analysis, speech style, syntactic pattern, aspect of expression.

Аннотация. В данной статье рассматривается лингвистический анализ выступления Ахбора Имомходжаева, известного всем своими знаменитыми комментариями в футболе. Следует отметить, что Ахбор Имомходжаев своим стилем речи в процессе спортивного комментирования создал уникальную школу в области комментирования. С точки зрения языкознания подробно рассмотрены характерные для перевода выражения в его речи, речевые единицы, синтаксический строй предложения.


Ключевые слова: спортивный комментатор, Ахбор Имомхожаев, лингвистический анализ, стиль речи, синтаксический образец, аспект выражения.

Kirish. Sport sohasida sharhlovchilik o'ziga xos tajriba va malakani talab qiladi, sababi, jurnalist tomonidan olib borilgan sharh butun jamoat tomonidan tinglanib, ularning sport jarayoni haqida batafsil ma'lumot olishlariga yordam beradi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita o'zbek futbol sharhlovchisi Axbor Imomxo'jayev sharhlarining lingvistik tahlili xususida bo'lib, unda sharhlovchining o'z nutqida qaysi jihatlarga e'tibor berganligi maqolamiz davomida batafsil aks ettiriladi.

Asosiy qism. Axbor Imomxo'jayev – mashhur o'zbek sport sharhlovchisi, respublika miqyosidagi futbol hakami. O'zbek futbol sharhlovchiligida o'ziga xos maktabni yarata olgan sharhlovchi. Bundan tashqari, Axbor Imomxo'jayev futbol sohasiga oid qator kitoblarni ham yaratgan muallif sanaladi. “*Futbol – quvonchim, dardim, faxrim*”, “*Maftuningman, futbol*”, “*Asr futboldagi asl qadrdonlarim*” [9] kabilar shular jumlasidandir. Axbor Imomxo'jayev o'z sharhlariga alohida e'tibor qaratgan hamda ularning ustida birma-bir ishlagan. “*Futbol – bu sirk emas*” [11] deya alohida ta'kidlagan muallif futbol sharhlari borasida ham o'ziga xos taktikaga ega. Axbor Imomxo'jayev sharhlariga e'tibor beradigan bo'lsak, sharhlovchi o'z sharhlarini quyidagi tartibda boshlaganligiga guvoh bo'lamiz:




Futbol – millionlar o‘yini sanalib, uning sharhi sportning boy madaniyati va an‘analarini aks ettiradi. Futbol sharhining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, o‘yinning qay tarzda borishi va oqimini hikoya qilishda tomoshabinlarni jalb qilish san‘ati haqidagi barcha tushunchalarni ochib beradi. Futbol sharhida tanlangan uslubiyatga e‘tibor berish nihoyatda muhim omil sanaladi, sababi, birgina xato jamoatchilikning noroziligiga sabab bo‘ladi. Futbol sharhining o‘ziga xos leksik qatlami mavjud bo‘lib, unda qo‘llanadigan so‘zlarni ma‘lum ma‘noda quyidagicha guruhlashtirish mumkin:



Natijalar va muhokama. Sharhlovchilar harakatni ifodalovchi fe‘llar bilan, ko‘pincha, hozirgi zamonda, harakatning tezkorligini ta‘kidlab, yorqin ifodalarni aks ettirishadi. Masalan, “Hujumchi himoyachini aldab o‘tib, darvoza sari yugurmoqda”. Ushbu sintaktik butunlikdagi “yugurmoqda” fe‘li hozirgi zamon fe‘li hisoblanib, uning futbol jarayonida qo‘llanishi futbol o‘yining shukuhini tomoshabinlarga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Axbor Imomxo‘jayev nutqida ham ushbu holat yaqqol aks etib, futbol jarayonining jonli muhitini aks ettirish uchun hozirgi zamon fe‘llaridan unumli foydalangan. Bundan tashqari, futbolchi yoki hakamlarning tarjimai holini ifodalashda o‘tgan zamon fe‘llariga ham batafsil murojaat qilgan.

Bundan tashqari, ko‘chma ma‘noli so‘zlar futbol sharhlovchilari nutqining asosiy qismini tashkil etadi. Xususan, metafora, o‘xshatish kabi ko‘chma ma‘noli so‘zlar o‘yin sharhining ajralmas qismidir. “Hujumchi himoya darvozasini yorib o‘tib, o‘zining shiddatli zarbasini darvoza tomon yo‘lladi” sharhida “himoya darvozasini yorib o‘tmoq”, “shiddatli zarba” kabi birliklar ko‘chma ma‘noli birliklar hisoblanadi.

Futbol sharhida futbol o‘yiniga xos ixtisoslashgan terminologiya mavjud, ushbu terminologiyani jarayonga mos holda qo‘llash futbol sharhlovchisidan ushbu o‘yin qoidalari bilan batafsil tanishish imkonini beradi. “Burchak zarbasi”, “sariq kartochka”, “qizil kartochka”, “hujum” kabi ifodalar shular jumlasidandir. Futbolga oid terminologiyani bevosita ikki guruhga ajratish mumkin:



Sodda termin

Murakkab
termin

Sodda termin bir asosdan tashkil topadi: hujum, zarba, gol va hokazo. Murakkab terminlar esa ikki va undan ortiq birliklarning birikuvidan iborat: burchak zarbasi, himoya chizig'i, qizil kartochka. Ushbu murakkab birliklar bir necha so'zdan tashkil topgan bo'lsa-da, biroq futbol jarayoniga xos yagona holatni ifodalashda qo'llanadi. Axbor Imomxo'jayev futbolga xos ixtisoslashgan leksikadan to'g'ri foydalanishga chaqiradi va quyidagi fikrlarni ilgari suradi: *"Jarima to'pi... Bu nima, buning egasi qani, kesimi qani, undan ko'ra "Hozir falon komanda jarima to'pini tepadi" deyish mumkin-ku, yo'q "Jarima to'pini tepadi". Burchak to'pi... Nima u burchak to'pi? Shuning uchun ham bizda yarq etib chiqayotgan sharhlovchini ko'rmayapman..."*[8]

Bundan tashqari, madaniy qatlamga oid so'zlar ham futbol sharhining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, barcha uchun ma'lum bo'lgan "gol" leksikasi ayrim hududlarda "hisob" so'zi bilan muqobillik hosil qiladi (Amerika-Britaniya futbol sharhiga ko'ra). Ushbu holat Axbor Imomxo'jayev nutqida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Asl ma'nosiga ko'ra "buyruq" mazmunini ifodalovchi "komanda" birligi sharhlovchining nutqida, asosan, futbol jamoalariga nisbatan qo'llangan.

Futbol sharhlar jarayonida sintaktik qoliplardan jarayonga mos holatda foydalanish futbol haqida tomoshabinlarga keng tushuncha berishga ko'maklashadi. Vaziyatga mos hamda tezkorlikni aks ettiruvchi jumlar sharhlovchilar tomonidan, asosan, qisqa tuziladi. Bundan tashqari, to'liq bo'lmagan jumlar, ko'pincha, asosiy daqiqalarni ajratib ko'rsatish va kutishni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Masalan, "burchak to'pi", "jarima zarbasi" va hokazo. Biroq sharhlovchi Axbor Imomxo'jayevning fikriga ko'ra, futbol sharhida qisqa jumalarni emas, balki to'liq jumalarni qo'llash tomoshabinlarga futbol jarayoni haqida batafsil ma'lumotni yetkazib berishda asosiy ahamiyat kasb etadi: *"Jarima to'pi... Bu nima, buning egasi qani, kesimi qani, undan ko'ra "Hozir falon komanda jarima to'pini tepadi yoki to'p yonida Komarovskiy" [9].* Futbol sharhida asosiy voqealarga urg'u berish maqsadida asosiy iboralarni yoki ismlarni takrorlash ham sintaktik qoliplardan biri sanaladi. Bunda Axbor Imomxo'jayevning futbol o'yini jarayonida to'p qaysi o'yinchida bo'lsa, shu ismni qayta takrorlashi yoki hakam birligini o'yin sharhida tez-tez ishlatishi futbol jarayoniga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Futbol o'yinining sharhi davomida prosodika alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, to'g'ri qo'yilgan urg'u sharhning qizg'in ekanligidan dalolat beradi. Sharhlovchilar o'yinning hayajonini aks ettirish, tanqidiy daqiqalar va o'yinchining his-tuyg'ularini ta'kidlash uchun intonatsiya va balandlikdagi dramatik o'zgarishlardan foydalanadilar. Nutq tezligi harakatning intensivligiga qarab o'zgaradi. Ovoz balandligi va urg'u o'yindagi asosiy voqealar, o'yinchi ismlari va dramatik burilishlarni ta'kidlash uchun mo'ljallangan. Ismi qayd etilgan sharhlovchi o'z xotiralarida futbol sharhi davomida kishi nomlariga to'g'ri urg'u qo'ya bilishni alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, arman ismlarining murakkab ekanligi, ularning ko'pchiligi -yan qo'shimchasi bilan tugashi evaziga sharh jarayonida ismlarni to'liq talaffuz qilishga erishish lozimligini qayd etadi.

Futbol sharhi bevosita og'zaki tarzda amalga oshirilganligi uchun uning o'ziga xos pragmatik xususiyatlari ham borligini alohida ta'kidlab o'tish o'rindir. Uning pragmatik funksiyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ma'lumot uzatish

Jarayon tahlili va izohi

Muxlislarni jalb qila olish taktikasi

Hikoya qurilishi

1. Ma'lumot yetkazib berish – sharhlovchilar o'yin uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadilar: ochkolar, o'yinchilarni almashtirish, hakam qarorlari va taktik strategiyalar.

2. Tahlil va talqin: Ular o'yinchilarning o'yinini, jamoa taktikasini va o'yinning muhim daqiqalarini tahlil qiluvchi ekspert sharhlarini taklif qiladi.

3. Hissiy jalb qilish: Sharhlovchilar tomoshabinlarni hayajon va hatto umidsizlikni keltirib chiqarib, hissiy jihatdan jalb qilishga intiladi.

4. Hikoya qurilishi: Ular o'yin uchun muhim lahzalar, burilish nuqtalari va dramatik hikoyalarni ta'kidlab, jozibali sharhlarni yaratadilar.

Axbor Imomxo'jayev ham bevosita sharh jarayoniga urg'u berar ekan, sharhlashning ham o'ziga xos mashaqqati borligi, bugungi kunda yetuk sharhlovchilar yetishib chiqmayotganligidan ranjyotganligini, o'zining sharhlovchilikka yetib kelish jarayoni xususida so'z yuritar ekan, buning uchun radiosharhlovchilik maktabini bosib o'tganligini, sharhlash jarayoni uchun puxta tayyorlanib, futbolchilar ismini muxlislarga yetkazishda talaffuzga alohida e'tibor berish lozimligini qayd etib o'tadi [6]. Futbol sharhining lingvistik xususiyatlariga alohida to'xtalar ekanmiz, uning madaniy kontekstda qay tarzda namoyon bo'lishini aniqlash ham lingvistik tahlilning ajralmas qismi ekanligini alohida aytib o'tishimiz lozim. Futbol sharhi davomida futbolning milliy koloritni aks ettirishi orqali sharhlovchilar, ko'pincha, o'z tomoshabinlarining madaniy qadriyatlarini va sport an'analarini aks ettirib, sharhlash tili va uslubini shakllantiradilar. Bundan tashqari, tarixiy kontekst ham sharhlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'yin tarixi, uning madaniy ahamiyati, tadrijiy taraqqiyoti shular jumlasidandir. Dunyo bo'ylab turli futbol madaniyatlarini o'ziga xos lingvistik farqlarga va sharh uslublariga ega.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, futbol sharhi murakkab va dinamik san'at turidir. Sharhlovchilar nutqining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, biz ushbu sevimli sport turi bo'yicha tajribamizni yaratish, shakllantirish va ta'sir qilish uchun tilning ko'p qirrali usullarini aniqlashimiz mumkin. Ushbu farqlarni tushunish futbol sharhlash san'ati va o'yinni qanday idrok etishimiz, uni qanday qabul qilishimizni shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. "Пахтакор" поздравляет Ахбора Имомходжаева с 82-летием" (ru).
2. "Гордость узбекского футбола Ахбор Имамходжаев отмечает своё 86 летие!" (ru). O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi.
3. "Имамходжаев, Ахбор Рустамович" (ru). Спорт-страна.ру.
4. "Михаил Ан"(ru). Mytashkent.uz.
5. "Скончался Ахбор Имомходжаев" (ru). Kun.uz.
6. "Скончался Ахбор Имомходжаев" (ru). Кун.уз.
7. "Чтобы писать о спорте, диплом иметь не обязательно" (ru). Kzgazeta.ru
8. www.Youtub.com
9. www.wikipedia.org
10. www.google.com
11. www.sport.uz

RETRO**БЕНАЗИР УСТОЗИМИЗДАН ТУХФА**

Филология фанлари доктори, профессор, бутун илмий ижодий фаолиятини Бухоро давлат университети билан боғлаган Саиджон Алиев тийрак нигоҳли адабиётшунос бўлиши баробарида манбашунос, араб ёзувидаги қўлёмаларнинг тубига етиш имкониятига қодир заршунос ҳам эди. Устоз умрининг охириги йилларида Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асари матни устида жиддий ишлаб, унинг мазмунини ўзбек тилида қайта баён қилишга киришган эдилар. Фирдавсий руҳини шод этиб, китобсевар ёшларга энгиллик яратиш устознинг холис ниятлари эди. С.Алиев ўқувчилар буюк асар билан тўлиқ танишиши, бебаҳо маънавий меросдан баҳра олиши лозимлигини жуда истаган эдилар. Афсуски, асарнинг ўзбекча баённи нашр эттириш улуг олимга насиб этмади. Уни нашр эттириб, китоб ҳолида ўқувчиларга тақдим этиш келгусидаги қилинажак хайрли ишларимиздан бўлиб қолади. Ҳозир эса Сиз, азиз китобхонга устознинг ўзбекча баёни асосидаги буюк “Шоҳнома”нинг бир фаслини тақдим этмоқдамиз. Бунинг учун журнал таҳририятига ўз миннатдорчилигимизни билдирамыз.

Нашрга тайёрловчи: ф.ф.д, профессор Шоира Нематовна Ахмедова

СЎЗБОШИ

Шарқнинг буюк инсонпарвар мутафаккир шоири Абулқосим ФИРДАВСИЙ (яшаган даври милодий 940-1026 йиллар)нинг улуг “Шоҳнома”си жаҳон халқлари узоқ асрлар давомида яратилган маънавий-бадий меросларнинг энг гўзалларидан биридир. “Маҳобҳорат”, “Рамаяна”, “Илиада”, “Одиссея”, “Гўрўғли”, “Алпомиш”, “Иля Муромец” каби буюк асарлар қаторида “Шоҳнома” ўзига хос фахрий ўринга эга. Бу асарлардаги инсонпарварлик, адолатпарварлик, ватанпарварлик, қаҳрамонлик, муҳаббат ва дўстлик ғоялари барча асарларда кишиларни ўзига мафтун қилиб, уларнинг маънавий ва эстетик тарбиясида муҳим роль ўйнаб келмоқда.

Маълумки, “Шоҳнома”нинг танқидий (илмий) матнини бир гуруҳ шарқшунослар оригинал (форс-тожик) тилида босмага тайёрладилар. Уни Москвадаги “Наука” нашриёти 1966-71 йилларда тўққиз жилддан иборат қилиб нашр қилди. Шу нашр асосида бир гуруҳ ўзбек олимлари ва шоирлари “Шоҳнома”ни қисқартириб – уч жилддан иборат қилиб шеърый шаклда ўзбек тилига таржима қилишди. Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1975-77 йилларда Тошкентда уни босмадан чиқарди.

Москва нашри арабча ҳарфлар билан босилганлиги ва уни ҳамма кутубхоналардан топиш осон бўлмаганлигидан ҳозирги замон ёш китобхонлари топиб ўқиш имкониятига эга эмаслар. Топилган тақдирда ҳам уни ёш китобхонлар яхши тушунадилар деб бўлмайди. Шунинг учун бу йирик асарнинг мазмунини ўзбек тилига ўгириб, насрий йўл билан баён қилишга эҳтиёж катта деб ўйлаб, бу ишни амалга оширишга интилдик.

Китобхонлар оригиналдан ҳам хабардор бўлсинлар деб Фирдавсий ёзган матннинг танқидий нусхасидан байтлар келтириб, ўзбекча насрий таржимасини шу нашрга илова қилинган “Қайдлар”га киритдик. Айрим форсча ва арабча сўзларга матннинг ўзида кавс ичида таржимасини бердик.

Баёнчи: Саиджон Алиев

1999 йил

КИТОБ БОШИ

Буюк шоир ва мутафаккир Абулқосим Фирдавсий “Китоб оғози” (Китоб боши) сарлавҳаси остида ўз достонини Худо ҳамди (мақтови) билан бошлайди:

1 \ 12

*Ба номи худованди чону хирад,
К-азин бартар андеша бар нагзарад.
Худованд ному Худованд чой,
Худованд рўзи деҳи раҳнамой.*

*Худованди кайҳону гардон сипехр,
Фурӯзандаи Моҳи Нохиду Меҳр.*

Таржимаси: Жон ва ақл эгаси Оллоҳ номи билан арз қиламанки, бундан юқори андиша бўлмас. Худованд ному Худованд жой, Худованд ризқ-рўзи берадиган ва йўл кўрсатувчидир, жаҳон ва айланувчи олам Эгаси, Нохид юлдузи (Зухра сайёраси), Қуёш ва Ойни ёритувчи Худованддир.

Шоир инсон учун дониш (билим)нинг аҳамиятини алоҳида таъкидлайди:

1\13 *Тавоно бувад ҳар ки доно бувад,
Зи дониш дили тир барно бувад.*

Таржимаси: Ҳар ким доно бўлса, кучли бўлади, билимдон кексанинг кўнгли ёш бўлади.

АҚЛ ТАЪРИФИ

Достон муаллифи “Ситоиши хирад” (“Ақл таърифи”) бобида инсон учун энг зарур омил ақл эканлигини уқтиради:

1/13 *Хирад раҳнамо-ю хирад дилгушой,
Хирад даст ги рад ба ҳар ду сарой.
Аз-ў шодмони в- азўят гамист,
В- азўят фузуни в-азўят камист.*

Таржимаси: Хирад (ақл) – йўл кўрсатувчи, ақл ҳар икки оламда (бу дунё ва у дунёда) – кўлингни тутувчи. Ундан шодлигинг, ундан ғамгинлигинг: ундан етуқлигинг, ундан камчилигинг...

Ахлоқ-одоб донишманди шоир ҳар бир кишининг уч кўрикчиси бўлади, дейди. Булар – кўз, кулоқ ва тил:

1\14 *Сипоси ту чашмасту гўшу забон
К – азин се расад неку бад бе гумон.*

Таржимаси: Сенинг кўрикчинг кўз, кулоқ ва тил шубҳасиз шу уччаласидан сенга яхшилик ва ёмонлик келади.

ОЛАМНИНГ ЯРАТИЛИШИ ҲАҚИДА СЎЗ

“Гуфтор андар офариниши олам” (“Оламнинг яратилиши ҳақида сўз”) бобида шоир ўз замонасидаги фалсафий қарашларга суянган ҳолда Худо оламни тўрт унсур (олам, сув, шамол, тупроқ) дан яратган деган ақидани баён қилади.

ОДАМНИНГ ЯРАТИЛИШИ ҲАҚИДА СЎЗ

“Гуфтор андар ситойиши мардум” (Одамларнинг яратилиши ҳақида сўз”) бобида Худо оламни яратганидан сўнг (“Фитрат пасин”) одамларни яратди, дейди.

Шундан кейин шоир Қуёш, Ой таърифини беради. Сўнгра Пайғамбар (с.а.в.) ва унинг саҳобалари – чорёр (Абу Бакр, Умар, Усмон ва Али) сано(мақтов)ларини баён қилади.

КИТОБНИНГ ЯРАТИЛИШИ

“Гуфтор андар фароҳам овардани китоб” (“Китобнинг яратилиши ҳақида сўз”) бобида Фирдавсий ўзигача етиб келган ва мўбадлар (саводли мулалар) кўлида юрган ёзма ёдгорликлар, оғзаки айтилиб юрган ривоят ва афсоналарони ёзиб ёдгорлик қолдирмоқ мақсадида бу номани ёзганлигини билдиради:

*К- азин номвар номаи шахриёр,
Ба гети бимонам яке ёдгор.
Ту инро дурўғу фасона мадон,
Ба ранги фусуни баҳона мадон.*

Таржимаси: Ўтган шахриёрлар (подшоҳлар) ҳақидаги машҳур китоб асосида дунёда бир ёдгорлик қолдирмоқчиман. Сен (китобхон), буни ёлғон ёки афсона деб ўйлама, афсун ёки баҳона деб ҳисоблама.

Фирдавсийнинг эслатишича, шаҳарларида бир деҳқон бўлиб, аждодлар ишини тарихда қолдириш мақсадида мўбадлар кўлларидаги ёзма парчаларни йиғди ва уларни тартибга солишни истади.

ШОИР ДАҚИҚИЙ ДОСТОНИ

“Достони Дақиқий шоир” (“Шоир Дақиқий достони”) бобида Фирдавсий шу йиғилган парчалар асосида ўтган-кетганлар достонини яратишга аҳд қилган шоир Дақиқий эди, дейди:

1|22 *Жоване биёмад қушода забон
Сухан гуфтани хубу таъби равон.
Ба шеър орам им номаро гуфт ман,
3- ў шодмон шуд дили анжуман.*

Таржимаси: Дили очик бир йигит майдонга келди, унинг тили очик эди. Бу номани шеър билан ёзиб чиқай, деди. Бу хабарлардан кишиларнинг кўнгли равшан бўлди.

У анча нарсани ёзди. Бироқ феълда бир нуқсон бор эди, ўша нуқсон сабабли (гап ичкилик ҳақида боради. – С.А.) ёш йигитнинг умри завол топди (Дақиқийни бир ичкилик даврасида биров ханжар билан уриб ўлдиради) ва достонни ёзиш чала қолади.

КИТОБНИ БОШЛАШ

Мен бу достонни ёзишга аҳд қилдим, – деб ёзади Фирдавсий. Тахтда ўлтирганга учрашиб, шу ишни менга топширишни сўрадим.

1|22 *Дили равшани ман чу баргаит аз-ўй,
Сўйи тахти шоҳи жаҳон кард рўй.
Ки ин номаро даст пеш оварам,
Зи дафтар ба гуфори хеш оварам.*

Таржимаси: Менинг равшан кўнглим унинг (Дақиқийнинг) ҳалокатидан ларзага келди ва жаҳон шоҳи томон юз ўгирди. Бу достонни ёзишни мен бўйнимга олсам, олижаноб ниятни амалга оширсам деб ўйладим.

Шу билан бирга, яна шундай фикрлар мени безовта қилар эди: умрим етмаса-чи, яна бошқа одамга топширишга тўғри келмасмикан? Шундай андиша билан анча вақт ўтди. Бунинг устига дунё тинч эмас эди.

Шундай пайтда шахримда бир донишманд дўстим бор эди, у менга: сен ёшсан, истеъдодинг бор, шу достонни сен ёз, у ёзувларни мен сенга топиб бераман, деди.

Фирдавсийнинг бу дўсти унга бир нома (ёзма тарих ва эсдаликлар бўлса керак. – С.А.) берди: сенинг турмушингдан (емиш ва кийимингдан) хабардор бўлиб тураман, деди. У номани “Достони Абу Мансур” дер эканлар.

СУЛТОН МАҲМУД МАҚТОВИ

“Ситоиши Султон Маҳмуд” (“Султон Маҳмуд мақтови”) бобида Фирдавсий “Шоҳнома” ёзилган даврдаги подшоҳ Султон Маҳмуд Ғазнавий (лақаби ёки кунияси)ни Рум, Ҳинд, Эрон ва Турон подшоси сифатида мақтайди, уни тушида кўриб одамлардан бу ким деб сўраганида улар шоирга :

1|26 *Биёрост рўи заминро ба дод,
Бипардўхт азон то барсар ниҳод.
...Ту низ офарин кун ки гўяндаи,
Ба-ду номи човид жўяндаи, –*

Таржимаси: Ер юзини дод (адолат) билан безади, ундан (адорлатдан) тож ясаб бошига кўйдилар... Сен ҳам шоирсан-ку, унга офарин дегин.

Деб жавоб беришади. Шоир уйғониб шундай хайрли туш кўрганидан хурсанд бўлади. Эронда ҳамма яхшилди унинг адолатидан. Ҳамма жойда мардумлар уни ёдлайдилар деб унга катта умид билан қарайди.

Шундан кейин қадимий достонларни куйлашга ўтади.

КАЮМАРС

Кишиларнинг ва менга бу достонни айтган деҳқоннинг сўзларига кўра, – деб ёзади Фирдавсий, биринчи тож кийган подшо кимлигини кишилар эслаёлмайдилар. Айрим кишиларнинг ривоят қилишича, шундай киши Каюмарс бўлган.

Каюмарс паланг терисини кийган эди. У тоғлик жойни ўзининг маскани қилди. Барча кишилар ва йиртқич ҳайвонлар унга таъзим қилишарди, унинг Сиёмак исми ўғли бор эди.

Ахриман дев унга душман эди. Ахриманнинг қора боласи бор эди. Ахриман боласи билан Каюмарс даргоҳига йўл топиб, унга зарар етказиш фикрида эди. Буни эшитган Сиёмак Ахриманнинг боласи Қора дев билан курашга киришди, бироқ, девлар Сиёмакни ҳалок қилишди. Буни эшитиб Каюмарс қўшин йиғиб, паланг терисини орқасига ёпиниб, Ахриманга қарши борди. У вақтда ҳали баданни темир жавшанлар билан қоплаш йўқ эди.

Сиёмакнинг ўғли бор эди, исми Ҳушанг. Бобоси уни яхши кўрар ва саркарда бўлишини орзу қилиб тарбия қилар эди. Боб (Каюмарс) ва набера Ҳушанг барча йирткич ҳайвонларни йиғиб лашкар тузишди, уларга Ҳушангни саркарда қилиб тайинлади. Булар девларга қарши жанг қилиб, уларни енгишди. Шундан сўнг Каюмарс вафот қилди, тахтга набераси Ҳушанг чиқиб, ота ва бобосининг ишини давом қилдирди.

ҲУШАНГ

Ҳушанг бобоси тахтига ўлтириб, 40 йил ҳукм сурди. Ҳушанг темир қазош ва ундан фойдаланишни бошлаб берди.

Бир куни Ҳушанг ўз одамлари билан тоғдан ўтар эди, узокдан кўзларидан ўт чакнайдиган йирик илон кўринди. Ҳушанг катта тошни олиб отди, илон ўлмай қочди, бироқ тош-тошга тегишидан ўт чикди. Ҳушанг бу оташни Худо берган неъмат деб англаб, уни қибла томонга қўйди, кечаси келиб, олов атрофини ўраб олиб, шу ўтни берган Худога миннатдорлик билдирди, барчани бунга сажда қилишга ундади, шу муносабат билан Сада (юзлик, юз кунлик охири) байрамини бошлаб берди. Ҳушангдан ҳар йили шу Сада байрамини нишонлаш одат бўлиб қолди.

Ҳушанг темирчилик касбини бошлаб берди, арра ва теша ясади. Бу ишни йўлга қўйгач. Ариқ қазош ва сув келтиришга, экин экишга ўтди. Кишилар меҳнат қилиб, ўз нонларини ейдиган бўлишди.

Ҳушанг турли ҳайвонлардан ҳўкиз, эшак ва қўйни ажратиб олиб боқишга киришди. Моллардан терини олиб кишиларга кийим кийдирди. Яхшилик билан оламдан кўз юмди.

ТАҲМУРАС

Ҳушангдан кейин тахтга ўлтирган Таҳмурас кўп яхши одатларни жорий қилди. У қўйлар жунини қирқиш ва улардан кийимлар қилишни кишиларга ўргатди. Боз (қарчиғай) ва шоҳин (ов қуши, лочин) каби қушларни қўлга ўргатди. Бу шоҳни Таҳмураси девбанд дер эдилар, у девлар билан курашиб, одамларни улардан муҳофиза қилар эди. У Худони тез-тез эслаб турар эди. Кечки (хуфтон) намози ва рўзани у жорий қилди.

Таҳмурас девларга қарши курашди – айримларини афсун билан банд қилди, айримларини ўлдирмоқчи бўлди. Улар Таҳмурасга ялиниб, бизни ўлдирма, бизлардан анча яширин ишларни ўрганасан, дейишди. Девлар Таҳмурасга ёзувни (алифбо)ни ўргатишди. Бу ёзувлар румча, тозий (арабча), порсий, суғдий, чиний (хитойи) ва паҳлавий эди.

Шундан кейин у вафот қилди.

(Давоми кейинги сонларда)

Sahifa filologiya fanlari doktori, professor Shoira Axmedova tomonidan tayyorlandi.

QUTLOV**DAVLAT MUKOFOTI MUBORAK, ZAMONDOSH!**

Buxoro davlat universiteti jamoasida o'zining mehnati, talabchanligi, kattalarga hurmati-yu shogirdlarga izzati bilan tanilgan, tinib-tinchimas olim, tajribali pedagog Abuzalova Mehriniso Qodirovnani ko'pchilik taniydi, biladi va ehtirom etadi. Mehriniso Qodirovna o'z taqdirini ilm yo'liga bog'lagan, yoshlikdanoq qalbiga ilm nuri ingan, bugun uning tafakkur chirog'I atrofga ziyo taratayotgan saodatmand olimlardan biri hisoblanadi.

Mehriniso Abuzalova 1967-yil 23-fevralda Buxoro shahrida ishchi oilasida tavallud topdi. Bo'lajak olim, chetdan qaraganda oddiy ishchi oilasida tarbiya topgandek ko'rinsa-da, uning otasi Qodir aka hamda onasi Rimma opalar kitobxon, kitobni non bilan barobar ko'rgan, ilmni, ilmi kishilarni nihoyatda qadrlagan insonlar edilar. Shu boisdan ham farzandlarining o'qishlariga juda katta e'tibor qaratganlar. Mehriniso Abuzalova ana shunday kitobxon oilada, kitobni boshlaridan baland tutganlar tarbiyasida kamol topdi. Ta'kidlash joizki, uning keyinchalik olim bo'lib elga tanilishida oiladagi ana shunday toza muhit, kitobga, kitobxonlikka bo'lgan intilish, mehr sabab bo'ldi.

Mehriniso Abuzalova 1994-yilning 23-dekabrida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti huzuridagi D 015.31.21.– raqamli Ixtisoslashgan kengashda "O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu yosh olimning o'z ishiga katta mas'uliyat bilan yondashishi natijasi bo'lib, uning nomzodlik ishi mohiyatan o'zbek tilshunosligida keskin burilish yasay oldi. Jonkuyar olim 1994-2004-yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, 2004-2005-yillarda shu kafedra dotsenti, 2005-2007-yillarda kafedra mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi. O'tgan yillar davomida u butun jamoada o'z kasbiga sadoqatli pedagog, tinib-tinchimas olim, fidoyi va qat'iy intizomli hamkasb, ajoyib g'amxo'r rahbar sifatida e'tibor qozondi.

Bu davrda olimning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) tomonidan tasdiqlangan 2ta darsligi (hammualliflikda) va 1ta elektron darsligi (hammualliflikda), 5ta o'quv qo'llanmasi (hammualliflikda), 8ta usuliy qo'llanmasi nashr bo'ldi hamda oliy ta'limning filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabalari ta'limiga tatbiq etildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) tavsiyasi bilan nashr qilingan (hammualliflikdagi) "Hozirgi o'zbek tili" darsligi 2007-yilda hamda 2011-yilda "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" Respublika tanlovida faxrli ikkinchi o'rin bilan mukofotlandi.

Olimning o'quv-usuliy va ilmiy izlanishlari e'tiborga olinib, 2011-yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Faxriy yorlig'i" hamda esdalik sovg'asi bilan mukofotlandi.

Ilmda sermahsul olim 2018-yilning 27-iyunida yana bir muvaffaqiyat dovonidan mardona oshdi: Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.27.06.2017.Fil.02.03.– raqamli Ixtisoslashgan kengashda filologiya fanlari doktori, professor Ra'no Raupovna Sayfullayeva ilmiy maslahatchiligida "Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, o‘zining yorqin iste’dodi, ko‘p qirrali ijodiy, ilmiy-amaliy faoliyati bilan xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim sohasini rivojlantirish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun Buxoro davlat universitetining o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori Abuzalova Mehriniso Qodirovna II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

Muhtaram ustoz-murabbiy, talabchan pedagog, til bilimdoni, zahmatkash, sarmahsul olim Abuzalova Mehriniso Qodirovnani davlatimiz tomonidan berilgan faxriy unvon bilan chin dildan qutlaymiz. Ustozga uzoq umr, mustahkam sog‘lik, shogirdlar va farzandlar kamolini ko‘rib yurish baxtini tilaymiz.

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor Dilorom Yuldasheva

PROFESSOR BOBOKALONOV RAMAZON RAJABOVICH – 65 YOSHDA !



Bobokalonov Ramazon Rajabovich 1981-yilda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutining fransuz tili fakultetini va 1994-yilda Toshkent Davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetini tugatgan.

Bo‘lajak olim mehnat faoliyatini Vobkent tumanidagi 14-maktabda o‘qituvchi vazifasidan boshlab, 30-maktab direktori, Vobkent tuman XTB metodisti vazifalarida samarali faoliyat ko‘rsatdi. U nafaqat tumanda, balki viloyatda fransuz tili ta’limini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi. Ilmga bo‘lgan kuchli ishtiyoq R.Bobokalonovni Buxoro davlat universitetiga yetakladi. 1994-yildan boshlab, uning ilmiy-ijodiy faoliyati shu qutlug‘ dargoh bilan chambarchas bog‘landi. U nafaqat respublikamizda, balki xorijda ham tanilgan tilshunos olim, professor Hamid Ne‘matov ilmiy rahbarligida sistem tilshunoslik yo‘nalishida o‘zbek tili sintaksi bo‘yicha tadqiqot olib bordi. Samarali ko‘p yillik mehnat natijasida R.Bobokalonov 2000-yilda “O‘zbek tilida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar” (10.02.02 – Milliy tillar, o‘zbek tili) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi.

Tilshunos olim Buxoro davlat universitetida oddiy o‘qituvchilikdan professorlikkacha bo‘lgan sharaflari yo‘lni muvaffaqiyatli bosib o‘tdi. Qator yillar fransuz filologiyasi kafedrasida mudiri, Filologik markaz tizimida o‘zbek tili va adabiyoti bolim boshlig‘i, filologiya fakulteti dekan o‘rinbosari, xorijiy tillar fakulteti, keyinchalik filologiya fakulteti dekani vazifalarida mas’uliyat bilan ishladi va jamoaning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘ldi. 2006-yilda roman filologiyasi yo‘shalishi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘ldi.

2006-2007-o‘quv yilida respublika “Iste’dod” jamg‘armasi grantini qo‘lga kiritdi. Ish faoliyati davomida uning rahbarligida ko‘plab iqtidorli talabalar respublika fan olimpiadalari va fransuz tili bo‘yicha “Frankofoniya bayrami” ko‘rik konkurslarida sovrinli o‘rinlarni egallagan.

R.Bobokalonov 2023-yilda respublikamizda tanilgan yetuk tilshunos olim R.Sayfullayeva ilmiy maslahatchiligida “O‘zbekcha-frantsuzcha semantik-funksional shakllangan gaplarning differentsiatsiyasi va kommunikativ neyropsixolingvistik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga erishdi.

R.Bobokalonov nashir sifatida Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahri «Irfon» nashriyatida “Devoni Xo‘ja Ismat Buxoroī” to‘plamini, etnograf sifatida «Vobkent – Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida», «Taqdirnoma», «Sirinqishloq hangomalari», «Mon doux Village», «My sweet Village» kitoblarini, filolog sifatida «Xoja Ismat Buxoriy badiiy ijodi», «Xoja Ismat Buxoriy falsafiy-nassavufiy qarashlari», «Nafsga qarshi isyon», «Til, milliy ruh va ma‘naviyat» kabi qator kitoblarini respublika va xorij nashriyotlarida turli tillarda chop etdi.

Olimning hozirga qadar 8 ta monografiyasi, 110 dan ortiq ilmiy maqola va 35 ta o‘quv-usuliy qo‘llanmalari nashr qilingan. Bir qator tadqiqotchilar ustoz rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Tajribali murabbiy, taniqli olim so‘nggi yillarda o‘zbek neyropsixolingvistikasi sohasiga fundamental tadqiqotlar yaratmoqda. Uning bu yo‘nalishdagi ishlari o‘zbek, rus, fransuz va ingliz tillarida Globedite, Editions universitaire Yeuropeennes, Académie Flaubert xalqaro nashriyotlarda monografiya, darslik, o‘quv-qo‘llanmalar shaklida dunyo yuzini ko‘rgan. Shu bilan birga, R.Bobokalonov fayzli xonadonning sardori sifatida olim farzandlarni ham yetishtirdi.

Ҳозирда R.Bobokalonov fransuz filologiyasi kafedrasida professori lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Muhtaram ustoz, talabchan pedagog, tashkilotchi rahbar, zahmatkash olim Bobokalonov Ramazon Rajabovichni jurnalimiz tahririyati nomidan muborak 65 yoshlik yubileylari bilan samimiy qutlaymiz. Ustozning chiroyli oila, shirin-shakar farzand-u nevaralar, iqtidorli shogirdlar, ilmga chanqoq talabalar, chin do‘stlar qurshovidagi umr karvonlari bardavom bo‘lsin, deymiz !

PROFESSORLIK UNVONI MUBORAK!



Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori **Astanova Gulnora Aminovna** 1969-yil 30-noyabrda Buxoro viloyati G‘ijduvon shahrida, ishchi oilasida tug‘ilgan, millati o‘zbek. Ixtisosligi sharqshunos-filolog, arab tili o‘qituvchisi.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha DK 067.70.02 raqamli Ixtisoslashgan kengash yig‘ilishida 10.01.11- Adabiy manbashunos va matnshunos ixtisosligi bo‘yicha “Ming bir kecha” asari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi” (davr, uslub, tarjima aniqligi muammolari) mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasini 2003-yil 18-dekabrda f.f.d., profesor N.Komilov rahbarligida muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2021-yil 15-noyabrda Samarqand davlat universiteti ixtisoslashgan ilmiy kengashda “Ming bir kecha” va o‘zbek adabiyoti (poetik, qiyosiy-tip ologik tahlil)” mavzusida 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosi bo‘yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

G.Astanova O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 28-avgustdagi 360/1-son qaroriga muvofiq professor unvoniga sazovor bo‘ldi.

Muhtaram ustozni navbatdagi ilmiy yutuq bilan qutlab, mustahkam sog‘lik va ilmiy-ijodiy parvozlarni tilaymiz!



Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori **Bekova Nazora Jo‘rayevna** 1969-yilda Peshku tumanida tug‘ilgan. 1992-yilda Buxoro davlat pedagogika institutining o‘zbek, tojik filologiyasi va chet tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2003-yilda nomzodlik ishini professor R.Vohidov rahbarligida himoya qilgan. U “Navoiy forsiy merosining janriy tarkibi va badiiyati” mavzusidagi doktorlik ishini 2021-yilda Samarqand ilmiy darajalar beruvchi kengashida professor H.Eshonqulov ilmiy maslahatchiligida himoya qildi. Olimning ilmiy tadqiqoti yo‘nalishida 200 dan ortiq maqola va tezislari, monografiya va o‘quv qo‘llanmalari e‘lon qilingan. Shu bilan birga, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiya federatsiyasida bo‘lib o‘tgan 20 dan ortiq xalqaro ilmiy anjumanlarda dolzarb mavzulardagi ma‘ruzalar bilaniatnashib keladi.

N.Bekova O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 28-avgustdagi 360/1-son qaroriga muvofiq professor unvoniga sazovor bo‘ldi.

Muhtaram ustozni mazkur ilmiy yutuq bilan qutlab, mustahkam sog‘lik va ilmiy-ijodiy parvozlarni tilaymiz!

FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedresi professori **Yuldasheva Dilorom Nigmatovna** 2024-yil 16-may kuni Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.7209 raqamli Ilmiy kengashda Abuzalova Mehriniso Kadirovna ilmiy maslahatchiligida “Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida)” mavzusidagi 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligidan filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 28-avgustdagi 360/1-son qaroriga asosan, filologiya fanlari doktori (DSc) darajasida tasdiqlandi.

Olimani va u kishining ilmiy maslahatchilarini ushbu muvaffaqiyat bilan muborakbod etamiz!



Jabbarova Malohat Hamdamovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor G‘ayrat Murodov ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligida filologiya fanlari bo‘yicha “Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviri” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil, 24-iyun) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 2-avgustdagi 359/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

Yosh olimani va ilmiy rahbarini bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz.



Karimova Shahnozaxon Karimovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor Dilrabo Quvvatova ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligida filologiya fanlari bo‘yicha “Zamonaviy ingliz va o‘zbek she‘riyatida poetik sintaksis masalasi” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil 24-iyun) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 28-avgustdagi 360/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

Iqtidorli olima va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz.



Xayrullayeva Kamola Ravshanovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor Dilrabo Quvvatova ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligida filologiya fanlari bo‘yicha “XX asr inglizabon va o‘zbek adabiyotida Bobur obrazi talqini” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil 06-iyul) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 28-avgustdagi 360/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi.

Iqtidorli olima va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz.

Sahifa filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent(v.b.) Nafosat O‘roqova tomonidan tayyorlandi.

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1.	Қосимов Олимчон Ҳабибович	Фарҳанги тафсирии устод Айнӣ ва рушди сарвати забони тоҷикӣ	6
2.	Saidova Rayhon Bekmurodovna	Sadriddin Ayniy tuzgan antologiyada Fitrat ijodiga oid mulohazalar	11
3.	Narziyeva Dilnoza Inoyatovna	Sadriddin Ayniy asarlarida mehmon obrazi va mehmonnavozlik tasviri	15
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
4.	M. Faruk Toprak	Ez-Zemahşerî'nin şiirlerinde Harezmi	20
5.	Fayzulloyev Otabek Muhamadovich	Ingliz va o'zbek folklorshunosligida bolalar folklorini o'rganish va nashr etish jarayonlari	28
6.	Keldiyorova Gulchexra Sайдиевна	Шарқ адабиётида комил инсон муаммоси	32
7.	O'roqova Nafosat Yoriyevna	Xalq lirik qo'shiqlarida floristik obrazlarning o'rni	37
8.	Chuliyeva Nilufar A'zam qizi	Zamonaviy she'riyatda badiiy zamon va makon poetikasi	42
9.	Keldiyorova Naima Nabijonovna	Azim Suyun she'riyatida mavzu va obraz munosabati	48
10.	Qodirova Nasima Saidburxonovna	Jahon adabiyotshunosligida munaqqid uslubiga doir nazariy qarashlar	53
11.	Axmedova Hafiza Hakimovna	Muhammad Yusufning lirik maktublariga Sergey Yesenin an'analari ta'siri	58
12.	Qudratova Muborak Shuhratovna	Hozirgi zamon o'zbek she'riyati taraqqiyotining asosiy tamoyillari	63

13. Berdiyeva Dilnavoz Orif qizi	Zamonaviy o'zbek shoirlari ijodida bag'ishlov va maktub-she'rlar	68
14. Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi	Navruz holiday views in Bukhara region	72
15. Norova Mekhri Bakhtiyorovna	Color symbols in modern Uzbek poetry	76
16. Teshayeva Gulnoza Jamshidovna	Adabiy parallel janri metodologiyasi xususida	81
17. Xudoyorova Nafisa Baxtiyor qizi	O'zbek ma'rifatparvarligi adabiyotining shakllanish omillari va o'ziga xos xususiyatlari	86
18. Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi	An'ana va vorisilikning Oydin Hojiyeva she'riyatidagi ifodasi	91
19. Mukhtorova Maftuna Ilkhom kizi	Islamic Perspectives on Joseph Conrad's "Heart of darkness" and Rudyard Kipling's "The white man's burden"	96

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

20. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Xalikova Mohigul Xalimdjanovna	O'zbek-turk tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi	100
21. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Asadova Shahlo Akmal qizi	Graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida	106
22. Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna	Nutqiy etiketning lingvistik tabiati	111
23. Kozieva Ikbol Komiljonovna	Роль и место ономастики в ряду других научных дисциплин	116
24. Babayarov Maxmud Xamitovich	O'zbek sport sharhlovchisi Axbor Imomxo'jayev nutqining lingvistik tahlili	122
RETRO	Беназир устозимиздан тухфа	126
QUTLOV		130
FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR		134